

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI IJTIMOIYg`IQTISODIY FAKUL`TETI

“ T a s d i q l a y m a n ”

O`quv ishlari prorektori

dots. SH. Achildiev _____

“ ____ ” _____ 2008 yil

Ijtimoiyg`iqtisodiy

fakul`tetni Ilmiy kengashida

“ ____ ” _____ 2008 yil

1g`sonli bayonnoma bilan

tasdiqlandi.

Fakul`tet dekani

_____ dots. O.A. Ro`ziev

IQTISODIYOT KAFEDRASI

**“O`ZBEKISTON MILLIY IqtISODIYOTI”
FANIDAN**

MA`RUZA MATNI

5340100g`Iqtisodiyot bakalavriat ta`lim yo`nalishi uchun

**«Iqtisodiyot» kafedrasining
27 avgust 2008 yil yig`ilishida
muhokama qilindi va o`quv
jarayoniga tavsiya etildi.**

(№1 bayonnoma)

“Iqtisodiyot” kafedra mudiri _____ i.f.n.

Avliyoqulov A.

Tuzuvchi:

o`q. Qurbonnazarov SH.

Termizg`2008

KIRISH

O`zbekiston Respublikasi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan, mustaqil taraqqiyot yo`liga asoslangan holda bozor iqtisodiyotiga to`la ishonch bilan o`tib bormoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, «Siyosiy mustaqillik rivojlangan, o`zaro mutanosib, to`laqonli iqtisodiyot bilan mustahkamlanmas ekan, u borg`yo`g`i quruq, balandparvoz gaplar, soxta obro` orttirish vositasiga aylanib qolaveradi». Mustaqillikning o`tgan yillari davomida milliy xo`jaligimiz iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, inqiroz holatidan chiqarildi va uning ko`pgina sohalarida barqaror o`sishga erishildi. Bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzimlari vujudga keltirildi, hozirgi kunda esa iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni har taraflama erkinlashtirish amalga oshirilmoqda. Eng muhimi, shu davr ichida milliy istiqlol g`oyasi va mafko`rasi shakllanib, kishilarimiz ongiga singib bormoqda.

qo`ygan dastlabki qadamlarimiz natijasida shakllanib kelayotgan milliy iqtisodimiz yangi asrda umumiy uyimiz – yangilanayotgan vatanimizning hayotiy asosini, uning kelgusidagi taraqqiyot manbaini tashkil etadi.

Bunday yangilanish jarayonida biz uchun ilgari uncha tanish bo`lmagan qonung`qoidalar, tushunchalar, xo`jalik roritish mexanizmlari, usullari, tamoyillari kirib kelmoqda. Mulkdorlar, tadbirkorlar, tijoratchilar, aktsionerlar, bankirlar, birja egalari va xodimlari, menejerlar, brokerlar va bozor iqtisodiyotining boshqa amaliyotchilaridan iborat yangi ijtimoiy guruh va qatlamalar shakllanmoqda.

«O`zbekiston milliy iqtisodiyoti» fani mamlakatimizda yashayotgan hamma fuqarolarning daromadlari, turmush darajasi iqtisodiyot rivojlanishi va uning taraqqiyoti bilan, ularning ijodiy mehnati natijasida milliy mahsulotning ko`payishi, bu mahsulot to`g`ri taqsimlanishi va undan maqsadga muvofiq foydalanilishi, shuningdek, milliy pul barqarorligi bilan bog`liqligini o`rgatadi hamda milliy istiqlol mafko`rasining fuqarolar ongida shakllanishida, ularning intellektual kamolotga erishuvida muhim ahamiyat kasb etadi.

1g`MAVZU. «O`ZBEKISTON MILLIY IqtISODIYOTI» FANINING MAZMUNI, MOHIYATI VA VAZIFALARI

1.1. «O`zbekiston milliy iqtisodiyoti fani va uning predmeti

Respublikamiz mustaqillikka erishganligiga va deyarli barcha xalqaro tashkilotlarning teng huquqli a`zosiga aylanganiga qisqa vaqt bo`ldi. Ammo shu vaqt ichida respublikamizning o`ziga xos xususiyatlarini qamrab olgan iqtisodiy siyosat shakllanib, istiqbolli yo`nalishlar belgilandi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida» kitobida bozor munosabatlarini normal rivojlantirish uchun zarur shartg`sharoitlar qayd qilib o`tilgan.

Endilikda milliy iqtisodiyotimizning turli yoʻnalishlari va tarkibiy qismlarini jahon bozori bilan qiyosiy oʻrganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston milliy iqtisodiyoti jami sohalar, uoshmalar, korxonalar, tashkilotlarning yigʻindisi boʻlib, ular yagona iqtisodiy tizimga, umumiy qonunlarga va rivojlanish maqsadlariga asoslangan holda oʻzaro birlashgan.

Oʻzbekiston Respublikasining xalq xoʻjaligi yaqin oʻtmishda umumittifoq xalq xoʻjaligi majmuasining tashkiliy qismiga kirardi. SHu bilan birga sobiq ittifoqdagi mehnat taqsimotida asosan xom ashyo etqazib beruvchi mavqeini egallardi.

Bunday sharoitlarda «milliy iqtisodiyot» tushunchasi haqida soʻz yoritish huquqiga ega emas edik. Endilikda Oʻzbekistonda siyosiy va davlat mustaqilligi kamol topishi bilan uning milliy iqtisodiyoti shakllana boshlayapti. Bu oʻrinda qayd etish joizki, milliy iqtisodiyot bozor iqtisodiyoti munosabatlarini oʻrganuvchi barcha aniq fanlar nazariyasiga, uslubiga tayanadi. Iqtisodiyotni samarali tartibga solish bilan uning shakllanishiga qulay iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy vaziyat yaratiladi. Jahondagi barcha rivojlangan mamlakatlarda milliy iqtisodiyotning oʻziga xos boshqarish modellari mavjud. Ularni yaratishda har bir mamlakat oʻzining barcha xususiyatlarini hisobga olgan. Albatta, oʻlarda har bir mamlakatning geografik joylashishi, iqtisodiy va tabiiy resurslari, iqlimi va qolaversa, demografik tuzilishi inobatga olingan. Bu oʻrinda koʻp tilga olinayotgan Janubiy Koreya, SHvetsiya, Turkiya modellarini misol qilib koʻrsatishimiz mumkin.

SHu bilan birga iqtisodiyotning umumiy nazariyasi mavjud. Uni chuqur bilmay turib, iqtisodiyotni rivojlantirib boʻlmaydi. SHuning uchun milliy iqtisodiyotda bozor sharoitiga mos infratuzilmaviy

takomillashuv, samarali bozor strukturasining shakllanib borish jarayoni bilan mos ravishda yangi bozor iqtisodiyoti institutlari yaratilib boriladi.

Istiqlol o'zbek xalqi uchun taraqqiyotning butunlay yangi, keng ufqlarini ochib berdi. Hozirimizda tarixan qisqa, mazmunan boy mustaqillik yillarida asrlarga tatigulik ulug' o'zgarishlarga asos solindi. Kuni kecha tasavvurimizga sig'magan hodisalar bugun oddiy voqeylikka aylanib bormoqda.

Mustaqilligimizning 11 yilligi munosabati bilan islohotlar natijalarini sarhisob qilish, natijalarimiz mazmunga mohiyatini chuqurroq o'ylab ko'rish, hali qilib ulgurmagan ishlarimizni ro'yobga chiqarish haqida fikr yoritish, tahlil qilish ham muhim, ham dolzarb.

Milliy model dunyo hamjamiyati tomonidan mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti asoslariga o'tish borasida olib borilayotgan islohotlar o'ziga xos «O'zbek modeli» nomi bilan atalmoqda. Yangi jamiyat qurishning bu modeli bugungi kunda xorijlik olimlar va siyosatchilarni qiziqtirmoqda. Hamdo'stlik davlatlari orasida rivojlangan eng maqbul, eng samarali yo'l deb tan olinmoqda. Bundan 5g'6 yil avval, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatiga shubha bilan qaragan siyosatchilar, iqtisodchi olimlar ham bugun bizning tajribamizni o'rganmoqdalar, ayrim jihatlarini o'zlarida tatbiq etmoqdalar.

O'tgan qisqa vaqt ichida O'zbekistonda iqtisodiyotning barcha ko'rsatkichlari bo'yicha Hamdo'stlik davlatlari orasida kam pasayishga erishildi. Ular orasida birinchi bo'lib, 1996 yildan boshlab asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha barqaror o'sish ta'minlanmoqda, ijtimoiy larzalarsiz chuqur tuzilmaviy o'zgarishlar amalga oshirilayapti.

Buning siri nimada? Buning siri avvalambor, milliy modelimizning o'ziga xosligi, unga bozor iqtisodiyotning ma'lum bir turi yoki muayyan bir davlat yo'li to'g'ridang'to'g'ri ko'chirib olinmaganligida, o'z

taraqqiyot yo`limizni tanlashda mamlakatimizning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va salohiyatidan, xalqimizning tarixi, milliy urfg`odatlar, diniy e`tiqodidan kelib chiqilganidadir.

Bizdagi islohotlar jarayoni bilan yaqindan tanishib chiqqan finlandiyalik iqtisodchi olim YArmo Eronen shunday deydi:

«Sobiq ittifoq respublikalari ichida bizni ko`proq O`zbekiston tajribasi qiziqtiradi. CHunki qisqa vaqt ichida «O`zbek modeli» o`zini oqladi. Birinchi bo`lib sizlarda o`sish boshlandi. Sizlarga qo`shni davlatlarda bo`lganimda, ularning ayniqsa, qishloq xo`jaligi ishlab chiqarish butunlay izdan chiqqanini ko`rdim. Ekin maydonlari 50 foizga kamayib ketibdi. Hosildorlik esa undan ham ko`proqqa tushib ketgan. CHorvachilikda tuyoq soni keskin kamaygan. O`zbekistonda esa umuman boshqa manzara. qishloq xo`jaligi o`tish davrining eng og`ir yillarida ham bir maromda rivojlandi. Bu esa tanlangan yo`lning to`g`ri ekanligidan dalolat beradi.»

SHuningdek, mamlakatimizning geografik joylashuvi nuqtai nazaridan kelib chiqqanda uing dengiz arteriyasidan uzoqda joylashganligi iqtisodiy savdo aloqalarida ma`lum noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Lekin, bu degani bizning aloqalarimiz samarasi pasayib boradi, degani emas. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu aloqalarni rivojlantirishning boshqa yo`llarini izlab topish talab etiladi. CHunonchi, havo va avtomobil` yo`llari transportini rivojlantirish shular jumlasidandir.

Bu yashirin imkoniyatlar milliy mustaqillikka erishilgandan so`ng ancha kengaydi. Milliy iqtisodiyotimizning ichki yalpi mahsulot hajmida eksport miqdori o`sib bormoqda. Eksport qilinadigan tovarlar jumlasiga neft` mahsulorlari, uran, oltin qo`shildi. Paxta tolasini eksport qilish oxirgi yillar ichida 49,2 foizdan 38,6 foizgacha pasaydi. Mevag`sabzavot va poliz mahsulotlari hamda ularning qayta ishlangan mahsulotlarini

eksportga chiqarish hajmi ancha ortdi. Neft` va benzinni import qilish batamom to`xtadi. Ishlab chiqarish vositalari va ehtiyot qismlari importi 15,3 foizdan 47,2 foizgacha o`sdi va 2002 yilda eksport importdan ko`p bo`ldi.

Albatta bosib o`tilgan yo`lda muammolarga ham duch kelinmoqda. Lekin, eng muhimi, islohotlarning umumiy strategiyasida sobit to`rgan holda taktikamizga yo`lg`yo`lakay tuzatishlar kiritib boryapmiz. Mamlakatimizda ijtimoiyg`iqtisodiy rivojlanishga muayyan chorakda, har yili chuqur tahlil orqali baho berib kelinmoqda. Nuqsonlarni o`z vaqtida bartaraf qilish choralari ko`rilmoqda, zarur hollarda esa davlat dasturi qabul qilinmoqda.

Ayniqsa, ba`zi bir davlatlardagidek parlament safsatabozliklariga yo`l qo`yilmay, o`z vaqtida qonunlar qabul qilish, zarur bo`lganda zudlik bilan tuzatishlar kiritish, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari qabul qilish orqali islohotlarning huquqiy asoslari takomillashtirib borilishi ixtiyorlarmiz asosi bo`lmoqda.

Darhaqiqat, sanoat tarmoqlari tarkibini statistik raqamlar orqali tahlil qiladigan bo`lsak, istiqlol yillarida o`zgarishlar qanchalik ulug`vorligi yaqqol namoyon bo`ladi. Ayniqsa, uni sobiq ittifoq davridagi sanoat tuzilmasi bilan solishtirganda, qisqa vaqt ichida strukturaviy siyosatning amaliy natijalari, bunyodkorlik ishlarining salobati ko`z oldimizda yorqinroq gavdalanadi.

Eski sanoat tuzimida engil sanoatning, aniqrog`i, paxta tozalash sanoatining mavqei juda ixtiyori edi. Aksariyat mintaqalar sanoatida uning salmog`i 70g`80 foizni tashkil qilgan bo`lsada, katta xom ashyo resurslariga ega bo`lgan hududlarda yakuniy tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish yo`lga qo`yilmagan edi. Bizdagi og`ir sanoat korxonalarining hammasi sobiq markazga bo`ysuganligi, ularning aksariyatida mahalliy xom ashyo, aholi talab va ehtiyojlariga aloqasi yo`q mahsulotlar

chiqarilishi, texnologik jihatdan bizning hududda boshqa sanoat korxonalari bilan bog'liq bo'lmagan.

Ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti tarkibida xalq iste'moli mollarinin ulushi atigi 37,1 foizni tashkil etganligi bois o'zimizga kerakli iste'mol tovarlarining aksariyat qismi chetdan keltirilar edi.

Bunday og'ir vaziyatda sanoatni qaytadan tiklash bo'yicha zarur chorag'tadbirlar ko'rilmaganida, bizda ishlab chiqarish keskin tushib ketishi, sanoatda band aholining 300g`400 ming nafari ishsiz qolishi mumkin edi.

Iqtisodiy mustaqillikka erishish uchun islohotlarning dastlabki bosqichidanoq yoqilg`ig`enegetika majmuasining yuqori sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlash, neft` va gaz ishlab chiqarish hajmlarini oshirib borish hisobiga mamlakatimizda energetika mustaqilligiga erishish vazifasi qo'yildi.

CHunki, O'zbekiston hududida neft` sanoatiga asos solinganiga qaramasdan, biz neft` mahsulotlariga bo'lgan talabimizni ta'minlay olmay kelardik. 80g` yillarda respublikamizga har yili chetdan 6 million tonna atrofida neft` mahsulotlari tashib kelingan. Mustaqilligimizning dastlabki yillarida valuta tushumimizning asosiy manbai hisoblangan paxta tolasining 600ming tonnasini Rossiyaga yoqilg`i mahsulotlariga ayirboshlashga majbur edik.

Mamlakatimiz, xalqimiz taqdirini o'zimiz hal qilish huquqini olganimizdan keyingi 4g`5 yil ichida yoz yillar davomida ro'yobga chiqmagan orzularimiz amalga oshadi. 1999 yilda 1991 yildagiga nisbatan neft` qazib olish hajmi 3,7 barobar ko'paydi. Xom ashyodan tayyor yoqilg`i mahsulotlari ishlab chiqaradigan Buxoro neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirildi, natijada biz nafaqat mamlakatimiz neft` mustaqilligini ta'minlab qolmasdan, balki xorijga yoqilg`i mahsulotlarini

sota boshladik. 2002 yilda eksport qilingan mahsulotlarning 7,9 foizini yoqilg'i va elektr energiya tashkil qildi.

O'zbekiston sanoatida mashinasozlik va metallni qayta ishlash tarmog'ining mavqei kun sayin ortib bormoqda, ayniqsa, uning tizimida avtomobilsozlikning tashkil topishi jiddiy tuzilmaviy o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keldi. Bu sanoatda barqaror o'sishni ta'minlashning muhim omili bo'lmoqda.

Istiqlolgacha oddiy velosiped ishlab chiqarilmagan O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi, dunyoda 28g' bo'lib avtomobil` ishlab chiqaradigan mamlakatga aylandi.

Hozirgi kun yangi tarmoq tizimida yillik quvvati 200ming engil avtomobil` ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan «O`zDEUavto», avtobus va yuk mashinalari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan «SamKo`chavto» qo'shma korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularga butlovchi qismlar ishlab chiqaruvchi o'ndan ortiq yangi korxonalar tashkil qilindi. Mamlakatimizda 40 dan ortiq korxonalar ular bilan hamkorlikda ishlamoqda, avtomobilsozlik sanoatida hozir 14 mingga yaqin ishchi va xizmatchi mehnat qilmoqda.

Ustuvor yo`nalish sifatida O'zbekiston sobiq ittifoqdagi respublikalaridan farqli o'laroq, ichki bozorni xorijdan sotib olingan boshqa mollar bilan to'ldirish emas, balki o'zimizda importning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish yo'lidan borayapti. Hamdo'stlikdagi qator mamlakatlar valyuta zahirolari va chet el kreditlarini oziqg'ovqat mahsulotlarini sotib olishga sarflayotgan bo'lsa, bizda keng iste'mol mollari ishlab chiqaradigan zamonaviy texnologiyalarni olib kelish, qo'shma korxonalar tashkil qilish ustuvor vazifa deb belgilangan.

Iste'mol mollarining eng zarur turlarini o'zimizda ishlab chiqarish nafaqat valyuta resurslarimizni tiklash, davlatimiz iqtisodiy xavfsizligini

ta'minlash, balki mahsulot tannarxi tushirilishi orqali aholini ijtimoiy muhofaza qilish imkonini ham berdi. «O'zbek modeli»ning o'ziga xos tomoni aynan shunda namoyon bo'ldi.

Struktura siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni o'zimizda ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Natijada faqat oxirgi ikki yilda oziqg'ovqat mahsulotlari va xalq iste'moli mollarini import qilish 2 barobar, jumladan, qandolat mahsulotlari 2 martaga, un va un mahsulotlari 5 hissa, alkogolli va alkogolsiz ichimliklar 17 martaga, kiyimg' kechaklar 7 barobar, poyabzal 4 martaga kamaydi.

Bu o'zgarishlar mamlakat iqtisodiyoti uchun ustuvor hisoblangan boy tabiiy, qishloq xo'jaligi, mehnat resurslaridan samarali foydalanish hisobiga amalga oshirilmoqda. Korxonalarni, ayniqsa, kichik va o'rta korxonalarni zamonaviy hamda ixcham texnologiya, eng yangi asbobg'uskunalar bilan jihozlashga alohida e'tibor berilayapti.

Aholi zich joylashgan, qishloq xo'jaligi xom ashyosiga boy hududlarda tayyor sanoat mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalar tashkil qilishga alohida e'tibor berilmoqda. Etmish yilda oddiy bir tsex qurilmagan uzoq, chekka qishloqlarimizda ham mahalliy xom ashyo resurslaridan tayyor iste'mol mollari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan zamonaviy qo'shma korxonalar barpo etila boshlandi.

Masalan, yangi qurilgan «Anteks» hissadorlik jamiyatiga qarashli 4 ta korxona aholi zich yashayotgan qishloqlarda qurildi. Yirik to'qimachilik majmuasini bunyod qilish uchun bir yarim milliard so'm sarmoya sarflandi. Faqatgina xorijdan zamonaviy asbobg'uskunalar sotib olish uchun 26 million AqSH dollari ishlatildi.

Korxona ishga tushgandan keyin 3 ming nafardan ortiq qishloq aholisi ish bilan ta'minlandi. Andijon viloyatida tayrlanayotgan paxta

tolasining anchagina qismini shu joyning o'zida qayta ishlash imkoni yaratildi.

Ushbu majmua tarkibiga kirgan tikuv fabrikasi Buloqboshi qishlog'ida ishga tushirildi. Germaniya, Italiya va AqSHda ishlab chiqarilgan zamonaviy dastgohlar o'rnatilgan mazkur texnika to'liq komp'yuter dasturi asosida ishlaydi. Yiliga 3 million dona ko'ylak, shim, erkaklar kost'umi ishlab chiqarayotgan korxonaning salkam 70 foiz mahsuloti chetga sotilmoqda.

«O'zbekiston milliy iqtisodiyoti» fanining predmetiga hqorida qisqacha izoh berilgan. U xalq xo'jaligini yagona tizim sifatida o'rganadi. Xalq xo'jaligi har bir tarmog'ining rivojlanishi, tartibga solinishi va ularning o'zaro aloqasini o'rganish ana shular jumlasiga kiradi.

«O'zbekiston milliy iqtisodiyoti» fanining vazifalaridan yana birig` mamlakat iqtisodiyoti tarkibiga kiruvchi tarmoqlar, sohalar va majmualarning o'ziga xos xususiyatini va o'zaro aloqasini o'rnatishdan iborat.

1.2.Milliy iqtisodiyot jarayonlari ob`ektlarini iqtisodiy baholashda makroyondashuv

Milliy iqtisodiyotda ro`y berayotgan jarayonlarni baholashda, albatta, makroiqtisodiy tomondan yondashiladi. Demakki, butun mamlakat miqyosida ro`y berayotgan o`zgarishlar kuzatiladi va tahlil qilinadi.

Bozor iqtisodiyotiga o`tish sharoitida oldimizda to`rgan eng muhim vazifalardan biri iqtisodiyotda jami ishlab chiqarish natijalarini hisoblab borishdir. Buning uchun milliy hisobg`kitoblar tuzish borasida kerak bo`ladigan ba`zi muammolarni hal qilish lozim. Bir butun iqtisodiyot uchun ham ijtimoiy hisobg`kitoblarning zaruriyati ana shunga misol bo`la oladi.

Milliy iqtisodiyot jarayonlarini baholashga makroiqtisodiy yondashuv uni barqarorlashtirish, milliy valyutamizni mustahkamlash, kapital qurish dasturi, iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan yangilanish yo`lini davom ettirish rejasini yangilash, qonunchilik yoki huquqiy tartibni mustahkamlashdan iboratdir.

Respublikamizda iqtisodiyotning asosini tashkil etuvchi ishlab chiqarish sohasiga alohida e`tibor berilmoqda. Ushbu sohaning eng asosiy tarmog`i sanoatning an`anaviy rivojlangan turlari qishloq xo`jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati kabilar bilan bir qatorda mutlaqo yangi sanoat sohalarini tashkil etish zarur. O`zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri qishloq xo`jaligi hisoblanadi. Uning asosiy bo`g`ini bo`lgan paxtachilik eng rentabellidir. SHu sababdan, paxtachilikni rivojlantirish, uning tarmoq infrastuzilmasida qulay, mos hajmini, salmog`ini aniqlash, shuningdek, tola sifatini tubdan yaxshilab, dunyo standarti darajasiga keltirish eng dolzarb muammodir.

Davlatimiz nisbatan katta hududga ega va uning geografik o`rni ham alohida xususiyatlarga molik. Bu holat qurilish va transportni ham jadal sur`atlar bilan rivojlantirish vazifasini qo`yadi. YAlpi ishlab chiqarish maydonlarini, uyg`joy, madaniyg`maishiy muassasalar, ta`lim va sog`liqni saqlash sohalarining mustaqil moddiyg`texnik poydevorini yaratish qurilish sohasining mazmunini tashkil etadi.

1.3. Iqtisodiy fanlar orasida «O`zbekiston milliy iqtisodiyoti» kursining o`rni

Iqtisodiy fanlar orasida «O`zbekiston milliy iqtisodiyoti» kursining o`rni beqiyos salmoqlidir. Barcha iqtisodiy fanlar iqtisodiyotning turli jabhalarini o`rganishsa, «O`zbekiston milliy iqtisodiyoti» xalq xo`jaligini yagona bir tizim sifatida yoritadi. Milliy iqtisodiyotdagi jarayonlarni o`rganish, ularni tahlil qilish, kelgusidagi rivojlanishini takomillashgan yo`llarini ko`rsatish va iqtisodiyotni tartibga solishni bevosita shu kurs o`rganadi. Nainki bu, balki yalpi milliy mahsulot, yalpi ichki mahsulot, sof milliy mahsulot, milliy daromad va shaxsiy daromad kabi ko`rsatkichlar tahlili asosida mamlakat iqtisodiyoti xususida ham aynan u fikr yoritadi. «O`zbekiston milliy iqtisodiyoti» fani mamlakatdagi mehnat bozorini o`rganadi. Siyosat borasida u monitar va fiskal siyosatlarining mohiyatini, shu bilan bir qatorda davlat b`udjeti kamomadini bartaraf etish yo`llarini ko`rsatadi.

Iqtisodiyotni tartibga solishda soliqlar tizimi orqali tartibga solishni ko`rsatib, tadbirkorlik faoliyatining ahamiyatini ochib beradi.

Xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish jarayoni milliy iqtisodiyotda qanday o`zgarishlarga olib kelganligini raqamlar asosida izohlaydi.

Bozor iqtisodiyotiga o`tish sharoitida milliy iqtisodiyotga muvofiqlashgan quyidagi vazifalarni yoritish ko`zda tutilgan: milliy

iqtisodiyotning boshqaruv tizimi, iqtisodiyot rivojlanishining makroko`rsatkichlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlarini tartibga solish, pul va kredit tizimi, mehnat bozori va uni tartibga solish muammolari, atrof g`muhitni muhofaza qilish.

Bundan tashqari milliy iqtisodiyotning asosiy muammolaridan biri milliy iqtisodiyot hajmi va o`sinh sur`atlarini hisoblash ham hisoblanadi. Tarkibiy tuzilishini nazarda tutganda, albatta, YAMM, YAIM, SMM, MD kabi makroiqtisodiy holatni xarakterlovchi ishsizlik darajasi, inflyatsiya darajasi va iste`mol baholari indeksi kabi ko`rsatkichlardan foydalaniladi. Iste`mol baholari indeksi, odatda, iste`mol qilinadigan tovar va xizmatlar narxi bazis davriga nisbatan o`zgarishining o`rtacha darajasini aks ettirishdir.

2g`MAVZU. MILLIY IqTISODIYOTNING MOHIYATI VA O`LCHOV XUSUSIYATLARI

2.1. Milliy iqtisodiyot tushunchasi

Har bir mamlakat iqtisodiyoti o`ziga xos milliy, diniy, siyosiy xususiyatlarga ega. U shu mamlakat ichida milliy hamjamiyatlar, ya`ni ijtimoiy guruhlar va kishilar hamjamiyatlari iqtisodiy aloqalarini tashkil qilishning o`zaro ichki aloqalar bilan bog`liq va integratsiyalashgan shakli sifatida namoyon bo`ladi.

Bu milliy iqtisodiyotning ta`rifidir. Endi millat o`zi nima ekanligiga to`xtalamiz.

Millat ikki ma`noda tushuniladi:

- kishilarning tarixiy tarkib topgan shakli;
- mamlakat, davlat.

«Iqtisodiy ta`limotlar tarixi» fani millat tushunchasiga yondashuv doimo o`zgarib turishini ta`kidlaydi. David Rikardo millatning tabiiy

omillarriga unumdorligi notyokis bo'lgan tuproqqa ega jo'g'rofiy makon sifatida qaraydi. U bu omillar iqtisodiy faoliyat xarakterini belgilab beradi (Portugaliya vino, Buyuk Britaniya esa gazlama ishlab chiqaradi) deb hisoblagan.

Stuort esa millat, bu hudud, ayni paytda shunday hududki, uning ichkarisida ishlab chiqarish omillari harakatchan va bu harakatchan davlat chegaralari bilan cheklangan, deb bilgan.

R.Bar iqtisodiy jihatdan millat tushunchasini yanada murakkabroq ta'riflaydi, ya'ni millatning iqtisodiy kontseptsiyasini beradi. Uning fikrcha:

a) avvalo millat – bu, o'z tabiatiga, kelib chiqishiga, xarakteriga va faoliyat sharoitlariga ko'ra, farqlanuvchi faoliyat markazi;

b) millat – bu, kuchlar markazidir. Uning ta'siri geografik va qiyosiy makon doirasidan kelib chiqadi;

v) millat g' iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sabablarga ko'ra, imtiyoz beruvchi birdamlik markazidir.

SHunday qilib, millat dunyoning undan boshqa millatlarni farq qildiruvchi va ular bilan o'zaro aloqada bo'lish zaruriyatini tug'diruvchi siyosiy va ma'naviy xarakterga, o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan bir bo'lagidir.

Ayni paytda millat tushunchasiga uning iqtisodiy atamasi izohini berib o'tish ham zarur:

1.Iqtisodiy munosabatlar yig'indisi;

2.Hudud, guruhlar;

3.Iqtisodiy munosabatlarning funktsional yoki tarmoq jihatlarini o'rganuvchi fan sohasi.

SHunday qilib, milliy iqtisodiyot – bu, mamlakat xo'jaligi, uning tarkibi (strukturasi) alohida elementlarining o'zaro aloqasidir. Milliy iqtisodiyot bir mamlakatdagi individlar, oilalar, guruhlar va davlatning

iqtisodiy faoliyati ma'lum integratsiya va o'zaro bog'liqligi bilan xarakterlanadi. SHu sababli milliy iqtisodiyotni faoliyatning turli qaror va faktlari oddiy yig'indisi, deb tushunmaslik lozim. Iqtisodiyotning vazifasi turli iqtisodiy sub'ektlar faoliyatini birlashtirib turuvchi aloqalarni ko'rsatib berishdan iborat.

Mamlakat milliy hamjamiyat sifatida oliy hokimiyatga ega va bu hokimiyatga iqtisodiy faoliyatning barcha sub'ektlari bo'ysunadi. Mamlakat – bu, ma'naviy printsiptir. Uning aholisi jamiyatda ro'y berayotgan barcha hodisa va jarayonlarga javob berish xususiyatiga ega.

Mamlakatning iqtisodiy birligini uning valyutasi belgilaydi. Har bir mamlakatning rivojlanishi uchun, bu erda unga potentsial shartg'sharoitlar yaratiladi.

2.2. Milliy iqtisodiyotning amal qilishini ta'minlovchi omillar

Milliy iqtisodiyotga jahon iqtisodiyoti tizimining bir qismi sifatida qaraladi. O'z navbatida, milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari nafaqat ichki omillari, balki tashqi omillari bilan ham belgilanadi.

SHu tufayli milliy iqtisodiyotning amal qilishini ta'minlovchi omillar ikki guruhga g' tashqi va ichki omillariga ajratiladi. Ammo bu omillar o'zaro bog'liq ekanligini unutmaslik kerak.

Tashqi omillar umumlashtirilgan holda quyidagi guruhlarga ajratiladi:

- iqtisodiy;
- siyosiy;
- demografik;
- madaniy.

Tashqi iqtisodiy omillarga:

- xalqaro mehnat taqsimoti;

- u yoki bu davlat jahon bozorida dominantlik qilishi kiradi.

Tashqi siyosiy omillar turli shakllarda namoyon bo`ladi:

- embargo e`lon qilish;
- mamlakatning turli savdo ittifoqlariga qabul qilinishi;
- qulay rejimlilik;
- harbiy bloklarga kirish;
- urush holati.

Tashqi demografik omillarga u yoki bu mamlakatda a) ishsizlik xavfini keltirib chiqaruvchi ishchi kuchi migratsiyasi oqimining o`zgarishi yoki aksincha; b) to`lov balansi strukturasini yaxshilash misol bo`la oladi.

Ichki omillarga quyidagilar kiradi:

- milliy iqtisodiy faoliyat agentlari, ya`ni alohida shaxslar, guruhlar va davlat;
- bu faoliyatni tashkil etish shakllari;
- mamlakat miqyosida va doirasida iqtisodiy faoliyatni tahlil qilish imkonini beruvchi omillar.

Iqtisodiy rivojlanish darajasini o`lchovchi makroiqtisodiy ko`rsatkichlar majmuasi va ularning tavsifi quyidagicha:

Milliy iqtisodiyotda mamlakat rivojini tavsiflovchi asosiy makroiqtisodiy ko`rsatkichlar toifasiga YAMM, SMM, MD, SHD va SHID kiradi.

YAMM g` xalq xo`jaligining moddiy hamda noishlab chiqarish sohalari bo`yicha iqtisodiy faoliyatning yakuniy natijalarini tavsiflovchi ko`rsatkichdir. Bu ko`rsatkich mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulot va ko`rsatilgan xizmatlarning hajmini to`g`ri va aniq ko`rsatib beradi.

YAlpi milliy mahsulot mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko`rsatilgan xizmatlarning bozor qiymatidir.

YAMM da faqat yakuniy ne`matlar hisobga olinadi, oraliq mahsulotlar va xizmatlar esa e`tiborga olinmaydi.

YAMM ikki usul bilan:

1. xarajatlar usulida;
2. daromadlar usulida hisoblanadi.

YAMMni xarajatlar va daromadlar usuli bo'yicha hisoblanganda bir xil natija chiqadi, chunki iste'molchi mahsulotni sotib olish uchun qancha mablag` sarflasa, ishlab chiqaruvchiga daromad sifatida shuncha pul tushadi.

1g`usul bo'yicha YAMMni hisoblash:

$$Y = C + I + G + X_n$$

Bunda: Yg`tovarlarni sotib olish uchun ketgan xarajatlar;

Sg` shaxsiy iste'mol xarajatlari;

Ig`biznesning investitsiya xarajatlari;

Gg`tovar va xizmatlarni davlat tomonidan sotib olinishi;

X_ng`sof eksport. (eksportg`import)

2g`usul bo'yicha hisoblash.

$$Y = CCA + W + I_t + R + I_k + P$$

Bunda: SSAg`iste'mol qilingan kapital hajmi;

Wg`yollanma ishchilarning ish haqi;

I_tg`biznesga bevosita soliqlar;

Rg`ijara to'lovi;

I_kg`% stavkasig`xususiy biznes bo'yicha, bundan davlat mustasno;

Rg`rejalashtirilayotgang`korporatsiyalar daromadi; Bu erda korporatsiyalar daromadi 2 ga bo'linib qo'shiladi, ya'ni R₁g`korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi va R<sub>2</sub>g`korporatsiyalar foydasiga soliq, bunda R_qR₁qR₂

SHaxsiy iste'mol xarajatlari uy xo'jaliklarining uzoq muddat davomida foydalanadigan iste'mol buyumlari xarajatlari kiradi;

Tovar va xizmatlarning davlat tomonidan sotib olinishiga davlat xarajatlari inobatga olinadi bjudet tashkilotlariga oylik maoshlarni berish, armiyani boqish, mudofaani mustahkamlash va boshqalar kiradi.

Transfertlar bundan mustasno.

Investitsiyalar g` stanoklar, asbobg`uskunalar sotib olish, binog`inshootlar qurish bilan bog`liq xarajatlar;

Umumiy investitsiyalar ichki sof xususiy investitsiya va amortizatsiya yig`indisidan iborat, ya`ni:

$I_{un} = qI_{ichki.sof.xus.} + qAmortizatsiya$

Sof milliy mahsulot YAMMdan amortizatsiya xarajatlarini ayirib tashlash bilan aniqlanadi:

$SMMqYAMM$ – amortizatsiya;

$MD q SMM$ – bevosita soliqlar.

$SHDqMDg`korporatsiyalar$  taqsimlanmagan foydasi g` sug`urta ajratmalari $korporatsiyalar$ daromadidan soliqlarqtransfertlarqdividendlar;

$SHIDqSHD$ g` soliq turlari (individual).

$YAMM deflyatori = \frac{НоминалYAMM}{РеалYAMM} \cdot 100 \%$

Nominal YAMM g` joriy yil baholarida o`lchanadi.

Real YAMM g` bazis yil baholarida o`lchanadi.

Sof eksport esa eksport va importning ayirmasi bo`lib, u goh musbat, goh manfiy sal`do bilan bo`lishi mumkin.

Renta to`lovlari uy xo`jaliklari tomonidan olinadigan daromaddan iborat bo`lib, ular iqtisodiyotni shaxsiy resurslar bilan ta`minlaydi.

Biznesga bevosita soliqlarga aktsiz solig`i, qimmatli buromlar solig`i va shunga o`xshash soliq turlari kiradi.

Korporatsiyalar daromadiga soliq va korporatsiyalar foydasiga, yana korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasiga (investitsiyaga mo`ljallangan qismi) kiradi.

YAlpi milliy mahsulotning ikki usul bo'yicha hisoblanishi yopiq emas, balki ochiq iqtisodiyot uchun ham xarakterlidir. YOpiq iqtisodiyot deganda, eksport va import xarajatlari, ya'ni sof eksport inobatga olinmaydi (UqSqIqG). Ochiq iqtisodiyotda esa, albatta, eksport va import, chet mamlakatlar bilan aloqa inobatga olinadi (UqSqIqGqX_n).

3g`MAVZU. MILLIY BOYLIK – DAVLATNING qUDRATINI BELGILOVCHI KO`RSATKICH

3.1.Mamlakat milliy boyligi tushunchasi

Milliy boylik – jamiyat ixtiyoridagi mehnat bilan yaratilgan va jamg`arilgan moddiy ne`matlar mujassami. Bu ko`rsatkich mamlakat iqtisodiy qudratining eng muhim ko`rsatkichlaridan biri bo`lib, ishlab chiqarish davomida jamg`arilgan barcha iste`mol qiymati yig`indisining pul bilan ifodalanishidir.

Milliy boylik xalq moddiy va ma`naviy darajasining negizi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning moddiy asosi va natijasidir.

Respublikamizda milliy boylik og`ir sanoat, shuningdek, engil va oziqq`ovqat sanoati, paxta, ipakchilik, qorako`lchilik, mevachilik, uzum etishtirish, sabzavotchilik bilan bog`liqdir. Jahon bozorida mehnat taqsimotida paxta tolasi, ipak, kanop poyasi, qorako`l, paxta terish

mashinalari ishlab chiqarish bo'yicha salmoqli o'rinni egallab kelmoqdamiz.

Ijtimoiy tuzum xususiyatiga binoan milliy boylik butun jamiyat mulki yoki uning ayrim sinflari, guruhlari, ayrim shaxslar mulki bo'lishi mumkin. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda milliy boylikning asosiy qismi xususiy sektorda millionerlar qo'lida yig'ilgan. Masalan, AqSHda bir guruh eng yirik moliyag'sanoat guruhlari mamlakatning iqtisodiy va siyosiy hayotida etakchi rol o'ynaydi, chunki ularning qo'lida milliy boylikning asosiy qismi yig'ilgan. Bulardan eng baquvvatlari Morgan va Rokfellar guruhlaridir. Ulardan so'ng Kaliforniya, CHikago, Kliviend, Dyo'pon, Mellerlar korporatsiyalari turadi. Oxirgi yillarda iqtisodiyotning o'sish sur'ati bo'yicha rivojlanganmamlakatlar orasida eng yuqori ko'rsatkichga ega Yaponiyada davlat sektori an'anaviy tarmoqlar (transport, aloqa, tamaki sanoati) bilan cheklangan. Davlatga qarashli korxonalarda ish bilan band aholining 12%i ishlaydi, ya'ni milliy boylikning asosiy qismi xususiy sektorga to'g'ri keladi. Sotsialistik davlatlarda milliy boylik xalq manfaatlariga xizmat qilib, jamiyat a'zolarining tobora oshib borayotgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirishga mo'ljallangan edi.

Biroq yagona davlat rejasi asosida rivojlanish respublikalar va regionlarda milliy boylik xalq uchun emas, balki umumittifoq mehnat taqsimotini hisobga olib o'tkazildi, oqibatda ayrim respublikalar xom ashyo zonalariga aylanib qoldi. O'zbekistonda milliy boylik asosig'neft, ko'mir, mis va boshqa tabiiy boyliklar topildi. Mavjud mehnat va moddiy texnika resurslaridan yuqori darajada foydalanib, paxtachilikni yanada rivojlantirish, sanoat ishlab chiqarishini, ayniqsa og'ir sanoat tarmoqlarini tez sur'atlar bilan taraqqiy ettirish, yangi korxonalar qurish, mavjudlarini rekonstruktsiya qilishga alohida ahamiyat berildi.

Respublikamizda xalq xo'jaligi tarmoqlarida yaratilgan yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromad oshdi. Masalan, 1990 yili bu daromad 1970 yildagiga nisbatan 3 barobar oshdi va 21,2 milliard so'mni tashkil qildi. SHu jumladan, sanoatda 7,1, qishloq xo'jaligida 7,5, qurilish bo'yicha 3,0, transport va aloqada 1,1, savdo, tayyorlov, moddiyg'texnika ta'minoti va boshqalar bo'yicha 2,5 milliard so'm bo'ldi. SHunga qaramasdan, sobiq SSSRda O'zbekistonning milliy boyligi atigi 3,5%ni tashkil qilgan. IOqorida keltirilgan raqamlardan 70 yildan oshiq hukm so'rgan totalitar tuzimning og'ir oqibatlarini ko'rish mumkin. Sobiq Ittifoqning 7% aholisi yashagan respublikada jami mahsulot ishlab chiqarish atigi 4, sanoat ishlab chiqarishi 1,1%ni tashkil qilgan. Hozirgi kunda respublikada milliy daromad og'ir sanoat, shuningdek, engil va oziqg'ovqat sanoati, paxta, ipakchilik, qorako'lchilik, mevachilik, uzum etishtirish, sabzavotchilik bilan bog'liq. Ular Hamdo'stlik davlatlari orasida ahamiyatlidir. Mamlakatimiz jahon bozorida mehnat taqsimotida paxta tolasi, ipak, kanop poyasi, qorako'l, paxta terish mashinalari, paxta tozalash jihozlari, xomg'ip tayyorlaydigan mashinalar ishlab chiqarish bo'yicha 1g'o'rinda, elektrokranlar, ip, gazlama, sholi, sabzavot etishtirish bo'yicha 3g'o'rinda, tabiiy gaz qazib chiqarish bo'yicha 4g'o'rinda turadi.

Milliy boylikning ahamiyati va salmog'ini respublikada bir kunda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bilan ham ta'riflash mumkin. Masalan, O'zbekistonda bir kunda hozir 150 mln.kvt. elektroenergiya, 113 mln.m³ tabiiy gaz, 17 ming tonna ko'mir, 2.5 ming tonna prokat, 3 ming tonna po'lat, 65 traktor, 17 ming tonna tsement, 1679 ming m² ip gazlama, 121.4 ming juft poyabzal, 52 muzlatkich, 200 dona avtomobil` ishlab chiqariladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda milliy boylik O'zbekiston tanlab olgan yo'l – respublika va uning xalqi manfaatlariga nihoyatda mos keladigan,

ijtimoiy jihatdan yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan manbadir.

3.2. Milliy boylik tarkibi

Milliy boylikka xalq xo`jaligining asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlari (bino, inshoot, mashina, asbobg`uskunalar, transport vositalari, ishchi va mahsuldor hayvonlar, materiallar, yoqilg`i va hokazo), muomila fondi (tayyor mahsulot zahiralar), ehtiyoj fondlari va sug`urta zahiralar, xalqqa xizmat qiluvchi tarmoqlarning asosiy fondlari (maktab va shifoxonalar, uyg`joy, madaniyat saroylari), aholining shaxsiy molg`mulklari, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilingan tabiiy boyliklar (er osti qazilmalari, tabiiy ekin maydonlari, qo`riq va bo`z erlar, o`rmon va suvlar), shuningdek, ishchi va xizmatchilarning ishlab chiqarish tajribasi, ilmiyg`texnika va tadbirkorlik bo`yicha bilimlari ham kiradi. Milliy boylik tarkibida aholdagi xizmat muddati bir yildan oshgan, uzoq vaqt foydalaniladigan predmetlar (uyg`ro`zg`or bisoti) alohida guruhni tashkil qiladi. Bular individual transport vositalari va ularga kerakli ashyolar, mebel`, idishlar, maishiy priborlar, foto va kinotexnika, soatlar, zargarlik buyumlari, madaniy mollar, kiyimg`kechak va poyabzal, ishlab chiqarish kiyimlari va shu kabilardir.

Milliy boylik tarkibining asosiy qismini ishlab chiqarishning asosiy fondlari tashkil qiladi. Ishlab chiqarish asosiy fondlariga binolar, inshootlar, uzatish qurilmalari, mashina va uskunalar, transport vositalari, asboblari, ishlab chiqarish va xo`jalik inventari, mahsuldor chorva va ish hayvonlari, ko`p yillik ekinlar kiradi. Ular bo`limiga har birining qiymati 100 so`mdan kam turadigan mehnat vositalari va qiymatidan qat`i nazar xizmat muddati bir yildan kam bo`lgan mehnat vositalari kiritilmaydi. Milliy boylikni rejalashtirish va hisobga olishda ishlab chiqarish asosiy fondlariga foydalanishga topshirish paytida

balansga qabul qilib olishdagi dastlabki qiymati; fondlarni takror ishlab chiqarish paytida ularning bahosini belgilab beruvchi tiklash qiymati bilan hisoblab qo'yilgan, eyilish summasi o'rtasidagi farqdan iborat bo'lgan qoldiq qiymati farqlanadi. O'zbekistonda asosiy fondlar 1986g`1990 yillarda 26,5 mlrd. so'm, 1991g`1995 yillarda 32,5 mlrd. so'm va 1995g`2000 yillarda 43,2 mlrd. so'mga oshdi.

3.3. Iqtisodiy rivojlanish darajasi va milliy boylik

Iqtisodiy rivojlanish darajasini baholaganda ko'pgina davlatlar AqSH darajasini standart sifatida qabul qilib, ishlab chiqarish omillarini va rivojlanishning turlicha sharoitlari iqtisodiy rivojlanish darajasini qandaydir bitta nuqtasidan turib baholashga imkon bermaydi.

SHuning uchun bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

1. Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YAIM, (YAMM, MD);
2. Milliy iqtisodiyotning tarmoq strukturasi;
3. Aholi jon boshiga asosiy mahsulot turlarini ishlab chiqarish;
4. Aholining turmush darajasi va sifati;
5. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.

Bulardan eng muhimi, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YAIM (YAMM) ko'rsatkichidir. Bu ko'rsatkichga muvofiq mamlakat xalqaro standart bo'yicha rivojlanayotgan yoki rivojlangan davlatlar kategoriyasiga kiritiladi. Rivojlangan davlatlar kategoriyasiga yiliga aholi jon boshiga 506 ming \$ va undan ortiq YAIM yaratayotgan davlatlar kiradi. Mamlakatning rivojlanish darajasi, shuningdek, eng muhim tarmoqlarining mamlakat iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasiga qarab ham belgilanadi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng O'zbekistonda aholi jon boshiga yoqilg'ig`energetika resurslarini ishlab chiqarish

birmuncha ko'paydi. Neft` ishlab chiqarish 270% va tabiiy gaz ishlab chiqarish 120%ga oshdi.

1g`jadval

Neft` va gaz ishlab chiqarish hajmi

Respublikalar	Neft`, mln. t.			Tabiiy gaz mlrd. m ³		
	1991y	2001y	1991 y. ga nisbatan, %	1991y	2001y	1991y.ga nisbatan,%
qozog`iston	26,6	23	85	7,9	11,4	80
qirg`iziston	0,1	0,1	100	0,1	2,2	30
Tojikiston	0,1	0,03	30	0,1	3,5	50
Turkmaniston	5,4	4,4	81	84,3	77,2	42
O`zbekiston	2,8	7,6	270	41,9	49,0	120

Har qanday davlat iqtisodiyotining rivojlanishini avvalambor uning tabiiy resurslari soni va hajmi belgilab beradi, chunki tabiiy resurslar barcha ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishning asosi, mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini, samaradorligini belgilovchi muhim omildir. O`zbekiston tabiiy resurslarning ulkan poitentsialiga ega. Oltin ishlab chiqarish bo`yicha dunyoda 8g`chi, oltinni aholi jon boshiga ishlab chiqarishda esa 5g`o`rinni egallaymiz. Hozirgi kunga qadar respublikamizda 30ta oltin koni aniqlangan (eng kattasi g` Muruntov).

Respublikamizda 34 turdagi mineral xom ashyoning 850 dan ortiq koni ochilgan. Mamlakatimizda uglevodorod xom ashyosining umumiy zahiralar: gaz g`1828 mlrd. m<sup>3</sup>; gaz kondensatig` 136 mln.t.; neft` g` 103 mln.t.

Respublika hududida 20 dan ortiq toshko`mir konlarining yotqiziqlari aniqlangan. Ularning prognozlik zahirasi 3499 mln.t. Angren koni zahirasi o`zi esa 1885 mln.t. 33ta nodir va 32 ta rangli metallarning konlari bazasida 16 ta tog`g`kon sanoati korxonalari ishlaroqda. 5 ta vol`fram koni bor (qo`ytosh, Langar, Ingichka).

Tasdiqlangan mineral suvlar zahiralarining 1 sutkaligi 8208 ming m³. Hozirda aniqlangan mineral suvlarning 32 manbai bazasida 12 ta kurort, mineral suvlarni quvuvchi 10 dan ortiq korxona ishlayotgan.

Respublikada 4,2 mln. ga. sug'oriladigan er bor. Mamlakatda foydalanilayotgan suv hajmi 62g'65 km³ bo'lsa, uning 36 km³ i Amudaryo va Sirdaryodan, qolgan qismi esa ichki manbalardan olinmoqda. Er va suv resurslarining mavjudligi, qulay iqlim sharoiti 1,7 mln.t. paxta tolasi etishtirish imkonini bermoqda. Bu soha respublikaning muhim bazasidir.

3.4. Respublikaning qazilma boyliklari

O'zbekiston hududida katta ahamiyatga ega bo'lgan oltin, mis, rux, vol'fram, molibden, fluorit, shuningdek, alominiy va magniy rudalari, nodir metallar, oltingugurt, osh tuzi, kaliyli va boshqa tabiiy tuz qatlamlari, kaolin, o'tga chidamli xom ashyolar, bentonit, marmar va boshqa bezak toshlari, uncha qimmatli bo'lmagan ba'zi pardoiz ishlov toshlari topilgan. YOqilg'i resurslari bo'yicha esa ko'mir, neft, tabiiy gaz konlari ochilgan.

O'zbekistonda mineral xom ashyo bazasi mavjudligi so'nggi 20g'25 yil mobaynida respublika xalq xo'jaligining muhim tarmoqlarini, ayniqsa, gaz, neft, oltin ishlab chiqarish, energetika, kimyo, rangli metallurgiya, ruda bo'lmagan xom ashyolar va qurilish materiallari sanoatlarini tez sur'atlar bilan rivojlantirish imkoniyatini berdi. Respublikada topilgan konlar asosida Olmaliq, tog'g'kon metallurgiya kombinati, Angren kimyog'metallurgiya va qo'ytosh ruda boshqarmalari, Muruntov tog'g'metallurgiya kompleksi, gaz, neft bentonit, birjoza, grafit chiqaruvchi va qayta ishlovchi yirik korxonalar faoliyat ko'psatmoqda. SHu kungacha respublikada hammasi bo'lib 90 xil sanoat miqyosidagi va 450 ta istiqboldagi tog'g'kon sanoati

korxonalari, gaz va neft` korxonalari, shaxtalar, kar`erlar, yirik suv inshootlari ishlab turibdi. qattiq foydali qazilmalar ishlab chiqarishning yillik hajmi 100 million tonnani tashkil etadi. 2003 yilda 49 milliard kubometr tabiiy gaz, 7,6 million tonna neft` qazib chiqarildi. Sutkasiga 2500 ming kubometr er osti suvlari olinmoqda. Konlarning foydalanishga topshirilishi ba`zi tumanlar iqtisodiyotini o`zgartirib yobordi. Ayrim tog`g`sanoat komplekslari bunyod etildi (Olmaliqq`Angren, Muruntovg`Zarafshon).

Angren, Olmaliq, Zarafshon shaharlari esa bo`z erlarning sanoat jihatidan o`zgartirilishiga asosiy omil bo`ldi. Hozirgi davrga kelib aniqlangan milliy boylik manbalari ishlab chiqarish korxonalarini uzoq muddat davomida oltin, mis, tabiiy gaz, qo`rg`oshin, rux, ko`mir va boshqa mahsulotlar bilan ta`minlabgina qolmay, hatto ishlab chiqarishni ancha kengaytirish imkonini ham beradi.

Ayni vaqtda vol`fram ishlab chiqaruvchi korxonalar xom ashyo manbalari bilan etarli darajada ta`minlanmagan. qo`ytosh va Ingichka ruda boshqarmalari, Olmaliq tog`g`kon metallurgiya kombinati shular jumlasidandir. Respublikada chiqarilishi mumkin bo`lgan nometall mineral xom ashyolarning tashib keltirilishi jiddiy iqtisodiy chiqimlarga hamda transport balansining asossiz ravishda kuchayishiga olib keldi. O`zbekistonda aniqlangan ba`zi bir nometall mineral xom ashyo konlari (SHo`rton gaz kompleksi, Ust`ort soda zavodi, qizilqum fosforit kombinati) mavjudligiga qaramay, har yili 500 ming tonna fosforit, 280 ming tonna kaliyli o`g`it, 408 ming tonna osh tuzi, 87 ming tonna kvarts qumlari, 127 ming tonna betonit gillari hamda ohak, barit, asbest, kaolin kontsentratsiya, dala shpati, tal`k, grafit, mineral pigmentlar, natriy sul`fat, oltingugurt va hokazolar Ukraina, qozog`iston, Rossiyadan tashib keltiriladi. Kelajakda respublikaning nometall mineral xom ashyolari asosiy turlariga, ulardan qilinadigan buyumlarga talabi bir

necha bor oshdi. Agar ularni respublikada ishlab chiqarish kengaytirilmasa tashqaridan tashib kelish lozim bo'ladi va katta sarfg'xarajat qilinadi. SHuning uchun respublikada geologik qidiruv ishlarining istiqbolini aniq belgilab, ularni tez sur'atlarda amalga oshirish lozim. Bu faqat respublikamiz talabinigina qondirmay, balki foydali qazilmalarning ko'p turlarini yaqin va uzoq chet davlatlarga ijoborish imkoniyatlarini ham beradi.

Hozir O'zbekistonda razvedka qilingan istiqbolli foydali qazilmalarning manbai bo'yicha sanoatning ayrim tarmoqlarini jadal rivojlantirib, 2000 yilga mo'ljallangan darajada mavjud perspektiv konlar va maydonlar tekshirilib, ulardan 2005g'2015 yillar davomida foydalanish imkoniyatini ta'minlash mumkin. Bunda birinchidan, oltin, mis, qo'rg'oshin, rux, kumush, vismut va boshqa nodir elementlar chiqaruvchi rangli metallurgiyaning kelgusi rivojlanish masalasini hal qilish imkoniyati tug'ildi.

Ikkinchidan, respublikada razvedka qilingan va istiqbolli konlar bazasida tog'g'ruda, tog'g'kimyo sanoatining yangi tarmoqlari yaratilishi mumkin. Hozir O'rta Osiyoga tashib keltirilayotgan qora metall buyomlarining miqdori yiliga 6 million tonnaga yaqin, kelgusida esa 20 million tonnaga etadi. Bunga xotima berish uchun qora metallurgiya bazasi yaratilishi kerak. SHu maqsadda Tebinbuloq (Sulton Uvays tog'ig'O'zbekiston), Irisu (Janubiy qozog'iston),CHOqadambuloq (Tojikiston) va boshqa yirik konlardan foydalanish kerak. Uchinchidan, bu erda zahiralari nisbatan ko'p bo'lgan sul'fid gazini boyitish orqali gaz ishlab chiqarish kengaytiriladi va oltingugurt ajratib olinadi. Mavjud neftni haydash Farg'ona va qoravulbozor zavodlarini mahalliy xom ashyo bilan uzluksiz ta'minlash neft` sanoatining yanada rivojlanishi uchun shartg'sharoit yaratadi.

To`rtinchidan, sul`fat kislota ishlab chiqarishni kengaytirish, Navoiy elektrokimyo kombinatida natriy sul`fat olish, shuningdek gazg`kondensat xom ashyosi bazasida ko`p miqdorda xloroorganik sintez mahsulotlar olishdan iborat bo`lgan kimyo sanoati (SHo`rton kompleksi kabi) ancha rivoj topadi.

Beshinchidan, ko`p miqdorda yangi qurilish materiallari, masalan, keramzit ishlab chiqarish uchun kerak bo`lgan betonitlar, Toshkent metropoliteni, yangi mehmonxonalar va eksport uchun zarur bezak toshlari ishlab chiqarilishini tashkil qilish kerak. Bu tadbirlarning amalga oshirilishi transport balansini yaxshilash, qator katta hajmli yuklar O`rta Osiyoga tashib keltirilishi kamaytirish imkoniyatini beradi va ularni yangi yo`llar orqali Evropaga tashish mumkin.

4g`MAVZU. MAKROIQTISODIY VAZIYAT VA UNING ASOSIY YO`NALISHLARI

4.1. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish – eng muhim vazifa

Iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi barqaror iqtisodiy o`sishga erishishdir. Bu maqsadga erishmay turib, aholi turmush darajasini oshirish, ijtimoiy muammolarni echish, mamlakatning jahon hamjamiyatidagi iqtisodiy va siyosiy mavqeini mustahkamlash mumkin emas. Bozor iqtisodiyotiga o`tayotgan barcha mamlakatlar qatorida O`zbekiston ham barqaror iqtisodiy o`sishga erishishni iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi qilib belgilab oldi.

Iqtisodiyotimizda makroiqtisodiy barqarorlikni ta`minlash, inflyatsiya darajasini sezilarli ravishda pasaytirish hamda qat`i moliya va

kredit siyosatini o'tkazish biz uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, makroiqtisodiy barqarorlikning o'sishi mehnatga yaroqli aholining ish bilan yuqori darajada bandligi, to'lov balansining qoniqarli ahvolda ekanligi va milliy valyutaning tashqi bozorlardagi barqarorligi singari ko'rsatkichlarda aks etadi. Bu ko'rsatkichlarni barqarolashtirishga vazmin monetarg'fiskal siyosat, narx va ish haqi hamda tashqi iqtisodiy siyosat yoritish bilan erishish mumkin.

Mustaqilligimizning o'tgan davri mobaynida O'zbekiston hukumati makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, aholi turmush darajasini oshirish, bozor islohotlarini chuqurlashtirish, tadbirkorlikni har tamonlama qo'llabg'quvvatlash, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan oqilona siyosat olib bordi. O'z navbatida, mamlakatimizda agrar, mulkiy munosabatlar, moliyag'kredit, tashqi iqtisodiy aloqalar, narxg'navo va ijtimoiy sohalarda islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ana shunday puxta o'ylangan iqtisodiy islohotlar va makroiqtisodiy barqarorlashtirish siyosati o'z samarasini bermoqda. 1995g'2001 yillar davomida mamlakatimizda real YAIM ning o'sish sur'atlari -0,9%ni tashkil etdi. Bu o'sish iqtisodiyotning barcha sohalarida rivojlanish tufayli yoz berdi. qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirish hajmi, 1996 yilni hisobga olmaganda, uzluksiz o'sib bordi. Eng yuqori o'sish sanoat sohasida (108,1%) kuzatildi (2g'jadval). Aholi real dapromadlari 16,9%ga ortdi. Kichik va o'rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi hissasi yakka tartbdagi tadbirkolarni qo'shganda ham 2001 yilda 33,8 %ni tashkil etdi. Oylik inflyatsiya darajasini 26,6%gacha kamaytirishga erishildi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirishda pulg'kredit siyosati asosiy o'rinni egallaydi. Mamlakatimizda pulg'kredit siyosatida ham ijobiy o'zgarishlar yoz berdi. Naqd pul emissiyasi darajasi 2001yil yakunlari ko'ra, 9%

o`rniga 6,5%ni tashkil etdi. Pulning aylanish sur`atlari tezlashdi. Natijada, pul massasining o`shishi YAIMga nisbatan 2000 yilda 17,1% ni tashkil etgan bo`lsa, 2001 yilda bu ko`rsatkich 16,4%gacha qisqardi. O`tish iqtisodiyoti davrida qat`i pulg`kredit siyosati yoritish tavsiya etiladi. Biroq jahon tajribasidan ma`lumki, qat`i pulg`kredit siyosati inflyatsiya darajasini kamaytirishga ijobiy ta`sir etish bilan birga, boshqa sohalarga salbiy ta`sir ko`rsatishi mumkin.

Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan soliqg`budjet siyosati iqtisodiyotni barqarorlashtirishga, soliq tizimini takomillashtirishga yo`naltirildi. Respublikada bozor munosabatlari rivojlanishi davomida davlat budjetini shakllantirishga bo`lgan yondashuvlar ham o`zgardi. Mamlakatimizda soliqg`budjet siyosatini pulg`kredit siyosati bilan muvofiqlashtirib olib borish hamda soliq to`lovchilar soni ko`payganligi va budjet mablag`lari ustidan nazorat kuchayganligi natijasida davlat budjeti kamomadini 1995g`1999 yillarda YAIM ga nisbatan 2,5 –1,7%, 2000g`2001 yillarda 1,0% atrofida nazorat qilishga erishildi.

Ishlab chiqarish tarmoqlari, korxonalar zimmasiga tushayotgan soliq og`irligi yildang`yilga kamayib borayotganligi ishlab chiqarish rivojlanishida muhim omil bo`lmoqda. Biroq mamlakatimizda soliq tizimi asosan fiskal funktsiyasida namayon bo`lmoqda va uning rag`batlantiruvchilik funktsiyasi etarlicha ishga tushirilmagan. Agarda soliq siyosatidan oqilona foydalanilsa, inflyatsiya va iqtisodning pasayib ketishiga zarur ta`sir ko`rsatish mumkin. Aholidan olinadigan soliqlar qisqartirilsa, u holda iste`molchilar xarajatlari ko`payadi, korxonalar daromadidan olinadigan soliqlarni ko`paytirish esa investitsiyalar o`shishiga olib keladi.

Mamlakatimiz iqtisodiy va siyosiy mustaqilligining o`tgan davrlarida tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida ham ijobiy o`zgarishlar yuz

berdi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni isloh qilishda, birinchi galdagi vazifa, sohani erkinlashtirish bo'ldi. Respublikamizda olib borilayotgan qat'i pulg'kredit va valyuta siyosati, jumladan, milliy valyutamizning joriy operatsiyalar bo'yicha erkin ayirboshlanishini ta'minlash maqsadida hukumat tomonidan bosqichmag'bosqich olib borilayotgan valyuta siyosati natijasida 2001 yilda ham mamlakat to'lov balansining barqarorligi saqlab qolindi va tashqi savdo operatsiyalarida ijobiy sal'doga erishildi (3g'jadval)

3g'jadvaldan ko'rinib to'rganidek, 1997g'2001 yillarda oldingi yillardagiga nisbatan eksport tushumlari kamayganligi kuzatildi. Buning asosiy sababi, SHarqiy Osiyo va Rossiyada sodir bo'lgan iqtisodiy inqirozning ta'siri va dunyo bozorida asosiy eksport mahsulotlarimiz bo'lgan paxta xom ashyosi, oltin va hoqazolarga narxlarning pasayishidir. Import tovarlari narxi pasayishi va mamlakatda import o'rnini qoplaydigan tovarlar ishlab chiqarishning ko'payganligi 1997g'2001 yillarda importning kamayishiga sabab bo'ldi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish maqsadida eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarga qo'shimcha imtiyozlar berish orqali chet el sarmoyalari bilan hamkorlikda ishlaydigan korxonalarni ko'paytirish mamlakatimiz imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Mamlakatimizda mehnat resurslari, xom ashyo bazasi etariligi iqtisodiyotda baqarorlikka erishishda muhim manba hisoblanadi.

Makroiqtisodiy barqarorlikka erishishda iqtisodiy siyosat vositalaridan alohidag'alohida emas, balki umumlashtirilgan holda foydalanish lozim. Kelgusida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va erkinlashtirish maqsadida iqtisodiyotda makroiqtisodiy baqarorlikni ta'minlash, inflyatsiya darajasini pasaytirish, qat'i pulg'kredit va soliqq'byudjet siyosatini o'tkazish zarur. Xususiylashtirish ob'ektlariga

xorijiy sarmoyalarni keng miqyosda jalb qilish asosida qo`shimcha ishchi o`rinlarini barpo etish, mamlakatimizda yildang`yilga o`sib borayotgan mehnat resurslarini ish bilan ta`minlashga imkon yaratadi. Tashqi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirish maqsadida, bojxona to`lovlarini yanada engillashtirish, eksportbop tovarlar ishlab chiqarish ko`lamini kengaytirish, valyuta kursini birxillashtirish samarali natijalar beradi. Iqtisodiy siyosat vositalaridan oqilona foydalanish natijasida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish va xalq farovonligini oshirishda asosiy omil bo`ladi.

2g`jadval

O`zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko`rsatkichlari

(oldingi yilga nisbatan foizda)

	1995y.	1996y.	1997y.	1998y.	1999y.	2000.	2001y.
YAIM (doimiy narxlarda)	99,1	101,7	105,2	104,3	104,4	103,8	104,5
YAlpi sanoat ishlab chiqarishi	100,1	102,6	104,1	103,6	105,7	106,4	108,1
qishloq xo`jalik mahsulotlari etishtirish	102,2	94,4	105,8	104,1	105,6	103,2	104,5
Davlat byo`jati tanqisligi YAIMga nisbatan	g`2,5	g`1,8	g`1,7	g`2,1	g`1,7	g`1,0	g`1,0
Iste`mol narxlari indeksi (yillik)	76,5	54,0	58,8	17,9	29,1	24,9	26,6

3g`jadval

Tashqi iqtisodiy aloqalar ko`rsatkichlari dinamikasi

(oldingi yilga nisbatan foizda)

	1995y.	1996y.	1997y.	1998y.	1999y.	2000.	2001y.
Tashqi savdo aylanmasi	124,8	140,8	95,7	76,5	93,1	97,9	103,1
Eksport	138,3	123,4	95,6	80,4	91,7	100,9	100,0
Import	110,9	193,2	95,8	72,7	94,6	94,8	106,4

4.2.Mulkiy munosabatlar

O'zbekistonda tub iqtisodiy islohotlar strategiyasini belgilashda o'tish davrining boshlarida davlatimiz rahbari ilgari so'rgan besh tamoyilg` iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi, davlatning bosh islohotchi bo'lishi, qonun ustuvorligi, faol ijtimoiy siyosat va bozor iqtisodiyotiga bosqichmag` bosqich o'tish asos qilib olingan edi. O'tgan davr, garchi, tarixan qisqa bo'lsag`da, islohotlarni amalga oshirish bo'yicha belgilangan strategik vazifalarning hayotiyiligini yana bir bor isbotladi.

Islohotlar strategiyasi bozor iqtisodiyotiga o'tishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini aks ettirmoqda.

1. Islohotlar mulkiy masalalar to'g'ri hal etilib, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish uzluksiz amalga oshirilgan, ko'p ukladli iqtisodiyot barpo etilgan taqdirdagina o'zining salmoqli natijalarini beradi. Mulk munosabatlarini takominlashtirish bo'yicha hali o'tish davrining dastlabki bosqichidayoq qabul qilingan tegishli qonunlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, shubhasiz, hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi va etmoqda. Bu borada «O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida», «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi qonunlarni va «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulkni himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirishni ta'minlash tadbirlari to'g'risida»gi Prezident Farmonini eslab o'tishning o'zi kifoya. 2003 yil boshiga kelib xususiy mulk shakliga oid korxonolarning umumiy soni 86,3 mingtaga etdi. Bu barcha korxonolarning 49,8 foizi, demakdir. Ularning eng ko'pi savdo va umumiy ovqatlanish tarmog'iga to'g'ri keladi. Jamoa mulkiga oid korxonalar soni esa 78,3 mingtani yoki 39,1% ni tashkil etdi. Bu jamoalarning asosiy qismi g` 38,0 mingga yaqini mikrofirma, kichik va

o`rta korxonalar 2002 yili tashkil bo`ldi. qishloq xo`jaligi sohasida faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar soni 240 mingga etdi.

SHunday qilib, mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida nodavlat sektori jadal sur`atlarda rivojlanib bormoqda. 2002 yili ushbu sektorda 73,3% yalpi ichki mahsulot, 78,6% sof moddiy mahsuloti, 99,0% yalpi qishloq xo`jalik mahsuloti ishlab chiqarildi, 73,4% qurilishg`qudrat ishlari, 99,0% chakana tovar oboroti aynan shu sohada amalga oshirildi. Xalq xo`jaligi nodavlat sektorida band bo`lganlarning umumiy soni 72,1% ni tashkil etmoqda. Davlat sektori iqtisodiyotda o`zining monopol ahamiyatini yo`qotmoqda, ko`p qirrali, aralash xo`jalikka keng yo`l ochilib, raqobat uchun borgan sari kengoroq imkoniyatlar yaratilmoqda. Tadbirkorlikni rivojlantirish hisobidan 2002 yilda 370 ming yangi ish o`rinlari ochildi.

Ilgari, ya`ni sho`rolar hukumati tomonidan ham iqtisodiy islohotlar o`tkazilgan edi. Ammo ular mulkiy munosabatlarda chuqur o`zgarishlar yasay olmaganligi sababli poyoniga etmagan, muvaffaqiyat qozonmagandi. Mulkiy munosabatlar yaratgan boyliklarga egalik qilish, ulardan foydalanish va o`zlashtirish, insondagi beqiyos qobiliyatlarni, imkoniyatlarni ro`yobga chiqarish bilan bog`liqdir.

Kichik va xususiy tadbirkorlikni rag`batlantirish, qimmatli qog`ozlar bozorini shakllantirish islohotlar taqdirini belgilovchi shartlardan biridir. Bu, birinchidan, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bilan bevosita bog`liq masala bo`lib, jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy negizini mustahkamlashga xizmat qiladi, o`rta mulkdorlar sinfini shakllantiradi va ayni paytda ichki bozorni iste`mol mollari va xizmatlar bilan ta`minlashning muhim omili hisoblanadi.

O`zbekistonda qisqa vaqt davomida kichik va o`rta biznesni revojlantirishning huquqiy shartg`sharoitlari va tashkiliy tuzilmalari yaratildi. Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, O`rta va

kichik biznesni qo'llabg`quvvatlash bo'yicha hukumat komissiyasi, Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llabg`qo'vatlash fondi «Madad» sug`urta agentligi, konsalting, lizing firma va kompaniyalari, biznes g` inkubatorlar ish olib bormoqda. Mamlakatimizda kichik va xususiy korxonalarning umumiy soni 100 mingdan oshdi. qishloq xo'jaligida 2002 yilda 38 mingdan oshiqroq dehqon xo'jaliklari tashkil topdi.

Ammo kichik va o`rta xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning hozirgi ahvolini qoniqarli, deb hisoblash qiyin. Hali yana ko`plab kichik va xususiy korxonalarni tashkil qilish, bu ishga aholi shaxsiy jamg`armalarini jalb etish, shu yo`l bilan yangi ish joylarini barpo etish imkoniyatlarini ishga solish lozim. Ayrim kichik va xususiy korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklari moddiyg`texnika va xom ashyo, uzoq muddatli kreditlar bilan bog`liq qiyinchiliklar, shuningdek, joylardagi byurokratik to`siq va g`ovlar tufayli o`z faoliyatlarini rivojlantira olmayotirlar. Yana muhimiki, biz o`tmish sarqiti boqimandalik ruhiyatidan qutila olmayapmiz. Xususiy tadbirkorlik bilan shug`ullanishni ixtiyor etganlarning aksariyati uni davlat yoki boshqa birovning hisobidan amalga oshirishni xohlaydi. To`g`ri, kichik va o`rta biznesni davlat darajasida qo'llab g` quvvatlashga barcha rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, bizda ham alohida ahamiyat berilayapti. Ammo davlat tamonidan ajratilgan mablag`larning ham hisobg`kitobi bor. qolaversa, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning davlat ko`magidan tashqari yana boshqa yo`llari ham mavjudki, bugungi kunda ulardan unumli foydalanmoq zarur.

Xo'jalik iurituvchi sub`ektlar dinamikasiga to`xtalganda, mulkni garov sifatida qoldirish hisobiga har qanday tijorat bankidan kredit olish mumkin. Bunday imkoniyat bo`lmagan holda tadbirkorlikni moliyalashtirishning Venchur usulidan foydalansa ham bo`ladi. Bu

vaqitda tadbirkorga mablag` ajratgan bank qarizidan qutulgunga qadar firmaning yoki ushbu xususiy ishning egasi bo`lib turaveradi. Ayirim mamlakatlarda kredit ittifoqlari tashkil etilgan bo`lib, ularda kichik korxonalar hisobidan umumiy jamg`arma to`planadi va undan birg`biriga qarz berishda foydalaniladi. Biz esa shu maqsadga ajratilgan 350 million AqSH dollarga teng chet el kreditining atigi 1g`5 millonini o`zlashtira oldik, xolos.

Tarixiy tajriba shuni ko`rsatadiki, boshqa mulk shakllari xususiy mulk zahirida paydo bo`ladi va shu mulkning transformatsiyasini bildiradi. Xususiy mulk milliylashtirilganda jamoa mulki yuzaga keladi. Mulkiy xilmag`xillik mulk shakllarining tengligini bildiradi. Baribir bu, xususiy mulk ustuvorligini talab qiladi.

Ustuvorlik xususiy korxona va xo`jalikning mahsulot va xizmatlarni yaratishda, ularning oldig`sotdi qilinishida etakchi bo`linishini anglatadi. Bular birgalikda milliy iqtisodiyotning xususiy sektorini vujudga keltirib, xususiy korxonalar, dehqon va fermer xo`jaliklari va xususiy kapitalning hissasi katta bo`lgan aksionerlik jamiyatdan tashkil topadi. Iqtisodiyotning mulkchilik jihatidan tuzilishi shuni ko`rsatadiki, hozir O`zbekiston iqtisodiyotidagi xususiy mulk hissasi rasman 35 foiz, davlat mulki 24,4 foiz, jamoa mulki esa 39,5 foizni tashkil etadi. Bu raqamlar hozirda xususiy mulkning mavqei unchalik yuqori emasligini bildiradi. Buning boshqa sababi ham bor: xususiy faoliyat natijalari har doim ham hisobga olinavermaydi. Bu faoliyat xonadon doirasida kechadi, u tovar va xizmatlar yaratadi, lekin ularning bozor narxi aniq emas. Dehqon xo`jaligi, tomorqa va xonaki ishlab chiqarishdagi mahsulot va xizmatlarning haqiqiy hajmi to`g`ri aniqlanib, ular yalpi ichki mahsulot tarkibiga kiritilsa, maqsadga muvofiq bular edi. Chunki milliy iqtisodiyotda turli mulk hissasi aniq bo`lmas ekan, mulkiy tuzilmani yaxshilab bo`lmaydi va O`zbekistonda mulkiy islohotlarni qaysi

yo`nalishda chuqurlashtirish va erkinlashtirish zaruriyatini ham bilib bo`lmaydi.

4.3. Tarkibiy siljishlar

Iqtisodiy mustaqillikka erishish, milliy iqtisodiyotni barpo etish, iqtisodiy o`lishni ta`minashning muhim shartlaridan biri g` iqtisodiyotda tarkibiy qayta qurishni amalga oshirishdir. 90g`yillar boshida xalq xo`jaligining amaldagi tarkibi sobiq ittifoqdagi mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvi tamoyillari asosida shakillangan bo`lib, O`zbekistonga arzon xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlar, strategik mineral resurslar etqazib berish va sanoat markazlarida ishlab chiqarilgan tayyor mollarni sotishning keng bozori mavqei ajratilgan edi. Xalq xo`jaligining bunday mustamlaka tarkibi mustaqillikning dastlabki yillarida, eski xo`jalik aloqalari uzilib, yangilari hali shakillanib ulgurmagan sharoitda mamlakatimiz iqtisodiyotiga salbiy ta`sir ko`rsatmasdan qolmadi. Mustaqil milliy iqtisodiyot xalq xo`jaligi tarkibiga mutloqo yangi talablarni qo`ydi.

Tarkibiy siyosat, eng avvalo, qishloq xo`jaligi xom ashyosi va mineral resurslarni chuqur qayta ishlashga, texnologik tsikilning tugallanganlik darajasini oshirishga, mamlakat yoqilg`ig`energetika va oziqg`ovqat mustaqilligini ta`minlashga qaratildi.

Ichki va tashqi kredit vositalarining asosiy qismi ishlab chiqarishni kengaytirish uchun hozirlashga yo`naltirildi. Bu avtomobil` va neftni qayta ishlash zavodlari, yangi avtomobil` yo`llari va temir yo`llar, engil, to`qimachilik va oziqg`ovqat sanoatining o`nlab yangi va zamonaviylashtirilgan korxonalaridir. Birgina Ko`kdumaloq konida kompressor stantsiyasi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Farg`onada to`qimachilik fabrikasi qurilib ishga tushirildi. Ma`lumki,

O'zbekistonning sanoat qudrati asosan bir necha yirik shaharlarda to'plangan edi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan yirik qurilishlarning geografiyasi ancha kengaydi. Bu siyosat uzoq vaqtdan beri hukm surib kelayotgan sanoat taraqqiyotidagi mintaqaviy nomutanosiblik va ziddiyatni sezilarli romshatdi.

Tabiiyki, iqtisodiyotning tarkibini takomillashtirishda kampaniyachilikka yo'l qo'yib bo'lmaydi, u birdaniga takomiliga etib ham qolmaydi. Bu o'zgarishlar muntazam davom etadigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayon bo'lib, ular davr talabi va iqtisodiy siyosatdan kelib chiqib, takmoqlararo hamda tarmoqlar ichida to'xtovsiz davom etaveradi. Bozor iqtisodiyoti va fang'texnika taraqqiyoti tan oladigan tarmoqlar rivojlanib, mahsulot ishlab chiqarishda ularning hissasi oshib boraveradi. Aksincha, bozor va taraqqiyotga mos kelmaydigan sohalarning mahsulot va xizmatlarni yaratishdagi ulushi pasayib yoki butunlay yo'qolib, o'z o'rnini boshqa, ilg'or sohalarga bo'shatib beraveradi.

Hayot butun xalq xo'jaligi tarmoqlari orasida ayrim tarmoq va ishlab chiqarish turlarini rivojlantirishga ustuvorlik berish va ularni davlat tomonidan har tomolama qo'llabg' quvvatlash to'g'ri yo'l ekanligini isbotlamoqda. Ustuvor sohasining to'g'ri belgilanishi nafaqat ilgari taqchil hisoblangan mahsulot turlarini keng ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga, balki ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirishga ham imkoniyat beradi, shu bilan bir qatorda butun xalq xo'jaligini oldinga siljitadi, iqtisodiy taraqqiyotda o'ziga xos olg'a etaklovchilik vazifasini o'taydi. Keyingi yillarda mamlakatimizda qayta qurishlar jarayonida tarmoqlarni sanoat negizida rivojlantirishni jadallashtirish, eksport potentsiyalini kuchaytirish va chetdan keltiriladigan mahsulot turlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, bozorni xalq iste'moli va oziqg'ovqat mahsulotlari bilan to'yintirish,

kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasi tuzimini rivojlantirish, investitsion faoliyatni jadallashtirish, mamlakatning eksport imkoniyatlarini kengaytirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni kuchaytirish va boshqalar ustun yoʻnalishlar sifatida belgilangan edi. Masalan, xalq xoʻjaligiga ajratilgan barcha investitsiyalar tarkibida ishlab chiqarish tarmoqlari hisssasi 63% ni, yoqilgʻigʻ energetika sanoati tarmoqlari sanoat investitsiyalari umumiy hajmda 43% ni tashkil etdi. Transport va aloqa sohalarini revojlantirishga mavjud sarmoyalarning 31%i sarflandi. Bu esa oʻz navbvtida, yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishni real koʻrsatkichlarda oshirish imkonini berdi. 2002 yilda iqtisodiyotga jalb etilgan barcha investitsiyalar hajmi 3,8 foizga oʻsib, 1 trillion 400 million soʻmga ortdi. SHu jumladan, 650 AqSH dollaridan ortdi.

Islohotlar islohot uchun utqazilmaydi. Ulardan maqsad – ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini uzluksiz oʻstirish asosida xalqning yashash, turmush darajasini yuksaltirishdir. Xuddi ana shu boradagi natijalar islohotlarga haqiqiy mazmun baxsh etadi.

5g`MAVZU. RESPUBLIKANING SANOAT MAJMUUI

5.1.Respublikada sanoat majmuini rivojlantirishning asosiy sabablari

Tarmoqlar ichida asosiy boʻgʻin boʻlib sanoat ishlab chiqarish majmui hisoblanadi. Sanoat majmuining muhim xususiyati shundaki, uning barcha tarmoqlarida mehnat vositalari va isteʼmol tovarlari yaratiladi, ilmiygʻtexnika taraqqiyoti hamda milliy daromadning katta qismi ishlab chiqariladi va yaratiladi. Ayni paytda Oʻzbekistondagi mehnatga yaroqli aholining asosiy qismi ham sanoat ishlab chiqarishida

band. Sanoat ishlab chiqarishi jamiyatning ob'ektiv iqtisodiy qonunlari hamda respublikamizda so'nggi yillarda qabul qilingan qonun va qarorlar asosida rivojlanmoqda. O'zbekiston sanoati ayni vaqtda o'z tarmoqlari va boshqa ijtimoiy tarmoqlar uchun moddiy g'texnik vositalar hamda xalq ehtiyojiga kerak bo'ladigan mahsulotlarni ham uzluksiz tayyorlab bermoqda. SHu boisdan ham sanoat ishlab chiqarishi darajasi va samaradorligining o'sishini ta'minlash lozim. CHunki sanoat ishlab chiqarish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, respublikamizning iqtisodiy poydevori shuncha mustahkam aholining turmush sharoiti ham yaxshi bo'ladi.

SHuni ham aytish lozimki, sanoat majmui har qanday tarmog'ining ich tuzilmasidagi o'zgarishlar amalda boshqa tarmoqlar g' qishloq xo'jaligi, agrosanoat majmuining boshqa sohalari, qazib oluvchi tarmoqlar bilan uzviy bog'liqdir.

Endilikda sanoatning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Iste'mol bozoridagi tanqislik tufayli sanoat tarmoqlari ilgarigiga nisbatan keng ko'lamda xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishga yo'naltirilmoqda hamda xususiylashtirilmoqda. Iste'mol mollarini ko'plab ishlab chiqarish, ayniqsa, chetga xom ashyo emas, balki tayyor mahsulot chiqarish hamda qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish nafaqat sanoat ishlab chiqarishining ahamiyatini oshiradi, balki jahon bozorida O'zbekiston iqtisodiyotiga bo'lgan ishonchni ham mustahkamlaydi. Hozirgi kunga kelib sanoat tarmog'ida yalpi ichki mahsulotning 30%i yaratiladi. Bu shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyotining rivojlanishi natijasida mamlakat iqtisodiyoti industrialashgan iqtisodiyot sari rivojlanmoqda. Sanoat tarmoqlaridagi 2001 yilgi 8,1 foizli o'sish ham shundan dalolat bermoqda.

5.2. Sanoat majmui tarmoqlari

Sanoat majmuasiga doir mahsulotlar majmuiga bu soha tarmoqlari quyidagicha hissa qo'shmoqda:

- 1) YOqilg'i sanoati va energetika g`18,3%;
- 2) Metallurgiya g` 13,9%;
- 3) Engil sanoat g` 18,6%;
- 4) Ximiya sanoat g` 5,2%;
- 5) Mashinasozlik g` 15,8%;
- 6) Oziqg`ovqat g` 10,8%;
- 7) qurilish materiallari g` 6,5%;
- 8) YOg`ochni qayta ishlash g` 2%.

Sanoat xalq xo'jaligining yirik sohasi bo'lib, unda 1 mln.dan ortiq ishchi va xizmatchilar xizmat qiladi. Bu, ish bilan band aholining sakkizdan biri qismini tashkil etadi. Sanoatda 100 dan ortiq tarmoq bo'lib, ulardan 6 tasi bazaviy hisoblanadi. Asosiy fondlarning 40 %i sanoat hissasiga to'g'ri keladi, yalpi ichki mahsulotning 16 %dan ortiqrog'i sanoatda yaratiladi. O'zbekiston sanoatida elektr energiyasi, gaz, neft, ko'mir, benzin, po'lat, avtomobillar, traktorlar, paxta terish mashinalari, elektodvigatellar, transformatorlar, akkmulyatorlar, kabellar, ekskavator, ko'priqli ko'targichlar, yigiruv mashinalari, samolyotlar, otingugurt kislotasi, mineral o'g'itlar, sun'iy tolalar, tsement, turli qurilish materiallari, gazlamalar, paxta moyi, un, guruch, kiyim g` kechak, oziqg`ovqat mahsulotlari va boshqalar ishlab chiqariladi. Respublika sanoatida tarmoqlarning tutgan o'rnini har xil (4g`jadval). Sanoat tarmoqlari orasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi va agrosanoat majmuiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar tarixan etakchi mavqega ega. Bular paxta tozalash, shoyi to'qish, konserva, yog`g`moy va boshqa sanoat tarmoqlaridir. SHuningdek, kimyo va neft kimyosi, mashinasozlik, elektronika, energetika,

metallurgiya, engil va qurilish materiallari sanoati jadal sur`atlarida rivojlanmoqda.

Sanoat taraqqiyotida yoqilg`ig`energetika majmuasining o`rni alohida. Uning tarkibiga gaz, neft` va neftni qayta ishlash, ko`mir va energitika tarmoqlari kiradi. Bu majmuaning hissasi sanoat ishlab chiqarishida 26,8% dan iborat. O`zbekiston jahondagi o`nta yirik gaz ishlab chiqaruvchi mamlakatlar jumlasiga kiradi. Respublikada qudratli gidroelektr statsiyalari va issiqlik elektr statsiyalari mavjud.

Metallurgiya majmuasi tarkibiga ma`dan xom ashyosini, qora va rangli metallarni qazib chiqaruvchi korxonalar kiradi. Oltin, kumish, mis, qo`rg`oshin, rux, vol`fram, molibden, litiy, uran, al`ominiy xom ashyosi, nodir metallar va boshqa bir qator qazilma boyliklarning aniqlangan zahiralari ko`p. O`zbekistonda oltinning 30 ta koni topilgan. qazib olinadigan oltinning umumiy miqdori bo`yicha O`zbekiston MDH mamlakatlari orasida ikkinchi, kumish, mis, qo`rg`oshin, rux va vol`fram bo`yicha uchinchi o`rinni egallaydi. O`zbekiston jahon hamjamiyatida oltin ishlab chiqarish miqdori bo`yicha sakkizinchi, uni aholi jon boshiga ishlab chiqarish bo`yicha esa beshinchi o`rinda.

Kimyo va mashinasozlik majmuilari sanoatning muhim sohalaridir. YAngi iqtisodiy sharoitda bu tarmoqlarda chuqur tarkibiy o`zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ular mamlakatning iqtisdiy mustaqqilligini mustahkamlashga yo`naltirilgan.

Jami iste`mol mollarining uchdan bir qismi engil sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Bu erda an`anaviy etakchi soha to`qimachilikdir.

4g`jadval

Sanoat mahsulotlarining tarmoqlar bo`yicha tarkibi (%)

Tarmoqlar	1990	1995	2000
-----------	------	------	------

Butun sanoat	100,0	100,0	100,0
YOqilg`ig`energetika majmui	18,3	18,3	28,1
Metallurgiya	14,1	13,9	10,6
Kimyo va neft` sanoati	4,6	5,2	4,0
Mashinasozlik va metalni qayta ishlash	7,3	8,8	12,0
YOg`ochsozlik sanoati	0,9	1,0	0,8
YOg`ochsozlik sanoati	5,0	4,5	4,2
qurilish materiallari sanoati	19,0	18,6	16,0
Engil sanoat	9,7	9,8	9,8
	9,9	9,9	9,9

Energetika Respublika xalq xo`jaligining negiz tarmog`i, respublikada iqtisodiyot va texnika taraqqiyotining mustahkam poydevori hisoblanadi. O`zbekiston energetika tizimi umumiy o`rnatilgan quvvati 11,5 mln.kVt bo`lgan 37 issiqlik va gidravlik elektr stantsiyalarida yiliga 55 mlrd. kVt.s dan ortiq elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. O`zbekiston energetika tizimining barcha kuchlanishlardagi elektr tarmoqlari umumiy uzunligi qariyb 228 ming km ni tashkil qiladi. Tarmoq transformatorlarining umumiy quvvati 42,6 MVA ga teng. Hozir respublika energetika tizimida 60 mingga yaqin kishi ishlaydi.

O`zbekistonda elektr quvvatidan asosan XXg`asr boshlaridan foydalanila boshlandi. O`sha davrda Toshkentda 2 elektr stantsiya qurilgan bo`lib, biri (quvvati 1450 kVt, 5 dizel`) tramvayni tok bilan ta`minlash, ikkinchisi (Pavlov elektr stantsiyasi, quvvati 125 kVt) shaharni yoritish uchun ishlatilgan. 1913 yilda O`zbekiston hududida umumiy quvvati 3 MVt chamasida bo`lgan 6 kichik dizel` elektr stantsiyalari bo`lgan, yillik elektr energiyasi hosil qilish 3,3 mln.kVt.s ga etgan.

O`tgan asrning 20g`yillarida O`zbekistonda issiqlik energetikasi dizel` va mayda bug` turbinali elektr stantsiyalarini qurish yo`nalishida

rivojlandi. Dizel` elektr stantsiyalar umumiy maqsadlarda hamda issiqlik energiyasiga ehtiyoji bo`lmagan paxta zavodlari, nasos stantsiyalari, kanallar va boshqa korxonalar qoshida qurildi. Respublikadagi dastlabki bug` turbinali elektr stantsiyalari Farg`ona va Kattaqo`rg`on yog`g`moy zavodlari qurildi. Farg`ona yog`g`moy zavodining «SHarq tongi» issiqlik elektr markazi (IEM) umumiy maqsadlardagi elektr statsiyasi bo`lgan birinchi IEM dir.

1934 yil 25 sentyabrda O`zbekiston energiya sistemasining tashkiliy asosi – «O`zbekenergiya» energetikasi boshqarmasi, Energetika va elektrlashtirish vazirligi tuzildi.

30g`yillar boshidan CHirchiqg`Bo`zsuv GES lar kaskadi barpo etildi. O`zbekiston birinchi gidroelektrstantsiyasi Bo`zsuv GES shu traktida qurilib, 1926 yilda ishga tushirilgan edi. CHirchiq g` Bo`zsuv gidroenergetika qurilishi tez sur`atlar bilan davom etirilib, 1926 yildan 1940 yilga qadar mazkur trakt gidroelektrstantsiyalarida 67 ming kVt generator quvvatlari ishga tushirildi.

O`zbekiston Energetika va elektrlashtirish vazirligi tarkibida loyiha, qurilishg`montaj, sozlash, ta`mirlash va ishlatish tashkilotlarining to`la majmui energetika tizimining ishonchli ishlashini va istiqbol taraqqiyotini ta`minlaydi. O`zbekiston energetika tizimi hozir respublika xalq xo`jaligi va aholisining elektr energiyasiga bo`lgan ehtiyojlarini to`la ta`minlamoqda va elektr energiyasi qisman qo`shni davlatlarga eksport qilmoqda. 2002 yilda O`zbnkistonda jami 56,0 mlrd. kVt soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi.

**YOqilg`i sanoati.** Respublikada yoqilg`i energetika sanoati er qa`rida topilgan va qazib olinayotgan ko`mir, neft`, tabiiy gaz konlari negizida shakllandi va rivojlanib bormoqda. Respublikada 160 ga yaqin neft`g`gaz koni ochilgan, ularning 115 tasi Buxorog`Xiva geologik provintsiyasida, 27 tasi Farg`ona vodiysi, 10 tasi Surxondaryo, 7 tasi

Usturtida joylashgan. Konlarning gaz, gazg`kondensatli to`lari mavjud. Hozir 71 neft`, gaz va gazg`kondnsat konlari, 2 ko`mir konidan foydalanilmoqda. 50 dan ortiq neft`, gaz va gazg`kondensat koni esa kelajakda ishga tushirish uchun tayyorlab qo`yilgan.

YOqilg`i sanoati respublika yoqilg`i g` energetika majmuining asosiy tarmog`ini tashkil etadi va barcha yoqilg`ini qazib olish, tabiiy gazni tozalash va etqazib berish, neft` mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalaridan iborat. Ular xalq xo`jaligining barcha bo`g`inlarida xizmat ko`rsatadi. Yirik korxonalari Toshkent, Farg`ona, Buxoro, qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida joylashgan. Respublika sanoat mahsulotining umumiy hajmida yoqilg`ig`energetika majmui mahsulotlari 26,8% ni tashkil etmoqda (1980 yilda 8,8%). Respublika sanoatida band bo`lgan ishchig`xizmatchilar (sanoat ishlab chiqarishi xodimlari)ning 6% yoqilg`i sanoati tarmoqlari hissasiga to`g`ri keladi (80 ming nafar ortiq). Respublikada 1992 yilda yoqilg`i sanoatida qazib olingan yoqilg`i (shartli yoqilg`i – 7000 kilokaloriya hisobida) umumiy hajmida neftning hissasi 8,3 % ni, gazning hissasi 87,3% ni, ko`mir hissasi 4,4% ni tashkil etgan. Ko`kdumaloq neft`g`gaz kondensat konining ochilishi va ishga tushirilishi bilan neft` sanoatining yoqilg`i sanoati majmuidagi mavqei ortib bormoqda.

Neft` sanoati. O`zbekistonda dastlabki neft` koni 1904 yilda ochilgan (Farg`ona vodiysidagi CHimyon neft` konida 278 m chuqurlikda sutkasiga 130 tonna neft` olingan). O`sha yili Vannovsk (hozirgi Oltiariq) temir yo`l stantsiyasida neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirildi. Keyinroq Farg`ona botig`ida YOrqo`ton, Selroxs konlari ham ochildi, CHimyong`Vannovsk neft` quvuri qurildi, neftni qayta ishlash zavodi kengaytirildi. SHu davrda rus va chet el kapitali neft` qazib olish, uni qayta ishlash, neft` mahsulotlarini sotishni to`la o`z nazoratiga oldi. «Santo»g`O`rta Osiyo neft` savdosi tashkil etildi. Hozirgi

kunda O'zbekistonda neftni qayta ishlash sanoati sohasida Oltiariq, Farg'ona, Buxoro neftni qayta ishlash zavodlari ishlab turibdi. Farg'ona zavodi supkov moylari va yonilg'i ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, ishlab chiqarish bo'yicha 30 dan ortiq texnologik qurilmaga ega. Ko'kdumaloq neft`g`gaz koni ochilganidan keyin Frantsiyaning TEKNEP firmasi bilan hamkorlikda 1993 yildan Buxoro viloyatining qorovulbozor tumanida Buxoro neftni qayta ishlash zavodi qurilishi boshlandi va bir yilda 2,5 mln. t gaz kondensatini qayta ishlash quvvatiga ega bo'lgan 1g`navbati 1997 yil avgustida ishga tushirildi. Neftni qayta ishlash zavodlarida yuqori oqtanli benzin (shu jumladan, Bg`92 aviabenzini), dizel` yonilg'isi, koks, parafin, motor moylariga qo'shilmalar, engil avtomashinalar uchun motor surkov moylari (kompressor, turbina, urchuq moylari), kerosin, bitum, suv`oltirilgan neft` gazlari (butan texnik propanva), mazut kabi 50 turdan ortiq neft` mahsulotlari ishlab chiqarilmoqdi. Yangi mahsulot turlari ishlab chiqarishni o'zlashtirish dasturiga muvofiq yangi texnologiyalar o'zlashtirilmoqda. Hozirgi davrda respublikamiz neft` sanoati korxonalari quvvatlari bir yilda 11 mln.t neftni ishlash imkoniyatiga ega (5g`jadval).

5g`jadval

O'zbekistonda neft` va gaz qazib olish hajmining o'sishi

	1960 y.	1980 y.	1990 y.	1999.	2000 y.	2002 y.
Neft` (gaz kondensat i bg`n birga), Ming t Gaz.mln. mi	1603 446,6	2005,3 42094	1805,4 4504,6	3205,4 4667,5	8500 5500	9000 6312

Keyingi yillarda ko`rilgan keskin tadbirlar natijasida neft` (gaz va kondensati birga) qazib olish hajmi yuqori sur`atlarda o`sdi. Respublikaning neft` mustaqqiligi ta`minlanadi.

Gaz sanoati g` yoqilg`i energetika majmuasining eng rivojlangan tarmog`i. Uning respublikada qazib olinayotgan yoqilg`i balansidagi hisyasi 87,2% ni tashkil etadi. Neft` bilan yo`ldosh tarzda uchraydigan tabiiy gazni qazib olish ikkinchi jahon urushidan oldingi yillardan boshlangan. Neft` gazidan sanoat maqsadlarida foydalanish uchun 15 km uzunlikdagi birinchi gazoprovod «Andijonsanoat» g` Andijon shahri o`rtasida qurilgan. Gazni alohida sanoat usulida chiqarib olish o`tgan asrning 50g`60 g` yillarida boshlandi. Gaz qazib olish sanoati joylashgan asosiy tumanlar – Buxoro va qashqadaryo, shuningdek, Farg`ona, Surxondaryo viloyatlari hamda qoraqalpog`iston Respublikasidir.

Respublikada gaz sanoatining rivojlanishi qishloq xo`jaligi va boshqa sanoat tarmoqlarining o`sishini ta`minlamoqda. SHahar, shaharcha ayniqsa qishloqlarni gazlashtirish avj oldi. O`zbekistonda tabiiy gaz bilan 7,8 mln xonadon (jami xonadonlarning 78%), shu jumladan, shahar va shaharchalarda 3,85 mln, qishloq joylarida 2,98 mln. dan ortiq xonadon ta`minlangan (2000 y).

**Ko`mir sanoati.** O`zbekistonda ko`mirni sanoat usulida qazib olish 1930 yillar oxiridan boshlangan. Toshkent viloyati Ohangaron vodiysida Angren ko`mir, Surxandaryo viloyatida SHarg`un, Boysuntog` toshko`mir konlari bor.

1990 yilda 10,4 mln. t. ko`mir qazib chiqarildi. Keyingi yillarda bu ko`rsatkich sezilarli darajada pasaydi. 2001 yilda respublikamizda 3976 ming t ko`mir qazib olindi. Angren va YAngi Angren GRESlarining to`la qattiq yoqilg`iga o`tkazilishi bilan respublikaning ko`mirga bo`lgan ehtiyoji ormoqda.

Metallurgiya sanoati. O'zbekiston erlarida rudadan metall olish 4 ming yildan ziyod tarixga ega. qadimda misdan turli bezak buyumlar tayyorlangan. Keyinroq rudali metallar g' qalay, kumush, oltin va boshqalarni eritish, quyish va qizdirib ishlash o'zlashtirilgan.

qora metallurgiya sohasida faoliyat ko'rsatadigan yagona korxona Bekobod shahridagi O'zbekiston metallurgiya zavodidir. Zavodda qora metallurgiya mahsulotlarining eng muhim turlari (po'lat, cho'yan, po'lat quvurlar va po'lat prokat) ishlab chiqariladi, temirg'tersak, metall chiqindilari eritiladi.

O'rta Osiyodagi birinchi zamonaviy metallurgiya zavodi qurilishi umumxalq hashari yo'li bilan 1942 yilda boshlandi va 1944 yilda dastlabki metall eritmasi olindi. 1978 yilda zavodda ishga tushirilgan elektr quvvati yordamida po'lat eritish tsexi eng zamonaviy texnika bilan jihozlangan.

6g'jadval

Po'lat va tayyor prokati dinamikasi

	1998.	2000 y.	2001 y.	2002 y.
Po'lat	1214,5	800,4	1221,3	1333,4
Tayyor prokat	965,3	785,3	1221,1	1450,3

Zavod tamg'ali prokat mahsulotlari, quvurlar bilan birga 50 ga yaqin turdagi xalq iste'moli tovarlarini ham ishlab chiqaradi.

Rangli metallurgiya – respublika metallurgiya sanoatining etakchi tarmog'i. Bu soha mahalliy mineral xom ashyo resurslari negizida o'tgan asrning 30g'yillardan rivojlandi. Respublikada rangli kamyob va qimmatli metallar (oltin, mis, qo'rg'oshin, rux, vol'fram, molibden, simob va boshqalar) konlari, qoramozor mis qo'rg'oshinrux koni, Obirahmat, Burchmulla, Oqtuz, Takob, Ingichka, qo'ytosh mis konlari va boshqalar topilib, ular sanoat miqyosida o'zlashtirilishi bilan rangli

metallurgiya sanoati shakllandi va respublika rangli metallar ishlab chiqarish bo'yicha jahonda oldingi o'rinlardan birini egallagan mamlakatga aylandi.

Kimyo sanoati respublika iqtisodiyotida muhim o'rinni egallaydi. O'zbekiston kimyo sanoatida 750 dan ortiq nomda mahsulot ishlab chiqariladi. Mamlakat sanoat mahsulotlari umumiy hajmida kimyo sanoati korxonalari mahsulotlari hissasi 4,6% ni tashkil etadi. Respublika kimyo sanoatida tabiiy gaz, neft, ko'mir, oltingugurt, turli minerallar, ohaktosh, grafit, shuningdek, rangli metallurgiya, paxta va kanopni qayta ishlash chiqindilaridan xom ashyo tarzida foydalaniladi. O'zbekiston kimyo sanoatida ishlatiladigan xom ashyoning asosiy qismi (70%ga yaqini yoki 650 dan ortiq turdagi mahsulot) hamda ehtiyot qismlar va asbob uskunalar chetdan olib kelinadi (Rossiyadan toluol, yog'och tsellulozasi, kaustik soda, qozog'istondan fosfaritlar va boshqalar). Ayni paytda kimyo sanoati mahsulotlari (mineral o'g'itlar, kaprolaktam, kimyoviy tolalar hamda iplar, sintetik ammiak, lakg'bo'yoqlar va boshqalar) eksport qilinadi.

Mashinasozlik sanoati. O'zbekistonda mashinasozlik sanoatining dastlabki korxonalari XXg'asr boshlarida vujudga keldi. Dastlabki paytlarda O'zbekistonda metalga ishlov berish sanoati asosan 14 ta kichik ta'mirlash ustaxonalaridan iborat edi. Ularda temir yo'l, paxta tozolash va yog' zavodlarining ta'mirlash ishlari bajarilardi.

Avtomobilsozlik. O'zbekistonda mashinasozlik sanoatining muhim tarmog'i hisoblangan avtomobilsozlik – avtomobillar, (asaka avtomobil zavodi) dvigatellari, (toshkent motor zavodi) avtomobillarga ehtiyot qismlar, turli jihozlar va boshqa asboblarni ishlab chiqarish respublika mustaqillika erishganidan keyin shakllana boshladi. O'zbekistondagi bir necha avtomobil tuzatish zavodlari engil mashinalarga xizmat ko'rsatadigan «O'zavtotexxizmat»,

«O`zavtoVAZxizmat» ishlab chiqarish birlashmalari korxonalar, tashkilotlar va avtomobillarga texnika ko`rsatib kelgan. Asakada engil avtomobillar, Samarqandda yo`lovchi va yuk avtomobillari chiqarilmoqda.

Avtomobil` sanoatini barpo etishda, asosan, respublikadagi kontsernlar, korporatsiyalar, MDH korxona va tashkilotlari, chet el firmalari sarmoyalarini jalb etish orqali aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etish yo`li tanlangan. Ishga tushiriladigan korxonalarda ishlab chiqarish bosqichlarini shakllantirish dastlab avtomobillarni qism va agregatlardan yig`ishdan to ularni shu korxonalarda tayyorlash va yig`ishgacha bosqichmag`bosqich, to`liq o`tish yo`li bilan olib boriladi. Korxonalarda avtomobil` dvigatellari (motorsozlik), podshipniklar ishlab chiqarish ham yo`lga qo`yilmoqda.

5.3. Sanoat majmuining asosiy ko`rsatkichlari

Sanoat tarmog`ida ishlab chiqarish dasturlarining yaratilishi alohida ahamiyat kab etadi. Har bir korxona ixtisoslashuviga ko`ra, ishlab chiqarish dasturida o`zining texnikg`iqtisodiy ko`rsatkichlarini ifodalashi lozim. Ishlab chiqarish dasturlarini shakllantirishda quyidagi ko`rsatkichlardan foydalaniladi:

- 1) YAlpi mahsulot.
- 2) Tovar mahsulot.
- 3) Realizatsiya qilingan mahsulot.
- 4) Mahsulot tannarxi.
- 5) Balans foyda.
- 6) Sof foyda.
- 7) Ishlab chiqarish rentabelligi.
- 8) Mahsulot rentebelligi.
- 9) Mehnat unumdorligi.

- 10) Fond qaytimi.
- 11) Fond sig`imi.
- 12) Fond bilan qurollanganlik.

Sanoat korxonalari faoliyatini xarakterlovchi keyingi ko`rsatkich – bu, quvvatdir. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati korxonagi birlashtirilgan mehnat vositalaridan uning ixtisoslashuviga muvofiq to`lag`to`kis foydalanilgan holda ma`lum davr mobaynida ishlab chiqarish mumkin bo`lgan tom darajadagi mahsulot hajmidir.

Ishlab chiqarish quvvatlarini aniqlashda quvvat balansidan foydalaniladi. Bu balansda quyidagi elementlar mavjud bo`ladi:

- 1) Yil boshidagi quvvat.
- 2) Rejalashtirilgan davrda quvvatlarning o`zgarishi, ya`ni eski quvvatlarning chiqarib yuborilishi, rekonstruktsiya qilinishi, texnik tadbirlar o`tkazilishi va boshqalar.
- 3) YAlpi ishlab chiqarish quvvatlarining kiritilishi.
- 4) Yil oxiridagi quvvat.
- 5) O`rtacha yillik quvvat.
- 6) Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi.
- 7) quvvatlardan foydalanish koeffitsienti.

6g`MAVZU. Iqtisodiyotni rivojlantirishda transport majmui

6.1. Transport kommunikatsiyasining strukturasi

Temir yo`l transportining iqtisodiyotda tutgan o`rni.

Xalq xo`jaligida temir yo`l transportining yo`lovchilar hamda yuk tashishda salmog`i katta. Respublika temir yo`lida bu transport turi

MDH doirasida qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston 1972 yilda qurilgan qo'ng'irotg' Beynov magistrali qozog'iston orqali Rossiyaning Markaziy, Janubiy Ural mintaqalariga tutashgan. Xovasg' Aris magistrali ham mamlakatni qozog'iston orqali Rossiyaning Sibir, Uzoq SHarq mintaqalari bilan, Toshkentg' Turkmanboshi yo'li Turkmaniston bilan bog'laydi, Navoiy – Nukus yo'li qozog'iston orqali Rossiyani bog'laydi.

1995 yilda respublikada xalq xo'jaligiga tegishli temir yo'llarning uzunligi 6,6 ming km, shu jumladan, umumiy foydalanadigan qismining uzunligi 3,5 ming km ortiq, asosan sanoat korxonalariga tortilgan (umumiy foydalanilmaydigan) temir yo'llarning uzunligi 3,1 ming km.ni tashkil etdi.

O'zbekistonda dastlabki temir yo'l 1886g'88 yillarda Farob stantsiyasidan Samarqandgacha yotqizilgan (Krasnovodskg' CHorjo'y temir yo'lining davomi). Bu temir yo'l 1895g'97 yillarda qo'qongacha, 1899 yilda Toshkentgacha etqazildi. 1906 yilda Toshkentg' Orenburg temir yo'li ishga tushirildi.

1994 yil noyabrda O'zbekiston Respublikasida joylashgan temir yo'l koxonalari va muassasalari negizida «O'zbekiston temir yo'llari» davlatg' aktsiyadorlik kompaniyasi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi mamlakat mustaqilligi va iqtisodiyoti uchun ulkan ahamiyatga ega bo'lgan, Xitoy, Koreya, YAponiya, Eron, Turkiya va /arbiy Evropaning janubi bilan tutashtiradigan Transosiyo magistrali (Istanbulg' Toshkentg' Olmaotog' Pyokin) qurilishida hissaboy ishtirok etmoqda. Bu magistralning Tajang' Saraxs va Eronda Saraxsg' Mashhad qismlari qurilib foydalanishga topshirildi (1996y. 13 may) va yo'lda poezdlar qatnovi boshlandi. Respublika quruvchilari uzunligi 133 km bo'lgan Tojang' Saraxs yo'lini qurishda faol qatnashdi. O'zbekiston temir yo'li kelajakda bu katta yo'lning markaziy bo'g'ini bo'lib qoladi.

Bu yoʻldan BuxoragʻBeynov orqali Evropaga, TajangʻSaraxs orqali YAqin SHarq mamlakatlariga chiqish mumkin. Respublika temir yoʻl transportini rivojlantirish istiqbollarining Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti mamlakatlari (Eron, Turkiya, Pokiston, Markaziy Osiyo davlatlari Afgʻoniston, Ozarbayjon) oʻrtasidagi Kvatta rejasida belgilangan vazifalar boʻyicha hamkorlik yoʻnalishlari ham ishlab chiqilmoqda.

«Oʻzbekiston temir yoʻllari» 50 mingdan ortiq turli tipdagi yok vagoni va Germaniyada tayyorlangan refrejeratorlarga, 1450 yoʻlovchi tashiladigan vagonga ega. Kompaniyaning temir yoʻldan foydalanishga masʼul boʻlgan Toshkent, Fargʻona, Buxoro, Orol boʻyi, qarshi temir yoʻl boʻlimlari bor. 2001 yil umumiy foydalaniladigan temir yoʻl transportida 66,2 mln.t yok tashildi. 20 tonnali konteynerlar bilan yok tashish respublikadagi 12 stantsiyada (SHumilov, Jizzax, qaqar, Margʻilon, Andijon, Rauston, Ulugʻbek, Tinchlik, Buxorogʻ2, qarshi, Urgench)da amalga oshiriladi, kelajakda Nukus temir yoʻl stantsiyasi shular jumlasiga kiradi.

Tashiladigan yoklarning asosiy qismini qurilish materiallari (umumiy tashiladigan yok hajmining 21%i), paxta tolasi (3%), neft` va neft` mahsulotlari (35%), g`alla, tsement, kimyoviy mahsulotlar va mineral o`g`itlar, ko`mir, sabzavot va boshqa xalq xo`jaligi yoklari tashkil etadi. Yok tashishda teplovozlar, yoʻlovchilar tashishda teplovoz va elektropoezdlar xizmat ko`rsatadi. 2001 yil temir yoʻl transportida 18,4 mln. yoʻlovchi tashildi. Yoʻlovchilarga xizmat ko`rsatishda, ayniqsa shaharlar atrofidagi qatnovlarda elektropoezlardan tobora kamroq foydalanilmoqda.

7g`jadval

**O`zbekistonda transport turlari bo`yicha yok tashish tarkibi
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)**

№	Soha	Yo'lovchi tashish	Yo'lovchi aylanmasi
1	Avtomobil` transporti	0,5	6,9
2	quvur yo`li	0,03	11,6
3	Temir yo`l	8,6	5,2
4	Havo yo`llari	90,9	76,3

8g`jadval

O`zbekistonda transport turlari bo`yicha yo`lovchi tashish va yo`lovchi aylanmasi tarkibi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)

№	Soha	Yo'lovchi tashish	Yo'lovchi aylanmasi
1	Temir yo`l	0,5	6,9
2	Havo yo`li	0,03	11,6
3	SHahar elektr transporti	8,6	5,2
4	Avtomobil` transporti	90,9	76,3

Avtomobil` transporti va yo`llari. Respublika xalq xo`jaligining barcha tarmoqlari va mamlakat aholisi ehtiyojlarini qondirish darajasida rivojlangan avtomobil` transportiga ega. Xalq xo`jaligining sanoat, qishloq xo`jaligi, qurilish, suv xo`jaligi, aloqa, savdo, sog`liqni saqlash, kommunal xo`jaligi, madaniyat, mudofaa va boshqa tarmoqlarida ixtisoslashtirilgan yirik avtotransport korxonalari mavjud.

2001 yil respublikada umumiy foydalanadigan avtomobil` transportida yo`lovchilar tashishga mo`ljallangan 16,7 ming avtobus, 5,5 mingdan kuproq engil taksi mashinalari ishladi. Respublika bo`yicha 2992 avtobus marshrutlarida (jumladan, 623 shahar, 1798 shahar, 572 shaharlararo)avtobuslar qatnadi. Avtobuslar bilan 6 mln. ga yaqin yo`lovchi tashiladi. Respublikada 27 avtovokzal, 120 avtostantsiya xizmat ko`rsatadi. Faqat shaharlardagi avtobus marshrutlarida turli markadagi 3,65 mingga yaqin avtobus qatnaydi.

O'zbekiston va qoraqalpog'iston xalq xo'jaligi tasarrufida turli maqsadlarga mo'ljallangan 200 mingga yaqin yuk avtomobillari, 45,4 ming avtobus, 50,9 ming engil avtomobil xizmat ko'rsatadi. SHuningdek, fuqarolarning shaxsiy mulki bo'lgan 801,2 ming engil avtomobil bor.

Yuk va yo'lovchilar tashuvchi umumiy foydalaniladigan avtomobil transportining yirik korxonalari «O'zavtotrans» davlat aksionerlik korparitsiyasi tarkibiga kiradi. Korparatsiya 1993 yil yanvarda tashkil etilgan. Tarkibida aksiyadorlar jamiyatlariga aylantirilgan, yo'lovchi tashishni amalga oshiridigan 99, yuk tashish bilan shug'ullanadigan 99 va aralash 67 avtokorxona bor. Bu avtokorxonalarda 14 mingdan ortiq avtobus, 24,6 ming yuk avtomobili (10 mingga yaqini o'zi ag'daruvchi mashinalar) bo'lib, ularda 2001 yili 420,6 mln.t ga yaqin yuk tashildi. Bu jami transport turlarida tashilgan umumiy yuk hajmining 24,7 foizini avtomobil transportida tashilgan yukning 36,8 foizini tashkil etadi.

Korparatsiyasining «O'ztashqitrans» savdog transport birlashmasi va «O'zbekavtotur» firmasi xalqaro yuk tashish va yo'lovchilar qatnoviga xizmat ko'rsatadi. Keyingi yillarda korparatsiya aholiga avtotransport xizmati ko'rsatishni rivojlantirmoqda. SHaharlararo yuk tashishni «O'zshaharlararotrans» ishlab chiqarish birlashmasi korxonalari amalga oshiradi. Avtomobil transporti tizimida «Yo'lovchi» O'zbekiston aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi yo'lovchilarni sug'urta qilish ishlari bilan shug'ullanadi. Keyingi yillarda bozor iqtisodiyotidan kelib chiqib, yuk avtomobillari gaz yoqilg'isi bilan ishlashga o'tkazilmoqda.

O'zbekiston va qoraqalpog'iston Respublikasi rivojlangan, zamonaviy talablarga javob beradigan, xalqaro, respublika mahalliy ahamiyatiga molik yo'l xo'jaligiga ega. Yo'l xo'jaligi tarmoqlararo 43,5 ming ishchi va muhandisg'texnika xodim band. Respublikadagi avtomobil yo'llarining jami uzunligi 175 ming km dan ortiq. Umumiy

foydalaniladigan avtomobil` yo`llarining uzunligi 53,4 ming km. Ularning jumladan 3843 kilometri xalqaro, 1980 kilometri davlat (respublika) ahamiyatiga, 23439 km mahalliy (viloyat) ahamiyatga ega yo`llardir. SHuningdek, respublikada idoralar (korxona, jamoa xo`jaliklari, xo`jalik tashkilotlari) ga qarashli yo`llar ham mavjud.

1992 yil 3 iulda «Avtomobil` yo`llari to`g`risida» O`zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. 1992 yil fevralda O`zbekiston avtomobil` yo`llarini qurish va undan foydalanish davlatg`aktsiyadorlik kontserni («O`zavtoyo`l») tuzildi. Kontsern tarkibida qoraqalpog`iston Respublikasi va viloyatlar avtomobil` yo`llari boshqarmalari, 532 ta yo`llarni asrash va ulardan foydalanish bo`limlari, «O`zyo`lloyiha» respublika yo`l va inshootlar qurish, qayta qurish va ta`mirlash bo`yicha loyihag` qidiruv institu, ko`prik temir – beton qurilmalari zavodi va boshqa korxonalar bor. XXg`asr boshida O`zbekistonda 27 ming km yo`l bo`lib, asosan otg`arava, karvon va yo`lovchilarga mo`ljallangan, shundan faqat 2 ming km ga shag`al yotqizilgan edi. Respublika mustaqillikka erishgandan keyin mavjud avtomobil` yo`llarni xalqaro andozalarga moslash, ularni saqlash va ta`mirlash, yangi barpo etilayotgan sanoat rayonlarini xalqaro magistrallar bilan bog`laydigan yo`llar qurilishi masalalariga e`tibor kuchaydi. Bu borada republika Xitoy va Pokistonga chiqish imkoniyatini beruvchi Andijong`O`shg`Ergaitomg`qashqar avtomobil` yo`lini ishga tushirishda (1997yil 21iul`)Hind okeaniga chiqishga imkon beradigan Termizg`Hirotg`Karachi avtomobil` yo`li qurilishida o`z ulushi bilan qatnashmoqda. Respublikaning o`zida Farg`ona vodiysi bilan Toshkent vohasini qamchiq davoni (tankel`) orqali bog`laydigan yirik avtomobil` yo`li hamda qo`ng`irotg`Beynov avtomagistrali qurilishi jadal olib borilmoqda.

Respublikada jami yo'llarning 95,6% iga qattiq qoplamalar yotqizilgan, jumladan, tsementg`beton qoplamali yo'llar 0,8%ni (336 km), asfal`tg`beton qoplamali yo'llar 49,6% (21819km),qora shag`alli va qora qoplamali yo'llar 40,6% (17796 km)ni tashkil etadi.

9g`jadval

Avtomobil` yo'llari qurulishining asosiy ko`rsatkichlari, ming. km.

	1990 y.	1995 y	2000y	2001y
Xalq xo`jaligining jami tosh yo'llari	78,4	83,2	84,8	85,7
SHu jumladan, qattiq qoplamali	67,0	70,7	73,6	74,4
Umumiy foydalaniladigan tosh yo'llar jami	42,7	43,2	43,3	43,5
SHu jumladan, qattiq qoplamali yo'llar	40,4	40,9	41,3	41,6
Ulardan				
g`tsementg`beton qoplamali	0,3	0,3	0,3	0,3
g`asfal`tg`beton qoplamali	20,7	21,4	21,7	21,9
g`qatrong`shag`al va qora qoplamali tosh yo'llar	17,7	17,5	17,7	17,8

Havo, suv va boshqa transport vositalari. O`zbekiston jahondagi ko`p mamlakatlarning poytaxtlari, yirik shaharlar, sanoat markazlari bilan havo yo'llari orqali bog`langan.

Respublikaning havo transportig`fuqaro aviatsiyasi tarixi 1920 yillardan boshlanadi. 1924 yil 12 mayda uzunligi 800 km bo`lgan Toshkentg`Avliyoota (Jambul)g`Pishpek (Beshkek)g`Olmaota

marshrutida dastlabki yo'lovchilar tashish reysi amalga oshirildi. O'sha yili uzunligi 450 km bo'lgan Kogong'Oqto'qayg'Darg'onotag'Xiva hamda Buxorog'Termizg'Dushanbe havo yo'llari ochildi. 1930 yildan Toshkent –Moskva yo'lida samolyotlar muntazam qatnay boshladi.

Aviatsiyadan qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi ko'rashda va sanitariya maqsadlarida ham foydalanildi.

Respublika mustaqillikka erishganidan keyin 1992 yildan sobiq ittifoq tasarrufida bo'lgan O'zbekiston Fuqaro aviatsiyasi boshqarmasi, fuqaro aviatsiyasining 243g'ta'mirlash zavodi, «Aviaqurilish» birlashmasiga qarashli «Aviamaxsusmontajsozlash» negizida «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi tashkil etildi.

Respublikaning, ayniqsa, xorijiy mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy, turistik aloqalarini yo'lga qo'yishda o'z havo transporti muhim rol o'ynamoqda. «O'zbekiston havo yo'llari» ning bir qancha Evropa va Osiyo, Amerika mamlakatlarida vakolatxonalari ochildi. 1993g'95 yillarda 18 ta yangi xalqaro marshrutlarda samolyotlar qatnovi yo'lga qo'yildi: 1993 yildan Toshkentdan MDH dan tashqari London, Manchester, Frankfurtd'Mayn, Tel'g'Aviv, SHarja, Jidda, Istanbul, Karachi, Dehli, Kualag'Lumpur, Bangkok, Pyokin, Afina, Amstyordam, Seul va N'og'York shaharlariga muntazam xalqaro aviareyslar, Halab (Ampo), Singapur hamda Osiyo va Evropaning ko'pgina mamlakatlariga yo'lovchi tashish reyslari bajariladi.

«O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi Germaniya, Frantsiya, Rossiya firmalari bilan turli sohalarda hamkorlik qilmoqda. 1993 yildan shunday hamkorlik natijasida Evropaning yirik «Erbas industri» kontsernidan «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi sotib olgan «Erbas»g'Ag'310g'300 avtobuslari xalqaro marshrutlarda yo'lovchilarga xizmat ko'rsata boshladi.

«O`zbekiston havo yo`llari» aviakompaniyasi va Nukusdagi bo`linmasi xilmag`xil tipdagi havo kemalariga ega: qishloq xo`jalik ishlariga mo`ljallangan «ANg`2», mahalliy (respublika ichida) havo yo`llarida qatnaydigan «ANg`24», «YAKg`40», xalqaro klassdagi «ILg`76», «ILg`62», «ILg`86», «TUg`154», «Ag`310» kabi samolyotlar, vertolyot parkida «MIg`2», «MIg`8», «KAg`26» kabi mashinalar bor. Respublikada «ANg`2» samolyoti, «MIg`2», «MIg`8», «KAg`26» vertolyotlaridan iborat maxsus maqsadlardagi aviatsiya parki qishloq xo`jaligi, tibbiyog`sanitariya xizmati, meteorologiya, geologiyag`qidiruv, gaz sanoati va boshqa sohalarida unumli ishlatiladi. 1996 yildan «BOINGg`757» va «BOINGg`764» samolyotlari, mahalliy havo yo`llarida ILg`114, Rjg`85 samolyotlaridan foydalanilmoqda.

«O`zbekiston havo yo`llari» milliy aviakompaniyasi tarkibida 12 zamonaviy aerovokzal (aeroport)bor. Bular Toshkent. Samarqand, Andijon, Buxoro, Navoiy, Namangan, Nukus, Termiz, O`rganch, Farg`ona, qarshi, qo`qon shaharlarida. Sergeli, Uchquduq, Zarafshon, Sariosiyo, SHahrisabz, qo`ng`irot, To`rtko`l, Mo`ynoq shaharlaridagi aeroportlar viloyat markazidagi aeroportlarga qaraydi, «YAKg`40», «ANg`24» samolyotlarini qabul qilishga moslashtirilgan.

Viloyat markazlaridagi aeroportlar «TUg`154»,Samarqand, Namangan, O`rganch, Termiz aeroportlari «ILg`62», «ILg`76», Nukus aeroporti «ILg`86», «Ag`313» aerobuslarni qabul qilishga qodir.

Toshkent, Samarqand, Termiz, Nukus aeroportlari xalqaro maqomga ega. Respublika hukumati qaroriga ko`ra, yangi yirik xalqaro aeroport, Uchquduqda jahondagi eng ilg`or andozalarga mos keladigan katta aeroport qurilishi boshlandi.

XXg`asr boshlarida Amudaryo va Orol dengizidagi suv yo`llari bo`ylab yuklar va yo`lovchilarning ancha qismi tashilgan. 1924 yilda kema va qayiqlar qatnaydigan suv yo`llarining umumiy uzunligi 887 km

edi. Amudaryo harbiy flotilayasi, «Xiva», «Merkuriy» aktsiyadorlik jamiyatlari kemalarida, shuningdek xususiy qayiqlarda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatilgan, zarur yuklar tashib berilgan. O'sha davrda O'rta Osiyo suv yo'llarida umumiy yuk ortish quvvati 7 ming t bo'lgan kema va 50 barja, umumiy yuk ortish quvvati 24 ming t bo'lgan 1500 qayiq bor edi. 1980 yilda O'zbekistonda suv yo'llarining umumiy uzunligi 2800 km ga etdi. Amudaryo panji (Tojikiston) bandargohidan Mo'ynoqqa qadar paraxodlar qatnovi amalga oshirildi.

Daryo suvining kamayishi va Orol dengizining qurib borishi natijasida suv yo'llari keskin qisqardi, ammo shunga qaramay 1980 yili daryo transportida 1420 ming t. yuk tashildi. O'rta Osiyo respublikalari mustaqillikka erishganlaridan keyin O'rta Osiyo paroxodchiligi Turkmaniston, O'zbekiston, Tojikiston o'rtasida taqsimlandi. 1994 yil may oyida O'zbekiston Respublikasida joylashgan daryo floti bo'linmalarini boshqarish tartibi qayta tashkil etildi. O'rta Osiyo paroxodchiligining O'zbekistondagi bo'linmalari negizida «Termiz daryo porti», «Xorazm daryo floti», «qoraqalpog'iston daryo floti» ishlab chiqarish birlashmalari tashkil etildi. «O'zavtotrans» korparatsiyasi hududida daryo floti ishini muvofiqlashtirish bo'yicha bosh boshqarma (Toshkentda) tuzildi. Respublikada Termiz daryo porti, SHarlovuq, To'rtko'l, Beruniy, qaratov, Xo'jayli bandargohlari, Amudaryo orqali To'rtko'lg'Xonqa, CHalishg'Beruniy suzma ko'priklari, Xo'jayli kema ta'mirlash zavodi ishlab turibdi. Termiz daryo porti yiliga 2,5 mln. t. yukni qabul qilish g'jo'natish quvvatiga ega. U Afg'onistonning Hayraton bandorgohi orqali eksportg'import yuklarini etqazib berishda xalqaro ahamiyatga molik. Respublika daryo flotida 150 ga yaqin teploxod, shuningdek barjalar, zemlesoslar, suzuvchi ekskavatorlar, port kranlari va boshqa yordamchi kemalar, texnika vositalari bor. Respublika suv yo'llarining umumiy uzunligi 1000 km ga yaqin. Xalq xo'jaligi yuklari

asosan Termizg`Hayraton, SHarlovuqg`To`rtko`l, Xo`jaylig`To`rtko`l, Xo`jaylig`Beruniy, qoratovg`Taxiyatosh yo`nalishlarida tashilmoqda. O`zbekistonning port va bandorgohlari temir yo`llar bilan bog`langan.

Respublikada truboprovod transporti ham alohida o`rin tutadi. O`zbekistonda 20 km uzunlikdagi birinchi nefteprovod 1905 yil CHimyon neft` konidan Vannovsk (hozirgi Oltariq) neftni qayta ishlash zavodi tortilgan. Keyinchalik Farg`ona vodiysi, Surxondaryo viloyatida yangi neft` konlari ochilishi bilan transportning bu turi jadal rivojlantirildi. Neft` konlaridan Farg`ona va Oltariq neftni qayta ishlash zavodlariga umumiy uzunligi 228,5 km bo`lgan nefteprovodlar qurildi. Respublika janubidag`Surxondaryo viloyatida 1947 yil Lalmikor g` qo`mqo`rg`on va 1969 yil Amudaryog` Amug`Zang liniyalari barpo etildi (umumiy uzunligi 40 km). qashqadaryo yangi neft` konlari ochilganidan keyin 1967 yil /arbiyg`Toshloqg`qashqadaryo statsiyasi (3,3 km) SHimoliy O`rtabuloqg`Oltingugurt zavodi (72 km) nefteprovolari ishga tunshirildi. 1994g`1997 yillarda uzunligi 100 km bo`lgan Ko`kdumaloqg`Buxoro neftni qayta ishlash zavodi nefteprovodi qurilib, ishga tushirildi. Farg`ona neftni qayta ishlash zavodini xom ashyo bilan uzluksiz ta`minlashga xizmat qiladigan qamchiq davoni orqali o`tadigan Xonobodg`Angren nefteprovodi qurulishini loyihalash ishlari olib borilmoqda. Buxoro, qashqadaryo viloyatlarida ulkan gaz konlarining topilishi va ishga tushirilishi bilan O`zbekistonda gazprovod transporti rivoj topdi.

SHahar yo`lovchilar tashish transporti

Respublika shaharlarida aholiga yo`lovchilarni belgilangan marshrutlarda tashiydigan jamoat ko`cha transportig`avtobus, tramvay, trolleybus, er osti transport (metropoliten), engil avtomobil` transporti (taksi) xizmat ko`rsatadi. SHahar yo`lovchilar tashish transportining ijtimoiy turi XIXg`asrning ikkinchi yarmida yirik shaharlarda paydo

bo'lgan ko'psonli izvoshtar edi. 1901 yilda Toshkentda konka g` tor temir yo`li izidan otlar sudraydigan bir vagonli aravachalar dastlabki shahar transporti, 1912 yil birinchi tramvay qatnay boshladi. 1913 yili tor izli tramvay yo`lining uzunligi 38 km ga etqazildi. Unda 68 tramvay vagoni qatnadi, 27 mln. yo`lovchi tashildi.

Trolleybus qatnovi 1947 yil Toshkentda boshlandi (trolleybus yo`li uzunligi 18 km, 10 ta mashina). Keyingi yillarda Samarqand (1967), Olmaliq (1968), Farg`ona (1970), Andijon (1971), Namangan (1973), Buxoro (1987), Nukus (1992), O`rganch (1997), Jizzax(1997) shaharlarida ham trolleybuslar qatnay boshladi. Trolleybus yo`llarining umumiy uzunligi 403 km (1998 Toshkent shahrisiz), shu shumladan, Andijonda (72,2 km) Buxoroda (30,7 km), Namanganda (65,5 km), Nukusda (15 km) Olmaliqda (53,2 km), Samarqandda (65,5 km), Farg`onada (56 km), Uranchda (5 km), Jizzaxda (14 km), Toshkent shahrining o`zida esa 296,5 km. 1997 yilda Xivaning 2500 yilligini nishonlash arafasida O`rganch shahrida aeroport bilan temir yo`l vokzalini bog`laydigan trolleybus yo`li va 25 km li O`rganchg`Xiva trolleybus yo`li ishga tushirildi.

Tramvay qatnovi Toshkent shahrida rivojlangan. Tramvay yo`llarinig uzunligi 293,1 km, 1995 yilda 23 marshrutda o`rtacha 293 tramvay (vagon) yo`lovchilarga xizmat ko`rsatdi. Toshkent shahrining o`zida tramvay va trolleybuslar bir kunda 1 mln. dan ortiq yo`lovchiga xizmat ko`rsatadi.

Avtomobil` yo`lovchilar transporti muhim o`rinda turadi. 85 shahar va shaharchalarga ichki shahar avtobus va engil taksi qatnovi yo`lga qo`yilgan, shaharlarda 670 dan ortiq marshrutda avtobuslar qatnaydi. Nukus shaharida 70g`yillik arafasida yo`lovchilarni yangi marshruti avtobuslari foydalanishga topshirish asosida umumiy hajmining 75% dan ko`prog`i avtobus va engil hamda mikroavtobus taksilarga to`g`ri keladi.

Metropoliten yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishda tabora katta ahamiyat kasb etmoqda. Respublikada metro qurilishi Toshkent shahrida 1972 yildan boshlandi. Unig uzunligi 12,2 km bo'lgan «Sobir Rahimov»g` «Maksim Gor'kiy» statsiyalari 1g`yo'lining birinchi navbati 1997 yil 6 noyabr`da, 4,6 km li 2g`navbati 1980 yil 18 avgustda ishga tushirildi. Toshkent metropolitenining ikkinchi yo'li «Mashinasoz»g`«Beruniy» statsiyalari 1984g`91 yillarda 4 navbat bilan boqichmag`bosqich foydalanishga tushirildi (uzunligi qariyb 15 km). Toshket metropolitenining 3g`yo'li shahar markazini Yunusobod dahasi bilan bog`laydi. Uzunligi 14 km bo'lgan bu yo'l ham ishga tushirildi. Metropolitenda sutkasiga o`rtacha 300g`500 ming yo'lovchi tashiladi.

a) Respublika transport majmuini tartibga solish

O'zbekiston Respublikasida umumiy foydalaniladigan yuk va yo'lovchilar tashuvchi transportning barcha temir yo'l, avtomobil`, aviyatsiya, shahar elektr transport, daryo, truboprovod transporti, shuningdek, umumiy foydalanilmaydigan g` temir yo'l, avtomobil`, tasmali transport, osma arqon transporti rivoj topgan. 2001 yil mamlakat yalpi ichki mahsulotning 8,8%i transport tarmoqlari hissasiga to'g'ri keldi. Transport tarmoqlarida band bo'lgan ishchig`xizmatchilarning o`rtacha yillik soni 318,1 ming nafarni, jumladan, temir yo'l transportida 62,1 ming, suv, daryo transportida 0,6 ming, avtomobil`, shahar elektr transporti, yuk ortishg` tushirish korxonalarida 303,8 ming nafarni tashkil etdi. Mustaqillikkacha respublika transportining asosiy turlari sobiq ittifoqining markaziy vazirliklariga yoki ularning O'rta Osiyo, O'zbekiston bo'yicha hududiy boshqarmalariga bo'ysungan: temir yo'l transportiga O'rta Osiyo temir yo'l transportiga, O'rta Osiyo davlat paraxodchiligi boshqarmasi, havo transportiga Ittifoq fuqaro aviatsiya vazirligining O'zbekiston Fuqaro

aviatsiyasi boshqarmasi, umumiy foydalanishdagi avtomobil transportiga O`zSSR avtomobil transporti vazirligi rahbarlik qilgan.

Respublika mustaqillikka erishgandan keyin transportning xalq xo`jaligiga va aholiga xizmat ko`rsatishini tubdan yaxshilash va transport boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadlarida «O`zbekiston havo yo`llari» milliy aviakompaniyasi», «O`zbekiston avtomobil transporti», davlat aktsiyadorlik korportsiyasi, «O`zbekiston temir yo`llari» davlat g` aktsiyadorlik kompaniyasi va boshqa idoralar tashkil etildi. Mamlakat transport korxonalarini davlat ishtirokidagi aktsionerlik kompaniyalari, korporatsiyalari, ochiq turdagi aktsionerlik, mas`uliyati cheklangan jamiyatlarga, jamoa korxonalariga aylantirildi.

Respublikada avtotransport vositalarining bir qismi jamoa xo`jaliklari, fuqarolarning mulki. Sanoat va qishloq xo`jaligida ishlab chiqarishning o`sishi, keng miqyosdagi kapital qurilishi va transport moddiy g` texnika bazasining yuksalishi bilan yuk va yo`lovchilar tashish hajmlari ham orta bordi. Respublikamizning umumiy yuk oborotida transport turlarining solishtirma hisssasi ham o`zgardi. Umumiy foydalanishdagi va sanoat transporti turlarida yuk, avtomobil transportida esa yo`lovchilarning asosiy qismi tashildi.

Respublikada transport iqtisodiy rayonlar va korxonalar, xalq, xo`jaligi tarmoqlari o`rtasida, shuningdek, mamlakatlarda iqtisodiy aloqalarni ta`minlaydi.

Respublikaning transport tizimi temir yo`l, avtomobil yo`llari, zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan vokzallar, stantsiyalar, yuk omborlari va boshqa infratuzilma bo`linmalarini qamraydigan murakkab xalq xo`jaligi majmuini tashkil etadi.

Transport majmuini tartibga solishda quyidagi ko`rsatkichlardan foydalaniladi:

- tashiladigan yuklarning hajmi;

- yuk oboroti;
- yoʻlovchi oboroti;
- yuk tashishning oʻrtacha masofasi
- harakatdagi transport vositalaridan foydalanishning texnik koʻrsatkichlari.

Bu koʻrsatkichlar har bir transport turining xususiyatlariga qarab ajratiladi. Temir yoʻl transporti texnikgʻiqtisodiy koʻrsatkichlariga koʻra boʻlinadi: a) 1gʻvagonga toʻgʻri keladigan statik va dinamik ogʻirlik; b)vagonlarning aylanish vaqti; v) texnik va uchastka tizimi; g) yuk vagonlarining oʻrtacha sutkalik mehnat unimdorligi.

6.3. Transport korxonalarining istiqbolli faoliyatini yaratish asoslari

Iqtisod qilish, yaʼni tejash natijasida olingan moddiy yoki moliyaviy resurs, vaqt, foyda. Iqtisodiyotning asl maʼnosi uy xoʻjaligini yuritish, xoʻjalikni boshqarish sanʼati.

Iqtisodiyot keng maʼnoda esa:

gʻxizmat koʻrsatish mablagʻlarining korxona miqyosidagi boshqarish subʼektiga bogʻliqligi;

gʻishlab chiqarish munosabatlarining jami (tizimi), jamiyatning ijtimoiy bazasi;

gʻmamlakat, respublika, viloyat, tumanlar xoʻjaligi, ayrim bir tarmoq, masalan transportning bir tarmogʻi gʻ avto transporti; sanoat; qishloq xoʻjaligi;

gʻishlab chiqarish munosabatlarini va xoʻjalik tegishli tarmoqlari (transport, savdo, qurilish iqtisodiyoti va boshqalar) rivojlanishining oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganish bilan shugʻullanadigan fan sohasi, xoʻjalikning tegishli boʻgʻinlari (korxona kontsern, assotsiatsiya iqtisodiyotining iqtisodiy muammolarini, boyliklar, resurslar), masalan,

mehnat resurslarining turli xillaridan foydalanishni o`rganadigan fanning mustaqil sohasi.

Iqtisodiyot fanlari ishlab chiqarish munosabatlarini, odamlar orasidagi munosabatlarni o`rganadi. Iqtisodiyot ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish vositalariga bo`lgan munosabatlarning darajasi va tavsiflari bilan aniqlanadi.

Iqtisodiyot – bu, jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarni o`rganadigan iqtisodiy fanlar tizimi (tarmoq iqtisodiy fanlari – sanoat, transport va boshqalar; vazifasi, ishi, xizmati yoki funktsiyasiga oid iqtisodiy fanlar – moliya, hisobchilik hisobi, tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti va boshqalar).

Iqtisodiyotning aniq turlarini va amal qilish mexanizmini talqin qilishdagi bosqich g` boshqaruvning tashkiliy tuzilmalarini va ularning vazifalarini tahlil qilishdir. Xo`jalikni boshqarish – umumlashtirilgan mehnatning mahsuli va zaruriy shartidir.

Mehnat taqsimoti uning ijtimoiy xususiyati kuchayishi jarayonida boshqaruv faoliyatining mustaqil bir turi sifatida ajralib chiqdi. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalari va maxsus organlari shundan kelib chiqadi. Umumlashtirish mantiqiga muvofiq faqat shunday tuzilmalar va boshqaruv organlari yashash huquqiga ega bo`ldiki, bularsiz ishlab chiqarish bo`g`inlari (transport xizmati, aholi transporti vositalariga THK korxonalari va uning bo`linmalari)ning o`zlari (koxonalar, kontserelar, assotsiatsiyalar, korpariyatsiyalar) muayyan o`zaro aloqasidan kelib chiquvchi tarmoq jarayonlarini yagona ijtimoiy jarayonga qo`shish vazifalarini hal etishga qodir bo`lmay qolmaydi.

Iqtisodiyot mulkchilik shaklidan, tarmoq va hududlarning tarixiy davrlaridan qat`i nazar xo`jalik yuritishning bir qancha tamoyillariga rioya qilinishi mustasno etadi. Bu – natijalar va harakatlarni o`lchab bo`lish, boyliklarni hisobga olish va ulardan oqilona foydalanish, ishlab

chiqaruvchilar uchun ma'lum rag'batlantirish imkonini yaratish, demakdir.

Iqtisod aholining turmush darajasini ko'tarish, jamiyatning ijtimoiy va boshqa hayot faoliyatlarini taraqqiy ettirish bilan tavsiflanadi. SHunday ekan, O'zbekiston aholisining hozirgi darajasiga nisbatan ancha yuqori, jamiyatimizning esa ijtimoiy faolligi o'ta baland. SHu tufayli xalqimizning shaxsiy mulki, shu jumladan, shaxsiy avtomobillar ortib bormoqda.

Korxona faoliyati deganda uning bajaradigan ishi, ma'lum bir yo'naltishda ishlashi, avtomobil` transporti yoki avtomobillarga TXK, korxona jamosining ijtimoiy harakati, maqsadga erishish uchun jamoa a'zolariga ta'sir etish, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish dasturining bajarilishiga harakat qilish, xo'jalikni yoritish, xo'jalikni boshqarish, aqliy va jismoniy kuchlardan, korxona mablag'laridan foydalanish kabi vazifalar tushiniladi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun korxonani tashkil etuvchi odamlar guruhlarining faoliyatlari o'zaro muvofiqlashtiriladi.

Korxonaning iqtisodiy va xizmat ko'rsatish faoliyati darajasi foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari g` mablag'dan olinadigan daromad, xizmat ko'rsatish sifati, daromad yoki tushumning o'sish sur'ati, mehnat unumdorligi, foyda, bajariladigan xizmatlar harakati va shu kabilar bilan baholanadi.

Korxonaning faoliyati ko'p qirrali va uni boshqarish san'ati uning iqtisodiyotidadir. Har qanday korxona tizim ko'rishini ifodalaydi:

boshqarish tizimi, ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish), ta'minot, zahira, jo'natuvchi, qabul etuvchi va shunga o'xshashlar.

Korxonaning maqsadi unumdorlikni oshirishda va xarajatlarni pasaytirishda, xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda, iste'mol bohorini va

doirasini kengaytirishda va xizmat ko'rsatishni reklama qilishda, xizmat yoki mahsulot turini topishda, ehtiyojni qondirishda ifodalanadi.

Korxonaning iqtisodiy faoliyatini yaxshilash uchun xizmat ko'rsatuvchilar, ayniqsa uning menejerlari ko'pgina qoidalarini, jarayonlar va tavsiflarni bilishlari kerak. Ular natijasida mehnat (xizmat ko'rsatish)ning tartibi birlashsin, shakllari rivojlansin, xizmat ko'rsatishning unsurlari provard natijaga ijobiy ta'sir etib, samaradorlik oshsin. Korxonaning samaradorligini oshirish va foydani ko'paytirish kabilar yordami bilan xizmat ko'rsatish tamoyillari, unsurlari va vositalari korxona menejmenti mohiyati va mazmunini ifodalaydi.

Albatta, korxona faoliyati murakkab tizim va har xil ko'rinishdagi faoliyatdir: tashkiliyg`boshqarish, muhandislikg`menejerli, hisobga olishg`iqtisodiy, nazoratg`taftish, tadqiqot loyihalig` tadqiqot va boshqa faoliyatning umumiy savollaridan tuzilgan.

Korxona bo`linmalari ichida o`zaro birg`biriga bog`liq tizim birig`biriga ta'sir ko'rsatadi, shu jarayonlarga, ya'ni ta'sir etuvchi tashqi omillar ham bor. Korxonaning ichki faoliyati xizmat ko'rsatishni bajarishda, xodimlar, uskunalar, vositalar, asboblari va binolar bilan ta'minlashda namoyon bo`ladi.

Tashqi omillar (mijozlar, yo`lovchilar, mulkdorlar, ehtiyot qismlar materiallar) dan birortasi bo`lmasa, korxona faoliyati qiyinlashadi, ba`zi hollarda korxonada ish to`xtab qoladi, korxona mablag`lari (avtoransport, uskunalar)ning texnik tayyorlik darajasi pasayadi.

Korxonaning xizmat ko'rsatish faoliyatini takomillashtirish xizmat jarayonlarini tashkil etishni yaxshilash, me`yoriy – texnik ta'minlash, egiluvchan yoki epchil boshqarish tizimini yaratish, ehtiyot qism va materiallar bilan ta'minlash, bajariladigan ish sifatini oshirish, korxona xodimlarining malakasini oshirish va bajariladigan ishlarni sifati va

unumi oshishidan xodimlar manfaatdorligini ta'minlash, ularni rag'batlantirish, chorag'tadbirlarini ishlab chiqishda namoyon bo'ladi.

Korxonaning xizmat ko'rsatish va boshqarish tarkibini tanlash, shakllantirishda tizimning tarkibiy usullari orasidagi nisbatan va o'zaro ta'sirni aniqlash, xizmat ko'rsatish jarayonlarini maqbullashtirish hamda zamonaviy texnologik jarayonlar yaratishda o'z ifodasini topadi.

Korxonaning xizmat ko'rsatish faoliyatini samarali tashkil etishda quyidagilarga e'tibor berish o'ta muhim; ish tartibini tanlash; xizmat ko'rsatish va boshqa ishlar bir maromda bajarilishini ta'minlash; eng qulay bo'linmalar tuzilishini ishlab chiqish; korxonaning barcha bo'linmalari bilan eng samarali boshqariladigan usullarni ishlab chiqish va amalga joriy etish; korxona zahiralarini maqbul darajada boshqarish.

Korxonani maqsadga muvofiq faoliyat ko'rsatishini ta'minlash masalalarining ko'pchiligini ommaviy xizmat ko'rsatish nazariyasi usullarini qo'llash orqali hal qilinishi mumkin.

Bu jarayonda, shuningdek, hujjatlarning shakl va aylanish jarayonlarini to'g'ri tanlash va takomillashtirish, xizmat ko'rsatishni boshqarishga, mulkning turli shakllarini ishlatishga va mehnatni ilmiy asosda tashkil etish usullariga e'tibor berish zarur. Bunda, to'g'ri tanlangan boshqaruv apparati xodimlariga ko'p narsa bog'liq. Ularning maqsadga muvofiq ish yoritishi korxonaning xizmat ko'rsatish faoliyatini ta'minlaydi.

Yok va yo'lovchilarni tashish, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etish, korxona menejmentining muhim vazifasi.

Korxonaning istiqbolda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlashda quyidagilarga rioya qilish kerak:

- transport va texnika xizmati ko'rsatish jarayonini texnologik jihatdan qayta qurish va avtomatlashtirish ish jarayoniga, yuqori malakali xodimlarni jalb etishga o'tish;

- korxona xodimlari uchun qulay mehnat sharoitni yaratish, yuqoriroq ish haqi belgilash, bir qancha nomoddiy ragʻbatlantirish shakllarini joriy qilish;
- korxona faoliyatining samaradorligini doimiy nazorat qilish, uning barcha boʻlinmalari ishini muvofiqlashtirish;
- muntazam izlanish va yangi bozorlarni oʻzlashtirish.

SHu bilan birga korxonaning taraqqiy etish maqsadlarini aniqlash, bunda quyidagilarga alohida eʼtibor berish lozim:

- 1) eng muhim masalalarni, ular navbati va echimining ketmagʻketligini aniqlay bilish;
- 2) korxonaning ustuvor rivojlanish ishlanmasini tayyorlash – xoʻjalik masalalari tizimi va ularni echish yoʻllari;
- 3) har xil davrlarga moʻljallangan moammolarni echmoq uchun choragʻtadbirlar tizimini tayyorlash;
- 4) zarur boʻlgan neʼmatlarni va ularni taʼminlash manbalarini baholash;
- 5) qoʻyilgan masala va topshiriqlarning bajarilish ustidan qattiq nazorat oʻrnatish.

Korxona istiqbolli faoliyat koʻrsatishi uchun ustuvor boshqarishga alohida eʼtibor berish lozim. Buning uchun biznesning bosh maqsadini ishlab chiqish, omillar taʼsir koʻrsatib toʻrgan sharoitda korxonaning taraqqiy etish natijalarini bashorat qila bilish, natijalar parametrlaridan ogʻmasligi uchun ustuvor rivojlantirishni qoʻllash kerak. Yuqoridagi choragʻtadbirlar kundalik faoliyatda tezkor boshqarish orqali roʻyobga chiqarilishi shart.

7g`MAVZU. RESPUBLIKANING AGROSANOAT MAJMUI, UNING TARAqqIYOTI VA YOKSALISH YO`LLARI

7.1. Agrosanoat majmui (ASM) – iqtisodning koʻp tarmoqli tizimi sifatida

Xalqimiz tumush farovonligini yaxshilashda, umuman, mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining ahamiyati beqiyos ekanligi barchamizga ma'lum. Agrosanoat majmuining taraqqiyoti nafaqat oziqg'ovqat ta'minotini yaxshilashda, balki muhim xom ashyo sifatida mamlakat industriyasining taraqqiyoti uchun ham asosiy omildir. Ma'lumki, hozirgi paytda O'zbekiston qishloqlaridagi xilmag'xil xo'jaliklarda qariyb 4,5 million gektar maydonda dehqonchilik bilan shug'ullaniladi. Ana shuncha kenglikdagi ziroatni o'stirishda katta va kichik texnika vositalari dehqonga qudratli qanot bo'ladi. Mustaqillik yillarida bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil qilingan «O'zqishloqxo'jalikmashg'xolding» va «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» kompaniyalari ana shu hayotiy tarmoqni mukammal va samarali texnika vositalari bilan ta'min etishni asosiy faoliyat sifatida belgilab olishgan.

Respublika Prezidenti Islom Karimov aytganidek, qishloq xo'jaligini ish samaradorligi yuqori bo'lgan, zamonaviy texnika vositalari bilan lizing asosida ta'minlash tizimining joriy etilishi oldinga tashlangan muhim qadam bo'ladi. To'g'ri, lizing tizimini qo'llash ko'lam hozircha unchalik keng emas, lekin shu narsa aniqki, qishloq mehnatkashlarini texnika bilan ta'minlashning bu usuli katta istiqbolga ega.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, qishloq xo'jalik samaradorligini oksaltirishning asosiy omili sermehnat omushlarni texnika gardaniga o'klashdir. Jahon tajribasi tarmoq ishlab chiqarishining barqarorligi, yuqori unumdorligi ishlab chiqarish kuchlarining kompleks rivojlanishi, ilmiyg'texnika taraqqiyoti, moddiyg'texnika bazasining kuchliligi va kadrlar uchun shartg'sharoit yaratilganligi bilan bevosita mutanosibligini ko'rsatadi.

Buni fermerlar misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, bir fermerga AqSH da o'rtacha 150 gektar ekin maydoni to'g'ri keladi. Bu

ko'rsatkich Kanadada 190, Buyuk Britaniyada 70, Frantsiyada 35, Irlandiyada va Lyuksemburgda 33, Daniyada 32, Olmoniyada 18, Gollandiyada 17, Italiyada 8 gektarga tengdir. Er, texnika, fan yutuqlaridan unumli foydalanilgandagina natijalar yuqori bo'lishi mumkinligini ular amalda isbotlashdi. Umuman, tarmoqdagi iqtisodiy ko'rsatkichlar texnikadan oqilona foydalanishga va uning sifatiga ko'p jihatdan bog'liq deyishimizga to'la asos bor.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 31 yanvardagi qaroriga binoan qishloq xo'jaligi mashinalarini ishlab chiqarish maqsadida «O'zqishloqxo'jalikmashg'xolding» kompaniyasi tashkil etilgan edi. Bu tuzilma tarkibiga 16 ta korxona, 9ta qo'shma korxona, 17 ta mintaqaviy texnika markazi, 72 ta tuman va tumanlararo bo'linmalar, shu jumladan, mashinag'traktor parklari va savdo uylari kiradi.

SHuni ta'kidlash kerakki, 2001 yil natijalariga nazar tashlasak, kompaniyaga qarashli korxonalar ancha murakkab davrni boshdan kechirganligi ayon bo'ladi. Ketmag'ket ro'y bergan suv taqchilligi pirovard natijalarga ta'sir etmay qolmadi. Aksariyat joylarda mhsulot ishlab chiqarish hajmini avvalgi yillardagiga nisbatan amaytirmaslik, erishilgan maromni yo'qotib qo'ymaslik uchun ko'rash ketdi.

Keyingi yillarda kompaniya rivojlangan davlatlarning tarmoq texnikasi ishlab chiqaradigan firmalari bilan hamkorlik qilayotganligi ham ijobiy samara bermoqda. Masalan, 9 ta qo'shma korxona ishga tushirildi va bugungi kunda jahon talablariga javob beradigan texnika vositalari ishlab chiqarmoqda. «O'zKeystraktor», «O'zKeysservis», «Agrixim» korxonalari shular jumlasiga kiradi. Masalan, ular tomonidan faqat o'tgan yilning o'zida mamlakatimiz agrosanoat majmuiga 2760 ta traktor, 971 ta telejka, 100 ta paxta terish mashinasi, 118 ta plug, 994 ta borona, 80 ta pichan o'radigan kombayn, 1066 ta kul'tivator va 1

million so'mlik ehtiyot qismlar va boshqa texnika vositalari va ularning muayyan qismlari etqazib berildi. SHu jumladan, lizing asosida 2 mingta traktor va 404 ta telejka ishlab chiqarilib, dehqonlarga jo'natildi. Respublikada hozirgi paytda nufuzli kompaniya va firmalar vakillari bilan hamkorlikda bir qancha qo'shma korxonalar tuzish bo'yicha loyiha q izlanish ishlari olib borilmoqda. Germaniyadagi «KLASS» va «KION» firmalari bilan «Toshqishloqmash» hissadorlik jamiyatida emg'xashak o'rish kombayni, «O'zqishloqmash» hissadorlik jamiyatida g'alla ekadigan seyalka, «Agregat zavodi» korxonasida frezerlik kul'tivatori ishlab chiqarish uchun tayyorgarlik ko'rilmoqda.

qishloq xo'jaligi mashinasozligi uzluksiz va o'zaro chambarchas tizimga ega. Bu ilmiy g' tadqiqot va tajriba q konstruktorlik ishlarini bajarish, konstruktorlik ishlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va ketmag'ketlikni ta'minlaydi. Ayni paytda tarmoqning ilmiyg'tadqiqot, loyiha institutlari hamda konstruktorlik b'yorlari mavjud. Kompaniya muammolar echimini ta'minlaydigan dasturlar ishlab chiqib, respublika ilmiy – texnika taraqqiyotini Muvofiqlashtirish kengashi (sobiq fan va texnika davlat qo'mitasi) bilan hamkorlikda ish olib bordi. O'tgan yili umuman kompaniya bo'yicha 25 milliard 255,9 million so'mlik texnika vositalari, 622,5 million so'mlmk xalq ist'moli mollari ishlab chiqarildi. Erishilgan ijobiy siljishlar qatorida korxonalarning debitor va kreditor qarzlari kamayganligini tilga olish mumkin.

Kompaniyaning chet el sarmoyasini jalb qilishdan, umuman, uning investitsiya faoliyatidan maqsadi ba'zi korxonalardagi ishlab chiqarish texnikasini yangilashdir. Masalan, yaqin kelajakda Toshkent traktor zavodi, Agregat zavodi, Motor zavodi, Texnolog hissadorlik jamiyatlarida xorij sarmoyasini jalb etish, zamonaviy talablarga javob beradigan texnika vositalari ishlab chiqarish ko'zda tutilmoqda. Hozirgacha kompaniyaga qo'shma korxonalar ustav jamg'armasini

shakllantirish uchun 28,2 million AqSH dollari miqdoridagi chet el sarmoyasi olib kirildi.

Hukumatimizning mahalliy ashyodan mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha dasturiga ko'ra, «Keys» paxta terish kombaynlari va traktorlariga butlovchi qismlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. O'tgan yili «O'zKeysmash»da paxta terish mashinalarining zamonaviy bo'yash majmui va boshqa ba'zi qismlari ta'mirlandi. «Toshqishloqmash»da korxonasida paxta terish mashinasining bunkeri, uning ba'zi qismlarini ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Tarmoq texnikasi uchun gidrotsilindrlar tayyorlaydigan chet el dastgohi sotib olinmoqda.

7.2. Agrosanoat majmui rivojlanishining asosiy muammolari

Agrosanoat majmui (ASM) g' qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish, saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga etqazib berish bilan band bo'lgan xalq xo'jaligi tarmoqlarining jamlanmasidir. ASMga kiruvchi tarmoqlarning barchasi pirovard natijada muhim vazifani mamlakatni oziqg'ovqat va qishloq xo'jalik xom ashyosi bilan ta'minlash vazifasini bajaradi.

ASM tarkibida uchta soha ajralib turadi:

- qishloq xo'jaligi va unga aloqador tarmoqlar uchun ishlab chiqarish vositalari etqazib beradigan, shuningdek, qishloq xo'jaligiga ishlabg'chiqarish texnika xizmati ko'rsatadigan sanoat tarmoqlari (masalan, qishloq xo'jaligi mashinasozligi);
- qishloq xo'jaligining o'zi;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash va iste'molchilarga etqazib berish (tayyorlash, saqlash, qayta ishlash, tashish, sotish) bilan band bo'lgan tarmoqlar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu infratuzilmani rivojlantirish mamlakat aholisi ehtiyojini qondirish bilan bir qatorda mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantiruvchi kuchga aylanishi mumkin.

Mustaqillik yillarida ASMDa juda ko'p yutuqlarga erishish bilan birga, albatta, kamchiliklarga ham yo'l qo'yildi, iqtisodiy islohotlar jarayonida yangi muammolar ham yuzaga chiqdi. Endigi vazifag' ushbu muammolarni chuqur tahlil qilib, ularning echimini topishdan iborat. Agrar sektorning bundan keyingi rivojlanishida quyidagi muammolarga e'tibor berish zarur:

1) O'n bir yillik tajriba shuni ko'rsatadiki, barcha bo'g'inlarda kadrlar yangicha ishlashga, bozor munosabatlariga to'liq moslasha olmayotirlar. Bu, ayniqsa, tumanlar va xo'jaliklar miqyosida ko'proq ko'zga tashlanmoqda. To'g'ri, har yili kadrlar o'quvi o'tkazilmoqda, ammo aksariyat rahbar kadrlar ish yuritishni bozor munosabatlari asosida emas, balki, eskicha – ma'muriyg' buyruqbozlik asosida olib bormoqda;

2) Agrar soha uchun muhim masala bo'lgan ekologiya masalalari islohot jarayonida birmuncha chetda qolmoqda. Vaholanki, bu muammo o'ziga e'tiborni talab qiladi. Bugungi kunda tuproq unumdorligining pasayib borishi, og'ir texnika va samarasi past texnologiyalar qo'llanilayotganligi oqibatida tuproq strukturasining buzilishi, sho'rlanish darajasining ortib borishi shundan dalolat bermoqda. SHuningdek, aholini ekologik toza oziqg'ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash masalasi ham alohida e'tiborni talab qiladi;

3) Ba'zi iqtisodchilar, qishloq xo'jaligida islohotlarni qo'shimcha mablag' sarflamasdan olib borish mumkin, degan fikrlarni ilgari surmoqdalar. Ularning fikriga qo'shilish qiyin. Negaki, rivojlangan mamlakatlar tajribasiga qarasak, ularning ko'pchiligida fermerlar daromadining 40g'50 va hattoki 60 foizini tashkil qiladi. SHuni hisobga

olib, agrar sohani qo'llabg'quvvatlash fondini tashkil qilish va uning mablag'i qishloq aholisining ijtimoiy hayoti, ekologiya muvozanatini saqlash, moddiyg'texnika bazasini mustahkamlashga qaratilishi zarur.

4) qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish moliyag'kredit mexanizmini takomillashtirishni talab qiladi. Chunki, xo'jaliklarning to'g'ridang'to'g'ri kredit olishlari nihoyatda murakkab, ayniqsa, uzoq muddatli kreditlar hajmining kamayib ketishi natijasida xo'jaliklar moddiyg'texnika bazasini mustahkamlash va yangilab borish imkoniyatlari chegaralanib qolmoqda. Albatta, lizing tizimining tuzilishi bu muammoni biroz engillashtiradi, ammo barcha turdagi asosiy vositalarni qamrab olmagan;

5) qishloq xo'jaligi moddiy ta'minoti, texnika, mineral o'g'it, yoqilg'i moylash materiallari bilan ta'minlanishi bugungi kun talablari darajasida emas, moddiyg'texnika resurslarining narxi qishloq xo'jalik mahsulotlari narxiga nisbatan bir necha barobar yuqori va tez oshib bormoqda. qishloq xo'jaligi uchun kerakli sanoat mollariga narx belgilashni ham tartibga solish lozim. qishloq xo'jalik korxonalariga servis xizmati ko'rsatish talab darajasida emas, shuningdek, xizmat haqlarining bahosi nihoyatda yuqori;

6) O'zlari qabul qilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari uchun tayyorlov tashkilotlari vaqtida haq to'lamayotganligi natijasida xo'jaliklarning moliyaviy holati og'irlashmoqda, buning ustiga inflyatsiya og'irligi ham butunlay qishloq xo'jaligi korxonalari elkasiga tushmoqda;

7) qishloq xo'jaligini qiyin ahvoldan olib chiqish uchun qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan barcha sohalar unga o'z yordamini ko'rsatishi zarur. SHundagina ular qishloq xo'jaligidan arzon va sifatli xom ashyo oladilar, o'z navbatida, qishloq ularning mahsulotlari uchun muhim bozor vazifasini bajaradi;

8) Hozirgi kunda mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni kechmoqda, endilikda bu jarayonda agrar sektorni boshqarishdan uni tartibga solishga o'tish, narxg'navoni erkinlashtirish bilan birga uni davlat tomonidan tartibga solish taqozo etiladi. SHuni hisobga olib, qishloq xo'jalik mahsulotlarining pastki va yuqorigi narxlari chegarasini davlat tomonidan nazorat qilish tizimini yaratish zarur.

Iqtisodiy islohotlar O'zbekistonda, birinchi navbatda, agrar sektorda boshlandi. Buning o'ziga xos ramziy ma'nosi bor, chunki aholining 60% dan ko'prog'i, ish bilan band aholining 44%i qishloq joylarda yashab, mehnat qilmoqda, YAIMning 30%i, valyuta tushumining 55%i, tovar mahsulot almashinuvining 70 foizi, oziqg'ovqat mahsulotlarining 90%i agrar sektor hissasiga to'g'ri keladi.

1991 yilning 11 yanvarida mamlakatdagi shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha tadbirlar belgilandi. Prezident ko'rsatmasi asosida yana 1 million 221 ming 477 oilaga sugoriladigan paxta dalalaridan 137 ming 246 gektar er qo'shimcha tomorqa sifatida bo'lib berildi. Bunday amaliy g'amxurlik g'ayratg' shijoatli odamlar harakatiga kanot bagishladi.

SHaxsiy yordamchi va tomorqa xo'jaliklari uyushmasi tashkil etilishi lozim. Keyinchalik esa shu asosda Dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi yuzaga keladi, ya'ni shaxsiy yordamchi xo'jaliklar zahirida dehqon va fermer xo'jaliklari shakllanadi. Ularni imtiyozli soliqqa tortish, o'z mahsulotlarini eksport qilishi uchun qulay shartg'sharoit yaratib berish, xo'jalik a'zolarini nafaqa va pensiya bilan ta'minlashga doir tartiblar joriy etiladi.

Iqtisodiyotimizning tayanchiga aylanib borayotgan minglab dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyati bu tarmoqning istiqboli biz o'ylagandan ko'ra porloq ekanidan dalolat beradi. Uning tarixi esa,

shaxsiy tomorqa xo'jaliklariga, 1989 yilning yozida davlatimiz rahbari uzoqni ko'zlab boshlagan keng ko'lamli ishlarga borib taqaladi.

Mulkchilikning barcha shakllariga, shaxsiy tashabbus va xususiy tadbirkorlikka o'sha murakkab davrda asos solingan.

Bugungi kunda (2003y.) mamlakatimiz 240 mingdan ortiq mikrofirma, kichik va o'rta korxonalar tashkil etilib va 3 milliondan ziyod dehqong'fermer xo'jaliklari faoliyat yuritmoqda. Ular qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 78 foizini etishtirib bermoqda.

Keyingi paytda mamlakatimizda xususiy mulki qishloq joylarda qaror toptirish, uni rivojlantirish va himoya qilish borasida jiddiy ishlar amalga oshirildi. SHu O'zbekiston Respublika Prezidentining «qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi farmoni va Vazirlar Mahkamasining «2003g'2004 yillarda korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida», «Xususiylashtirilgan korxonalarning korporativ boshqarmasini takomillashtirish chorag'tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari alohida ahamiyatga ega. Zero, aynan ushbu hujjatlar zahirida yortboshimizning «Ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish va unda xususiy mulk etakchi o'rin egallashini ta'minlash zarur» degan g'oyasi yotadi.

Bu g'oya esa, chuqur ilmiy va hayotiy mulohazalardan kelib chiqqan bo'lib, milliy iqtisodiyotimizning agrosanoat majmuida mulkiy tuzilishni o'zgartirishni ko'zda tutadi.

7.3. CHet el davlatlari tajribasi va uning respublikada joriy qilish yo'llari

Markaziy Osiyodagi eng yirik korxonalaridan biri «Toshkent traktor zavodi» davlat aksiyadorlik birlashmasida sanaladi. Bu erda ishlar bir

maromda bormoqda. Xorij sarmoyasini jalb etish ishlari ikki yo`nalishda davom ettirilayapti. Avvalo, bu «Keysg`N`rog`Xolland» firmasining universalg`haydov traktorlariga komplektlovchi qismlar ishlab chiqarish bo`yicha bo`lsa, keyingisi Xitoy krediti asosida mini traktorlar tayyorlashdir. Bunday mitti texnikalarni dehqon va fermer hamda shirkat xo`jalikariga, shu bilan birga tomoqa egalariga etqazib berish mo`ljallanmoqda.

Raqamlar, ularning mag`zini chaqishga, zamirida yashiringan mehnat maromini ilg`ashga harakat qilinmoqda. Masalan, yangi asrning dastlabki yilida korxona 2966ta traktor, 1033ta telijka ishlab chiqaradi. Xo`sh, bu ozmi yo ko`p? Agar uni 2000 yildagi natijaga taqqoslaydigan bo`lsak – ko`p, qishloq xo`jaligidagi ehtiyojimizni nazarda tutadigan bo`lsak – oz. Albatta, hech bir harakat beiz ketmaganidek, ishlab chiqarish bo`g`inidagi biror uzilish o`z ta`sirini sezdirmay, yangi muammo tug`dirmay qolmaydi. Gap faqat texnika vositalarini butlash uchun ayrim qismlari taqchiligidagina emas, balki ana shu texnikaga muhtoj bo`lgan xo`jaliklarning to`lov qobiliyati past bo`lib qolishi ham bunga sabab bo`lyapti. Aytaylik, 1997 yilda traktorlar va ehtiyot qismlar ishlab chiqarish 97,6 %ga chiqqan bo`lsa, 1999 yilda bu ko`rsatich 56,4 %ni tashkil etdi. Ehtiyojning bunday past darajada qondirilishi xosil salmog`iga ham ta`sir ko`rsatadi.

«O`zqishloqxo`jalikmashg`xolding» kompaniyasiga qarashli bir qancha korxonalarda eksport imkoniyatlaridan etarli foydanilmayapti. Surishtirib ko`rsangiz, ularda mahsulot eksporti bo`yicha aniq belgilangan dasto`rning o`zi yo`q. YAna bir tang soha: korxonalarda aktsiyalarni sotish qoniqarsiz ahvolda. Bunday kamchiliklar yurtimiz iqtisodiy salohiyatini oshirish yo`lidagi intilishlarimizga tushov bo`ladi.

Haqiqatdan boy tabiiy resurslarga ega bo`lgan O`zbekistonimiz zaminida qishloq xo`jalik mahsulotlari mo`lg`ko`lligini ta`minlash orqali

cheksiz imkoniyatlarni ishga solish mumkin. Hamma gap ana shu imkoniyatlarni ko`ra bilishda, ulardan oqilona foydalanishda. Biz so`z yoritayotgan kompaniya rahbarlari bu masuliyatni yanada chuqurroq his etishlari zarur. Prezidentimiz yoritayotgan iqtisodiy siyosat talablari, xalqimiz kutayotgan umidlar ana shuni his etib ishlashni taqozo etadi.

Bozor iqtisodiyoti qishloq xo`jaligi infratuzilmasidagi barcha bo`g`imlarda hisobg`kitob bilan ishlashni taqozo etadi. Biz suz yoritgan har ikkala kompaniya mulk shakli jihatidan ham, xo`jaliklararo munosabatlar nuqtaig`nazaridan ham bozorning o`ziga xos talablarini hisobga olgan holda tuzilgan. Maqsad ichki imkoniyatlarimizni ishga solish hisobiga import o`rnini bosuvchi mahsulotlarni ko`paytirish, eksport salohiyatini oshirish va lizing xizmatini rivojlantirishga qaratilgan. Endilikda nafaqat texnika, ayni paytda ana shu texnika jilovi qo`lida bo`lgan kompaniyalar ham dehqonning qudratli qanotiga aylanmog`i lozim.

Rivojlangan xorij davlatlari xalq xo`jaligida lizing xizmatining alohida o`rni bor. O`tgan asrning 40g`50g`yillaridan boshlab Amerikada ilk bor joriy etilgan bu xizmat turi ayni paytda jahonning ko`plab mamlakatlarida keng qo`llanilmoqda. Respublikamiz iqtisodiyotidagi tarkibiy o`zgarishlar mazkur xizmat turini joriy etish masalasini taqozo etdi. Ko`p mablag` sarflamasdan ishlab chiqarish vositalarini yangilash, zamonaviy texnikaga ega bo`lish uning afzalliklaridan biridir.

Vazirlar Mahkamasi 1999 yil 30 oktyabrdagi qaroriga ko`ra, respublikamiz qishloq xo`jaligini zamonaviy texnika bilan ta`minlash va tarmoq mashinasozligini rivojlantirish uchun qulay shartg`sharoit yaratish maqsadida «O`zqishloqxo`jalikmashlizing» kompaniyasini tashkil qildi. Kompaniya o`z faoliyatini boshlagan yiliyoq, ya`ni 2000 yilda lizing asosida tarmoqqa 700 million so`m miqdoridagi 471 dona texnika etqazib berdi. To`g`risi, o`sha paytda texnikaga bo`lgan

talabning yuqoriligi lizing hajmini oshirish zaruriyatini taqozo qilardi. Buning uchun past foizli, yirik miqdordagi kredit mablag'larini jalb etish, mashinasozlik zavodlari bilan kompaniya faoliyatini muvofiqlashtirish, hisobg'kitob mexanizimini takomillashtirish, xo'jaliklarga imtiyozlar berish zarur edi. Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 2 noyabrdagi qarori ushbu muammolarni hal etishga qaratildi.

O'tgan yillar lizing kompaniyasi uchun shakllanish, ya'ni oyoqqa turish davri bo'ldi. Ishni to'la yo'lga qo'yish va lizing xizmatini keng miqyosda amaliyotga kiritish uchun bir qancha masalalarni bosqichmag'bosqich hal etiladi.

Ma'lumki, kompaniya respublikamiz lizing bozorida faoliyat ko'rsatayotgan eng katta tashkilotdir. O'tgan yili kompaniyaning joylardagi 13 ta filiali orqali 2339 ta traktor, 100 ta «Keysg'2002» rusumli paxta terish mashinasi va 494ta turli xil texnika vositalari shirkat va fermer xo'jaliklarga etqazib berildi.

Kompaniyaning o'tgan yil yakuni bo'yicha moliya bozoridagi faoliyati u malakatimiz iqtisodiyotida alohida o'ringa ega ekanligini ko'rsatdi. Birinchidan, qishloq xo'jaligining lizingga berish sohasi joriy etildi. Ikkinchidan, mulk shaklidan qat'i nazar tarmoqdagi jamoalar davlatning g'amxo'rligini sezishdi. Lizing xizmati joriy etilgach, odamlar ish bilan ta'minlandi va ishlab chiqarish samaradorligi oshdi. Yana bir ahamiyatli tamoni shundaki, qishloq xo'jaligi mashinasozligi korxonalari ham jonlandi.

Lizing kompaniyasi ayni paytda o'z mijozlariga berilayotgan texnika qiymatining 15%ni oldindan to'lashni taklif qilib, ularga katta qulaylik yaratdi. Lekin texnikaning to'liq qiymati to'langunga qadar u kompaniya mulki hisoblanadi. SHu bois lizingga olingan texnikadan samarali foydalanish va uning to'g'ri ishlatilishini nazorat qilish nafaqat mijozning, balki kompaniyaning ham bevosita faoliyatiga kiradi.

Lizing xizmati fermerlar uchun katta imkoniyat yaratdi. Hozir yangi tartibda texnika oluvchilarning uchdan bir qismini fermerlar tashkil qilmoqda. Ma'lumki, ilgari fermer birorg'bir texnika vosita uchun shirkat xo'jaligi yoki MTP ga murojat qilardi. Bu unga ortiqcha tashvish keltirar, yani qo'shimcha xarajat qilishga tug'ri kelardi. Bugun esa mazkur xizmat tufayli o'z mashinag'traktor parkini tuzatayotgan fermerlar ham ko'p. Texnikalarning lizing asosida berilishi raqobat kuchayishiga, xizmat sifati yaxshilanishi va etishtiralayotgan mahsulot tannarxi pasayishiga olib keldi.

Biz ba'zida xizmat safarida bo'lganimizda lizingga texnika ololmayotgan, hattoki dastlabki badal pulini to'lagan bo'lsada, ish cho'zilayotgan hollarga duch kelimiz. Buning sababi esa bitta: kompaniyaning joylardagi bo'limlari o'z vaqtida mijozlarini texnika bilan ta'minlay olmayaptilar. Afsuski, bunday hollar, kam bo'lsag'da, uchrab turibdi.

Biz mazkur masalaga aniqlik kiritish maqsadida lizing kompaniyasida bo'ldik. U erdagi mutaxassislar muammo jiddiy ekanligini, masalaning bir tomoni Moliya vazirligi huzuridagi qishloq xo'jaligiga texnikalar etqazib berishni davlat tomonidan qo'llabg'quvvatlash Jamg'armasiga borib taqalishini aytishdi. O'ylaymizki, Jamg'arma mutasaddilari bu borada dehqonlarga madadkor bo'lish choralari ko'radilar.

8g`MAVZU. MILLIY IqtISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI JADALLASHTIRISH

8.1. Milliy iqtisodiyotga investitsiya jalb qilishning ahamiyati

O'zbekistonning davlat mustaqilligi milliy iqtisodiyotning rivojlanishida yangi sahifa ochdi. Tarmoqlar va tarmoqlararo

proportsiyalarda ijobiy o'zgarishlar hoz berdi, yangi tarmoqlar bunyod etildi, qo'shma korxonalar soni o'sib bormoqda. Iqtisodiy o'sishga katta investitsiyalar joriylandi. YOqilg'ig'energetika majmui, mashinasozlik, metallurgiya, kimyo majmui, engil sanoat, sanoatning oziq g' ovqat va qayta ishlash tarmoqlariga safarbar etilgan yirik miqyosdagi investitsiyalar import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni barpo qilish va yangi mahsulot turlarini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'ldi. Keyingi yillarda transport majmuiga, kommunikatsiyalarga, ijtimoiy sohaga, shu jumladan, ta'lim sohasiga investitsiyalar tobora ko'payib bormoqda. Bunday tuzilmaviy o'zgartirishlar jahon xo'jaligiga kirib borish, mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishish imkoniyatlarini yaratadi.

Investitsiyalarning ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilash, ilmiy asoslangan investitsiya qarorlarini qabul qilish, investitsiya faoliyatini oqilona tatibga solish asosida ichki va tashqi moliyaviy manbalarni, barcha shartg'sharoitlarni hisobga olgan holda jalb qilish milliy iqtisodiyotning kelajagini belgilaydi. Investitsiyalar uchun zarur moliyaviy resurslarni topish iqtisodiy o'sish shartiga aylangan. Bu esa, birinchi navbatda, iste'mol va jamg'arma nisbatiga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov mamlakat iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb qilishning g'oyat muhim ahamiyati va zarurligi haqida ta'kidlab, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalasi «... doimiy e'tiborimizni, tinimsiz sa'yg'harakatimizni talab qiluvchi masalalardan...» biri bo'lishini eslatib o'tdi. Iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalar kiritilishini «... bizning doimiy diqqat markazimizda...» bo'lishini, «... o'zimizning asosiy vazifamiz...» sifatida qarashimizni unutmasligimiz zarur.

O'zbekistonda investitsiyalarni moliyalashtirish muammolarini tadqiq etishning dolzarbligi investitsiyalarni moliyalashtirishda ichki

manbalarning nisbatan cheklanganligi; chet el kapitali kelishining etarli emasligi va bevosita xorijiy investitsiyalar kreditlari rolining yuqoriligi; moliyalashtirishda davlat mexanizmlarining sust rivojlanganligi; qo'shma korxonalarning etarli darajada samarli faoliyat yuritmayotganligi; investitsiya jarayonining mintaqaviy notyokisligi; eksport tarkibida noan'anaviy bo'lgan mahsulotlarni ko'paytiradigan loyihalar hissasining pastligi, ichki bank kreditini jalb qilishning etarli emasligi; valyuta loyihalarida boy mahalliy xom ashyo resurslaridan kam foydalanish; loyihalarni amalga oshirishda investitsion resurslarni baholash zarurati va boshqalar bilan belgilanadi. Xalqaro moliya institutlarining valyotag`kredit liniyalaridan foydalanish, lizingni rivojlantirishga yo'naltirilgan ishlar va boshqalar investitsiyalarni moliyalashtirish amaliyotiga jiddiy o'zgartirishlar kiritadi. Investitsiyalashning bozor mexanizmlarini joriy qilish, moliya bozori orqali investitsiya resurslarini shakllantirishni kengaytirish, noan'anaviy moliyalashtirish usullaridan foydalanish amaliyotini chuqur, atroflicha tadqiq etish va ularni umumlashtirish zaruratini kun tartibiga qo'yadi.

8.2.Investitsiya faoliyatining shakllanishi va tartibga solinishi

Investitsiyalarning mazmunga`mohiyati bo'yicha zamonaviy qarash nuqtai nazarlarining o'rganilishi shuni ko'rsatadiki, itisodiy fanlarning turli bo'limlari va amaliy faoliyatda ular turlicha talqin etiladi. Investitsiyalash maqsadlari, sohalari, safarbar etilish ob'ektlari, harakat yo'nalishlaridan kelib chiqib, investitsiyalash tushunchasi o'ziga xos ma'noda ishlatiladi. Moliya nuqtai nazaridan, faqat kapitalni yo'qotish riski mavjud bo'lgan pul shaklidagi investitsiyalar yangi aktivlarini vujudga keltiradi. Investitsiyalarning tasnifi (klassifikatsiyasi)ga muvofiq va ular moliyalashtirish manbalarining ishonchliligiga qarab risklar majmuasi o'zgarib boradi.

Investitsiyalar kapitalning barcha shakllari (ssuda, aktsiyadorlik, tadbirkorlik)dan farqli o'laroq, butun risklar majmuini his etadi va kapital qiymatining yo'qotish riskini minimallashtirishni nazarda tutadi. Kapitaldan farqli o'laroq, investitsiyalar aniq va noaniq bo'lgan risklar bilan ongli ravishda to'qnashadi va bog'lanadi. Investitsiyalarning mamlakatlararo ko'chib yurishi noaniq risklar va noaniqlik darajasini oshiradi.

Har bir muayyan holatda kapitalning hozirgi qiymatini jiddiy yo'qotish riskini pasaytirishga investitsiyalarning maqsadlari, ya'ni

ularning xavfsizligi, daromadliligi, kapitallashuvi va likvidliligini ta'minlash orqali erishiladi.

Investitsiyalash haqida qarorlar qabul qila turib, investor loyihalarning riskliligini, manbalarning muvaqqat qiymatini, muqobil imkoniyatlarga ko'ra, loyihaaning jozibadorligini e'tiborga oladi. Bunday qarorga u riskning maqbul darajasida kutilayotgan daromadlilikning tahlili asosida keladi.

Investitsiyalarning mohiyati bo'yicha xulosa chiqarilsa, ular aniq va noaniq bo'lgan risklar va bo'lajakdagi daromdlar bilan bog'liqdir. Investitsiyalash haqidagi loyiha tanalanar va ular bo'yicha qaror qabul qilinarkan, asosiy e'tibor risklarni va bo'lajak investitsiya daromadliligini hisobga olib bilishga qaratilishi zarur. Investitsiyalar qiymatni naqadar samara keltirish yo'nalishlarini aniqlash asosida ular manbalarini ishonchliligini tanlab olish, investitsiyalash bilan bog'liq aniq va noaniq risklarni o'lchash bilan bog'liqdir. Kapitalning daromadlar keltirish imkoniyati ular keladigan manbalar va ishlatiladigan yo'nalishlar bilan bog'liqdir.

Investitsiyalarning mazmuni, aniq manbalardan mablag' olishga, kapital qiymatini saqlanish riski darajasi va bo'lajak samaraga erishishni hisobga olgan holda ularning asosli qo'yilishini bildiradi. Ana shu belgilarga ko'ra, investitsiyalar boshqa qo'yilmalardan farq qilishi mumkin. Bular barchasining asosida kapitalning harakatlanish jarayoni yotadi. Kapitalning harakat qilish jarayoniga jalb etilishi investitsiyalar mohiyatini aks ettiradi. Investitsiyalash joriy qiymati saqlash, kelgusi jamg'armalarni ta'minlash maqsadida kapitallashuvga qaratiladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsa, investitsiyalar nazarda tutilgan va tutilmagan, ammo ehtimoli bor risklar hamda ko'zlanayotgan samaralarni baholash asosida, o'z va o'zga mablag'lar qiymatining kapitallashuvi va

jamg'arilishini ta'minlash maqsadida moliyaviy va real aktivlarga bog'lanishidan dalolat beradi.

Bayon etilgan tarifda investitsiyalarning quyidagi muhim sifat tavsiflari aks etadi: moliyalash manbalarining qo'lga kiritilishi mumkinligini va ishonchliligi kelgusidagi qiymat evaziga joriy iste'moldan voz kechish, investitsiyalarni aniq, noaniq risklar bilan bog'lash va moliyaviy oqibatlarni prognozlash; real va moliyaviy aktivlarga ega bo'lish yo'li bilan investitsiyalarni kapital harakatlanish jarayonlariga bog'lash; investitsiyalar likvidliligini hisobga olgan holda ularni muayyan muddatlarga safarbar qilish; diversifikatsiyalash orqali investitsiyalash maqsadlarini uyg'unlashtirish; investitsiyalarning kapitallashuvi va jamg'arilishi.

8.3. Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo'llari

Xalqar investitsiya munosabatlarida investitsiyalarning huquqiy sharoitlari almashishi asosida qo'shimcha risklar ta'siri ehtimoli oshadi. Mamlakat riski quyidagilarni nazarda tutadi: siyosiy vaziyat; iqtisodiy rivojlanish tendentsiyasi; hukumatning byudjet siyosati va uning jamg'arm va investitsiyalarga ta'siri; narxlar va valyuta kursini barqarorlashtirishga qaratilgan pulg'kredit siyosati; mamlakat riski qabul qilinishi mumkin bo'lgan hollarda investitsiyalardan daromad olishlik imkoni. Bular xorijiy investitsiyalar risklari doirasini kengaytiradi.

Xorijiy investitsiyalarning keskin farqi ularning mamlakatlararo ko'chishi, faqat o'z maqsadini ko'zlashi, amal qilish sharoitlarining o'zgarishi, ancha qulay shartlar bilan qo'yilishi, ishonch qozonishi hisoblanadi.

Xorijiy investitsiyalarni ta'riflashda ularning o'ziga xos barcha xususiyatlari aks etishi lozim deb hisoblanadi. Buning sababi, xorijiy investitsiyalar bir iqtisodiyot sub'ekti kapitalini boshqasiga bog'lab

qo'yish bo'lib, bunga o'ziga xos qo'shimcha risklar, huquqiy sharoitlar, investitsiya iqlimining o'zgarishi xosdir. Natijada mamlakatlar va mintaqalar bo'ylab kapital ko'chishi yuz beradi. Xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi kapital import qiluvchi mamlakatda soliq, ijara haqi va boshqa tushumlar ko'payishini ta'minlaydi.

Bozor qitisodiyoti to'liq qaror topgunicha, investitsiyalar uchun soliq kreditlari, soliq imtiyozlari, bojxona to'lovlarini kamaytirish, iqtisodning ko'p mehnat talab qiladigan sektorlari, shu bilan bir vaqtda bandlik muammosini hal etuvchi yangi loyihalarga xorijiy investitsiyalarni joylashtirishni rag'batlantirishdan to'liq foydalanish qilinadi. Investitsiyalashda ustuvorlik katta kapital talab talab qilinadigan va ilmiy yangiliklar yaratiladigan tarmoqlarning yangi loyihalariga joylashtirilishi zarur.

Xorijiy investitsiyalar jalb etilishining amaldagi belgilangan shartlarini ayrim mamlakat va muayyan investorlar uchun xalqaro kelishuvlar bilan muvofiqlashtirish zarur. Bunda echiladigan masalalarga bog'liq ravishda qo'shimcha imtiyozlar yaratish va rag'batlantirishni yo'lga qo'yish talab etiladi. Xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakat o'z eksportini impordan ustunligiga erishishi lozim. Bu bilan ularning kredit tarzida jalb etilishi va o'z imkoniyatlaridan ortiq darajada iste'mol etishning oldini olish maqsadi ko'zlanadi.

Ommaviyg'huquqiy va xususi yg'huquqiy me'yorlardan foydalanishga asoslangan investitsiya faoliyatini tartiblash usullari milliy va xalqaro huquq tizimlari uyg'unlashtirilishi asosida amalga oshirilishi talab etiladi.

Xalqaro investitsiya munosabatlari, mamlakat ichki munosabatlaridan farqli o'laroq, ayrim mamlakatlar, korporatsiyalar, kompaniyalar, moliya va kredit muassasalari va muayyan investorlar manfaatlarini aks ettiradi. O'zbekistonga chet el sarmoyalari oqimi

kengayishi munosabati bilan, investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vazifasi ommaviy va xususiy manfaatlar, xorijiy mamlakatlar, kompaniyalar, muayyan investorlar manfaatlarining samarali nisbatini belgilash hisoblanadi. Iqtisodiyot erkinlasha borgani sari, investitsiya faoliyatini davlat tartiblashi ko`proq xususiy tadbirkorlik sohalari va iqtisodning aralash sektorlari investitsiya faoliyatiga jalb etilishi va bu borada ularni rag`batlantirishga qaratilishi lozim.

Xorij kapitalini jalb qiluvchi mamlakat, ular oqimini rag`batlantirish, qulay sharoitlarni ta`minlash maqsadida soliq imtiyozlari, soliq kreditlari va boshqa kafolatlardan to`liq foydalanish zarurligi ahamiyatlidir.

Investitsiyalarni kuchli rag`batlantirish omili sifatida jadallashtirilgan amortizatsiyaning turli usullaridan foydalanish hisoblanadi: bir maromda eskirish qiymatini ajratish (straight line); yillar yig`indisiga qarab ajratish usuli (sumg`jfg`yers line); qiymat qoldig`ini ikki yoqlama tugatish usuli (doubleg`declining balance); ekspluatatsiya birligi usuli (units of production). Mulohaza qilingan va har tomonlama hisobg`kitobdan o`tkazilgan amortizatsiya ajratmalarining jadallashtirilgan usullari investitsiyalarga yo`naltirilgan mablag`ni foyda solig`iga tortilishidan saqlab qoladi.

O`zbekiston amaliyotida jadallashtirilgan amortizatsiya usuli asosiy kapital xizmat muddatini qisqartirishga imkon beradi, biroq amaliy jihatdan jadallashtirilgan amortizatsiyani deyarli istisno qiladi, ishlab chiqarishga qaratilgan investitsiyalarni rag`batlantirish tadbirlari doirasini toraytiradi.

Rag`batlantiruvchi soliq imtiyozlari inson kapitali, texnologik va texnikaviy bilimlar sohasi rivojlantirilishga qaratilgan investitsiyalar ko`lami kegaytirilishiga qaratilishi zarur. Bularning barchasi O`zbekistondagi investitsiya muhiti modellashtirilishini talab etadi, bu bilan xorijiy investorlar sa`yg`harakatiga ta`sir etuvchi omillar haqida

tadrijiy tasavvur olish, chet el investitsiyalarini tartibga solish vositalarini uyg'unlashtirish imkonlari to'g'iladi.

8.4. O'zbekistonda investitsiyalar manbalarining tahlili

Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish, ko'p ukladli iqtisodiyotning shaklanishi va tuzilmaviy o'zgartirishlar, xususiy korxonalar hisssasi ortib borayotgan sharoitlarda O'zbekistonda YAIMning barqarorligi kuzatiladi, bu esa kapital investitsiyalar o'sishiga mos emas.

**O`zbekiston Respublikasi bo`yicha YAIM va investitsiyalar
ko`rsatkichlari**

Yillar	Nominal YAIM (mlrd. so`m)	YAIM (doimiy narxlarda)	Asosiy kapitalga investitsiyalar (doimiy narxlarda)
1993	5,1	97,7	95,0
1994	64,9	94,8	78,0
1995	302,8	99,1	104,0
1996	559,1	101,7	107,0
1997	976,8	105,2	117,0
1998	1416,2	104,3	115,0
1999	2128,7	104,4	102,0
2000	3194,5	104,0	101,0

Jadvaldan k`rinadiki, keyingi yillarda iqtisodiyotning asosiy kapitaliga investitsiyalar kiritish ancha pasaygan. YAIM tarkibini xarajatlar b`yicha tadqiq etish shuni k`rsitadiki, iste`mol asosan uy x`jaliklari hissasining k`ytarilishi hisobiga nisbatan ruqoriligicha qolmoqtsa, yalpi kapital investitsiyalari hissasining pasayishi tendentsiyalari kuzatiladi.

Yzbyokiston YAIMning xarajatlar b`yicha tarkibi

(jamiga nisbatan foizlarda)

	1995	1996	1997	1998	1999	2000
YAIM	100	100	100	100	100	100

Pirovard iste'mol	72,9	77,3	81,3	83,5	82,7	83,4
Uy xýjaliklari iste'moli, Davlat va xususiý	50,6	55,2	60,8	63,0	62,1	63,7
Notijorat tashkilotlar iste'moli	22,3	22,1	20,5	20,5	20,6	19,7
YAlpi kapital	24,2	23,0	18,9	14,8	17,2	15,9
Investitsiyalar	33,0	36,8	33,8	30,4	27,1	25,0
Tovarlar va materiallar zahirasi ýzgarishlari	g`8,8	g`13,8	g`14,8	g`15,6	g` 9,9	g`9,1
Sof eksport	2,9	g` 0,3	g` 0,2	1,7	0,7	0,7

Jadval Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Tadqiq etilayotgan davrda asosiy iste'molga investitsiyalar hissasining pasayishi ruz berdi. 2000 yilda YAIMda kapital jamg`armalar salmog`i (solishtirma hissasi) 25 foizni tashkil qildi. Agar 1999 yilda YAIMda jamg`armalar hissasi 17,3 foizni tashkil qilgan býlsa, 2000 yilga kelib bu kýrsatkich 16,6 foizga tushdi. Bunday ýzgarishlar YAIMda ishlab chiqarish sohalari hissasining kýtartilishi, ayni paytda sof soliqlarning oshishi bilan kechdi. Ayni paytda YAIMda sanoat, qishloq xýjaligi va qurilishning hissasi pasaydi. Kapital investitsiyalarning YAIMga nisbati shuni kýrsatadiki, Ýzbyokistonda keyingi yillarda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasiga bog`langan investitsiyalarning nisbati ishlab chiqarish sohasidagi asosiy kapital pasayishi tomon bordi.

Investitsiyalarning tarmoq tuzilishi tahlili kýrsatishicha, sýnggi yillardagi, birinchidan, investitsiya siyosatida asosiy e`tibor kommunikatsiya bilan bog`liq sektorlarni rivojlantirishga qaratildi, ikkinchidan, investitsiya tuzilishida noishlab chiqarish sohasi ulushining ruzoriligiga erishildi, uchinchidan, jami investitsiyalarda davlat ulushining katta býlishi ta`minlandi. Bu bilan davlat nafaqat bosh islohotchi, balki bosh investorlik vazifasini ham ýtadi.

Tahlillar kўrsatishicha, asosiy kapitalga safarbar etilgan investitsiyalarning uchdan ikki qismi davlat moliyalashi vositasida amalga oshmoqda. Bunda ishlab chiqarish sohasiga sarflar ulushining pasayishi, xususiy mulk doirasidagi investitsiyalarda noishlab chiqarish sohasi bilan bogʻliq sarflar oshishi kuzatilmoqda. Bu hol, ayniqsa, fuqarolar va ijtimoiy tashkilotlar mulkida yaqqol namoyon bʻlmoqda. Natijada aktiv kapitalga mablagʻ yuborish pastligicha qolmoqdaki, bu yangi texnologiyaga tayangan quvvatlar yʻsimini cheklamoqda. Davlat sektori chet el kreditlari va boshqalar hisobidan moliyalash ustunligicha qolib keldi.

Investitsiyalash jarayonlarini erkinlashtirish bozor mexanizmlari tʻylaroq ishlashini taqozo qiladi. Bunda nodavlat sektori doirasida investitsiya faoliyatini jadallashtirish talab etiladi. Tahlil kўrsatishicha, moliyalashning davlat vositasi hozirchalik investitsiya sarflari samarasi oshishiga olib kelmadi, bu holni davlat va nodavlat mulki miqyosidagi investitsiyalar, tarmoq va texnologik tuzilmalardagi yʻzgarish dinamikasi ham tasdiqlaydi. Bularning barchasi moliyaviy vositachilikni rivojlantirishga kʻmaklashuvchi turli davlat moliyaviy institutlari tarmogʻi kengaytirilishini talab qiladi. Uy xʻjaligi bʻysh mablagʻlari va individual jamgʻarmalarni jalb etish yʻli bilan ulardan uzoq muddatli investitsiya resurslarini hosil etish mumkin.

Investitsiyalarni moliyalashning davlat va bozor vositalari bir vaqtda amal qilishi iqtisodiyot turli subʻektlarini teng bʻlmagan sharoitga qʻyyadi, harakat erkinligi va ijodiy tashabbusni bʻygʻadi, bʻudjet mablagʻni oluvchilarda boqimandalikni yʻzaga keltiradi. Investitsiyalarni moliyalash manbalarining tarkibi shuni kʻrsatadiki, ularni taʻminlashda korxonalar va aholi xususiy mablagʻlari, chet el investitsiyalari ulushida yʻzgarishlar kuzatilmovda.

12g`jadval

**Ўzbyokistonda asosiy kapitalga safarbar etilgan
investitsiyalarning moliyalash manbalari**
(jamiga nisbatan foizlarda)

Yillar	Moliyalash	SHu jumladan				
		davlat bʻrojdjeti mablagʻlari	korxonalar va aholining xususiy mablagʻlari	bank kreditlari	bʻrojdjetdan tashqari fondlarning mablagʻlari	chet el investitsiyalari va kreditlari
1992	100.0	59.3	40.7	α`	α`	α`
1993	100.0	27.2	72.8	α`	α`	α`
1994	100.0	15.1	84.1	α`	α`	0.8
1995	100.0	27.2	58.4	13.1	0.1	1.2
1996	100.0	27.3	48.8	9.6	α`	14.3
1997	100.0	26.2	49.2	7.5	α`	17.1
1998	100.0	26.2	45.8	7.3	0.6	19.9
1999	100.0	24.2	48.7	6.1	0.7	20.3
2000	100.0	30.5	37.6	5.4	0.3	26.2
2001	100.0	30.3	39.1	7.55	1.4	21.7

Jadval Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi maʼlumotlari asosida tuzilgan.

Bʻrojdjetdan tashqari davlat mablagʻlarini ham hisobga olganda investitsiyalashda davlatning ustuvorligi kuzatiladi. SHu bois Ўzbyokistonda investitsiya jarayonini qayta qurishning asosiy yʻnalishi, bizning fikricha, investitsiya rʻkini bʻrojdjetdan moliyalashdan iqtisodiyot quyi subʻektlari zimmasiga yʻtqazish bʻyladi. Bu yʻzgʻyini moliyalashdan

iborat bozor tamoyiliga mos keladi. Yana boshqa bir muammo – bu, iqtisodning davlat sektoridagi investitsiyalarning tarmoqlararo taqsimotini alohida nazorat qilgan holda turli manbalardan kelgan investitsiyalar nisbati samarali бўlishiga erishishdir. Moliyalash manbalarini takomillashtirish investitsiyalar va moliyalashda individual va korporativ mulklar rolini oshiradi, investitsiya risklarini sub`ektlar ўrtasida diversifikatsiyalab, uni minimallashtirish, resurs egalari mas`uliyatini, daromadlarning jadal kapitallashuvi samarasini oshirish masalasini hal etishga yordam beradi. Bank krediti rolining oshishi fikrimizcha, moliyalash natijalari uchun korxonalar mas`uliyatini kўchaytiradi, chunki kreditning ahamiyati oshishi bilan bank kredit risklari majmuining darajasi ham oshadi. Shuning uchun davlat korxonalariga nisbatan, davlat byudjetidan investitsiya ajratishni belgilangan va past darajadagi imtiyozli foiz stavkalari asosida davlat moliya institutlari tizimi tomonidan boshqariladigan arzon kreditga aylantirilib, uni tanlov (tender) asosida taqsimlash bozor talabiga mos keladi.

Investitsiyalarni moliyalash manbalaridagi xususiyat davlat byudjeti mablag`i solishtirma salmog`ining yuqoriligi, korxonalar mablag`i va xususiylar mablag`ining solishtirma salmog`i pastligi hisoblanadi. Ularning solishtirma salmog`i keyingi yillarda deyarli ikki marta kamaydi va chet el kreditlari solishtirma salmog`i bir necha marta oshdi, ammo bevosita chet el investitsiyalarining ulushi pasaydi.

Chet el investitsiyalari va kreditlarining asosiy qismi bugungi kunda davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar asosiy kapitalini moliyalashtirishga jalb qilinmoqta. Chet el investitsiyalari va kreditlari tarkibida kreditlar asosiy yirinni egallaydi. Asosiy kapitalni moliyalashtirish manbalarida chet el investitsiyalari va karzlari keyingi yillarda 20 va undan kўd foizni tashkil qilgan holda yz tuzilmasiga kўra, yzgarib bormoqda, chet el investitsiyalari kamaygan holda chet el kreditlari hissasi ortib borishi

tendentsiyasi kuzatiladi va ularning kўproq qismi hukumat kafolatlari bilan jalb qilinmoqda.

Investitsiyalarni moliyalashning xorij manbalarida hukumat kafolati ostida kreditlarni pasaytirish hisobiga chet el investitsiyalari ulushini oshirish lozim.

Tahlillar shuni kўrsatadiki, investitsiyalarni moliyalash manbalarida qarz ahamiyatining oshishi asosan chet el va milliy markazlashtirilgan kreditlar hisobiga yuz bermoqda. Hukumat kafolati ostida olingan chet el kreditlari ulushining oshishi valyutadagi kreditlarning qaytarilmasligi risklarini hisobga olishni taqozo etmoqda. Bu, yʻz navbatida, investitsiya qarorlarini qabul qilishda, investitsiya loyihalarini ekspertizadan yʻtqazishda va xalqaro qarz mablagʻlaridan foydalanishda banklarning masʻuliyatini jiddiy ravishda oshirishini talab qiladi.

Nobank kredit muassasalariga rivoji raqobat orqali moliyaviy vositachilikni kengaytirish va investitsiya faoliyati uchun tʻyplanayotgan mablagʻlardan samarali foydalanishga imkon beradi.

Banklarning investitsiya faoliyatini kengaytirish va risklarini diversifikatsiyalash uchun bir nechta bank yoki kredit muassasalari tomonidan sinditsiyalashgan kreditlar berilishini yʻlga qʻyyish maqsadga muvofiqdir. Bu esa, iqtisodning real sektorida hayotchan loyihalarni loyihaviy moliyalashtirish metodologiyasi asosida taʻminlanishi mumkin.

Kredit uʻroshmalar yʻz aʻzolariga tezda oqlanadigan loyiha asosida arzon ssudalar berishi iqtisod quyi subʻektlarining. investitsiya tashabbusiga yʻl ochadi. Bunga erishish uchun foiz stavkalari kredit uʻroshmaning operatsion xarajatlarini qoplashni taʻminlaydigan darajada belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Bular orqali kichik ishlab chiqarishii, mayda savdoni kredntlashni tashkil etish mumkin bʻyladi. Iqtisodning kichik subʻektlari uchun asosiy masala moliyalash manbalarini topish hisoblanadi. Bu masalani hal etish uchun tijorat banklaridan tashqari

moliya institutlari tuzilishi lozim. Bu institutlarning ssuda kapitali maxsus fondlar, quyi sub`ektlarining yz jamg`armalari, shuningdek, korporativ obligatsiyalar chiqarish va joylashtirish' hisobidan shakllantirilishi mumkin.

Davlat moliya institutlari alohida riskli, lekin ustuvor tarmoqlarda hamda etarlicha kreditga qobil blylmagan va qarz mablag`larini talab qiluvchi korxonalarning asosiy va aylanma kapitalini kengaytirish uchun imtiyozli, uzoq muddatli kreditlar berishi kerak. Kichik va yrtta biznes va xususiy tadbirkorlarning investitsiya loyihalarini moliyalashdagi kreditning ahamiyatini kuchaytirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur: raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kyzda tutuvchi investitsiya loyihalariga ustuvorlik berish; davlatning tadbirkorlikni qyllabg`quvvatlovchi mablag`larini yagona fondga birlashtirish, xususiy korxonalarning yz jamg`armalarini investitsiyalarga tortish uchun qyshimcha imtiyoz berish; xalqaro marketing markazini barpo qilish va uning negizida eksportyorlarni, mahsulot sotiladigan bozorlar byyicha marketingg`axborot tizimini qyllab quvvatlovchi mintaqaviy markazlar tarmog`ini bunyod etish, lizing<sup>1</sup>, kafolat fondlari, ixtisoslashgan baiklarning yzaro kreditlash jamiyati, minitexnika va uskunarlar lizingini, kichik mablag`larni jamlash uchun kredit uoshma (kooperativ)²lari tarmog`ini shakllantirish kichik va yrtta korxonalar loyihalarini qyllabg`quvvatlash uchun Yzbyokiston tiklanish va rivojlantirish bankini³ tuzish; chet el kreditlari va investitsiyalarini bosqichmag`bosqich jalb etish dasturini ishlab chiqish.

Kichik va o`rta korxonalar invetitsiya loyihalarini ekspertizadan o`tkazish chog`ida ularga xom ashyo etqazib beruvchi aniq bozorning mavjudligi, mahsulot sotiladigan bozorlar marketing tadqiqoti natijalari; aylanma kapitlani o`z mablag`lari hisobidan ta`minlash imkoniyatlarini baholash; mehnat resurslari sarfini baholash kabilar talab qilinadi.

9g`MAVZU. RESPUBLIKANING qURILISH MAJMUUI

9.1. qurilish, uning xalq xo`jaligida tutgan o`rni va ahamiyati

qurilish respublikadagi modiy ishlab chiqarishning eng muhim tarmoqlaridan biri. Respublika iqtisodiyotida yalpi ijtimoiy mahsulot tarkibida solishtirma hissasiga ko`ra sanoat va qishloq xo`jaligidan keyin 3g`o`rinda turadi. YAlpi ichki mahsulotning 7,8%i, xalq xo`jaligida band bo`lgan ishchi va xizmatchilarning 10,34%i qurilish ishlari bilan mashg`ul.

qurilish xalq xo`jaligining barcha tarmoqlariga xizmat ko`rsatib, asosiy fondlarning qayta takror ishlab chiqarish uchun sharoitlarni ta`minlaydi, xalq xo`jaligining maqbul tarkibini barpo etish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni maqsadga muvofiq joylashtirish, respublikaning yangi tabiiy boyliklarini o`zlashtirish, bo`sh mehnat resurslarini ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etishga yordam beradi.

Respublikada qurilish ishlari pudrat, subpudrat va qisman xo`jalik usullarida olib boriladi.

O`zbekiston Respublikasida qurilish majmuiga respublikadagi qurilishga xizmat qiladigan barcha muassasa, tashkilot, ishlab chiqarish boshqarmalari va korxonalari, ya`ni loyihalashtirishdan tortib, bino va inshootlarni foydalanishga topshirguncha xizmat qiluvchi bosqichlar kiradi. Turli xo`jalik sohalari aloqalarining kuchayishini tarmoqlararo qurilish sanoati ta`minlaydi.

Hozirda, respublikada qurilish sanoati qishloq xo`jaligi va transport singari muhim ahamiyat kasb etmoqda. qurilish sanoati zavodg` fabrikalar, kong`kar`erlar, kanal g`suv omborlari, yo`lg`tunnellar, muassasag`korxonalar, uyg`joylar va hokazolar qurishni o`z ichiga oladi.

qurilish sanoati qurilish va doimiy kadrlar bilan ish ko`radi. Uning mahsulotlari bitqazilgan va foydalanishga topshirilgan bino va inshootlardir. Bularning hammasi respublikaning jug`rofiy muhiti, joylarning iqlimi, tuzilishi, er osti suvlari, geologik va seysmik holati va boshqa omillar hisobga olinadi. Masalan, respublikamiz seysmik faol rayonda joylashganidan bino va inshootlarni 9 va 10 balli silkinishlarga bardosh beradigan qilib qurish talab etiladi.

qurilish sanoatining mahsulotlari sanoat, qishloq xo`jaligi, transport va hoqazolarga hamda uyg`joy xo`jaligi, madaniyg`maishiy, maorif va sog`liqni saqlash muassasalari rivojlanishga xizmat qiladi.

qurilish sanoati taraqqiyoti tabiiy va mehnat resurslarining jo`g`rofiy xususiyatlarini chuqur ilmiy tahlil qilish va ulardan oqilona foydalanishni taqozo etadi.

O`zbekistonda qurilish ishlarining muvaffaqiyati barpo etilgan qurilish tashkilotlari faoliyati bilan chambarchas bog`liqdir.

9.2.qurilish industriyasi

O`zbekiston Respublikasida qurilish industriyasining negizini davlat, aktsiyadorlik, shirkat, xususiy, qo`shma va boshqa pudrat qurilishg`montaji tashkilotlari, shuningdek, o`z moddiyg`texnika va ishlab chiqarish bazasiga, malakali ishchi va mutaxassis kadrlarga ega bo`lgan korxonalar, transport va boshqa yordamchi xo`jaliklar tashkil etadi. O`zbekistonda 245 montajg`qurilish tresti, 196 qurilish sanoati korxonasi, 1882 quyi pudrat tashkiloti, 3 mingga yaqin kichik korxona, 64 loyiha va ilmiy hamda qurilish sohasiga moslashtirilgan ilmiyg`tadqiqot instituti faoliyat ko`rsatadi. qurilishg`montaj ishlarining deyarli barchasini iztisoslashtirilgan qurilish tashkilotlari amalga oshiradi.

Respublikaning qurilish tashkilotlari ixtisoslashtirilgan korporatsiya, kompaniya, birlashma, trestlar va boshqarmalarga uʻrshgan. qurilish moddiy g`texnika bazasining muhim tarkibiy qismini qurilish materiallari sanoati tashkil etadi.

qurilish industriyasida yig`ma temirg`beton konstruksiyalari va detallaridan ko`proq foydalanilmoqda. Bino va inshootlarning yirik qismlarini, uy poydevorlari, devor panellari, zinopoyalar va boshqalarni zavod usulida tayyorlaydigan yangi tarmoqlar paydo bo`ldi. qurilish tobora bino va inshootlarni montaj qilish jarayoniga aylanib bormoqda. Binolarning zilzilabardoshligi ta`minlangan. qishloq joylarida loyihalashg`qurilish tamoyillari o`zgardi. qishloq xo`jaligi mahsulotlarini etishtirish bo`yicha sanoat majmualari o`rniga kichik firmalar qurilmoqda. Imoratlarni tiklashda engil konstruksiyalar ko`proq qo`llanilmoqda, xo`jaliklar qo`rg`onlarini qurishda uyg`joylar bilan bir paytda madaniyg`maishiy muassasalar, ishlab chiqarish binolari kompleks foydalanishga topshiriladi. qurilishda jami jarayonlarni qamrab olgan qishloq qurilish kombinatlari barpo etilgan.

O`zbekistonda qudratli iqtisodiy salohiyatni barpo etishdagi muvaffaqiyatlar bevosita qurilish bilan bog`liq. 1924g`95 yillarda 5,5 ming km. temir yo`l, 1500 dan ortiq yirik davlat sanoat korxonasi, 40 ga yaqin magistral kanal, 54 yirik suv va sel ombori qurildi, 2 mln. ga dan ortiq sug`oriladigan erlar o`zlashtirildi, 29 mln. ga yaylovga suv chiqarildi.

1995 yilda jami manbalardan o`zlashtirilgan kapital mablag`lar 82,2 mlrd. so`mni, jumladan uning 47,0 mlrd. so`mini qurilishg`montaj ishlariga sarflangan mablag`lar tashkil etdi. Kapital mablag`lar tarkibida davlat hissasi 57%ga tushdi. Uyg`joy qurilishi keng miqyoslarda olib borildi va moliyalashning jami manbalaridan foydalanildi.

Respublika mustaqillikka erishganidan so`ng kapital qurilish yangi dastur asosida davom ettirildi. Respublika iqtisodiyoti uchun muhim bo`lgan avtomobil, oltin qazib olish, neft va boshqa sanoat tarmoqlarida yangi korxonalarni qurish boshlandi. Barcha viloyatlarda sanoat korxonalari, uyjoylar, madaniy-maishiy binolar, bozor va sado rastalari, hammom, choyxona, kasalxona, mahalla markazlari, masjidlar qurildi, o`nlab me`moriy majmualar, tarixiy yodgorliklar, madrasalar, masjidlar ta`mirlandi.

Kapital mablag`larning 66,8%i ishlab chiqarish, 33,2%i noishlab chiqarish ob`ektlari yo`nalishda sarflandi. qurilish sohasida xalqaro hamkorlik yaxshi samara bermoqda. Xorijiy firmalar bilan hamkorlikda Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlarida xalqaro klassdagi mehmonxonalar qurilishi va ta`mirlash ishlari boshlandi. Respublika tarixida birinchi marta kapital qurilishi sohasiga chet el investitsiyalari jalb etildi. Kapital mablag`lar tarkibidagi xorijiy investitsiyalar hisssasi 16%ni tashkil etdi.

9.3. qurilish tizimi

Bozor iqtisodiyotiga o`tish davrida qurilish ishlari samaradorligini yanada oshirish maqsadida ayrim qurilish vazirliklari tugatilib, mulkchilikning turli shakllariga o`tkazilgan ixtisoslashgan davlat kontsernlari, kompaniyalar, davlat aktsiyadorlik birlashmalari, uoshmalar tashkil etildi. Ularning eng yiriklari: «O`zsanoatxo`jalikqurilish» korporatsiyasi, «O`zmontajmaxsusqurilish» uoshmasi, «O`zdehqonchilikqurilish», «O`zjamoaxo`jalikqurilish» davlat shirkat birlashmalari, «Toshkentuyg`joyinvestqurilish» korporatsiyasi va boshqalardir. Suv xo`jaligi va meliorativ ishlarni «O`zsuvqurilish» davlat kontserni olib boradi. «O`ztransqurilish», «O`zavtoyo`l» kontserni, Energetika va elektrlashtirish vazirligi ham qurilish ishlarini bajaradi.

«O`zsanoatxo`jalikqurilish» davlat korporatsiyasi respublika sanoat qurilishi, uyg`joy va boshqa ijtimoiy maqsadlardagi ob`ektlarni qurish bilan shug`ullanadi. qurilish tashkilotlari, qurilish industriyasi korxonalari, transport, loyihag`konstruktorklik va boshqa tashkilotlarni ixtiyoriy asoslarda birlashtiradi. 1992 yil 25 deka`rda respublika qurilish vazirligi negizida tashkil qilingan, davlat boshqaruvi organi huquqi berilgan xo`jalik tashkiloti. Korporatsiya tarkibida 8 uoshma, 147ta aktsiyadorlik jamiyati, 7 davlat korxonasi, 6 qo`shma korxona, 3 ilmiyg`tadqiqot va loyihag`konstruktorklik instituti va boshqalar bor.

«O`zmontajmaxsusqurilish» uoshmasi respublika xalq xo`jaligining barcha tarmoqlarida montaj va maxsus qurilish ishlarini olib boradi. Texnologik jihozlar, elektr ta`minoti ob`ektlari, avtomatika, aloqa tizimlari, metall va yig`ma temirg`beton konstruktsiyalari, issiqlik izolyatsiyasi jihozlari, lift va ko`targichlar, sanoat pechlari hamda quvurlari va boshqalarni montaj qiladi, quradi. 1992 yil 27 oktyabrda O`zbekiston montaji va maxsus qurilish ishlari vazirligi (1965) va boshqa tashkilotlar negizida tashkil etilgan. Uoshma tarkibida ixtisoslashtirilgan trest, «O`zelektrmontaj», «O`zsantexgazmontaj», «O`zissiqlikmontaj», «O`zsanoatventilyatsiya», «O`zpo`latkonstruktsiya», «Farg`onaneft`kimyomontaj» trestlari, «O`zbekneftmontaj» boshqarmasi, Toshkent engil metall konstruktsiyalari, To`ytepa metall konstruktsiyalari, Toshkent sanitariya jihozlari zavodlari, «O`zmontajloyiha» instituti va boshqalar bor.

Keyingi yillarda xorijiy mamlakatlar firmalari bilan turli korxonalar qurilishida hamkorlik yo`lga qo`yildi.

«O`zdehqonchilikqurilish» birlashmasi qishloq joylarida ishlab chiqarish va noishlab chiqarish maqsadlaridagi qurilish ishlarini olib boradi. Respublika qishloq qurilishi vazirligi va «O`zjamoxo`jalikqurilish» birlashmasining ayrim tashkilotlari negizida

tashkil etilgan. Birlashma qishloq xo'jaligining moddiy texnika bazasini yaratish va mustahkamlash, jamoat binolari, maktablar, yirik kasalxonalar, savdo markazlari, klub va madaniyat saroylari, bog'chalar, maishiy xizmat ko'rsatish kombinatlari va boshqalar qurilishida katta xotimlarni qo'lga kiritdi. Respublika qishloqlarini obodonlashtirish, yo'l, elektr shoxobchalari, gazoprovodlar qurilishi, qishloq mehnatkashlarining buyurtmalari bo'yicha uyjoylar qurib berish ishlarini ham bajaradi. Birlashma tarkibida 23 bosh pudratchi trest, 191 mexanizatsiyalashgan ko'chma kolonna, 27 zavod, 14 avtobaza, «O'zdehqonchilikqurilishloyiha» instituti va boshqa tashkilotlarda 64 ming xodim ishlaydi. Birlashmaning o'z korxonalarida temirg'beton panellari, keramzit, o'tga chidamli g'isht, butlovchi qismlar, sanitariya, texnika qurilmalarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

«O'zjamoaxo'jalikqurilish» shirkat birlashmasi qishloq tumanlarida, jamoa xo'jaliklarida uyjoy, jamoat va madaniyg'maishiy ob'ektlar, ishlab chiqarish korxonalari qurilishi bo'yicha bosh pudratchi. 1991 yil may oyida tashkil etilgan Respublika agrosanoat majmuini rivojlantirishga katta hissa qo'shib kelmoqda. Birlashma tarkibida 15 ta viloyat umumiy qurilish trest, maxsus qurilish va qurilish ta'minoti bilan shug'ullanadigan 3 birlashma, loyiha instituti, avtobaza, trestlar tarkibida 191 boshlang'ich qurilish tashkilotlari, qurilish materiallari va temir beton konstruksiyalari ishlab chiqaradigan 39 sanoat korxonasi ishlaydi. Birlashmada 36 mingga yaqin ishchi va muhandis xodimlar band.

Birlashma tarixi 1964 yildan boshlanadi. O'sha yili aprel oyida viloyatlardagi kolxozlararo qurilish boshqarmalari, kichik tseklar, g'isht zavodlari negizida «O'z kolxozqurilish» birlashmasi tashkil etildi. Uning asosiy vazifasi respublika qishloq qurilishida yagona texnika siyosatini

o'tkazish, xo'jalik, uyg'joy, madaniyg'maishiy, kommunal va boshqa maqsadlardagi ob'ektlarni qurish va boshqalardan iborat edi.

«Toshkentuyg'joyinvestqurilish» moliya qurilish korporatsiyasi Toshkent shahrida uyg'joy, madaniyg'maishiy va sanoat qurilishini olib boradi. 1994 yil dekabrda Toshkent davlat aktsiyadorlik qurilish korporatsiyasi (1963g'1993 yillarda Toshkent shahar qurilishi Bosh boshqarma) negizida tashkil etilgan. Ochiq tipdagi aktsiyadorlik birlashmasi, tarkibida qurilish, loyiha tashkilotlari, binokorlik materiallari korxonalari, kreditg'moliya muassasalari, investitsiyag'sug'urta tuzilmalari bor. Faqat qurilish sohasida 12 trest, 4 uysozlik kombinati, maxsus transport ishlab chiqarish birlashmasi, «Toshkentqurilish», «Toshkentshaharloyiha» loyiha institutlari va boshqa tashkilotlar ishlaydi, korporatsiyada 28 mingdan ko'proq quruvchi va muhandisg'texnik xodim band.

Respublika Prezidentining 1996 yil 31 yanvardagi «Toshkent shahridagi uyg'joy qurilishini davlat tomonidan qo'llabg'quvvatlashni kuchaytirish to'g'risida» Farmoniga ko'ra aholining turarjoy sharoitlarini yaxshilash maqsadlarida Toshkent davlatg'aktsiyadorlik uyg'joy jamg'arma banki (Toshkentuyjoyjamg'armabank) tashkil etildi va bank uyg'joy obligatsiyalarini chiqardi.

9.4. qurilish materiallari sanoati

O'zbekiston Respublikasi ko'p tarmoqli qurilish materiallari sanoatiga ega. TSement, asbestg'tsement, devorbop materiallar, romshoq yopgich va gidroizolyatsiya materiallari, tabiiy toshlardan qoplama materiallar, noruda qurilish materiallari, qurilish keramikasi, issiqlik izolyatsiyasi materiallari, ohak, gips, bog'lovchi materiallar va ulardan buyomlar, sanitariyag'gigiena jihozlari, polimer xom ashyodan

qurilish materiallari va buyomlar, temir beton konstruksiyalari va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari mavjud. Tarmoq korxonalarida 100 dan ortiq nomdagi asosiy mahsulot turlari tayyorlandi.

qurilish materiallari sanoati tarmoqlari yuksak mexanizatsiyalashgan va xalq xo'jaligining qurilish materiallariga bo'lgan talabi to'la qondiradi. Xorijiy investorlar ishtirokida yangi qo'shma korxonalar qurilmoqda, ishlab to'rgan korxonalar zamonaviy texnologiya bilan jihozlanib, kengaytirilmoqda.

O'zbekistonda tabiiy xom ashyodan qurilish materiallari sifatida foydalanish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ayniqsa, binolar qurilishida xom g'isht, guvala, yog'och sinch, oddiy tuproqdan tiklanadigan paxsa asrlar davomida asosiy qurilish materiallari bo'lib kelgan. Xumdonlarda pishirilgan g'isht, sopol, chinni koshin, ganch, yo'nilgan granit, marmar toshlar saroy, madrasa, masjid, rabotlar qurilishida keng qo'llanilgan.

TSement sanoati. Respublikadagi qurilish industriyasining birinchi korxonasi 1913 yil qurila boshlagan Xil'kovo tsement zavodidir. Respublikada tsementga ehtiyoj oshib borganidan keyin 1932 yilda quvasoy tsement zavodi ishga tushirildi.

Respublika tsement sanoati tarmog'ida yiliga 5 mln. t.dan ko'proq tsement ishlab chiqaradigan 5 yirik korxona ishlaydi. TSementning hamma asosiy turlarini ishlab chiqarish o'zlashtirildi. TSement korxonalarida shifer, abotsement quvurlar, mineral paxta va undan tayyorlanadigan buyomlar, tsementg'qum cherepitsalari va boshqa mahsulotlar ham ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Toshtaroshlik (toshga ishlov berish). Tabiiy toshlar (marmar va granit)dan ishlangan qoplama materiallari va banklar Markaziy Osiyo me'morchiligida ko'p ishlatilgan.

qoplama toshlar zahiralari, xilmag`xilligi va rangi bo`yicha O`zbekiston MDH mamlakatlari orasida etakchi o`rinda. Respublikada 30 dan ortiq marmar, granit, trovertin, tuf va boshqa jinslar konlari topilgan. Respublikada noruda va qoplama materiallar tarmog`ida toshga ishlov berishadigan 19 ta korxona faoliyat ko`rsatmoqda.

Devorbop materiallar sanoati sohasida qurilishda ishlatiladigan olovbardosh va imorat g`ishtining asosiy qismi yalang`och 2g`g`isht zavodi, YAngiyo`l 8g`g`isht zavodi va boshqa zavodlarda chiqariladi. 1990 yillar boshidan g`ishtni yangi texnologiya asosida tayyorlash bo`yicha ekspremental tsexlar ishga tushirildi.

Keramika sanoati tarmoqlarida Angren keramika kombinati va Toshkent qurilish materiallari kombinatida barcha turdagi sopol koshinlar, sanitariyag`qurilish foyansi, gips, kanalizatsiya quvurlari, maloyiha buyumlari va boshqa turdagi mahsulotlar ishlab chiqariladi.

SHishag`oyna sanoti sohasida «quvasoyshisha» ishlab chiqarish birlashmasi va /azalkent shishag`oyna zavodi ishlaydi. Bu korxonalarda yo`liga 212 mln. dona konserva shisha idishlari, 80 mln. dona butilka, 2 mln.m² deraza oynasi ishlab chiqariladi.

10g`MAVZU. RESPUBLIKADA BOSHKARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO`LLARI

10.1.O`zbekistonda demokratik o`zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning ustuvor yo`nalishlari

Prezident I.Karimovning ikkinchi chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy majlisi 9 sessiyasidagi ma`ruzasida (2002 yil, 29 avgust) ko`rsatilgan vazifalar mamlakatimizni, jamiyatimizni demokratlashtirish hamda yangilash yo`lidagi harakatlarimizni sifat jihatidan yangi bosqichga

ko'tarish va bu borda amalga oshirgan ijobiy ishlarni qat'iyat bilan davom ettirish, ularni xalqimiz orzu qilgan marralarga etqazish maqsadalirini o'zida mujassam etgan dasto'ning negizini quyidagi ustuvor yo'nalishlar tashkil etadi:

Birinchi ustuvor yo'nalish. Eng asosiy, eng muhim ustuvor maqsad tengsiz oliy ne'matg' mustaqillikni bundan buyon ham asrabg'avaylash, himoya qilish va mustahkamlash bo'lib qolaveradi.

Mustaqillik biz uchun, avvalo, o'z taqdirimizga o'zimiz egalik qilish xuquqi, kelajagimizni o'z qo'limiz bilan barpo etish, yurtimiz boyliklaridan faqat xalqimiz va Vatanimiz manfaatlari yo'lida foydalanish, demakdir.

Bu uzoq g' yaqin qo'shnilarimiz bilan do'stlik va hamkorlik asosida yashash, dunyo hamjamiyatidan o'zimizga munosib obro' va o'rin egallash uchun doim intilish va ko'rashish, demakdir.

Ikkinchi ustuvor yo'nalish. Bug' mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikni, davlatimizning hududiy yaxlitligini, sarhadlarimiz daxlsizligini, fuqarolarimizning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashdan iborat. CHunki bu mezonlar har doim rivojlanish va taraqqiyotning asosiy sharti bo'lib kelgan. SHuning uchun ham ekstremizm va ashaddiy aqidaparastlikning har qanday ko'rinishlariga xalqaro terrorchilik va narkobiznesga qarshi izchil ko'rashish yo'lida barcha imkoniyatlarmizni va kuchg'qudratimizni safarbar qilish bugungi kunda eng muhim va dolzarb vazifamiz bo'lmog'i lozim.

Uchinchi ustuvor yo'nalish. Bu g' bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzilmasini yaratish, barqaror va o'zaro mutanosib, mustahkam iqtisodiyotning muhim sharti bo'lgan erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishdan iborat.

To'rtinchi ustuvor yo'nalish. Jamiyatimizni yanada rivojlantirish va sifat jihatidan yangilash borasidagi to'rtinchi va eng muhim ustuvor

yo`nalish – bu, inson huquqlari va erkinliklarini, so`z va matbuot erkinligini, shuningdek, oshqoralikni, jamiyatda o`tkazilayotgan islohotlarning ochiqqligini ta`minlaydigan demokratik tamoyillarni so`zda yoki qog`ozda emas, amalda joriy qilishdir.

**Beshinchi ustuvor yo`nalish** fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti bo`lib, bu jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o`rni va ahamiyatini keskin kuchaytirishdan iborat. Hayotimizni erkinlashtirish yo`nalishlarining yana bir muhim yo`li markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o`zining o`zi boshqarish organlariga bosqichmag`bosqich o`tqaza borishni ta`minlashdir.

**Oltinchi ustuvor yo`nalish** – bu, sudg`huquq sohasini isloh qilish bo`yicha boshlangan ishlarni davom ettirishdan iborat. Bu sohadagi eng muhim vazifa sudg`xuquq idoralarining mustaqilligi va ta`sirchan faoliyatini so`zda emas, amalda ta`minlash bo`lmog`i zarur. Sudlar tom ma`noda mustaqil bo`lgan holdagina qonunlarning qat`i ijrosi, ularning haqiqiy ustuvorligi so`zsiz ta`minlanadi. qaerda sud mustaqil bo`lmas ekan, shu erda qonun talablari va adolat buzilishi muqarrar.

Ettinchi ustuvor vazifa – bu, barcha islohotlarimizning bosh yo`nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beradigan inson omili va mezonidir.

Bu g` demografik va boshqa milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat olib borish demakdir.

Barcha yaxshi biladiki, fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishning eng muhim tarkibiy qismi ma`naviyat va ma`rifat sohasida, shaxsni muntazam kamol toptirish borasida uzluksiz ish olib borishdan iborat. Bu, hayotiy haqiqat biz hamisha amal qiladigan tamoyilga, jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmog`i hamda o`zida yaxlit bir tizimni

mujassam etmog'i lozim. Bu tizim markazida ma'naviyat, axloqg'odob, ma'rifat kabi o'lmas qadriyatlar turmog'i kerak.

10.2. Ustuvor yo`nalishlar mazmuni

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning Oliy Majlis to'qqizinchi sessiyasidagi ma'ruzasida jamiyatimiz taraqqiyoti ustuvor yo`nalishlarining uchinchi Bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzilmasini yaratish, barqaror va o`zaro mutanosib, mustahkam iqtisodiyotning muhim sharti bo`lgan erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishdan iborat» ekanligi belgilab berildi. Bu yo`nalishning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, birinchi navbatda, xususiyl sektorning mavqeini yanada oshirishni, kichik va o`rta tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni taqozo etadi. Mustaqilligimiz ramzlaridan biri bo`lgan so'mimizning barqarorligini va harid quvvatini har tomonlama mustahkamlamasdan, jozibador investitsiya muhitini va investorlar uchun kafolatlarni yaratmasdan, tashqi va ichki sarmoyalarni butun iqtisodiyotimizni yangilashga, olting`valiuta zahiralimizning barqaror o`sishiga xizmat qiladigan etakchi tarmoqlarga birinchi navbatda yo`naltirmasdan, xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorligimizni yanada kuchaytirmasdan, dunyo iqtisodiy tizimiga integratsiyalashmasdan, Jahon Savdo tashkilotiga a`zo bo`lish uchun zarur shartg`sharoitlarni yaratmasdan turib, bu ustuvor yo`nalishning hayotga tatbiq etilishini tasavvur etish amalda mumkin emas.

Eng avvalo, bugungi kunda iqtisodiy sohada vazifalarning aynan shunday belgilanganligini har birimiz to`lag`to`kis idrok etmog'imiz lozim.

SHu o`rinda «Xo`sh, vazifalar nega bu shaklda belgilanayapti? Ularning mazmunga`mohiyati nimadan iborat? Vazifalar shu tarzda

belgilangan ekan, biz nimalarga e'tibor bermog'imiz lozimu, qanday ishlarni amalga oshirmog'imiz kerak?» degan savollar tug'ilishi tabiiydir. Bunday hayotiy savollarga javob berayotgan paytimizda, shakg'shubhasiz, mustaqillik yillarida iqtisodiy sohada, ayrim hollarda aql bovar qilmaydigan ishlar amalga oshirilganini xolisona tan olmog'imiz lozim. Bu o'rinda mustaqillik yillarida mamlakatimiz iqtisodiy jarayonlarini o'zida aks ettiruvchi va bir necha milliard AqSH dollarida ifodalanuvchi raqamlarni keltirib o'tishimiz, respublikamiz yalpi ichki mahsulotining qancha qismi qaysi sektorlarda ishlab chiqarilayotganligini ifodalovchi diagrammalarga murojaat etishimiz, qancha miqdorda xorijiy investitsiyalarning jalb qilingani, qancha yangi korxonalarning qurilganligi to'g'risida batafsil to'xtalib o'tishimizga xojat bo'lmasa kerak.

SHunday bo'lishiga qaramasdan, uchinchi ustuvor yo'nalishda vazifalarning aynan shu mazmunda qo'yilayotganligi, albatta, bejiz emas. CHunki vazifalarning bu tarzda qo'yilayotgaligi, bir tomondan, bizni iqtisodiy sohada erishgan yutuqlarimizdan esankiramaslikka chaqirsa, ikkinchi tomondan, hamon iqtisodiy sohada oldimizda qilinishi lozim bo'lgan talaygina ishlar to'rganligidan dalolat beradi.

10.3. Ustuvor vazifalarni amalga oshirish yo'llari

Bugungi kunda bu vazifalar bekorga kun tartibiga qo'yilayotgani yo'q. CHunki amaliyotga nazar soladigan bo'lsak, xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorligimizni yanada kuchaytirish va buning natijasida yanada yuqoriroq ko'rsatkichlarga erishishimiz uchun kattagina imkoniyatlarimiz mavjud ekanligiga, ulardan etarli darajada hamda kerakli vaqtda foydalana olmayotganimizga guvohi bo'lamiz. Buni tushunish uchun quyidagilarga e'tibor beraylik: amaldagi

tartibg`qoidalariga ko`ra, xalqaro moliyaviy tashkilotlar O`zbekistonga tegishli moliyaviy xarakterdagi qarorlar qabul qilishi uchun, dastlab tegishli ma`lumotlarni talab qilishadi. Tan olaylik, ayrim hollarda, arziyas sabablarni ro`kach qilib, kerakli ma`lumotlarni o`z vaqtida taqdim qilishning uddasidan chiqa olmayapmiz. Taqdim etilgan ma`lumotlarimiz va ularda keltirilgan raqamlarimiz ba`zi holatlarda birg`biriga zid kelmoqda. Takliflarimizni yoki fikrlarimizni etarli darajada ishonarli qilib asoslab bera olmayapmiz. O`z zimmamizga olgan majburiyatlarimizga nisbatan esa, ayrim holatlarda hafsalasizlik qilib, ularni bajarishda ham ma`lum xatolarga yo`l qo`yayapmiz. Negadir, xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan bo`layotgan munosabatlarimizda «qars ikki qo`ldan chiqadi», «Six ham kuymasin, kabob ham», «Sizdan ugina, bizdan bugina» kabi o`zbekona naqlar bekorga aytilmaganini uno`tib qo`yayotirmiz.

Uqoridagi holatlarning sodir etilayotganligi, sirtdan qaralganda, arziyas bir narsaga o`xshasada, lekin ayrim hollarda ulardan birginasini e`tibordan chetda qoldirish ham xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan ajratilishi lozim bo`lgan, O`zbekiston iqtisodiyoti uchun, o`rni kelganda, suv va havodek zarur bo`lgan yuz millionlab AqSH dollari hajmidagi mablag`larning o`z vatida ajratilishiga to`squinlik qilmoqda yoki ularning ajratilish muddatlarini ortga surmoqda. Buning oqibati nimalarga olib kelishi mumkinligini idrok etish albatta, uncha katta aql talab etmaydi.

Biz bu erda «O`zbekistonimiz xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan ajratiladigan mablag`larga muhtojdir» degan fikrni bildirmoqchi emasmiz. Aksincha, istiqlol yo`lini tanlagan O`zbekistonimiz bunday tashkilotlarning yordamisiz ham o`z qaddini rostlab olish imkoniyatiga ega. Vatanimizning mavjud iqtisodiy salohiyati ana shundan dalolat beradi. Lekin, shunday bo`lsada, biz

O'zbekiston jahon hamjamiyatining tarkibiy qismi ekanligini ham esdan chiqarmasligimiz kerak. Jahon hamjamiyati mamlakatlarida esa ma'lum maqsadlarga erishish uchun xalqaro moliyaviy tashkilotlarning ko'magidan foydalanib kelinmoqda. SHu ma'noda, biz ham mamlakatimiz uchun xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan mablag'lar ajratilishidan manfaatdormiz. Buni ham tan olaylik.

SHu joyda maslanning boshqa bir jihatini ham yoddan chiqarmasligimiz kerak. CHunki biz uchun mablag'lar ajratilishidan xalqaro moliyaviy tashkilotlarning o'zi ham bizdan kam manfaatdor emas. Buning boisi shundaki, bozorning hayot sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan qonunlariga muvofiq, ular ixtiyorida to'plangan mablag'lar, bir daqiqa bo'lsag'da, harakatsiz turishi mumkin emas. Har bir xalqaro moliyaviy tashkilot o'z ixtiyoridagi mablag'larni u yoki bu mamlakatlar iqtisodiyoti tarmoqlariga samarali joylashtirishga harakat qilmasdan o'zga chorasi yo'q. Bozorning yozilmagan qonuni shuni taqozo qiladi.

SHunday ekan, mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim omil sifatida qaralayotgan xalqaro moliyaviy tashkilotlar ixtiyoridagi resurslarni o'z vaqtida o'zlashtirib olishga erishish biz uchun ham qarz, ham farz emasmi?! Bu vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun har birimiz, eng kamida, o'z ish joyimizda Vatanimizning salohiyatini, uning nimaga qodir ekanligini ko'rsata, hisobg'kitoblarimizning kamg'ko'stsiz bo'lishini ta'minlay olishimiz, mas'uliyatimizni oshirishimiz, befarqlik, o'zibularlik holatlariga sira yo'l qo'ymasligimiz lozim.

10.4. Budget iqtisodiy islohotlarni hayotga tatbiq etishda hal qiluvchi omil

Mamlakat iqtisodiyotining hayotg`mamotini belgilab beradigan muhim masala bjudet. SHu ma`noda, Oliy Majlisimiz tamonidan qonun darajasida qabul qilinadigan Davlat bjudetining shakllanish jarayonida qancha keng qatlamdagi aholi ishtirok etsa, unga o`z hissasini qo`shsa, shuncha maqsadga muvofiqdir. Tug`ri, ko`plab tarmoqlar o`z mutasaddilariga ko`ra, masalaga loqayd emaslar, lekin ularning faolligi aksariyat hollarda bjudet ajratmalaridan o`z sohalariga salmoqliroq bo`lakni undirishda namoyon bo`ladi.

Bjudetni shakllantirishda birinchi galda xarajatlar qismini emas, balki daromadlar bandini belgilash muhimdir. Xalqimizda «Daromadga qarab buromad» degan naql bor. Buromad chiqim, sarfg`xarajat. Demak, kiringa qarab chiqim qilish iqtisodiyotning oltin qoidasi hisoblanadi. Gap shundaki, bjudet taqsimotida ko`proq ajratma so`rash uchun tafakko`rni ishga solish talab qilinmaydi. O`z Vatani taraqqiyotini, istiqbolini ko`zlaydigan odam, avvalo, ort xazinasini boyituvchi manbalarni ko`paytirish haqida o`ylashi kerak.

Daromad va xarajat g` bular o`zaro birg`birini taqozo etadigan tushunchalar bo`lib, uni to`liq hisobga olmaslik, noxush oqibatlar keltirib chiqaradi. SHunday ekan, bjudetning daromad qismini boyitish uchun qanday manbalar mavjud? Avalo, amalga oshirilayotgan islohotlarimizda soliq tizimini takomillashtirish, uning fiksali (xazinani to`ldirish), qayta taqsimlash va rag`batlantiruvchilik vazifasi to`la darajada bajarishini ta`minlash muhimdir. Bu fikrni soliqni qancha ko`p yig`sak, bjudetning daromad qismi shuncha ko`payadi, degan ma`noda tushunish o`ta go`llik bo`lur edi. Prezidentimiz juda ko`p chiqishlarida soliqlarni muttasil takomillashtirib borish zarurligi haqida ta`kidlaydilar. Afsuski, ortdoshlarimiz orasida soliqni gardandagi yok sifatida tushinadiganlar ham yo`q emas. Agar biz soliqlarning Vatan qudratini

o'ksaltirishdagi ahamiyatini o'rakdan anglasak, bu ulkan ishga munosib ulush qo'shish uchun intilgan bo'lar edik.

O'rtboshimiz istiqlolni dastlabki yillarida yaratgan asari «O'zbekiston: iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» kitobida «Soliqlar xazinani to'ldirish siyosatining asosiy unsuri bo'lib, davlat byudjetining daromad qismi eng muhim umumdavlat, xalq xo'jaligi vazifalarini hal etish uchun zarur bo'lgan miqdorda shakllanishini ta'minlanishi lozim», deb uqtirgan edilar. O'ylab ko'raylik, korxonalar urtasida moliya intizomi buzilsa, debitorlik va kreditorlik qarzlari chigillashib boraversa, qanday qilib byudjetdagi mutonosiblikga erishish mumkin?! Bu savol hammamizni o'ylatirsa, vaziyatdan chiqish uchun choralar topilsa ayni muddao bo'lar edi.

Agar biz bu o'k davlat qurish uchun asdoydil intilmoqchi bo'lsak, balandparvoz va chiroyli iboralarga mahliyo bo'lish o'rniga islohotlar yo'lidagi muommalarimizni anglab olish muhimdir. Albatta, mustaqil hayotimizni o'tgan o'n bir yillik davri O'zbekiston boshlagan islohotlar, avvalo, bozor iqtisodiyotiga o'tish, demokratik jamiyat qurishdagi yo'limiz qanchalik to'g'ri ekanligi va bu yo'ldan qaymasligimiz zarurligini ko'rsatdi. Endigi ishlarimiz shu yo'lni davomi bo'lib, u islohotlarni yangi pog'onaga ko'tarishi kerak.

Parlamentning to'qqizinchi sessiyasi 2003 yil davlat byudjetini qabul qilish asnosida yakunlanayotgan natijalarini ko'rib chiqdi. Mazkur masala bo'yicha so'zga chiqqan notiqning aytishicha, 2003 yil davlat byudjeti daromadlari 1 trillion 842,2 milliard so'm bo'lishi kutilmoqda. Agar xarajat 1 trillion 927,2 milliard so'm bo'lishi ko'zda tutilayotganini hisobga olsak, byudjet taqchilligi 85 milliard so'm ekanligini anglash qiyin emas. Ushbu ko'rsatkich yalpi ichki mahsulot hajmiga nisbatan 1,2 %ni tashkil etadi.

Dastlabki hisobg`kitoblarga qaraganda, daromadlar tarkibida bevosita soliqlar bo`yicha belgilangan rejalar oshirib bajarilib, tushumlar 497,2 milliard so`m yoki jami daromadlarning 27 foizi miqdorida bo`lishi kutilmoqda. Bu ko`rsatkich soliq yukini kamaytirish bo`yicha olib borilayotgan tadbirlarning yaxshi natija berayotganligidan dalolatdir.

Budjet ijrosida ijtimoiy sohaga alohida etibor berish O`zbekiston iqtisodiy siyosatining bosh yo`lidir. quyidagi raqamlarning mag`zini chag`aylik: 2002 yilda ijtimoiy sohani moliyalashtirish xarajatlari 732,6 milliard so`m, ijtimoiy himoya tadbirlari uchun esa 142,4 milliard so`m miqdorida bo`lishi kutulmoqda. Bu xarajatlar jami budjet sarfiyotining 45,4 foizini tashkil etadi.

Albatta, ijtimoiy soha degani juda keng qamrovni o`z ichiga oladi. Bu jabhada, aytaylik, maorif uchun ko`zda tutilgan bandlardan ba`zilarini tilga olsak, budjt xarajatlari qanchalik puxta shakllanganligini tasovvur etish mumkin. Bular g` umumta`lim maktablarini darsliklar, ijtimoiy himmoyaga muhtoj oilalarga mansub maktab o`quvchilarini qishki kiyimg`bosh va poyabzal, 1g`sinif o`quvchilarini o`quv qurollari bilan ta`minlash, maktab o`quv mebeli va komp`yuter texnikasi sotib olish kabilar uncha to`liq bo`lmagan ro`yxatdir. Xullas, budjet iqtisodiy islohotlarni hayotga tatbiq etishda hal qiluvchi omildir.

Xo`sh, budjet barakasini ta`minlash uchun qaysi yo`nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etadi? Buni har bir fuqaro bilib qo`ysa, ayni muddao bulardi.

Mamlakat makroiqtisodiyotining asosiy ko`rsatkichlarini roksaltirishda valyuta zahirasi boyitish muhim ahamiyatga ega ekanligi barchaga ayon. Biz er osti va usti boyliklarimizni, muhim strategik mahsulotlarni sotish orqali bu borada muayyan imkoniyatlarga egamiz. Lekin dunyo bozorida paxta va oltining narxi beqaror bo`lishi tufayli keyingi yillarda necha yuz million dollarni ololmaganligimiz ham

haqiqatg`ku?! Ayniqsa, paxtadan oldigan daromadimiz tinimsiz tebranib turibdi. Dunyo bozoridagi narxg`navoning beqarorligidan tashqari paxta hosili tabiiy sharoitga bog`liq ekanligi hammaga ma`lum. SHulardan kelib chiqib, Prezidentimiz faqat qishloq xo`jaligiga suyanib qolmasligimiz zarurligini,qishloqda yangi ish o`rinlari yaratish muhumligini ta`kidlamodalar.

Yortimiz iqtisodiy qudratini yuksaltirishning muhim omillaridan yana biri – bu, xorijiy investitsiyalarini jalb etishdir. Bu jabhada ham izlanib, intilib ishlash taqozo etiladi. Ayrim qo`shni mamlakatlarda kattag`katta korxonalarni chet ellik karcholonlarga sotish amaliyoti qo`llanilayotgani sir emas. Lekin faqat bugungi kun bilan yashamayotgan O`zbekiston xorij sarmoyasini sarflashda qo`shma korxonalar sonini va sifatini ko`paytirish yo`lidan boryapti. Sifat deganda,nimani tushunish mumkin? Gap shundaki, mamlakat rahbariyatining oqilona iqtisodiy siyosati tufayli yortimizga ham sarmoya,ham texnologiya keltirilyapti.Ayni paytda qo`shma korxona faoliyati qaysi bir chet mamlakatdan butlovchi qismlarni olib kelib, bu erda yig`ishdan iborat bo`lmasligi kerak. SHu ma`noda,mamlakatimizda amalga oshirilayotgan lokalizatsiya siyosati, ya`ni tayyor mahsulot olishda ishlatiladagan xom ashyoni o`zimizda ishlab chiqarish muhum ahamiyat kasb etadi.

O`zbekiston chetdan keladigan sarmoyani ko`paytirmay turib, tez orada taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga o`ta olmaydi. Bu qonuniyatni maktab o`quvchisi ham yaxshi bilishi kerak. Nafaqat bilish, qo`yilgan maqsadni amalga oshirish uchun intilish kerak. CHet ellik sarmoyadorlarga qulay shartg`sharoit yaratish benihoya muhimdir. Buning asosiy sharti mamlakatda tinchlik va osoyishtalikning barqarorligidir. YAna bir omil – o`sha davlatning ertangi kunga ishonchi qay darajada ekanligidir. Ayni paytda sarmoyador uchun huquqiy

kafolat ham qulay iqlimni ta'min etadi. Bizda bunday sharoit bor, faqat u haqda xorijiy ishbilarmonlarga ko'proq axborot berishimiz zarur.

Yana bir muammo – O'zbekiston ayrim xorijiy mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun bozorga aylanib qolmasligi kerak. Aytaylik, hozirgi paytda Xitoyda ishlab chiqarilayotgan sirti yaltiroq, ichi qaltiroq mollarni o'sha mamlakatning o'zida sotish taqiqlangan. SHunday ekan, bizning xalqimiz nega o'tmas matohni olishi kerak? Masalaning yana bir ijtimoiy jihat borki, bu haqda O'rtboshimiz bir necha yil muqaddam ogohlantirgan edi. Agar biz chetning yaltiroq mollariga qattiq valyuta sarflash yo'lidan borsak, ular qo'lga o'zimizni ipsiz bog'lab boramiz. YA'ni, o'sha mamlakatda odamlar ish bilan ta'minlanadi, bizning paxta va oltinimiz hisobiga to'langan valyutamizni hazm qilib boraveradi. Biz esa mashaqqatli mehnat evaziga etishtirgan xom ashyoni tayyor mahsulotga nisbatan bir necha baravar arzonga topshiramiz. Bu o'zimizga zarar ekanligini anglab etaylik!

Afsus, bu boradagi davlat siyosatini lahzada manfaat ko'rib kelgan chayqovchilar tushinishi qiyin kechyapti. Axir, O'zbekistonda arzon, sifatli poyabzallar ishlab chiqarishga erishayapmizg'ku?! Nega o'zimizdagi boy xom ashyodan sifatli mahsulot tayyorlash haqida hamma birday jon ko'ydirmaydi?

Iqtisodiyotimizning ustuvor yo'nalishlari etib, eksport salohiyatini oshirish, import o'rnini bosadigan mahsulot turi va salmog'ini ko'paytirish belgilangan. Bu yo'l budjetning daromad qismiga daromad kiritadi. SHunday manbalarni ko'paytirish yo'lida tinimsiz izlanish o'zini O'zbekiston farzandi hisoblagan har bir fuqoroning burchidir...

10.5 Respublikada iqtisodiyot va statistika organlarining tashkiliy tuzilishini takomillashtirish

«Iqtisodiyotdagi bozor mexanizmi va uslublarini joriy qilishni davom ettirish, jamiyat hayotining barcha tamonlarini erkinlashtirish talablariga muvofiq iqtisodiyot va statistika organlari tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligini qayta tashkil etish to'g'risida»gi 2002 yil 24 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni e'lon qilindi

Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi tugatilib, uning negizida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tashkil etildi.

Mamlakatni rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasi hamda kompleks dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, quyidagi g'oyat muhim vazifalarni hal etishga qaratilgan chuqur o'ylangan va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni o'tkazish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi zimmasiga quyidagilar yuklandi:

makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning barqaror, mutanosib va jadal sur'at bilan rivojlanishini ta'minlash;

ko'p ukladli va samarali faoliyat ko'rsatuvchi iqtisodiyoni shakllantirish, xususiy mulkchilikning etaqchilik rolini ta'minlash, bozor infratuzilmasini rivojlantirish;

boy tabiiy va mineral xom ashyo zahiralaridan, bunyod etilgan ishlab chiqarish va fang'texnika salohiyatidan samarali hamda oqilona foydalanishga qaratilgan aniq maqsad yo'lidagi strukturaviy siyosatni amalga oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish hamda malakat

iqtisodiyotining jahon iqtisodiy tizimi miqyosida integratsiyalashuvini ta'minlash;

yangi ish joylarini yaratish, mehnat resurslarini oqilona band qilish muammosini hal etish, aholini aniq yo'naltirilgan ijtimoiy muhofaza qilishni kuchaytirish, aholining turmush darajasi barqaror, jadal o'sishini, ijtimoiy infratuzimani rivojlantirishni ta'minlash;

mamlakat mintaqalari iqtisodiyotining kompleks rivojlanishini, ishlab chiqaruvchi kuchlarni mamlakat hududi bo'yicha maqbul hamda samarali rivojlantirish va joylashtirishni ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

jamiyatni rivojlantirish hamda demokratik qayta o'zgartirishlarning maqsad va ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va isloh qilishning, iqtisodiyotni boshqarishda bozor uslublari va mexanizmlari joriy etilishining chuqur o'ylangan strategiyasini ishlab chiqishni tashkil qilish;

asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni, respublika, mintaqalar hamda tarmoqlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasini kompleks sistemali tahlil qilib borish, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning rivojlanish tendentsiyalarini o'rganish, iqtisodiyotdagi mavjud nomutanosibliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini asoslab berish;

iqtisodiyotni rivojlantirishning ko'p variantli stsenariylarini, mintaqalar va sektorlar bo'yicha mamlakatni ijtimoig'iqtisodiy rivojlantirishning qisqa muddatli prognozlari hamda dasturlarini ishlab chiqish;

eng muhim qiymat, moddiy va mehnat balanslarini ishlab chiqishni tashkil etish;

asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni pulg'kredit agregatlari, davlat byudjeti parametrlari, tashqi savdo, to'lov va tarmoqlararo balanslar bilan o'zaro bog'lanishlanishini ta'minlaydigan ta'sirchan mexanizmni shakllantirish;

demografik prognozlar, aholining aniq yo'naltirilgan ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish, ichki iste'mol bozorini to'ldirish, xalq farovonligini o'stirish, ijtimoiy iefratuzilmani rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish;

iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarning o'rta muddatli prognozlarini, zamonaviylashtirish va texnologik jihatdan qayta qurollantirish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, resurslarni tejaydigan ilg'or texnologiyalarni joriy etish dasturlarini ishlab chiqish;

strukturaviy siyosat maqsadlariga eirishishni, mintaqalarni kompleks rivojlantirishni ta'minlaydigan qisqa muddatli va o'rta muddatli investitsiya dasturlarini ishlab chiqishni muvofiqlashtirish;

eksport salohiyatini rivojlantirishni rag'batlantirish, tashqi savdo va to'lov balanslarini maqbullashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, tovar (ishlar, xizmat)lar eksporti prognozini tayyorlash, respublikaning jahon iqtisodiy tizimiga integrtsiyalashuv strategiyasini ishlab chiqishda qatnashish.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi o'z zimmasiga yuklangan vazifalarni mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishiga oid prognozlarni hamda dasturlarni ishlab chiqish va ularning bajarilishini ta'minlash hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Umumiqtisodiyot majmuasiga kiruvchi vazirlik va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish yo'li bilan amalga oshiradi.

Ushbu farmon asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qumitasi zimmasiga quyidagi asosiy vazifalar yuklatildi:

statistika sohasida yagona siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, zamonaviy xalqaro talablar va andozalarga mos keladigan statistikani tashkil etishning samarali tizimini ta'minlash;

ilmiy asoslangan, bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillariga javob beradigan, milliy hisoblar tuzishni ta'minlaydigan hamda xalqaro statistika andozalariga muvofiq bo'lgan yagona statistika metodologiyasi va ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqib, tatbiq etish;

statistika va hisobot ko'rsatkichlarining tezkorligi, ishonchliligi va holisligini ta'minlash, statistika axborotini olish bema'loligi, uning ochiqchiligi va oshqoraligini kengaytirish chorag'tadbirlarini amalga oshirish;

statistika axborotini yig'ish, qayta ishlash va umumlashtirish tartibiga har qanday aralashuvlarga yo'l qo'ymaydigan statistika ishlarini tashkil qilish tizimini yaratish;

statistika organlarini zamonaviylashtirish hamda ularni statistik axborotlarni tezkor uzatish va qayta ishlashni ta'minlaydigan zamonaviy komp'yuter hamda axborotg'kommunikatsiya tizimlari va texnologiyalari bilan qayta jihozlash, statistika bo'yicha yagona axborot tizimini yanada rivojlantirish;

korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registirini, iqtisodiyg'statistik klassifikatorlar tizimini yoritish.

O'zbekistonda iqtisodiyot va statistika bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan bo'linmalar negizida quyidagilar tashkil qilindi;

qoraqalpog'iston Respublikasida – Iqtisodiyot vazirligi va statistika boshqarmasi;

respublika viloyatlari va Toshkent shahrida – iqtisodiyot bosh boshqarmalari va statsitika boshqarmalari;

respublika shahar va tumanlarida – iqtisodiyot bo'limlari va statsitika bo'limlari.

quyidagilar asosiy vazifa qilib belgilangan;

iqtisodiyot hududiy organlari O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligiga hamda qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, shahar, tuman hokimliklariga qarashli;

statistika hududiy organlari O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasiga qarashlidir.

Ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmlarining sun'iy ravishda kamaytirilishiga, korxonalar faoliyatiga noxolis baho berilishiga, pul mablag'larining bankdan tashqari noquniy aylanishiga olib keladigan noto'g'ri statistik hisobotni taqdim etishda, statistika ma'lumotlarini yashirishda aybdor bo'lgan mansabdor shaxslar qonunga muvofiq qattiq javobgarlikka, hatto jinoiy javobgarlikka ham tortiladilar.

11g`MAVZU. Iqtisodiyotni boshkarishda moliya – kredit yo'llari

11.1. Davlat byudjeti: asosiy ko'rsatkichlar va miqdoriy baholash muammolari

Davlat qarzi – avvalgi davlat byudjetm taqchilligiga teng bo'lgan, davlatning qimmatli qog'oz egalari oldidagi davlat qarzlar, davlat ichki qarzlar – bu, davlatning qimmatli qog'oz egalari bo'lmish fuqarolar, firmalar, tashkilotlar oldidagi qarzlaridir. Tashqi qarzlar – davlatning chet el fuqarolari, firmalari va tashkilotlari oldidagi qarzlar. Xususiy qarzlar – nodavlat sektorining xususiy qimmatli qog'oz egalari oldidagi qarzlar umumiy hajmi.

Davlat qarzlar va xususiy qarzlar g` "Daromadg`xarajat" aylanmasining tarkibiy elementidir. Daromadlar ortgan sayin, uy xo'jaliklari, firmalar, davlat va boshqalar tomonidan ishlatilishi lozim bo'lgan jamg'armalar ham ortib boradi.

qarzlarni tashkil qilish – bu, xarajat qiluvchi shaxslarga jamg'armalarni berish mexanizmidir. Agar iste'molchilar va biznes qarz berishga layoqatli bo'lmasalar, xususiy qarzar ortib borayotgan jamg'armalar hajmini absorbirovka qilish uchun etarli tezlikda o'smaydi va bu funktsiya davlat qarzining ortishi hisobiga amalga oshiriladi. Aks holda iqtisodiyot resurslarining to'liq bandlik sharoitidan chiqib qoladi.

Budjet taqchilligi – davlat xarajatlari va daromadlari o'rtasidagi farqdir. Budjet taqchilligi va qarzni miqdoriy baholash quyidagi omillar ta'siri ostida murakkablashadi:

1. Odatda, davlat xarajatlari hajmini baholashda iqtisodiyotning davlat sektoridagi amortizatsiya hisobga olinmaydi, bu esa budjet taqchilligi va davlat qarzlari ob'ektiv tarzda oshishiga olib keladi.

2. Davlat xarajatlarining muhim moddalaridan biri qarzar bo'yicha foizlarni to'plab, astag'sekin asosiy qarzni o'chirish. Davlat xarajatlari davlat qarzining nominal foizini emas, balki real foizini o'z ichiga olishi shart.

Hisobotlarda beriladigan rasmiy davlat budjeti ko'p hollarda pD ko'rsatkichiga oshiriladi, chunki Fisher tenglamasiga binoan $pq R_n Dg \ R_r D$. Inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan sharoitda bu xatolik o'ta ahamiyatli bo'lishi mumkin, chunki inflyatsiya sur'atining o'sish davrida $R_r = \frac{R_n - \pi}{1 + \pi}$. Budjet taqchilligining ortishi, davlat xarajatlari qarz bo'yicha to'lanadigan inflyatsion foizlarning ko'payishi hisobiga o'sishidan yozaga keladi. Ba'zan bir vaqtning o'zida davlat budjetining nominal taqchilligi va qarzi o'sib, real defitsit va qarz esa pasayib borayotganini ham kuzatish mumkin. Bu xil vaziyat davlatning budjet soliq siyosati samaradorligini baholashda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. SHuning uchun ham budjet defitsitini baholashda inflyatsiya ham hisobga olinishi lozim.

Davlatning real q Davlat budjetining g Davlat xarajatlari g Inflyatsiya

1. Odatda, davlat bjudjeti defitsitlarini makroko'lamda baholashda, o'z orttirmalariga ega bo'lishi mumkin bo'lgan mahalliy bjudjetlar hisobga olinmaydi. Ko'p hollarda mahalliy hokimiyat organlari federal bjudjet hisobiga undiriluvchi soliqlarni pasaytirish maqsadida ataylab mahalliy bjudjetlarga tegishli ma'lumotlarni buzib ko'rsatadilar. Bu xil qonuniyat fiskal detsentralizatsiyalash kuzatilgan barcha o'tish davridagi iqtisodiyotlar uchun xos. Natijada esa federal bjudjet taqchilligini baholashda oshirib ko'rsatishlar kuzatiladi.

2. Industrial va o'tish davridagi iqtisodiyotda baholanayotgan (rasmiy) davlat bjudjeti taqchilligidan tashqari, uning Markaziy bank hamda davlat tashkilotlari va tijorat banklarining kvazi fiskal faoliyatiga asoslangan yashirin defitsiti ham mavjud. Kvazi fiskal operatsiyalar qatoriga quyidagilar kiradi:

a) To'liq bandlikning davlat tashkilotlari tomonidan moliyalashtirilishi va bank ssudalari yoki o'zaro qarzlarni to'plash hisobiga ish haqini bozor stavkalaridan yuqori ravishda to'plash;

b) Iqtisodiy islohotlarning boshlang'ich davrida Markaziy bankdan ajralib chiqqan notijorat banklari jamg'armalari, ya'ni hozirda ishlamayotgan ssudalar (uy xo'jaliklari, firmalar va hoqazolarga ajratilgan kreditlar). Bu kreditlar asosan Markaziy bankning imtiyozli kreditlari hisobiga to'lanadi, bunda "yomon qarzlarning" o'tish davridagi iqtisodiyot uchun ahamiyati kattadir.

v) Markaziy Bank tomonidan valuta almashuv kursini barqarorlashtirishdan yuzaga kelgan chiqimlarni, davlatga foizsiz imtiyozli kreditlar (bug'doy, guruch, kofe va boshqalar haridi uchun) bo'yicha xarajatlarning moliyalashtirilishi;

Yashirin bjudjet taqchilligi haqiqiy bjudjet taqchilligi va davlat qarzining hajmini kamaytirib ko'rsatadi, ko'pincha ataylab (masalan,

saylovdan oldin) hamda davlatning har bir yil uchun muvozanatlashtirilgan byudjetning “qattiqqoʻl” kursi qoliplaridan kelib chiqqan holda. Demak, byudjet taqchilligi va davlat qarzining mutlaq oʻlchamlari uzoq muddatga ishonchli makroiqtisodiy koʻrsatkich boʻla olmaydi, ustigagʻustak YAMM bilan bir qatorda qarzlarning ham oʻsishi hisobga olinsa...

Byudjet taqchilligining turgʻunlikka va davlat qarzi oshishiga olib keluvchi asosiy sabablari quyidagilardir:

a) harbiy yoki boshqa ijtimoiy kelishmovchiliklar sharoitida davlat xarajatlarining oshishi. Byudjet taqchilligini uzoq muddat davomida moliyalashtirish, pul massasining ortib ketishi holatini chetlab oʻtgan holda, inflyatsion bosimni yumshatish imkonini beradi;

b) iqtisodiyotning davriy pasayishlari va oʻrnatilgan stabilizatorlar;

v) iqtisodiyotni stimallashtirish maqsadida soliqlarning qisqartirilishi.

11.2. Davlat byudjetining birlamchi taqchilligi va qarzning oʻzgʻoʻzini yaratish mexanizmi

Iqtisodiy oʻsish omillaridan biri $\frac{K_{ap3}}{Y_{MM}}$ nisbatidir.

Bu nisbat dinamikasi quyidagi omillarga bogʻliq:

- qarz boʻyicha toʻlanadigan foizlar kattaligini belgilovchi, real foiz stavkasi kattaligi;
- real YAMMning oʻsish surʻatlari;
- davlat byudjetining birlamchi taxchilligi umumiy defitsit va qarzlar boʻyicha toʻlanadigan foizlar yigʻindisi oʻrtasidagi farqdan iborat.

Davlat byudjetining birlamchi taxchilligini qarz boʻyicha moliyalashda qarz ham, u boʻyicha xizmat koʻrsatish koeffitsienti ham ortadi, yaʼni iqtisodiyotdagi “qarz salmogʻi” ham ortib boradi.

Birlamchi ortiqchalikning ortishi qarz o'zg'ozini yaratishining oldini olishi mumkin.

VD umumiyq(GqNqF)g`T

Birlamchi VDq(GqF)g`T

NqDqR_r, Bu erda:

Gg`davlat haridi;

Fg`transfertlar;

Tg`byudjetga kelib tushuvchi soliqlar;

Ng`qarz bo'yicha to'lovlar;

Dg`qarz kattaligi;

R_rg`real foiz stavkasi. q

Davlat qarzining o'zg'ozini yaratish mexanizmini quyidagicha ifodalash mumkin:

бирламчи ВД $\uparrow \Rightarrow$ давлат займлари $\uparrow \Rightarrow$ двлат карзи $\uparrow \Rightarrow$ N $\uparrow \Rightarrow$ умумийВД $\uparrow \Rightarrow$
 $\Rightarrow$ Янги давлат займлари $\uparrow \Rightarrow$ карз $\uparrow \Rightarrow$ N $\uparrow$

Agar real foiz stavkasi YAMMning o'sish sur'atidan yuqori bo'lsa, davlat qarzining ortib borishi boshqarib bo'lmaydigan bo'lib qoladi, chunki real YAMMning har bir o'sishi qarz bo'yicha foizlarni to'lash uchun sarflanib, qarz og'irligini ifodalovchi $\frac{Karpz}{YAMM}$ nisbatining ortib ketishiga sabab bo'ladi. $\frac{Karpz}{YAMM}$ nisbati dinamikasini bashorat qilish uchun quyidagi bog'liqlik ishlatiladi:

$$\Delta \lambda = \lambda \left(R_r = \frac{\Delta Y}{Y} \right) - \sigma$$

$\Delta \lambda$ g` $\frac{Karpz}{YAMM}$ nisbatidagi o'zgarishlar,

λ g` $\frac{Karpz}{YAMM}$ nisbatining natijasi

R_rg`real foiz stavkasi

$\frac{\Delta Y}{Y}$ g`real YAMMni o'sish sur'ati

σ - YAMMdagi birlamchi byudjet ortiqchaligining ulushi.

$\frac{K_{ap3}}{Y_{MM}}$ nisbatini kamaytirish uchun quyidagi ikkita sharoit mavjud

bo'lishi lozim:

- real foiz stavkasi, real YAMMning o'sish sur'atidan kichik bo'lishi shart.
- YAMMdagi birlamchi byudjet ortiqchaligining o'sishi doimiy bo'lishi kerak. Davlat byudjeti birlamchi taxchilligining mavjudligi «qarz salmog'i» ortishining omili hisoblanadi.

Soliqlar miqdorini orttirish – davlat tomonida qarz bo'yicha to'lanadigan foizlar va qarzlarni qoplash uchun zarur bo'lgan daromadlarni olish usulidir.

qarz bo'yicha xizmat ko'rsatish grafigiga rioya qilish uchun davlat soliqlar ko'rinishida N dan kam bo'lmagan summani yig'ishi lozim. Bu esa $\frac{N}{Y_{MM}}$ nisbati daromadga solinadigan soliq stavkasining quyi chegarasi ekanligini bildiradi.

$$\frac{N}{Y} \leq \frac{T}{Y} \text{ Bu erda: } U_g \text{ jami daromad}$$

davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatishdan tashqari boshqa xarajatlar ham moliyalashtirilishi kerakligi uchun

$$\frac{T}{Y} \pi \frac{G}{Y} + \frac{N}{Y} + \frac{F}{Y} \text{ holati byudjet sohasida bosim ortib borishini isbotlaydi.}$$

Soliqlarning ortishini o'sib borayotgan qarz bo'yicha xizmat ko'rsatish sharti bo'lib kelishi mehnatga, yangilik kiritishga, investitsiyalashga bo'lgan layoqatning pasayishiga olib keladi.

SHuning uchun yirik davlat qarzlarning mavjudligi nisbatan iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini chegaralaydi.

Bu chegaralanishlarni chetlab o'tish uchun, davlat qarzlarni qayta moliyalashtirishi mumkin, ya'ni yangi davlat zaymlarini bosib chiqarib, ulardan kelgan daromaddan «eski qarzlarni» qoplash maqsadida foydalanish mumkin.

Davlat doimo soliqlarni oshirish, davlat qarzini qayta moliyalash yoki byujet taxchilligining monetarizatsiyasi o'rtasida tanlash imkoniyatiga egaligini hisobga olib, davlatga salmoqli qarzlarning mavjud bo'lishiga qaramasdan uning inqirozga yoz tutish xavfi deyarli yo'q.

Davlat byudjet defitsitini uzoq muddat davomida moliyalash foiz stavkasini oshiradi, bu esa o'z navbatida, investitsion xarajatlar pasayishiga olib keladi. Xususiyl sektorda yo iste'mol, yo investitsion tovarlar ishlab chiqarilishi mumkin. Agar davlat xarajatlarining o'sishi xususiyl sektordan investitsion tovarlar ishlab chiqarishni siqib chiqarsa, bugungi avlodning yashash darajasiga ta'sir qilmaydi. Lekin kelajak avlodga kichik hajmdagi asosiy ishlab chiqaruvchi fondlar meros bo'lib qoladi va o'z navbatida bu daromadlar darajasining pasayishiga olib keladi. Bu xil ta'sir davlat xarajatlarini asosan iste'mol xarajatlari (ijtimoiyl transfertlar, o'quvchilar uchun subsidiyalar va hoqazo) ni ko'tarish hisobiga oshirilganda ro'y beradi. Davlat investitsiyalari (sarmoyalari) xususiyl sarmoyalar kabi iqtisodiyotning ishlab chiqarish potentsialini mustahkamlaydi. Agar davlat xarajatlari, investitsion xarajatlar (masalan, sarmoyalarning avtostradalar qurilishiga, sog'liqni saqlash tizimiga, ta'limga jalb etilishi) ko'rinishga o'tsa, u holda kelajak avlod qo'lga o'tadigan ishlab chiqaruvchi kuchlar kamaymaydi. Ularning tuzilishi, tarkibi esa davlat kapitali ulushining foydasiga o'zgaradi. Lekin shu bilan birga iste'mol uchun mo'ljallangan xususiyl investitsiyalar siqib chiqarilishi mumkin, bu esa aholining joriyl iste'moli chegaralanishiga olib keladi.

Davlatning qarzдорlik darajasi ortib borgan sharoitda iste'molchilar xulqi birg'biriga zid, kafolatlanmagan, noturg'un bo'ladi, bu esa davlat qarzigal an'anaviyl va rikardion nuqtai nazardan yondashuvchilar o'rtasida bo'lib o'tadigan bahs, munozaralarda aks etadi. An'anaviyl

nuqtai nazarga ko`ra, soliqlar pasayishi davlat zayomlari va qarz jamg`armalari orqali moliyalashtiriladi, iste`mol xarajatlarini stimullashtirib, milliy jamg`armalarning kamayishiga olib keladi. Iste`molning o`sishi avvaliga jami talab va jami daromadni qisqa muddat ichida oshirib yuboradi, lekin keyinchalik jamg`arma kapital hajmini kamaytirib, iqtisodiy o`sishni cheklaydi.

Rikardian nuqtai nazarga ko`ra esa, soliqlarning pasayishi, davlat qarzlari ortishi hisobiga moliyalashtirilib, iste`mol xarajatlari o`sishiga yo`l qo`ymaydi va jamg`armalar o`sishini cheklamaydi, balki aniq muddat, ya`ni hozirdan kelajakka qadar bo`lgan muddat ichida soliqlar «og`irligini» qayta taqsimlaydi.

Keltirilgan kontseptsiyalardan hech birini to`laligicha rad etib bo`lmaydi, chunki ularning har ikkisi ham byudjet soliq siyosatining aniq modellari shakllanishiga ma`lum ma`noda o`z ta`sirlarini o`tkazishadi. Investitsion talab xulqi ham turlicha bo`lishi mumkin. Siqib chiqarish effekti berilgan talabning egri chizig`ida xususiy investitsiyalarning, byudjet defitsitini qarz hisobiga moliyalashdan yozaga keladigan yuqori darajali foiz stavkalari sababli kamayishini ko`zda tutadi.

Biroq, agar iqtisodiyot boshidan pasayish holatida bo`lsa, davlat xarajatlarining o`sishi mul`tiplikator samarasi ta`siri ostida yana ham kuchayishi mumkin.

Bu esa xususiy biznesdagi foyda kutilishini yanada yaxshilab investitsion talab egri chizig`ini o`ngga siljitishi, investitsion talabning o`sishi siqib chiqarish samarasini qisman yoki butunlay yo`q qilishi mumkin.

Ma`lum vaziyatda aynan bitta mexanizm – byudjet defitsitini qarz hisobidan moliyalash ham xususiy investitsiyalarning siqib chiqarish samarasini keltirib chiqarish, ham uni yo`q qilishi mumkin. SHuning uchun davlatning qarzdorlik darajasi yuqori bo`lgan sharoitda byudjet g`

soliq siyosatining samaradorligini baholash jarayoni chuqur makroiqtisodiy tahlilni talab etadi.

11.3. Iqtisodiyotning moliya g` kredit dastagi sifatida soliqlar tizimining tutgan o`rni va ahamiyati

Respublikamiz iqtisodiyotida ulkan o`zgarishlar boshlangandan beri dolzarb, ko`pgina bahslarga sabab bo`layotgan masalardan biri – bu, soliqlar masalasidir. Xo`sh nima uchun shunday?

Soliqlar murakkab va ko`p qirrali kategoriyadir. Davlat ular yordamida ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish va o`z xarajatlarini qoplash uchun majburiy ravishda qiymatning bir qismini olib qo`yadi.

Soliq tizimi g` muayyan sharoitda davlat foydasiga undiriladigan soliqlar majmuidir, ularni yig`ib olish yo`llari va usullarining tashkil etilishidir. Soliq tizimiga soliq turlari, soliq imtiyozlari, soliqlar miqdori, soliq undiriladigan daromadlarni aniqlash kiradi.

Soliq tizimining vazifasi quyidagilardir:

a) soliq to`lovchilar bilan davlat o`rtasida daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlash;

b) iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi faoliyatni rag`batlantirish yoki chetlab o`tish;

v) aholining muayyan tabaqalariga ijtimoiy imtiyozlar berish;

Soliqlar va ularning miqdori muhim ahamiyat kasb etadi. Hoziridagi fikrlarni davom ettirib, shuni aytish mumkinki, soliqlar, avvalombor markazlashgan resurslarni shakllantiruvchi asosiy unsurdir. Soliqlar oxir oqibatda ijtimoiyg`iqtisodiy tizimning samarali ishlashini ta`minlashi kerak. Buning uchun ular qulay bo`lishi lozim. Soliqlarning qulayligi quyidagilarga ahamiyat berishni taqozo etadi:

Mahsulot qiymatidan ma`lum bir qismining soliq shaklida olib qo`yilishi ishlab chiqaruvchi daromadini kamaytiradi, shu bilan birga uni

yo`qolgan daromadni qoplash maqsadida faolroq faoliyat ko`rsatishga rag`batlantiradi. Ingliz iqtisodchisi Mak Kullox shunday degan edi: «soliklarning ortishi xususiy odamga, uning oilasining o`sishi va xarajatlarning ko`payishiga qanday ta`sir etsa, millatga ham shunday kuchli ta`sir ko`rsatadi. Soliklarning doimiy o`sib borishi, tadbirkorlik, ijodkorlik, rivojlanish va iqtisod qilishga sharoitlar yaratadi. Agar soliklar engil bo`lganda edi, ular bunday samarali bo`lmas edi».

Boshqa tomondan, daromadning juda ham pasayib ketishi mehnat faoliyatini susaytiradi. A.Trusevning fikricha, ishlab chiqaruvchi faoliyatiga soliklarning ijobiy ta`siri quyidagi hollarda bo`lmasligi yoki salbiy ta`sir qilishi mumkin:

a) agar ish kuni uzun bo`lsada, uning yanada uzaytirilishi ruhiyg` fiziologik sabalarga ko`ra, mehnat intensivligining pasayishiga olib kelsa;

b) agar ishlab chiqaruvchi soliklar natijasida mahrum bo`lgan moddiy ne`matlarni ko`paytirishdan dam olishni ruqori qo`ysa;

v) agar to`lovchi baribir mehnat natijalari soliklar orqali olib qo`yiladi, deb mehnat faoliyatini oshirishni foydasiz deb topsa (bu holda soliklar ishlab chiqarishning qisqarishi va mehnat emmigratsiyasiga olib keladi).

SHunday qilib, gap shunday soliq miqdorini o`rnatish haqida ketayaptiki, u mehnat faoliyatining pasayishiga emas, balki uning jonlanishiga yordam bersin va mana shu asosda soliklardan keladigan tushumlarning oshishiga olib kelsin. Xuddi mana shu qirrasi orqali soliklar tizimi yordamida iqtisodiy va tadbirkorlik faoliyati rivojini tartibga solish mumkin. SHu erda soliq ob`ekti va soliq solish manbai xususida bir oz so`z ruoritishga to`g`ri keladi. Soliq ob`ekti daromad va mol mulkdan iborat bo`ladi. Masalan, yalpi daromad, ish haqi, er soliq ob`ektlaridir. Soliq ob`ekti ikkiga bo`linadi: turli manbalardan kelgan pul

daromadlari, daromad keltirishi mumkin bo'lgan molg'mulk. Soliq ob'ektini ko'paytirish bilan soliqlarning umumiy hajmiga ta'sir qilish mumkin.

Soliq solish manbai soliq solish ob'ektidan majburiy to'lovlar, moddiy va unga tenglashtirilgan xarajatlar olib tashlangandan keyingi qismidir. Respublikamiz boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lidan borayotgan hozirgi davrda boshqarishning iqtisodiy usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Iqtisodiy boshqarishning asosiy usullaridan biri soliqlar tizimidir. SHuning uchun ham soliqlarga katta ahamiyat berilmoqda.

Soliq nazariyasini tavsiflashdan oldin ularning asosiy qirralari va xususiyatlarini aniqlab olish zarur. Ular quyidagilar:

1. Soliqlar davlat tomomnidan qo'yiladigan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi.

2. Soliqlar miqdorini davlat bir tomonlama belgilaydi. Soliqlar har doim majburiy xarakterga ega.

3. Soliq olish qonuniy asosda amalga oshiriladi. Soliq miqdori, vaqti engilliklari oldindan qonunda ko'rsatiladi.

Soliq tizimining samaradorligiga ma'lum bir majburiyatlarga amal qiladi. Soliqlar nazariyasining asosi A.Smitning quyidagi to'rt qoidasi hisoblanadi:

1. **O'zaro tenglik.** Har bir davlat fuqarolari hukumat yordamida olayotgan daromadlariga qarab, hukumatni qo'llabg'quvvatlashda moddiy jihatdan ishtirok etadi;

2. **Analitik.** Fuqaro to'laydigan soliq aniq hisoblangan bo'ladi. Soliq to'lash vaqti, yo'li va qiymati soliq to'lovchiga aniq bo'lishi kerak;

3. **qulaylik.** Har qanday soliq shunday vaqt va yo'l bilan olinishi kerak, u soliq to'lovchiga eng qulay bo'lishi kerak;

4. **Iqtisodlilik.** Har qanday soliq shunday olinishi kerakki, u xalqdan davlat g'aznasiga tushadigan soliqdan ko'p bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak;

Ingliz iqtisodchisi Stiglits har qanday iqtisodiy tizimning besh xususiyatini ko'rsatadi:

1. **Iqtisodiy samaradorlik.** Soliq tizimi resurslarining samarali taqsimlanishi o'zgartirmasligi kerak;


2. **Ma'muriy soddalik.** Soliq tizimi iqtisodiy sharoit o'zgarishiga teng tez va avtomatik ravishda moslashuvchan bo'ladi;

3. **Siyosiy javobgarlik.** Soliq tizimi shunday tuzilishi kerakki, siyosiy jarayonda fuqarolar ijtimoiy xohishlarini aks ettirishi kerak;

4. **Adolatlilik.** Soliq tizimi turli soliq to'lovchilarga nisbatan adolatli bo'lishi kerak.

Soliqlar nazariyasining eng muhim masalalaridan biri soliq miqdori masalasidir. Soliqlar miqdorining iqtisodiy faoliyatga ta'siri qandayligini Laffer egri chizig'ida yaqqol ko'rish mumkin. Egri chiziq o'rtacha soliq miqdori bilan bjudjetga tushumlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ko'rsatadi.

Laffer egri chizig'i.



Bu erda: ORg`bjudjetga soliqlar orqali tushadigan tushumlar;

ONg`soliq miqdori;

N^xg`qulay soliq miqdori, unda bjudjetga tushadigan tushumlar eng yuqori bo`ladi;

R_{max}g`bjudjetga tushadigan tushumlarning eng yuqori miqdori.

Artur Laffer gepotezasiga ko`ra, soliq miqdori oshib ketsa, soliqlardan tushadigan tushumlar kamayadi. Bunda soliqlardan daromadni yashirish hollari kuchayadi.

Laffer fikricha, tadbirkorlar va aholi daromadining 30% dan ortig`ini soliq shaklida olib qo`yish mumkin emas. 40g`50 foizi olib qo`yilsa, jamg`armalar kamayadi, bu esa iqtisodiyotning xususiy sektorida vestitsiyalarning kamayishiga olib keladi. YA`ni soliqlar makroiqtisodiyot maqsadini ko`zlab, ishlab chiqarishning rivojlanishiga to`squinlik qilmasligi kerak. Bunda soliqning og`irligi kapitalga emas, daromadga tushishi kerak. SHuning uchun ham soliq nazariyalari masalalari boshdang`oyoq qunt bilan o`rganilishi, kelajakda O`zbekiston bjudjetining daromad qismini ta`minlay oluvchi, muqobil soliq turlarini qo`llash masalalari olidnga qo`yilishi va echilishi lozim.

Soliqlar nazariyasini o`rganishdan asosiy maqsad qaysi soliq qanday ta`sir qilishi, uning miqdori qanday bo`lishi kerak va hoqazo savollarga ilmiy asoslangan javob topishimiz mumkinligidadir. Soliqlar ishlab chiqarishning, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga imkon yaratadi.

Respublikamiz ulkan iqtisodiy o`zgarishlar davrida to`rganligi uchun mana shu o`zgarishlarning mohiyatini tushunib etish kerak. Soliqlarni ko`rib chiqishdan oldin ularning vazifalari va mazmunini bilish lozimdir. Soliqlarning asosiy vazifalaridan biri uning yo`naltiruvchilik vazifasidir. U ma`lum xarajatlarni moliyalashtirish uchun davlat va mahalliy resurslarni shakllantirishadi. Navbatdagi vazifasi taqsimlashdir. Uning mohiyati daromadlarni qo`llabg`quvvatlash, nafaqa va stipendiyalar, tovon pullari

to'lash uchun ishlab chiqarish sohalari, aholi guruhlari, mintaqalar o'rtasida daromadlarni qayta taqsimlashdan iborat.

Yana bir muhim vazifasi – iste'mol va jamg'arish o'rtasida mutanosiblikni ushlab turadi. Asosiy maqsadi, mohiyati aholi iste'molini ular daromadining bir qismini olib uni ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirish orqali cheklashdir.

Keyingi vazifasi – rag'batlantiruvchanlik, ya'ni ishlab chiqarish hajmini oshirish va uni yangilash, ilmiy yangiliklar yaratishga imkoniyat yaratishdir.

Navbatdagi vazifasi, cheklash, ya'ni ma'lum bir mahsulot turlarini ishlab chiqarishni, aholining haddan tashqari o'sishini cheklashdan iborat.

So'nggi vazifasi – nazorat va hisobg'kitob qismidir, ya'ni korxona va aholi guruhlari daromadlari ishlab chiqarish hajmi va tarkibini, moliyaviy mablag'lar harakatini hisobg'kitob qilish.

Bu vazifalarning bajarilishi respublikamizda amal qilayotgan soliq turlariga bevosita bog'liqdir. Respublikamiz soliq turlari bilan tanishishdan oldin, umuman soliqlarning qaysi belgi va xususiyatlariga qarab, qanday turlarga turkumlanishini ko'rib chiqamiz:

- 1) Soliqqa tortish ob'ekti bo'yicha: bevosita, bilvosita.
- 2) Soliqlarni qaerga tushishishiga ko'ra: davlat va mahalliy.
- 3) Foydalanish tartibiga ko'ra: umumiy va maxsus.

Endi bevosita O'zbekistonda qo'llaniladigan amaldagi soliq turlari bilan yaqindan tanishamiz.

"Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliq to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi qonuniga asosan korxonalardan olinadigan dastlabki soliq daromad solig'idir. Bunday soliqqa quyidagilar tortiladi:

- yuridik shaxs bo'lgan mulkchilikning barcha shaklidagi korxonalar, birlashmalar va tashkilotlar, yuridik shaxs bo'lmagan, lekin mustaqil balansiga va bank muassasida hisobg'kitob schetiga ega korxonalar, birlashmalar (korxonalar)ning, tashkilotlarning filiallari, vakolatxonalari va boshqa mustaqil bo'linmalari;
- xo'jalik hisobida turmaydigan, lekin faoliyatidan daromad olinadigan tashkilotlar, byudjetdagi ilmiy tekshirish tashkilotlari bundan mustasnodir;
- O'zbekiston respublikasi hududida tashkil etilgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi tashkilotlar, korxonalar ularning filiallari.

Daromad solig'i olinayotgan vaqtda soliq ob'ekti korxonaning hisobot davridagi yalpi daromadi hisoblanadi.

Soliq solish maqsadlarida korxonaning hisoblab chiqilgan yalpi daromadi mahsulotlarni, o'zga moddiy boyliklarni realizatsiya qilishdan tushum yig'indisidan hamda realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lmagan operatsiyalar natijasidan iborat bo'ladi.

Harid mollari bilan savdo qiluvchi korxonalar uchun soliq solish maqsadlarida sotishdan olinadigan daromadlar deyilganda realizatsiya qilingan tovarlarning sotib olingan va sotilgan qiymati o'rtasidagi farq tushuniladi.

12g`MAVZU. RESPUBLIKADA BOZOR INFRATUZILMASINING ASOSIY YO`NALISHLARI

12.1.Bozor iqtisodiyotini tartibga solish zarurligi va yo'llari

Hozirgi kunda birorta ham mamlakatda sof bozor mavjud emas. Barcha mamlakatlarda iqtisodiyot o'zmi g'ko'pmi tartibga solinadi. Agar iqtisodiyot davlat tomonidan tartibga solinmas ekan, ishlab chiqarish sohasida, albatta, inqiroz holatlari vujudga keladi.

Hozirgi kunda rivojlangan bozor xo'jaliklarida davlatning u yoki bu darajada iqtisodiyotga aralashuvi mavjud. Lekin barcha rivojlangan mamlakatlarda ham davlatning iqtisodiyotga aralashuvi bir xil emas. Masalan, SHvetsiya, Finlyandiya kabi mamlakatlarda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi keng miqyosda bo'lib, bu asosan ijtimoiy sohaga tegishli yangi ijtimoiy demokratizm siyosatidir. Angliya, Italiyada esa davlat iqtisodiyotga ham aralashadi.

Bozor iqtisodiyotining asosi tovar ishlab chiqaruvchilarning qay darajada erkinligi bilan belgilanadi. Agar tovar ishlab chiqaruvchilar mutlaqo erkin bo'lishsa, bozor munosabatlari rivojlangan bo'ladi va shu bilan birga inqirozga olib kelishi mumkin. Masalan, AqSHda qishloq xo'jaligining rivojlanishiga davlat uch xil usulda: qonun yo'li bilan, ma'muriy yo'l bilan, iqtisodiy yo'l bilan aralashadi. SHuni ta'kidlash kerakki, agar iqtisodiyotni samarali iqtisodiyotga aylantirmoqchi bo'lsak, bozor sharoitida ham uni tartibga solish albatta lozim bo'ladi.

Ilg'or mamlakatlar tajribasida qo'llangan va bugungi kunda ham qo'llanilayotgan bozor iqtisodiyotini tartibga solishning turli xil yo'llari mavjud. SHuni ham aytish kerakki, bu mamlakatlarda qo'llaniladigan usullar bizning sharoitga to'g'ri kelmasligi mumkin. Mazkur mamlakatlarda iqtisodiyotni tartibga solish ishlari ingliz iqtisodchisi J.Keyns tomonidan yaratilgan maxsus tsikllarga qarshi siyosatdan boshlangan edi. Bu siyosatning negizi milliy pul daromadlarini yaratish uchun mo'ljallanigan modeldir. Bu modelning kamchiligi shundaki, u real iqtisodiyot qonunlariga rioya qilmaydi. Davlat daromadini va xarajatini to'g'rilash, shuningdek soliq stavkasini o'zgartirish bu siyosatning mohiyatini tashkil etadi. Soliiq stavkasini o'zgartirib ehtiyojlarni kengaytirish va

kamaytirishga erishish mumkin.

AqSHning atoqli olimi M. Fridmannning nazariyasi bo'yicha davlat tomonidan iqtisodiy tartibga solish uchun pul massasining o'sish sur'atlarini doimo bir maromda saqlash lozim. SHuningdek, hozirgi kunda bozor iqtisodiyotini rivojlangan mamlakatlar soliqlar, kredit, valyuta siyosati, baholarni nazorat qilish, investitsion qonunchilik, rejalashtirish, dasturlashtirish va boshqa ma'muriy ta'sirlar orqali tartibga solmoqdalar.

Soliqlar orqali tartibga solish shunga asoslangan: birorta mahsulot ko'proq ishlab chiqarilishi lozim bo'lsa, shu mahsulot ishlab chiqaruvchilarga kamroq soliq solinadi, agar shu mahsulotni kamroq; ishlab chiqarish lozim bo'lsa, ko'proq soliq olinadi.

Kredit orqali esa ishlab chiqaruvchilarga kredit berish miqdorini kamaytirish yoki ko'paytirish, foizini o'zgartirish natijasida ta'sir ko'rsatiladi.

Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda baholar ayniqsa, katta o'rin tutadi. Davlat tomonidan olib borilayotgan narx siyosatiga qarab maqbul ravishda iqtisodiyotni boshqarish mumkin.

Bundan tashqari hozirgi kunda ilg'or mamlakatlarda iqtisodiyotni boshqarishda dasturlashtirish usulidan keng foydalanilmoqda. Bu erda shuni aytib o'tish kerakki, iqtisodiyotni boshqarishda mulk shakllarining xilmag'xilligi nihoyatda katta rol uynaydi. Masalan, AqSHda yaratilayotgan milliy mahsulotning 40 foizi, kapital qurilishning 25 foizi davlat sektoriga to'g'ri keladi va bozorning uzgarishiga qarab bu nisbat o'zgartirib turiladi. SHuning uchun ham bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida bizning oldimizda to'rgan muhim vazifalardan biri mulkning qancha qismini xususiylashtirishni oqilona darajada aniqlashdan iborat.

Hozirgi kunda barcha rivojlangan mamlakatlarda bozorni

tartibga soluvchi vosita sifatida rejalashtirish va dasturlashtirishdan keng foydalanilmoqda. Biz ham bozor iqtisodiyotini tartibga solishda rejalashtirishdan muqobil ravishda foydalanishimiz lozim. Chunki bizda shu vaqtgacha ham rejalashtirish mavjud edi. Endi iqtisodiyotni tartibga solishda rejalashtirishning mohiyatini butunlay o'zgartirish kuzda tutilmoqda, ya'ni direktiv (keskin, qat'i) rejalar o'rnini indikativ (tavsiyaviy) rejalar egallashi mumkin. Buning ma'nosi shuki, endilikda markazlashgan qat'i rejalashtirish o'rniga tavsiyaviy rejalar ishlab chiqiladi. Bu rejalar ishlab chiqarishni, iste'molni rivojlantirishning eng maqbul yo'llarini o'zida mujassamlashtiradi. Birinchi navbatda, shunday rejalar bir yil muddatga tuzilishi ko'zda tutilmoqda. Korxonalar xohlasa shu reja asosida ishini davom ettiradilar, agar xohlamasa, o'zlari bilganicha ish yuritadi. Bu, albatta, xususiy sektordagi korxonalar uchun shunday bo'ladi. Davlat korxonalari esa (davlat tomonidan) markazdan tuzilgan rejalar bo'yicha ish yuritadi. Keyinchalik esa 10g'15 yilga mo'ljallangan tavsiyaviy rejalar ishlab chiqish ko'zda tutilmoqda.

Shunday qilib, biz xulosa qilishimiz mumkinki, bozor iqtisodiyotiga o'tar ekanmiz, bozorni tartibga solish yo'llarining eng maqbullarini tanlab olib, ishlab chiqarishni, bozorni tartibga solishda ulardan foydalanishimiz lozim.

12.2. Bozor munosabatlarining respublika iqtisodiy mustaqilligiga ta'siri

Boshqariladigan bozor iqtisodiyoti yuqori samarali mehnat unumdorligi yutuqlariga tayanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, bozor mexanizmsiz yuqori samarali iqtisodiyot ham yo'qdir.

Bozorga o'tish davrida quyidagilarga katta e'tibor berish kerak: moliya holatini yaxshilash, sumning qadrsizlanishini kamaytirish, iste'mol bozorini balanslashtirish.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning boshlang'ich davrida salbiy oqibatlardan qochib bo'lmaydi. Ishlab chiqarishning birmuncha pasayishi asosan «A» guruh mahsulotlari va sanoat qurilishida ko'zga ko'rinadi. Ishsizlar soni bir oz ortadi. Aholining moddiy ahvoli baholar oshishi natijasida yomonlashadi.

Faqat O'zbekistonning o'zida bozor munosabatlariga o'tish bilan ishsizlar soni, hisobg'kitoblarga qaraganda, 2g'2,5 barobar ko'payishi mumkin. Bu salbiy oqibatlarning oldini olish uchun esa ijtimoiy muhofaza mexanizmi zarur. Ijtimoiy muhofaza doirasiga asosan ishsizlar, mehnatga yaroqsiz kishilar, ko'p bolali oilalar kiradi. Davlat bu toifa kishilarni ijtimoiy muhofaza qilishni ikki yo'l orqali amalga oshirishi mumkin:

1. Kam ta'minlangan kishilarning mehnati bilan ular o'z moliyaviy ahvollarini birmuncha yaxshilashlari uchun sharoit yaratish;
2. Nochor kishilar va oilalarni markazlashgan holda mablag' bilan ta'minlash.

Agar birinchi yo'l rag'batlantirishga asoslansa, ikkinchisi ijtimoiy kompensatsiya qilishga asoslangan. Bu o'rinda asosiy masala ishsizlikni yo'qotish muammosidir. O'zbekiston aholisini ish

bilan ta'minlashning oqilona yo'llarini topish uchun avvalo faol tarkibiy siyosat o'tkazish lozim. Buning uchun barcha imkoniyatlarni ishga solish va yangi ish joylarini tashkil etish bilan chet davlatlar sarmoyalarini jalb qilish kerak.

12.3. Bozor iqtisodiyotiga o'tish dasturi va uning asosiy yo'nalishlari

Bozorga munosabat har xil. Ba'zilar uni har qanday mushg'ulotlardan quriladigan omil, zamonaviy, gullabg'yashnovchi jamiyat qurish uchun birdang'bir imkoniyat, deb bilmoqdalar. Boshqalar o'tish bosqichidagi turmush sharoitining yomonlashuvidan xavfsirab, bozorga shubha bilan qaramoqdalar. Uchinchi toifadagilar bu g'oyani mutlaqo qabul etmayaptilar.

Mana shunday bir paytda hukumat favqulodda murakkab ish qilinishi lozimligini payqab turibdi. Bu vaziyat esa quyidagilarni taqozo etmoqda:

Birinchidan, bozorga o'tishni ham, shuningdek, mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatni barqarorlashtirishni ham ta'minlaydigan chorag'tadbirlarni ayni bir vaqtda amalga oshirish zarur. Avvalo, byudjetning kamomadini kamaytirish, pul muomalasini sog'lomlashtirish, so'mning obro'g'e'tiborini va harid qobiliyatini mustahkamlash, iste'mol bozorini mo'lg'ko'l ta'minlash vazifalarini alohida ajratib olish talab etiladi.

Ikkinchidan, voqea va hodisalarga aniq qarash, muhokama qilinganda iqtisodiy turmushni bir kun to'xtatib bo'lmazligini unutmaslik lozim. Poezd va samolyotlarning qatnovida, metall quyishda, kimyo korxonalarida, chorvachilik sohasida va novvoyxonalarning ishida o'zilishlar bo'lmazligi zarur. Buning oldini

olish uchun bozor munosabatlarini rivojlantirish bilan birga, qanday qilib bo'lmasin, xo'jalik aloqalarini saqlab qolish hamda bu aloqalarning uzilishiga yo'l quymaslik lozim.

Uchinchidan, siyosiy barqarorlikka, qonunni va huquq tartibotini hurmat qilishga, ijrochilik intizomiga qattiq rioya etilishiga erishmoq kerak. qonunga amal qilmay qo'ygan mamlakat muqarrar ravishda o'zaro ko'rashuvchan guruhlarining olishuv maydoni bo'lib qoladi, unda poraxo'r unsurlarinnng ta'siri kuchayadi, buzg'unchilik jarayonlari boshqaruv tizimiga tobora ko'proq to'sqinlik qiladi.

Iqtisodiy islohotlarning mohiyatini chuqurroq idrok etish, ularning hayotiy zarurligini aniq va ravshan anglab etish lozim. Respublikadagi har bir rahbar, xodim, ilg'or fikrlovchi kishi islohotlar g'oyasi bilan yashashi kerak. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy dasturining eng asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- bozor munosabatlariga o'tish iqtisodiy dasto'ning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bu printsipga muvofiq bozor iqtisodiyotiga bosqichmag'bosqich o'tish kerak. Avvalambor, o'zini oqlamagan ma'muriyg'buyruqbozlik boshqaruv printsiplaridan, o'ta markazlashtirilgan taqsimlash tizimidan, shakllangan tyokischilik va boqimandalik kayfiyatidan qat'ian voz kechish lozim;
- bozor munosabatlariga o'tish insonning njodiy va mehnat salohiyatini namoyon qilishga, boqimandalikni bartaraf etishga, yuqolib ketgan egalik tuyg'usini qayta tiklashga imkon beradi. Faqat bozorgina mahsulot ishlab chiqaruvchining hukmini bartaraf etib, respublikaning g'oyat katta boyliklaridan samarali foydalanishni ta'minlay oladi.

Bu borada bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyoti oldida

to'rgan eng muhim masalalar quyidagilardan iborat:

— davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish yo'li, yangi paydo bo'layotgan nodavlat, ya'ni ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanayotgan va aholiga xizmat ko'rsatayotgan xususiy, aktsionerlik, jamoa va boshqa korxonalarni qo'llabg'quvvatlash bilan aralash, ko'p tarmoqli iqtisodiyotni shakllantirish;

— narxg'navolarni bosqichmag'bosqich erkinlashtirish, monopoliyaga qarshi qattiq siyosat o'tkazish, davlat korxonalarining faoliyatini tijoratlashtirish hisobiga raqobat muhitini vujudga keltirish;

— bevosita xo'jalik aloqalarini har tomonlama rivojlantirish, tovarlar, sarmoya, ish kuchi va boshqa bozorlarni shakllantirish borasidagi chorag'tadbirlarni amalga oshirish, bozor infratuzilmasini vujudga keltirish, bozor sharoitida ishlay oladigan kadrlar tayyorlash.

Iqtisodiy dasto'rning strategik vazifasi — iqtisodiyotimizning tarkibini qayta qurishdir, ya'ni iqtisodiyotning bir yoqlama – xom ashyoga yo'naltirilganligini qat'iyon bartaraf etish ichki siyosatning eng muhim ustuvor yo'nalishidir. Strategik jihatdan o'sishga erishmoq uchun ishlab chiqarish tarkibini o'zgartirish zarur. Haqiqatan ham bir necha o'n yillar mobaynida respublika iqtisodiyoti markazdan boshqariladigan yagona xalq xo'jalik majmuining tarkibiy qismi edi. Markaz qabul qiladigan ko'pgina qarorlar O'zbekistonning manfaatlaridan yiroq edi. Xullas, chor imperiyasi davridagidek, respublika xom ashyo uchun strategik baza edi. U tayyor mahsulot sotiladigan qulay bozorga aylanib qolgandi. Respublika o'lgan tabiiy boyliklaridan foydalanilgan holda daromadlar uning hududidan olisda qolib ketardi.

SHuning uchun respublika iqtisodiyotini tarkibiy jihatdan

o'zgartirish bo'yicha ishlab chiqilayotgan chorag'tadbirlar, avvalo, quyidagi vazifalarni hal qilishga qaratilishi lozim;

— qishloq xo'jalik xom ashyosi va mineral resurslarni chuqurroq qayta ishlashni, ularni tayyor mahsulot darajasiga etqazish, qishloq xo'jalik resurslarini qayta ishlashga alohida ahamiyat berish kerak. Yangi qayta ishlov quvvatlarini yaratish, keng miqyoslarda mevag'sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, trikotaj, to'qimachilik, tikuvchilik sanoatini, sermehnat tarmoqlarni rivojlantirish, tayyor buyumlarning xillarini ko'paytirish, ularni tashib keltirishni kamaytirish va eksportni oshirish;

— paxta tozalash va qayta ishlash sanoatidan iborat bo'lgan xalq xo'jaligi mavjud tarkibining istiqboli yo'q. SHuning uchun asosiy vazifa ilmg'fanga asoslangan, texnik jihatdan murakkab tayyor mahsulot ulushini ko'paytirish va uning raqobat qobiliyatini ta'minlash, aqliy salohiyat negizida yuksak texnikaga ega bo'lgan korxonalarni vujudga keltirish;

— ilg'or texnologiyalarga, zamonaviy ishlab chiqarish tarkibiga o'tishni ta'minlash, mineral resurslarni kompleks qayta ishlovchi o'zaro bog'liq tarmoqlar tizimini shakllantirish.

13g`MAVZU. Iqtisodiyotning Davlat Tomonidan Tartibga Solinishi

13.1. Davlatning iqtisodiy funktsiyalari va uning bozor iqtisodiyoti rivojlanishiga aralashuvi zarurligi

Davlatning iqtisodiy vazifalari ko'p va turli xildir. SHuning uchun tahlilimizga asos sifatida davlatning quyidagi iqtisodiy faoliyatlarini qarab chiqamiz.

Birinchi dan, davlatning ayrim iqtisodiy vazifalari bozor tizimi rivojlanishini engillashtirish va qo'llabg'quvatlash maqsadiga ega. Bunday vazifalar sirasiga quyidagi ikki faoliyatni kiritishimiz mumkin:

- bozor tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan huquqiy baza va ijtimoiy muhitni ta'minlash;
- raqobatni himoya qilish.

Ikkinchi guruh vazifalarini bajarishda davlat bozor tizimi faoliyatini kuchaytiradi va turlaydi. Bu erda davlatning quyidagi uchta vazifasi asosiy ahamiyatga ega.

- daromad va boyliklarni qayta taqsimlash;
- milliy mahsulot tarkibini o'zgartirish maqsadida resurslar taqsimotini tartibga solish;
- iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ya'ni iqtisodiy kon'jukturaning egiluvchanligi natijasida paydo bo'ladigan ishsizlik va inflyatsiya darajalarini nazorat qilish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish;

Davlat bozor iqtisodiyotining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun asos bo'ladigan ayrim xizmatlarni va huquqiy bazani ta'minlash vazifalarini o'z zimmasiga oladi. Huquqiy bazani ta'minlash asosan xususiy korxonalarga haqq'xuquqlar berish, xususiy mulkchilikni aniqlash va shartnomalar bajarilishini nazorat qilish, shuningdek, boshqalarda namoyon bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotida raqobat asosiy tartibga soluvchi mexanizm bo'lib hisoblanadi. Bu ishlab chiqaruvchilar va resurslarni etqazib beruvchilarni o'ziga bo'ysundiradigan yagona kuchdir. Bozor tizimiga bo'ysunadigan ishlab chiqaruvchilar raqobat natijasida foyda olishni rejalashtiradi. Kimki bu qonunni buzsa, zarar ko'radi va oqibatda batomom tugatilishi mumkin. Raqobat sharoitida iste'molchi g' bu xo'jayin, bozor g' uning ta'minotchisi (agenti), korxona esa, xizmatkori hisoblanadi.

Monopoliyaning o'sishi bu vaziyatni tezda o'zgartiradi. Monopoliya raqobat bilan almashinar ekan, sotuvchilar bozorga ta'sir qilishi mumkin yoki o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda narxlarni oshirish orqali mamlakatga zarar olib keladi.

Bozor tizimi rivojlanishi bilan mamlakat aholisi oladigan daromadlar va qiladigan xarajatlar o'rtasida nomutanosibliklar paydo bo'ladi. Bu kabi muammolarni hal qilishda davlat asosiy ahamiyatga ega. YA'ni, davlat jamiyatdagi daromadlar nomutanosibligini kamaytirish vazifasini bajaradi. Bu vazifalar bir nechta siyosiy tadbirlar va dasturlarda o'z echimini topgan. Birinchidan, transfert to'lovlari orqali yordamga muhtoj, boqimanda, nog'iron va ishsizlarni nafaqalar bilan ta'minlaydi. Ikkinchidan, davlat bozorga aralashuvi orqali daromadlar taqsimlanishini o'zgartiradi. Fermerlarga kafolatlanadigan baho va minimal ish haqi to'g'risidagi qonunchilik davlatning aholi ayrim guruhlarini daromadlarini tenglashtirish maqsadida bahoni tartibga solib turishga misol bo'la oladi. Bundan tashqari aholidan olinadigan daromad soliqlarining foizlar bo'yicha tabaqalanishi ham aholining kam ta'minlangan qismini qo'llabg'quvvatlash maqsadida olib borilayotgan dasturlardan biridir.

Iqtisodchilarga bozor faoliyati buzilishining ikki holati ma'lum. Birinchidan, kerak bo'lmagan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda qanday resurslar bo'lishidan qat'i nazar, iqtisodiy jihatdan foydaliligini aniq ajratib ko'rsata olmaydi. Birinchi holatda resurslarni tuslanishi yoki qo'shimcha samaraga, ikkinchidan esa, davlat yoki ijtimoiy manfaatga bog'liq.

Oldingi mavzularda ko'rdikki, raqobatli bozor tizimining qulayliklaridan biri resurslarni samarali taqsimlashdan iborat. Boshqacha aytganda, har bir turdagi tovar va xizmatni ishlab chiqarishda resurslar to'g'ri yoki maqbul taqsimlanadi.

Raqobatli bozordagi resurslarning samarali taqsimlanishida yashirincha ravishda kamchiliklar ham mavjud. CHunonchi, har xil turdagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish yoki iste`mol qilishda qo`shimcha samara yoki tovlanish bo`lmaydi, deb hisoblanadi. Tovlanish tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish yoki is`temol qilish bilan bog`liq bo`lgan imkoniyat va xarajatlar uchinchi tomonga, ya`ni bevosita sotuvchi yoki sotib oluvchi bo`lmagan tomonga o`tadi. Tovlanish, shuningdek, qo`shimcha samara deb ham yoritiladi. CHunki, u bozor oldi g` sotdisida qatnashayotgan individ yoki guruhlar hisobiga to`g`ri keladigan imkoniyat va xarajatlarni bildiradi.

Tovarlarni ishlab chiqarish yoki iste`mol qilishda uchinchi bir tomondan kutilmagan xarajatlar paydo bo`lishi tovlanish xarajatlarini anglatadi. Bu xarajatlarning ko`pgina qismi atrof g` muhitning ifloslanishi bilan bog`liq. Davlat xarajatlar tovlanishi natijasida resurslar nomutanosib taqsimlanishining oldini olish uchun qonunlar qabul qiladi, va o`ziga xos soliqlar joriy etadi.

O`zbekistonning bozor iqtisodiyoti rivojlanishiga aralashuvidan asosiy maqsadi, iqtisodiyotga yangi demokratik usullar bilan rahbarlik qilish, barcha xorijiy mamlakatlar bilan samarali iqtisodiy integratsiyaga o`tish, ITT yutuqlaridan samarali qo`llash asosida resurslardan unumli foydalanishni yo`lga qo`yish va aholining turmush darajasini oksaltirishdir.

13.2. Davlat tomonidan yoritiladigan makroiqtisodiy siyosatning ko`rinishlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat mamlakat iqtisodiyotiga bevosita aralashadi. Davlatning mamlakat iqtisodiyotiga aralashuvi makroiqtisodiy siyosat orqali amalga oshiriladi. Bu siyosatga asosan quyidagilarni kiritamiz:

- byudjet;
- pulg`kredit;
- dotatsiya; subventsia; subsidiya;
- xalq xo`jaligi balansi;
- soliq mexanizmi;
- chegaralangan baholar va boshqalar.

Davlat byudjet xarajatlarini (davlat xarajatlari va transert to`lovlari) ko`paytirish yoki qisqartirish orqali mamlakat iqtisodiyotiga aralashadi. Davlat tomonidan tartibga solishning bevosita usullari yoki byudjet siyosati tovar va xizmatlarning davlat haridi, YAMM ni taqsimlash va qayta taqsimlash, ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, davlat byudjetining daromadlar va xarajatlar qismidagi mutanosiblikni ta`minlash, ishlab chiqaruvchilarga moliyaviy yordam shakllarini ko`rsatish, narxlar ustidan nazorat o`rnatish, eksport va import qilinadigan tovarlarga kvotalar o`rnatish va shuningdek, mamlakat aholisini himoya qilish maqsadida olib borilayotgan chorag`tadbirlar majmuasidan iborat. Avvalambor u mamlakatda pul massasini tartibga solishga qaratilgan va uning asosiy vazifasi narxlar va real milliy ishlab chiqarish hajmining o`sishiga mos keladigan pul emmisiyasi hisoblanadi. Pulg`kredit siyosati deganda to`liq bandlik sharoitida jami mahsulotlarni ishlab chiqarishga inflyatsiyani ta`sirini kamaytirish yoki bartaraf etish maqsadida muomaladagi pul miqdorini o`zgartirish tushuniladi. Uning yordamida har qanday davlat mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta`minlash vazifasini hayotga tatbiq etadi.

Hozirda hamma mamlakatlarda pul miqdorini tartibga solishda ochiq bozorda operatsiyalarni, ya'ni davlat qimmatli qog'ozlarini taklif qilish usulidan keng foydalanilmoqda. Ushbu operatsiyalarni Markaziy bank asosan nufuzi katta banklar guruhi bilan birgalikda amalga oshiradi. Bozorda Markaziy bank xazina qimmatli qog'ozlarini sotish yoki harid qilish yo'li bilan pul taklifiga ta'sir etadi, ya'ni pul bozorida talab va taklif muvozanatini ta'minlaydi.

Pul bozorida muomilada pul miqdori ortiqchaligini mavjud deb faraz qilamiz. Tabiiyki, Markaziy bank ortiqcha pul massasini kamaytirish yoki yo'q qilishga harakat qiladi. Buning uchun, u ochiq bozorda o'zining qimmatli qog'ozlarini aholi va banklarga taklif etadi, ular esa uni harid qila boshlaydilar. Davlat qimmatli qog'ozlarining (sotish yoki harid qilish yo'li bilan) taklifi oshib borgan sari, uning bahosi pasayadi, o'z navbatida unga bo'lgan harid (ya'ni qimmatli qog'ozlarni sotib olganlarga foiz shaklida haq to'lanadi) oshadi, bu esa unga bo'lgan talabni oshiradi.

Banklar va aholi qimmatli qog'ozlarni ko'proq harid qila boshlaydilar, pirovard natijada banklarning zahiraları qisqaradi, o'z navbatida, bu hol pul taklifi bank mul'tiplikatoriga teng nisbatda qisqarishiga olib keladi. Bu bank zahirasi va pul taklifining ortishiga olib keladi.

O'zbyokitonda pulg'kredit siyosatining quyidagi yo'nalishlari mavjud:

- davlat tomonidan pul massasini oldindan bilish, uni doimiy nazorat qilish;
- Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining operatsiyalarini pul bilan ta'minlash pul muomilasi sohasini nazorat qilishga imkon beradi;

- kredit va byudjet tizimlari o'rtasida o'zaro munosabatlar vositasini takomillashtirish, kredit berish, byudjet kamomadi sharoitida uni pul chiqarish hisobiga emas, balki davlatning qimmatli qog'ozlarini sotish hisobiga qoplash zarur.

Bu siyosatning asosiy vositasi, Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan hisob stavkasini tartibga solish, tijorat banklarining majburiy ravishda Markaziy bankda saqlaydigan zahira me'yorini o'zgartirish, qimmatli qog'ozlar bo'yicha ochiq bozordagi operatsiyalarni yo'lga qo'yish va boshqa tadbirlardan iborat.

Davlat tomonidan xo'jaliklarga ko'rsatiladigan moliyaviy yordamlar dotatsiya, subventsia va subsidiya shakllarida olib boriladi.

Dotatsiya g' byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan qaytarib olmaslik sharti bilan xo'jaliklarning zararlarini qoplash, shuningdek, mahalliy byudjetlar mutanosibligini ta'minlash uchun ajratilgan pul mablag'laridir.

Subventsia g' qat'i maqsadlar uchun beriladigan dotatsiya turi bo'lib, foydalanish sharti buzilganda uni qaytarib olish mumkin.

Subsidiyalar g' bu pul yoki natura ko'rinishidagi yordam turi bo'lib, byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan ko'rsatiladi. Subsidiyalar bevosita va bilvosita bo'lish mumkin. **To'g'ri subsidiyalar** – kapital qo'yilmalar, ilmiy tadqiqotlar, kadrlarni qayta tayarlashga ajratilgan mablag'lar, egri subsidiyalar soliq imtiyozlari, imtiyozli shartlarda kreditlar berish, pasaytirilgan bojxona bojlari va hoqazolardir.

Bundan tashqari davlat aholini davlat transfertlari ko'rinishida himoya qiladi.

Balans – bu, ikki qismdan iborat bo'lgan iqtisodiy hisobg'kitobdir. Birinchi bo'limda, resurslarni tashkil etish manbalari, ikkinchisida ulardan foydalanish yo'llari ko'rsatiladi. Ikki bo'limning bir g' biriga tengligi resurslar va ular iste'moli mutanosibligini bildiradi. Balanslar g'

moddiy balanslar, mehnat balanslari, moliyaviy balanslarga, shuningdek, yana hisobot va reja balanslariga bo`linadi.

Balanslar yordamida xalq xo`jaligi tarmoqlari, turli xo`jalik ierituvchi subektlarning iqtisodiy faoliyatlari hamda moddiy va moliyaviy bo`limlar harakati o`rtasidagi bog`liqlik ta`minlanadi. Balanslarning eng asosiylaridan biri Xalq xo`jaligi balansi hisoblanadi. Bu balans jadvallar tizimi bo`lib, unda milliy iqtisodni rivojlantirish ko`rsatkichlari, ijtimoiy mahsulot va milliy daromadning hajmi va o`sish sur`atlari, jamg`arish va iste`mol fondlari, ishlab chiqarish vositalarini va iste`mol buyomlarini ishlab chiqarish, aholining pul daromadlari va ularni mahsulotlar bilan ta`minlash va boshqalar o`rtasidagi asosiy nisbatlar o`rin oladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ko`p qirrali soliqlar tizimidan foydalaniladi. Aholi davlat b`udjetiga har oyda olgan daromadlariga qarab daromad solig`i, korxonalar esa olgan foydasiga qarab foydadan soliq to`laydi. SHu kabi juda ko`p mavjud soliq turlaridan oqilona va ilmiy asosda foydalanish orqali davlat soliq tizimi siyosatini, soliq stavkalari miqdorlarini va imtiyozlari turlarini aniqlaydi. Va shu bilan butun makroiqtisodiy vaziyatga ta`sir ko`rsatadi. YA`ni, soliqlarni o`zgartirish orqali investitsiyalar va jamg`armalar rag`batlantiriladi.

Davlat bozor tizimining faoliyat ko`rsatishida baho mexanizmidan, xususan, chegaralangan baholardan keng foydalaniladi. Jumladan, chegaralangan baholar aholini himoya qilish maqsadida ayrim turdagi oziq g` ovqat mahsulotlariga belgilangan. CHegaralangan baho uning haqiqiy qiymatlaridan bir necha barovarga kam bo`lishi mumkin. Davlat chegaralangan bahoni bozor bahosidan yuqori va kam belgilashi mumkin.

qayd etilgan narxlar davlat tomonidan tartibga solishning bevosita usullari tizimida alohida o`rin tutadi. Bozor tizimida narxlar

talab va taklifni tartibga soluvchi asosiy vosita hisoblansada, biroq dunening barcha mamlakatlarida davlat narxlarini shakllantirish jarayoniga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

13.3. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi

SHunday xizmat turlari ham mavjudki, ularga qandaydir miqdorda narx belgilash mumkin. Masalan, ko'cha va avtomagistrallar, militsiya yong'inga qarshi ko'rash, kutubxona va muzey, profilaktik, tibbiy (meditsina) xizmatlari va boshqalar.

Demak, bozor tizimidagi baho ijtimoiy manfaatlarni ko'zlab ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarga bo'lgan resurslarni ajratmas ekan, u holda ularning ishlab chiqarish mexanizmi qanday olib boriladi?

Ushbu tovar va xizmatlarning ishlab chiqarishga zarur bo'ladigan resurslar taqsimoti asosan davlat orqali guruh yoki jamoa qarorlarida qabul qilinadi. YAnada aniqroq aytadigan bo'lsak, u demokratik davlatlarda siyosiy usul, ya'ni ovoz berish orqali aniqlanadi. Ijtimoiy manfaatlar iste'moli hajmi davlat siyosati bildiradi. Siyosiy minbarlarda qabul qilingan bu guruh qarorlari uy xo'jaliklari va korxonalarining beshta funtamental savollarga bergan javoblariga qo'shimcha bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy manfaatlarning ishlab chiqarish uchun shaxsan individual iste'moldagi qanday resurslari qayta taqsimlanadi? To'liq bandlik sharoitida faoliyat ko'rsataetgan iqtisodiyotda davlat oldida ijtimoiy manfaatdagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun individual iste'moldagi tovarlarning ishlab chiqarishdan resurslarni ajratish muammosi turadi. Xususiyl tarmoqdan tovarlarni ajratib olish uchun ularning xususiyl talabi qisqartiriladi. Bunga asosan uy xo'jaliklari va korxonalardan soliqlarni olish orqali erishiladi. Uy xo'jaliklari va

korxonalar kam daromad olish natijasida investitsion va iste'mol xarajatlarini kamaytirishadi. qisqacha aytganda, soliqlar xususiy iste'moldagi tovar va xizmatlarga bo'lgan talab qisqartiradi, bu o'z navbatida, resurslarga xususiy talabni qisqarishiga olib keladi.

Davlat bu soliqlarni taqsimlashda ijtimoiy manfaatdagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishni e'tiborga oladi va shu sohaga ma'lum bir qismini yo'naltiradi.

14g`MAVZU. DAVLAT SIYOSATIDA IJTIMOY MAJMUA

14.1. Aholining ijtimoiy muhofazasini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asrida, to'rtinchi ustuvor yo'nalish sifatida xalq turmush darajasining izchil va barqaror o'sishi aholini yanada kuchli ijtimoiy muhofaza qilishi haqida to'xtalib, «Aholining ijtimoiy muhofazasini ta'minlash islohotlarning barcha bosqichida asosiy yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Bu islohotlarimizga asos qilib olingan besh tamoyildan biridir. Biz bundan keyin ham shu tamoyilga tayangan holda ish olib borishimiz kerak» deb yozadi.

Demokratik va bozor islohotlari hamda yangilanish yo'lida qilayotgan barcha ishlarimiz xalqimiz manfaatlarini ko'zlab, ularning faravonligini oshirishga qaratilishi lozimligini Prezintimiz qaytag`qayta ta'kidlaydilar.

Mamlakatimizda vujudga kelayotgan makroiqtisodiy vaziyatga hamda iqtisodiyotning amalda yuksalishiga asoslanib, biz eng avvalo, hozir yaqin besh yil ichida ish haqining eng kam miqdorini 3,5 barovar oshirishni o'z oldimizga vazifa qilib qo'yishga haqlimiz. Ish haqi eng kam miqdorining bunday oshirilishi iqtisodiy yuksalishning boshqa omillari bilan qo'shilib, shu davrda aholi jon boshiga to'g'ri

keladigan o'rtacha daromadni 1,8g`2,0 barovar oshirishga imkon beradi.

Ikkinchidan, aholi daromadlarini oshirish bilan bir qatorda ularning harid quvvatini ham oshirish zarur. Buning uchun pulning qadrsizlanishiga qarshi qaratilgan qat'i choralarni ko'rish va yaqin besh yil ichida pulning qadrsizlanish darajasini 6g`8 foiz kamaytirishga erishish zarur. Asosan mamlakatimizda ishlab chiqarishni yuksaltirish hisobiga ichki iste'mol bozorini kundalik zarur tovarlar bilan muntazam va ishonchli tarzda to'ldirish chorag`tadbirlarini amalga oshirish darkor. SHu maqsadda sanot ishlab chiqarishi umumiy hajmida iste'mol tovarlarining ulushini yaqin besh yil ichida 50 foizga etqazish zarur.

Uchinchidan, aholini ijtimoiy muhofazalashning amaldagi mexanizmini tanqidiy baholash va mustahkamlash, uning aniq toifadagi kishilarga qaratilishini kuchaytirish lozim.

Davlat tomnidan aholini ijtimoiy qo'llabg`quvvatlash hajmi va miqdorini ko'paytirish bilan bir vaqtda haqiqatda yordamga muhtoj bo'lgan kishilar va oilalarni ijtimoiy yordam olishlarini ta'minlash lozim.

To'plagan ijobiy tajribani hisobga olib fuqarolarning o'zinig`o'zi boshqarish organlari orqali aholini ijtimoiy qo'llabg`quvvatlash va muhofaza qilish tajribasini yanada keng joriy etish zarur. SHundagina biz aholini ijtimoiy muhofaza qilishda aniqlikni va adolatni, eng muhimi, shu maqsadlar uchun ajratilayotgan katta mablag`dan samarali foydalanishni ta'minlay olamiz.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimida yolg'iz qariyalar, pensionerlar va nog'ironlarning talablari va ehtiyojlariga alohida e'tibor berish lozim.

Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy taʼminot organlari yaqin besh yil ichida yolgʻiz pensionerlar va nogʻironlarning uygʻjoy, maishiy sharoitlarini yaxshilash, ularni dorigʻdarmonlar va maxsus muolaja bilan taʼminlash, qariyalar va nogʻironlar uylarining moddiy texnika bazasini mustahkamlash boʻyicha kompleks choragʻtadbirlarini ishlab chiqishlari zarur.

Nogʻironlarni toʻlaqonli faol hayotga qaytarish uchun ularning jismoniy imkoniyatlarini hisobga olib, oʻqitish, qayta oʻqitish va ishga joylashtirishni tashkil etish lozim.

SHuningdek, nogʻiron bolalarni tibbiy, ijtimoiy jihatdan rehabilitatsiya qilish boʻyicha bolalar nogʻironligining oldini olishni, ularga tibbiy, ijtimoiy jihatdan madad berish va mehnat qobiliyatini tiklashni, kasb oʻrgatish va soʻngra ishga joylashtirishning koʻzda tutadigan maxsus Davlat dasturini ishlab chiqish va qabul qilish zarur.

Bu ishlarning hammasiga tashkilotlarni, davlatga qarashli boʻlmagan jamgʻarmalarni, tadbirkorlar va homiylarning mablagʻini keng jalb etish lozim.

Toʻrtinchidan (aslida bu vazifani birinchi qilib qoʻyish ham mumkin, mehnat bozorini shakllantirish), yangi ish joylarini barpo etish va aholining ish bilan oqilona bandligini taʼminlash boʻyicha faol siyosat oʻtkazish kerak. Bu borada ishsizlikning oldini olish, mehnatga yaroqli har bir fuqaro oʻz mehnatidan daromad topib, ehtiyojlarini qondirishi, turmush darajasini, oilasi va bolalari faravonligini oshirishi uchun zarur shartgʻsharoit yaratish muhim ahamiyatga ega.

Vazirlar Mahkamasi barcha darajadagi hokimliklar bilan birgalikda 2000gʻ2005 yillarda, avvalo, qishloq joylarda, islohotlar davomida qishloq xoʻjaligidan boʻshab qolayotgan ortiqcha ishchi

kuchlarini jalb etishni hisobga olgan holda moliyaviy manbalar bilan mustahkamlangan yangi ish joylarini barpo etish Dasturini ishlab chiqishi lozim.

SHu bilan bir vaqtda joylarda ishsiz sifatida ro`yxatga olingan kishilarni hududlarni obodonlashtirish, yo`llar solish va ularni sozlash, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma ob`ektlarini qurishga doir haq to`lanadigan sanoatchilik ishlariga keng jalb etish lozim.

Beshinchidan, ijtimoiy infratuzilmani, avvalo, qishloq joylarda yanada rivojlantirish, aholini tabiiy gaz va ichimlik suv bilan ta`minlash rozasidan qabul qilingan Davlat dasturini bajarish kerak. YAqin beshg`etti yil ichida mamlakatning barcha aholi punktlari sifatli ichimlik suv bilan ta`minlanishi zarur. 2005 yilga qadar qishloq aholisini ichimlik suv bilan ta`minlash 85 foizga, tabiiy gaz bilan ta`minlash 82 foizga etqazilishi kerak. Buning uchun 1999g`2005 yillarda qishloq joylarda 30 ming kilometrga yaqin gaz tarmoqlarini, 18 ming kilometr suv quvuri tarmoqlarini ishga tushurish darkor.

Xalq faravonligini barqaror, mujjasam oshirishni, aholini ijtimoiy muhofazalashni ustuvor yo`nalish qilib belgilash orqali islohotlar faqat inson manfaatlarini ko`zlab, uning faravonligi uchun amalga oshiriladi, degan asosiy qoidamizni yana bir bor tasdiqlagan bo`lamiz.

Barcha islohotlarning – iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlardan asl maqsadi insonni munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat.

Aholining eng himoyasiz va muhtoj taboqalarini o`z vaqtida qo`llabg`quvvatlash esa, o`z navbatida, islohotlarni muvaffaqiyatli o`tkazish garovi, boshlangan o`zgarish va tiklanish jarayoni orqaga qaytishga yo`l bermaydigan ijtimoiy tayanchdir.

Bozor munosabatlariga qiyinchiliklarsiz va ijtimoiy ziddiyatlarsiz, silliqqina o'tib bo'lmashligini boshqa mamlakatlarning tajribasi ko'rsatib turibdi. SHu sababli bozor mexanizmini joriy etishdan avval odamlarni ijtimoiy muhofaza qilish bo'yicha kuchli ehtiyot chorag'tadbirlari oldindan ko'rib qo'yilishi ob'ektiv zaruratdir.

Bozor munosabatlariga o'tishning ilk davrida biz butun aholini oldindan ijtimoiy muhofaza qilish yo'lidan bordik. SHu qoidaga amal qilib, hukumatimiz vaziyatni nazorat qilish va ijtimoiy sohani mustahkamlash yozasidan zarur chorag'tadbirlarni ko'rib qo'ydi. Bu chorag'tadbirlar odamlarning turmush darajasi keskin pasayishining oldini olishda muhim rol o'ynadi, respublikada osoyishtalik va barqarorlikni saqlash omili bo'ldi.

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida ishlab chiqilgan va o'tkazilgan ijtimoiy siyosat ko'zlangan maqsadni to'lag'to'kis ro'yobga chiqardi, deb ishonch bilan aytish mumkin.

Biz bozor munosabatlariga yaqinlashgan sayin ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari, aholini ijtimoiy qo'llabg'quvvatlash va muhofaza qilish choralari hamda vositalari o'zgarib borishi kerak, degan muhim saboq chiqarib oldik. Islohotlar boshlang'ich bosqichining har bir aniq davriga moslab ijtimoiy muhofazalashga oid chorag'tadbirlarning tegishli tizimi ham yaratildi. Boshqacha aytganda, ijtimoiy qo'llabg'quvvatlash chorag'tadbirlarini o'zgarib borayotgan iqtisodiy sharoitlarga moslashtirishning o'ziga xos vositasi yaratib qo'yildi.

Ijtimoiy muhofaza aniq maqsadli va aholining aniq tabaqalarini qamrab oladigan bo'lishi kerak. Ijtimoiy muhofaza tizimining eng muhim xususiyati aholining turli qatlamlarini qat'iy taboqalashtirilgan tarzda yondashuvdan iborat bo'lmog'i lozim.

Bu ish haqiqatdan ham davlatning moddiy yordamiga muhtoj bo'lgan jamiyat a'zolariga yo'naltirilgan bo'lishi, aniq maqsadni ko'zlab amalga oshirilishi kerak.

14.2. Sog'liqni saqlash sohasining ahamiyati va o'rn

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari ishlab chiqarish kuchlarining quvvatiga va ishlab chiqarish munosabatlari xususiyatiga, texnika bilan jihozlash va ishlovchilarning kasbg'kor tayyorgarligigagina emas, balki ko'p jihatdan demografiya jarayonlarining holatiga, aholi sog'lig'iga va sog'liqni saqlash darajasiga hambog'liqdir.

Keyingi o'n yillikda aholi sog'lig'ini muxofaza qilishga respublika hukumati tomonidan alohida e'tibor berilayotgan O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini **isloh** qilish alohida dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan tasdiklangan «1998g'2005 yillarda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish kontseptsiyasi» da O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosatida sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish ustuvorligi va aholi sog'lig'ini yaxshilash uchun shartg'sharoitlar yaratish o'zining umumiy ifodasini topdi. Aholi sog'ligi potentsiali milliy boylikning muhim tarkibiy qismi va madaniyatli jamiyatning fundamental xususiyatlaridan biri hisoblanadi, Aholi sog'lig'ini muxofaza qilish xizmatini har tomonlama rivojlantirish jamiyat taraqqiyotining muhim sharti va ijtimoiy rivojlanish darajasining integrallashgan ko'rsatkichidir.

Islohotlarning asosiy maqsadi mamlakatda jahon tajribasini hisobga olgan holda sog'liqni saqlashning ehtiyojlari uchun davlat sarfg'xarajatlarini yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan darajada eng ko'p qisqartirgan holda respublikaning butun aholisini tibbiy xizmatlar bilan yalpi qamrab olishni ta'minlovchi samaraliroq tizim yaratishdir. Bu

sog`liqni saqlash singari o`ziga xos va alohida sohada markazlashtirilgan davlat boshqaruvi usullari va qo`llabg`quvvatlashni bozorga xos yo`naltirish mexanizmlari bilan maqbul qo`shib olib borish yo`llarini izlash zarurligini ko`rsatadi.

Sog`liqni saqlashni rivojlantirish masalalarini hal qilishga bunday yondashishning dolzarbligi O`zbekistonda iqtisodiyotning institutsional va tarkibiy qayta tuzilishi va bozor munosabatlarining jadal rivojlanishi jarayonida ushbu sohaga eng rivojlangan mamlakatlarda sinovdan o`tgan printsiplar va usullarning joriy etilishi bilan ham belgilanadi.

Xorijiy tajribani tahlil etish joriy muammolarni hal qilishga yo`l topish va sog`liqni saqlashni rivojlantirishda bo`lajak tendentsiyalarni bashorat qilish usullarini ishlab chiqish imkonini beradi,

O`zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo`shilishi, ijtimoiyg`iqtisodiy o`zgarishlarni tartibga solishning printsiplal yangi modeliga o`tish jarayonida xorijiy mamlakatlar tajribasining respublika sharoitlarida qo`llanilsa bo`ladigan ayrim xususliklarini oqilona joriy etish alohida ahamiyatga ega.

O`zbekistonda bugungi kunda sog`liqni saqlash iqtisodiyoti sohasidagi nazariy, amaliy, moliyaviyg`iqtisodiy, tashkiliyg`boshqaruv jihatlarini tahlil qiluvchi kompleks ishlanmalar etarli emas, shuningdek, xorijiy mamlakatlarda sog`liqni saqlashni tartibga soluvchi bozor mexanizmi amaliyotining qiyosiy tahlili yo`q. Ushbu holatga kontseptual qarab chiqish sog`liqni saqlashga bozor munosabatlarining salbiy ta`sirini eng kam darajaga keltirib, zamonaviy sharoitlarda samarali bozor islohotlarini amalga oshirish xususidan tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

14.3. Sog`liqni saqlash sohasini boshqarish

Jahon amaliyoti jamiyat tsivilizatsiyasining fundamental xususiyatlaridan biri bo'lgan aholi sog'ligi ijtimoiy hayotning ko'plab omillari ta'siri ostida shakllanishi va o'zgarishidan dalolat beradi. Aholi sog'ligining holati va tadrijiy o'sishi ham xususiy, ham umumlashtiruvchi bir qancha ko'rsatkichlarda aks ettirilgan. Agar xususiy ko'rsatkichlar aholi sog'lig'ining ayrim jihatlari haqida tasavvur bersa, uni yaxlit qamrab olish uchun faqat umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarning tizimli tahlili lozim. Zarur turlashtirish populyatsiyalarning sifat holati ko'rsatkichlari ko'p o'lchamli, ierarxik tizimi bilan belgilanadigan aholi sog'lig'iga yondashish imkonini beradi, chunki sog'liq ko'rsatkichlari bir xil ijtimoiyg'iqtisodiy sharoitlardagi mintaqalarda barqaror va qonuniy takrorlanadi. Hozirgi vaqtda sog'liqning zamonaviy tushunchasi to'liq jismoniy, ruxiy va ijtimoiy etuklik holatini o'z ichiga oladi, Bu ushbu tushunchaga yaxlit yondashishni aks ettiradi.

O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimi uchun islohotlargacha bo'lgan yaqin o'n yilliklarda o'zaro bog'liq tarmoq ichki aloqalariga hamda iqtisodiy usullarga emas, balki ma'muriy boshqaruv usullariga asoslangan, vertikal ierarxiyaga ega bo'lgan va haddan tashqari markazlashtirilgan boshqaruv tizimi xos edi. Sog'liqni saqlashning shakllangan monotizimida xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida bo'lgani singari tibbiy xizmatlarning ijrochilari (ishlab chiqaruvchilari) o'rtasida sog'lom raqobat yo'q edi.

Iqtisodiyot va ijtimoiy sohadagi tub islohotlar sog'liqni saqlash tizimini jiddiy ravishda qayta o'zgartirish yo'llarini belgilab berdi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitlarida sog'liqni saqlashni rivojlantirishning amalga oshirilayotgan kontseptsiyasi jamiyatni tibbiyotni ijtimoiyg'iqtisodiy kategoriya sifatida idrok etishga yo'naltiradi. Bozor

munosabatlarining xolisona xususiyati aholi tomonidan o'z sog'lig'ining iqtisodiy shartlanganligini anglatadi, sog'liqni saqlashning tijoratlashuvida, pulli tibbiy xizmatlar hajmining kengayishida, marketing operatsiyalari rivojlanishida va tadbirkorlikning turli shakllari joriy etilishida ifodalanadi. Mulkchilikning turli shakllaridagi tibbiyot sub'ektlari faoliyati faol rivojlanadi, mustaqil xususiy vrachlik amaliyotining keng rivojlanishi tendentsiyasi barqarorlashadi.

YAngi iqtisodiy sharoitlarda sog'liqni saqlash tizimida yoz berayotgan iqtisodiy jarayonlar o'zgarishini umumlashtirib, ushbu o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi navbatda, tijorat munosabatlariga asoslanib faoliyat boshlagan tibbiyotga nisbatan odamlar ongi va munosabatlaridagi o'zgarishni qayd etish zarur. Pulli tibbiy xizmat ko'rsatish rivojlanishi munosabati bilan inson tibbiy xizmatlarning ehtimol tutilgan iste'molchisi sifatida tanlash imkoniyati va xuquqiga ega bo'ladi, ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun haq to'layotganligini anglaydi. Ikkinchi tomondan, tibbiy xizmatlar bozori qanchalik xilmag'xil bo'lmasin, u o'zi harid qilayotgan tibbiy xizmatlarning sifatini bilishi zarur.

Respublikadagi real vaziyat tahliliga ko'ra, tibbiy xizmatlar hozirgi holatining ijobiy va salbiy jihatlari quyidagilar:

- **bozor** sharoitlarida har qanday xizmat **yoki** tovar g' mazkur holatda tibbiy xizmat g' pulli;
- ko'rsatilgan tibbiy xizmat uchun haq to'lash bilvosita yoki bevosita mijozning g' ushbu xizmatlar pirovard iste'molchisining zimmasiga tushadi;
- mijoz o'zi xizmatlaridan foydalanishni xohlovchi muassasa va mutaxassisni tanlash huquqiga egadir;
- tibbiy xizmatlarning o'ziga xosligi ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar sifatini to'liq darajada baholash imkonini

bermaydi.

14.4. Sog`liqni saqlash rivojlanishining xalqaro amaliyoti

Sog`liqni saqlash rivojlanishining xalqaro amaliyotini tahlil etish tibbiyot tuzilmasini o`z vaqtida qarab chiqishni va uni tartibga solish masalalarini hal etish zarurligini ko`rsatadi.

Masalan, ingliz tilida so`zlashadigan beshta yirik mamlakat (Avstraliya, Buyuk Britaniya, Kanada, Yangi Zelandiya va AQSH) sog`liqni saqlash tizimi keyingi o`n yillik mobaynida davlat xizmatchilari va vrachlarning faoliyatidan norozilik tufayli jiddiy o`zgarishlarga uchradi. Ushbu mamlakatlar ko`pchiligining rasmiy shaxslari konsensusga erishish va o`zgarishlarni qo`llabg`quvvatlash maqsadida koalitsiyani shakllantirish uchun islohotlarni modellashtirish va strategiya bilan shug`ullanadilar, Sog`liqni saqlashga xarajatlar kamaytirilishiga urinish uning sifat jihatdan yaxshilanishiga e`tibor ortishi bilan muvofiqlashtirilishi kerakligi to`g`risidagi nuqtai nazar kuchaymoqda.

Xalqaro amaliyot tahlili davomida umumiy mavzular ko`tarib chiqildi. Ular asosida ijtimoiy sohani rivojlantirishning bir qancha yo`nalishlari belgilandi. Sog`liqni saqlash xizmatlarini integratsiyalash usullari, bu xizmatlarning mavjud vakillari va ularning mijozlari, moliyaviy rag`batlardan foydalanish va ularni cheklash, monitoring uchun axborotni yaxshilash imkoniyati va sog`liqni saqlash tizimi samaradorligini oshirish, tibbiy sug`urta bilan qamrab olish tendentsiyasi shular sirasiga kiradi.

Ijtimoiy sohani rivojlantirishning xalqaro amaliyoti sog`liqni saqlash xizmatlarini integratsiyalashga asoslanganligini ko`rsatadi. Sanoati rivojlangan har qanday davlatda sog`liqni saqlash qimmat turadi, o`tgan asrning 80g`yillarida va 90g`yillar boshida sog`liqni saqlashga

sarflanadigan umumiy xarajatlarning o'sishini to'xtatish to'g'risidagi masala katta tashvish keltirib chiqardi. Ko'pchilik mamlakatlarda sog'liqni saqlash sohasidagi siyosat byudjetdagi qiyinchiliklar va soliq «yoki» o'sishini nazorat qilish xohishi bilan bog'liq edi. Amerikalik yollovchilar va siyosiy qarorlar qabul qiluvchi shaxslar sog'liqni saqlashga xarajatlar kamayganligini ma'qullab ko'tib oldilar, biroq xalqaro ma'lumotlar ushbu xarajatlar AqSHda boshqa mamlakatlardagiga nisbatan tezroq kamayib borganligini xech bir tarzda tasdiqlamaydi. O'tgan asrning 90g'yillarida AqSHda sog'liqni saqlashda jon boshiga xarajatlar sanoat jihatidan rivojlangan mamlakatlarning o'rtacha darajasida va Kanada yoki Buyuk Britaniyadagiga qaraganda tezroq o'sdi. Kanadada davlat byudjetiga nisbatan qattiq chorag'tadbirlar qo'llanilishi natijasida sog'liqni saqlashga xarajatlar yalpi ichki mahsulotga foiz nisbatida doimiy darajada saqlanib qoldi.

Xorijiy tajriba o'tish davrida sog'liqni saqlashni rivojlantirishda davlat asosiy jamlovchi boshqaruvchi kuch ekanligini ko'rsatadi. Masalan, 1998 yilda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotdan sog'liqni saqlashga umumiy xarajatlar 3,6 foizni (rivojlangan mamlakatlarda 6,2 %, rivojlanayotgan mamlakatlarda p 2,3 %) tashkil etdi.

Rivojlangan mamlakatlar tizimlarining eng so'nggi ko'rsatkichlarini taqqoslash shuni ko'rsatdiki, bunda bir necha yil mobaynida sog'liqni saqlash to'g'risidagi bahslarda ustunlik qiluvchi uch parametr to'plandi. Ular qiymat, xizmatlardan foydalanish va natijalar. Ayrim solishtirishlar uchun ma'lumotlar bazasiga kiritilgan 29 mamlakat ma'lumotlaridan, ayrimlari uchun esa faqat «katta ettilik» mamlakatlari (Kanada, Frantsiya, Germaniya, Italiya, YAponiya, Buyuk Britaniya va AqSH) ma'lumotlaridan foydalanildi.

14.5. Sog`liqni saqlash tizimining istiqboli

Ijtimoiy soha tarmoqlariga, birinchi navbatda, sog`liqni saqlashga tizimda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini yuqori darajada cheklovchi hamda bozor munosabatlari rivojlanishiga to`squinlik qiluvchi bir qancha o`ziga xos xususiyatlar xos ekanligini ko`rsatdi. Bunday ahvol tibbiy xizmatlarda ishlab chiqarish va iste`mol qilishning o`ziga xosligi ushbu sohada talab va taklif o`zaro munosabatining alohida xususiyatiga ega ekanligi bilan bog`liqdir, boshqacha aytganda, sog`liqni saqlash ijtimoiy yo`naltirilgan soha tarmog`i sifatida bozor mexanizmi amal qilinishini buzib ko`rsatuvchi bir qancha xususiyatlarga ega. Ular orasida tibbiy xizmatlarning ko`pchilik turlari «ijtimoiy tovar» xossasiga ega ekanligi, mijozlarning bu sohada tegishli ma`lumotlarga ega emasligi, tibbiy yordamning asosiy turlarini olishdagi tenglik printsiptini alohida ajratib ko`rsatish zarur.

Aholining uzoq umr ko`rishi sog`liqning asosiy ko`rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Respublikada 1999 yilda aholining uzoq umr ko`rishi 1990 yildagi 69 yosh o`rniga o`rtacha 70,3 yoshga, shu jumladan, shaharlarda 71,6 yoshga, qishloqlarda 69,5 yoshga etdi, Ayollar erkaklarga nisbatan 4,8g`4,9 yil, shu jumladan, shaharlarda 4,9g`5 yil, qishloqlarda 4,7 yil ko`p umr ko`radi.

SHuningdek, kasallikka chalinish ko`rsatkichlari ham aholi sog`lig`i holatining muhim mezonini hisoblanadi. O`tish davri murakkabliklari munosabati bilan davlat tomonidan sog`liqni saqlashiga ajratilayotgan byudjet mablag`lari (real ifodada) keskin qisqardi. Dorig`darmonlar narxlari o`sib borishi, sog`liqni saqlash muassasalari binolarini saqlash, asbobg`uskunalar, anjomlar va inventar sotib olish, bemorlarni ovqatlantirishni tashkil etish borasida byudjetdan mablag` bilan

ta'minlash imkoniyatlarining orkada qolishi kasalliklarning oldini olish va bemorlarni davolashda davolash muassasalari imkoniyatlarining sezilarli darajada cheklanishiga olib keldi.

Xususiy sog'liqni saqlash xolisona sabablar tufayli bu davrda davlat sog'liqni saqlash tizimi imkoniyatlari qisqarishining o'rnini bosa olmadi.

/arbiy Evropa mamlakatlari va o'tish davri mamlakatlari tajribasi:

g` demografik o'zgarishlar;

g` sog'liqni saqlashga sarflanayotgan xarajatlarning ko'payishi;

g` aholi ehtiyojining hukumatning tibbiy xizmatlar bilan ta'minlash imkoniyatidan yuqoriligi;

g` davolash va texnologiya yangi shakllarining doimiy ravishda paydo bo'lishi kabi tipik jihatlar bilan xarakterlanishini ko'rsatadi.

/arbiy Evropa mamlakatlari, shuningdek, o'tish davri mamlakatlari uchun sog'liqni saqlash axloqiy masala hisoblanadi hamda barcha ijtimoiy sinflarni adolatli ta'minlash va sog'liqni saqlash xizmatlaridan barchaning foydalanishi doimiy ravishda islohotlarni amalga oshirish davomida hal etiladi. Sog'liqni saqlash xizmatlari integratsiyasiga kasalxonada davolashni kamroq haq to'lanadigan ambo'latoriya davolashi bilan almashtirish va kasallanishning oldini olish, shuningdek, mijozlar daromadi darajasini va shifoxonada davolanishni talab etuvchi kasalliklar og'irlashishining oldini olish uchun dorilar buyurishni o'z ichiga oluvchi strategiya sifatida qaraladi.

Iqtisodiyot nuqtai nazaridan sog'liqni saqlash istiqbolini uchga ajratib ko'rsatish mumkin. Bular: ijtimoiy yoki davlat, pulli va tibbiy sug'urta yo'llari.

Bizning fikrimizcha, eng muhimi, bozor munosabatlariga o'tishda sog'liqni saqlash tizimini nafaqat kengaytirish, uning moddiyg'texnika bazasi takror ishlab chiqarilishini ham mamlakatda yoz berayotgan iqtisodiy o'zgarishlar, davlat mazkur tizimni moliyalashtirish hajmini

qisqartirishi sharoitida tibbiy sug`urtalash faol kiritilishining muqobilligini tushunmoqlikdir.

Sog`liqni saqlashni bozor munosabatlari asosida yo`naltirish xalqaro tajribasini qo`llash ushbu sohaning printsipial jihatdan xarakterli bir qancha yangi belgilarida o`z aksini topadi. Ulardan asosiylari quyidagilar:

- g` xo`jalik yurituvchi sub`ekt belgilariga ega bo`lgan tibbiyot muassasasining yangi iqtisodiy maqomi;

- g` tibbiy xizmatlar pulli ekanligi sur`atlarining kuchayishi;

- g` muassasaning xo`jalik faoliyati jarayonida paydo bo`luvchi iqtisodiy munosabatlar tizimida tibbiyot xodimlari o`rni va rolining o`zgarishi.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarish tizimida sog`liqni saqlashning roli va o`rni ushbu sohada boshqaruv usullarini rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Birinchi navbatda, bu tarmoqni boshqarish jarayoniga kompleks yondashishni taqozo etadi, chunki sog`liqni saqlashning mamlakatda yoz berayotgan ijtimoiyg`iqtisodiy munosabatlar o`zgarishi, ijtimoiyg`siyosiy vaziyat, ekologiya muammolari, sanoat ishlab chiqarishida texnika xavfsizligiga rioya etish va jamiyat turmushining boshqa jihatlar bilan mustahkam aloqadorligi kuzatiladi.

O`zbekistonda birinchi darajali ahamiyatga ega bo`lgan quyidagi vazifalar hal etilgan taqdirda sog`liqni saqlash tizimi bozor rivojlanishi printsiplariga moslashishi mumkin:

Sog`liqni saqlash sohasi sub`ektlari faoliyatining barcha jihatlariga ustun darajada iqtisodiy munosabatlarning yoyilishi va tegishli iqtisodiyotdan tashqari, ma`muriy usullarning keskin qisqarishi.

Bozorning shakllanishi tibbiy xizmatlar ko`rsatuvchilarning xo`jalik mustaqilligiga ega bo`lishini taqozo etadi. Iqtisodiy qonunlar mantig`i tibbiy xizmatlar ko`rsatuvchilarning sog`liqni saqlashni boshqarish

organidan ajralishini talab etadi, buningiz shartnomaviy munosabatlar to'g'risida so'z ham yoritib bo'lmaydi.

SHu bilan birga, boshqaruvning ma'muriy usullaridan to'liq voz kechish to'g'risida so'z bormayotganligi ta'kidlaymiz. CHunki, tarmoq va hududiy boshqaruvning okilona birga qo'shib olib borilishini, sog'liqni saqlash sohasida yagona davlat siyosati o'tkazilishini, ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifati nazorat qilinishini boshqaruvning ma'muriy usullarisiz ta'minlash mumkin emas. Buning ustiga, iqtisodiy samaradorligidan qat'i nazar amalga oshirilishi kerak bo'lgan davolash turlari, shuningdek, tibbiyot texnikasini joriy etishga nisbatan muayyan talablar mavjud. Bularning barchasi davolash muassasalari faoliyatiga ma'muriy usullar bilan ta'sir ko'rsatish foydasiga xizmat qiladi.

Sog'liqni saqlashni mablag' bilan ta'minlashning printsiplal jihatidan boshqa sxemasiga o'tish tibbiyot muassasalarini emas, balki tibbiy yordam ko'rsatishni mablag' bilan ta'minlash, xizmatlarni harid qilishga sarfg'xarajatlarni mablag' bilan ta'minlashdan qayta yo'naltirilgan moliyaviy hisobg'kitoblar printsipl, shuningdek, sog'liqni saqlashni mablag' bilan ta'minlashda davlatning roli o'zgarishiga olib keladi.

Sog'liqni saqlashni mablag' bilan ta'minlovchi respublika va mahalliy b'odjetlar bilan bir qatorda majburiy va ixtiyoriy tibbiy sug'urta mablag'lari, tibbiy xizmatlarga mijozlar tomonidan haq to'lanishi hisobiga manbalarning ko'payishi, tadbirkorlik sog'liqni saqlash sektorining shakllanishi, shu jumladan, chegaralari iqtisodiy vaziyat barqarorlashishi davomida so'zsiz kengayib boradigan davlat davolash muassasalari doirasida shakllanadi.

Raqobat muhiti yaratilishi, ushbu yo'nalishda birinchi va ayon ko'rinib to'rgan qadam aholiga tibbiy yordam ko'rsatishda davlat bu'ortmasini raqobatli joylashtirish printsiplini joriy etish yo'li bilan

qo'yilishi mumkin. Mablag` bilan ta'minlovchi tomonlar, byudjetlar, tibbiy sug`urta jamg`armalari, «aholi ehtiyojlarini qondirish darajasi D xarajatlar» parametri bo'yicha tibbiy xizmat ko'rsatishi mumkin bo'lgan xizmatlarning qiyosiy samaradorligini malakali baholashi zarur.

15g`MAVZU. MEHNAT BOZORINI TARTIBGA SOLISH VA AHOLI BANDLIGI MUAMMOLARI

15.1.Mehnat bozorini shakllantirish va ish joylarini barpo etish

1999 yilgi ma'lumotlarga qaraganda respublikamiz aholisining 62% ga yaqini qishloqlarda yashaydi. Aholining mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan qismi mehnat resurslari hisoblanadi. Ularga 15 ga kirgan usmirlar, 16g`55 yoshgacha bo'lgan ayollar, 16g`60 yoshgacha bo'lgan erkaklar hamda pensiya yoshidagi mehnatga qobiliyatli fuqarolar kiradi. SHu masala «Mehnat kodeksida» (1.04.96 yil) «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida» (1.05.98 yil) qonunda batafsil yoritilgan.

1999 yilning 1 yanvarga mamlakatimizning aholisi 23 954,8 ming nafardan iborat, shundan 50,1%i mehnat resurslarini tashkil etadi. Mehnat resurslarining (11998,9 ming) aksariyat qismi qishlokda ishlamoqda. Ular juda katta ahamiyat kasb etadi. CHunki iqtisodiyot nazariyasida qismatni mehnat yaratishi alohida ta'kidlangan. SHunday ekan, qishloq xo'jaligidagi barcha mahsulotlar jonli va bu'romlashgan mehnatning mahsulidir. Bu jarayonda jonli mehnat ya'ni fuqarolarning ongli, maqsadga muvofiq ravishda sarflanadigan quvvati, ishlab chiqarish vositalaridan(ular bu'romlashgan mehnat natijasi) foydalangan holda mahsulotlar ishlab chiqariladi. Demak, har qanday jarayonda

mehnat qatnashib, mahsulot ishlab chiqarildi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdori, sifati mehnatga bevosita bog`liq. Sarflanayotgan har qanday mehnat unumli, samarali bo`lishi lozim. Ma`lum bir vaqtda ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish miqdori, qiymati yoki ma`lum miqdordagi mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish uchun sarflangan mehnat mehnat unumdorligi ekanligidan, bu holat mehnat unumdorligining uzluksiz oshib borishi to`g`risidagi iqtisodiy qonuniy harakatligidan dalolat beradi.

Mehnat unumdorligi yuqori korxonalar, tarmoqlar iqtisodiyot darajasi yuqori su`ratlar bilan rivojlangan bo`ladi. SHuning uchun bu masalaga, ya`ni mehnat unumdorligini yuksaltirishga respublikamiz hukumati doimo katta e`tibor bermoqda. Mehnat resurslardan foydalanish masalarini hal etishda uning bir kancha xususiyatlariga alohida e`tibor berish maqsadga muvoffiqdir. Mehnat resurslaridan foydalanish, uning unumdorligi obg`havo sharoitlarga bevosita bog`liq. Ishlab chiqarishning davriyligi (mavsumiyligi), undagi ishlarning mexanizatsiyalashganlik darajasi nisbadan pastligi ham muhim masaladir. qishloq xo`jaligida fuqarolarning mehnat qilish qobiliyati tor doirada ixtisoslashmagan. Bu tarmoqda mehnat kilayotganlarning asosiy qismini xoting`qizlar tashkil etadi.

15.2.qishloq xo`jaligida mehnat bozori

qishloq xo`jaligida fuqarolarning mehnat qilish qobiliyati taklifi hamda ularni ishga olish (sotib olish), ya`ni ish bilan ta`minlovchilar o`rtasidagi ijtimoiyg`iqtisodiy munosabatlar tizimini amalga oshiradigan manzil (hudud) mehnat bozoridir. Mehnat bozorida o`zlarining mehnat qilish qobiliyatini taklif etuvchi fuqarolar bir tomondan ularni ist`emol etuvchi yani ishga oluvchi korxonalar ikkinchi tomonda uchrashib mehnat olmashuv

(mehnatni oldig`sotdi) jarayonini amalga oshiradilar. Mehnat bozori – iqtisodiy munosabatlarni amalga oshiruvchi bozorlar tizimining muhim tarkibiy qismidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozorining nazariy asoslari shotlandiyalik iqtisodchi Adam Smit, ingliz iqtisodchisi David Rikkardo, Nobel` mukofoti lauriati amerikalik iqtisodchi Paul` A.Samuel`son va boshqa olimlar tomonidan etarli darajada asoslangan.

qishloq xo`jaligida mehnat bozori asosan tumanlar miqyosida tashkil etilgan «Mehnat birjalari» shaklida faoliyat ko`rsatmoqda. Ular o`zlarining faoliyatlarini «Birjalar to`g`risidagi», «Korxonalar» to`g`risidagi va boshqa qonunlar, me`yoriy xo`jjatlar asosida roritadilar. Mehnat bozorida korxonalar qatnashishi natijasida o`z ishlab chiqarishlarining ishchi kuchiga bo`lgan talabini qondirib, iqtisodiyotini rivojlantirishga harakat etsalar, jismoniy, aqliy mehnat qilish qobiliyatini sotayotgan fuqarolar esa, ish qobiliyatlarini sotish hisobiga ish haqi bahosi sifatida oladigan ish haqiga ega bo`lib, istemol tovarlariga bo`lgan talablarini ma`lum darajada qondiradilar. Bu jarayon erkin raqobat asosida amalga oshirilishi lozim. Demak, mehnat qilish qobiliyatiga ekvivalent sifatida beriladigan ish haqi mehnatning bahosi hisoblanadi. Mehnat bozorida amalga oshiriladigan munosabatlar iqtisodiy qonunlar talabidan kelib chiqishi lozim. Eng avvalo, talab va taklif qonunlarining talablari imkoniyat doirasida qondirilishi lozim. Mehnat bozorida talab va taklif qonunlari talablarining bajarilishini ta`minlash uchun quyidagi holat shakllantirilishi lozim:

1.Mehnat bozorida har qanday bozordagidek, kishining mehnat qobiliyatini oldig`sotdi jarayoni erkin raqobat asosida amalga oshirilishi (mehnat qilish qobiliyatini sotishni hohlaganlar

uchun sotish (berish)ga, uni sotib oluvchi korxonalarga esa olishga sharoit yaratilishi) kerak.

2.Masalan, mehnat qobiliyatining oldig`sotdi jarayoni amalga oshirilishi natijasida mehnat qobiliyatini beruvchilar (sotuvchilar) unga egalik qilish huquqlarini sotish evaziga ish haqi (bahosini) olishlari, mehnat qobiliyatini oluvchilarga esa haq to`lash evaziga mehnatga egalik qilish huquqini sotib olish imkoniyati yaratilishi zarur. Sotib oluvchi ishchining mehnat qobiliyatiga egalik qilish, undan unumli foydalanish xuquqiga ega bo`lishi lozim.

Demak, mehnat bozorida fuqarolarning o`zi emas, balki mehnat qobiliyati oldig`sotdi qilinadi. Bu juda muhim masala, uni doimo nazarda tutish lozim. Mehnat bozorida (birja, b`yoro xizmati) qatnashuvchilar bu bozorning quyidagi funktsiyalari bajarilishini ta`minlashlari zarur:

- mehnat qilish qobiliyatini sotuvchi fuqarolar bilan uni ist`emol etuvchi (sotib oluvchi)lar o`rtasidagi uchrashuvlar tashkil etilishini;
- sotuvchi (beruvchi)lar va oluvchilar o`rtasida erkin raqobat yo`lga qo`yilishini;
- muovzanatli ish haqi stavkalarini o`rnatilishini, belgilanishini;
- aholini ish bilan ta`minlash masalalarini samarali hal etilishini;
- ishsizlarning ijtimoiy muhofazasini amalga oshirilishini.

Huqoridagi masalalar talab darajasida hal etilishi natijasida fuqarolarning mehnat qilish qobiliyatini amalga oshirish bilan bog`liq iqtisodiyg`ijtimoiy munosabatlar bajariladi. Mehnat munosabatlarini amalga oshirishda mehnat qilishsh qobiliyatini sotuvchilar bilan ularni ist`emol etuvchilar ham qatnashadilar. Bu munosabatlar turli xildagi mehnat shartnomalarini tuzish bilan yakunlanishi mumkin. Mehnat bozoridagi talabni fuqarolarning

mehnat qilish qobiliyatlarini sotib olish imkoniyati, hohishi, taklifni esa mehnat qilish qobiliyatini beruvchi (sotuvchi)larning hohishi tashkil etadi. Ular uchrashgan nuqta o`rtadagi muvozanatni hamda mehnat bahosini, ya`ni ish haqi miqdorini belgilaydi.

15.3.Mehnat resurslaridan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko`rsatgichlar

Mehnat resurslari qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. SHuning uchun ulardan yil davomida to`liq, samarali foydalanish lozim. Ulardan qanday foydalanilayotganligini bir qancha ko`rsatgichlar yordamida aniqlash mumkin. Bunda eng avvalo, mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsientidan foydalaniladi. U haqiqatda ishlab chiqarishda ishlagan mehnat resurslarining miqdori (kishilar)ni mehnat resurslarining mavjud bo`lgan miqdoriga taqsimlashsh yo`li bilan aniqlanadi. Unda quyidagi formuladan foydalanish mumkin.

$$M P = \frac{MP_{и}}{MP_{м}};$$

Bunda: $MP_{и}$ g` haqiqatda ishlagan mehnat resurslari(kishi);

$MP_{м}$ g` mavjud bo`lgan mehnat resurslari.

Mehnatga qobiliyatli bir kishining 1 yilda, 1 oyda o`rtacha ishlab chiqarishda qatnashgan vaqtini aniqlash uchun ishlab chiqarishga jami sarflangan ish vaqtini (kishi kunlari, soatlarida) sarflangan (ishlagan)jami mehnat resurslarining umumiy miqdoriga taqsimlash lozim. Uni quyidagi tenglik yordamida aniqlash mumkin:

$$MP_{ив} = \frac{\sum C_{ив}}{\sum MP_{и}};$$

Bunda: $MP_{ив}$ g` o`rtacha ishlab chiqarishda qatnashgan vaqt (k/k/s);

$\sum C_{ив}$ g` jami sarflangan ish vakti (k/k/s).

Mehnat resurslarining ish vaqti fondidan foydalanish ko'effitsienti. U har xil guruhdagi ishchi, xizmatchilarning 1 yil, 1 oy davomida haqiqatda ishlagan vaqtini ularning ishlashi lozim bo'lgan (me'yoriy) vaqtga nisbati bilan aniqlanadi. Ishlashi lozim bo'lgan vaqt 1 yildagi (oydagi) kalendar` kunlar miqdoridan bayram, dam olish, mehnat ta'tili kunlari ayrilishi natijasida aniqlanadi. Bu ko'rsatgich ushbu formula yordamida topiladi:

$$И_{ВК} = \frac{И_{В}}{И_{Н}};$$

unda: I_v g` 1 kishining ishlagan vaqti (k/k/s);

I_n g` ishlashi lozim bo'lgan (normativ) vaqt (k/k/s).

Mehnatning mavsumiylik ko'effitsienti. U bir oy davomida eng ko'p ishlagan kun eng kam ishlagan oy bilan taqqoslanishi natijasida aniqlanishi mumkin. Masalan, paxtachilikda sentyabr`, oktyabr` oylarida o'rtacha 30g`31 kun, yanvar`, fevral` oylarida esa 10g`15 kun ishlash mumkin:(30,31):(10,15)q 2,3. Bunda mehnatni mavsumiyligi shu oylar (yil) ichida 2,3 ga teng degan fikrga ega bo'lishi mumkin. Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini mehnat unumdorligi ifodalaydi. U ma'lum bir vaqtda (1 yilda,1 oyda, 1 kunda) ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot qiymatini, miqdorini shuni etishtirish uchun sarflangan vaqt miqdoriga taqsimlash natijasida aniqlanishi mumkin. Bunda ushbu formulalardan foydalaniladi:

$$\mu_{My} = \frac{Y_{Mk} (Y_{Mi})}{C_B};$$

Bunda: μ g` mehnat unumdorligi darajasi (so`m,g,k...);

$Y_{AMq}(Y_{AMi})$ g`yalpi mahsulot qiymati (so`mda), miqdori(t,k);

S_v g` sarflangan vaqt (kishig`kunida, soatda).

Yuqoridagi formulaning aksi ham mehnat unumdorligini ko'rsatadi. U mehnatni tejash qonuni amal etayotganligini

isbotlaydi. Uning yordamida 1ts (so`m) mahsulot ishlab chiqarish uchun qancha vaqt sarflanganligi aniqlanadi. Bu ko`rsatgichlar qishloq xo`jaligida etishtirilayotgan ayrim mahsulotlar bo`yicha ham alohida alohida aniqlanishi mumkin. Yuqoridagi ko`rsatgichlar qishloq xo`jaligida mehnat resurslaridan foydalanish hamda mehnat unumdorligi darajasi qanday ahvolda ekanligini aniqlash va ularni to`liq tahlil qilish imkoniyatini beradi. SHunga asoslangan holda kelajakda mehnat resurslaridan foydalanish darajasini oshirish chorag`tadbirlarini belgilash mumkin.

15.4.qishloq xo`jaligida mehnat resurslaridan foydalanish, mehnat unumdorligi

Har qanday sohalar, tarmoqlar mavjud mehnat resurslaridan yil davomida to`g`ri va samarali foydalanishni ta`minlashlari zarur. Buning uchun ular mavjud ish joylarini batafsil (shtat jadvali, texnologik kartalar asosida) aniqlanishlari lozim. SHundan so`ng o`zlarining tarkibidagi mehnat resurslarini (ularning tarkiblari bo`yicha) aniqlashlari zarur. Yuqoridagi ma`lumotlar taqqoslanib tarmoqlarning, korxonalarning mehnat resurslari bilan ta`minlanganlik darajasi aniqlanadi. Buning uchun yuqoridagi formulalardan foydalaniladi. Bunda mehnat resurslari bilan ortiqcha ta`minlanganlik ma`lum bo`lsa, u holda ortiqcha mehnat resurslarini qanday qilib ish bilan ta`minlash tadbirlari belgilanishi zarur. Mehnat resurslari etishmayotganligi aniqlangan hollarda esa, bu masalani qanday yo`llar bilan hal qilish choralari ko`riladi.

1999 yilning boshiga republikamizda mehnat resurslarining umumiy miqdori 11998,9 ming nafarni tashkil etgan. Ulardan 8640,1 ming nafari iqtisodiy faol mehnat resurslari hisoblanadi. 15 yoshga to`lgan o`smirlar o`qishda, harbiy xizmatda bo`lgan mehnat

resurslari o`rtadagi farqni tashkil etadi. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashgan mehnat resurslari esa, 8800 ming nafar. Demak, respublikamiz xalq xo`jaligida mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsienti 0,995 yoki 99,5%ni tashkil etagan $[(8800:8840,1)*100\%]$.

Ma`lumotlardan ko`rilib turibdiki, iqtisodiy faol aholining 40,1 ming nafari yoki 0,5%i ishsizlardir. Mehnat resurslaridan foydalanish darajasi viloyatlar bo`yicha xilmag`xil.

Ishsizlar safiga mehnat birjalarida ruyxaga olingan mehnat resurslari kiritiladi. Ishsiz sifatida ro`yxatga olinganidan so`ng ularga davlat nafaqasi to`lanadi. Nafaqa miqdori eng kam oylikdan ko`p bo`ladi. qishloq xo`jaligida ishlab chiqarish jarayoni davriyligidan, mavsumiyligidan kelib chiqqan holda mehnatning mavsumiylik darajasi (koeffitsienti) aniqlanadi. Bunda eng ko`p ishlangan oydagi ish kunlari miqdori eng kam ishlangan oydagi ish kunlari miqdoriga bo`linadi. Bunday ko`rsatkichlarning bir necha yilligini aniqlab, sodir bo`lgan o`zgarishlarni tahlil etish zarur. SHu bilan birga tarmoqda, korxonalarda har bir ishchining yil davomida haqiqatda ishlagan vaqtini hamda ish vaqti fondi darajasini aniqlash lozim. Bu ko`rsatkichlarni aniq raqamlar yordamida aniqlab, ularga ta`sir etuvchi omillarriga alohida to`xtalish talab etiladi. Buning uchun ishlab chiqarish ko`lamining o`zgarishi, uning ixtisoslashganligi, barcha jarayonlarning mexanizatsiyalashganlik darajasi, mehnatning rag`batlantirilishi tahlil etilishi zarur. Mehnat resurslaridann foydalanish samaradorligini isbotlash uchun sarflangan jonli mehnat unumdorligi aniq ma`lumotlar asosida aniqlanib, tahlil qilinishi zarur. Ular ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo`yicha tarmoqlar hamda korxonalar miqyosida aniqlanishi mumkin. Ularni miqdori bir yillik darajasida aniqlangandi shu yil

ichida birg`birlariga nisbatan hollari tahlil etiladi. Masalan korxonalarni, tarmoqlari bir yil ichidagi farqini aniqlash mumkin. Mehnat unumdorligi qiyosiy baholardann foydalangann holda bir necha yilligi aniqlansa u holda bir korxona, tarmoqni bir necha yillar davomida bo`lgan o`zgarishi aniqlanadi va ular tahlil etiladi. Mehnat unumdorligi natural va qiymat ko`rsatgichlarda aniqlanadi.

15.5.Mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, ularning unumdorligini oshirish yo`llari

Respublikamiz qishloq xo`jaligida mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalasiga alohida e`tibor berilmoqda. Bunga aholini ish bilan ta`minlash to`g`risidagi qonun hamda bir qancha qaror va farmonlar e`lon qilingani va ular asosida ko`rilayotgan chorag`tadbirlar yaqqol dalildir.

Mehnat resurslaridan foydalanish, mehnat unumdorligi darajasini aniqlab, ularga ta`sir etuvchi omillar tizimini belgilab olish zarur. qishloq xo`jaligida ularga asosan quyidagi omillar ta`sir etishi mumkin: Dastavval obg`havo sharoiti, shuningdek bozor iqtisodiga o`tishda qishloq xo`jaligi iqtisodining iqtisodiy holati hamda amalga oshirilayotgan agrarg`iqtisodiy islohotlar tizimi. SHu bilan birgalikda ishlab chiqarishning ixtisoslashganlik darajasi, barcha jarayonlarning mexanizatsiyalashganlik, elektrlashtirilganlik darajasi, mehnat resurslarining malakasi, tadbirkarligi va boshqalar. Ularni aniq ma`lumotlar yordamida tahlil qilib asoslash lozim. Bunda yaxshi natijalarni salbiy holatlar bilan taqqoslash zarur. So`ngra bu jarayondan aniqlangan masalalarni hal etish tadbirlarini, rejalarini belgilash talab etiladi.

qishloq xo`jaligida mehnat resurslaridan to`liq va yaxshi foydalanish uchun ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishni yanada

chuqurlashtirish, agrosanoat integratsiyasini amalga oshirishni rivojlantirishga erishish lozim. Buning uchun turli shakldagi korxonalarni tashkil etish orqali yangi ish joylarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda ko'shma korxonalarni, kichik korxonalarni, tsexlarni tashkil etishga ularni rivojlantirishga alohida e'tibor berish kerak. Ular ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash hamda xizmat ko'rsatish sohalarida amalga oshirilishi zarur. SHu bilan birga xaridorgir mahsulotlarni ishlab chiqarishga hamda barcha tarmoqlarda ish jarayonlari mexanizatsiyalashtirilishini ta'minlaydigan va boshqa tadbirlar bajarilishiga ijobiy ta'sir etadigan yangi texnikalarni, samarali texnologiyalarni joriy etishga katta e'tibor berish zarur.

Mehnat resursladidan foydalanishni yaxshilash va mehnat unumdorligini oshirish maqsadida bu resurslarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishni takomillashtirish hamda rivojlantirish, shuningdek ularning ish sharoitlarini yaxshilashga e'tibor berish talab etiladi.

16g`MAVZU. MILLIY IqTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING MAKROIqTISODIY DASTURLARINI TUZISH

16.1. Davlatning antiinflyatsiya siyosati mazmuni

Antiinflyatsiya siyosati faol va moslashuvchanlik siyosatlariga bo'linadi. Faol siyosat inflyatsiyani yuzaga keltiradigan sabablarni bartaraf qilishga, moslashuvchanlik siyosati inflyatsiya sharoitiga moslashish va inflyatsiyaning salbiy oqibatlarini engillashtirishga yo'naltiriladi.

Inflyatsiya va ishsizlik hukumat oldida to'rgan asosiy muammolari hisoblanadi. Bu muammolarning echilishi o'zaro zich bog'liqdir.

Inflyatsiya jarayonlarini boshqarish vositalari davlat davlat qoʻlidadir. SHuning uchun ham davlat pul taklifiga va mos ravishda pul massasining kattaligiga masʼuldir. Muomaladagi pullarning qisqarishi inflyatsiyaning toʻxtashiga sharoit yaratadi.

Inflyatsiyaga qarshi samarali koʻrashish uchun uning sabablarini bilish kerak. Bu esa pulgʻkredit va fiskal siyosatining oʻzgarishini talab qiladi.

Hukumat inflyatsiyaning bartaraf etilishga sabab boʻladigan toʻgʻri monitar vositalar yigʻindisiga ega. Ular quyidagilardir:

- pul emissiyasining nazorati;
- davlat bʻudjetining emission moliyalashtirishga yoʻl qoʻymaslik;
- pul massasining joriy nazorati, ochiq bozorda operatsiyalarning amalga oshirilishi;
- pul surrogatlar muomilasining kesishuvi.

Yuqorida sanalgan dastlabki toʻrt omil samarasi faqatgina inflyatsiyani kuttirish yoki oldini olish maqsadida taʼminlanishi mumkin. Giperinflyatsiya sharoitida esa, birdangʻbir chora pul islohoti hisoblanadi.

Konfiksatsion pul islohotlari koʻpgina mamlakatlarda oʻtkazilgan, shu jumladan Evropaning yarim davlatlarida va sobiq SSRda ikkinchi jahon urushidan keyin. Bu islohotlarning birinchi jahon urushidan keyin Germaniyada oʻtkazilganini misol tariqasida qarab chiqamiz. 1922 yilga kelib Germaniyada inflyatsiya eng baland choʻqqisiga chiqdi: narxlarining 40 barobar oshishi, pul emissiyasi bilan qoplanadigan bʻudjet taxchilligi 40% xarajatni tashkil qilgan, markaning almashish kursi 50 barobar pasaydi.

1923 yili iqtisodiyotning vayron boʻlish jarayoni yanada kuchaydi. SHu yil noyabr oyida konfiskatsion toʻrning pul islohoti boshlandi, 1 ta yangi chiqarilgan marka 1 trin. eski markaga almashtirilgan edi,

almashish miqdori chegarlangan holda bo'ldi. Hukumat esa qat'i pulg`kredit siyosatiga va bʻudjet taxchilligini xarajatlarni kamaytirish va soliqlarni oshirish orqali qisqartirishga o'tdi. Natijada iqtisodiyot barqarorlashdi va 1927 yilga kelib ishlab chiqarish 1923 yildagiga nisbatan 2 barobar oshdi.

Yuqorida keltirilgan misolga asoslanib shuni ta'kidlashimiz kerakki, inflyatsiyaga qarshi ko'rash sur'at nafaqat inflyatsiyani aks ettiruvchi sabablarga, balki uni tug'diruvchi va ushlab turuvchi sabablarni yo'qotishga qaratilgan bo'lsagina samarali bo'ladi. Inflyatsiya mexanizmlariga asoslanib, inflyatsiyaning qaysi turiga qarshi ko'rash olib borilayotganiga qarab antiinflyatsion choralar sinflarga ajratiladi.

Inflyatsiya talabiga qarshi olib boriladigan choralar quyidagilardir:

- davlat xarajatlarining kamaytirilishi;
- soliqlarning oshirilishi;
- davlat bʻudjeti taxchilligining qisqartirilishi;
- qattiq pulg`kredit siyosatiga o'tish;
- valyuta kursini muzlatib qo'yish orqali uni barqarorlashtirish.

Inflyatsiya talabiga qarshi qo'yilgan choralar yalpi talabga bevosita ta'sir etadi. Ularga birinchi navbatda, davlat xarajatlarining kamaytirilishi va soliqlarning oshirilishi, davlat bʻudjeti taxchilligi darajasining pasaytirilishi, qattiq pulg`kredit siyosatiga o'tish kiradi.

Baland darajaga ega bo'lgan iqtisodiyot sharoitida bu o'zgarishlar juda og'ir kechadi:

YAlpi talab ishsizlik darajasining pasayishi va o'sishi bilan qisqaradi. Iqtisodiyotning barqarorlashuvi, samarali rivojlanishi uchun yaxshi sharoit yaratadi.

Talab tarafidan inflyatsiya g`tarixdagi barcha baland inflyatsiyaning sababchisidir. SHu bilan birga tarix bizga, antiinflyatsiya siyosatining tez «shokli» choaralarini bergani kabi, inflyatsiyaning astag`sekin so'nishini

ham ko'rsatadi. qaysi siyosat yaxshiroq ekanligini aytish qiyin buning hammasi konkret sharoit va imkoniyatlar bilan aniqlanadi. Tez siyosatning yaxshi tomonlari shundaki, agarda u, albatta, jamiyatning hukumatga bo'lgan ishonchi sharoitida olib borilayotgan bo'lsa, faqat inflyatsiyaning o'zigina emas, balki inflyatsiya ko'tishlarining birdaniga tez tushishiga, bu esa barqaror inflyatsiyasiz rivojlanishga sharoit yaratib beradi. Kamchiliklarga esa, ishlab chiqarish va ishsizlik darajasining birdaniga tushib ketishi, shuningdek, iqtisodiy holatning yomonlashishi natijasida ijtimoiy siljishning o'sishi kiradi.

16.2. Antiinflyatsiya siyosatini amalga oshirish yo'llari

Sekin siyosatning yaxshi tomoni, birinchi navbatda, ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolishidir: ishsizlikning sekin o'sishi qayta malaka egallash dasturlari muvaffaqiyat bilan bajarilishiga, uyg'otadi, tuzilmaviy qayta qurishga va ishlab chiqarish yo'nalishlarini qayta ishlab chiqishga umid uyg'otadi. Kamchiliklari esa birinchidan iqtisodiy siyosatning nohaqligi, ikkinchidan bunday siyosat etarli darajada inflyatsion ko'tishlarni saqlaydi.

Ta'sirchan choralardan yana biri, bu – valyuta kursini muzlatib qo'yish orqali barqarorlashtirishdir. Ushbu chora o'z ichiga ko'p salbiy tomonlarni oladi. Biroq, uning ayniqsa ko'p taraflama tashqi savdoga bog'liq bo'lgan iqtisodiyot uchun ijobiy jihatlari ham borki, ularga ahamiyat bermaslik o'tib ketish mumkin emas.

Ushbu chora nafaqat talab inflyatsiyasiga, balki iqtisodiyot juda katta darajada importga bog'liq bo'lgan holda xarajatlar inflyatsiyasiga qarshi ko'rash vositasi hamdir. SHuni ta'kidlash joizki xarajatlar inflyatsiyasiga qarshi ko'rash choralari turli xildir. Ular sirasiga quyidagilar kiradi:

- xarajatlar inflyatsiyasiga qarshi yo'naltirilgan choralar;

- faktor daromad va narxlarning o'sishini ushlash;
- iqtisodiyotda monopolizmga qarshi ko'rash va bozor institutlarining rivojlanishi;
- tashkilot iqtisodiyoti chegaralarida ishlab chiqarishning barqarorlashuvi.

Faktor daromadlar va narxlarning o'sishiga qarshi siyosat, ya'ni daromadlar va narxlarni ushlab turuvchi siyosat, turli vositalar, chunonchi, narxlar va ish haqini muzlatib qo'yish orqali amalga oshirilishi mumkin. Narxlar va daromadlarning ushlanib turishi juda qisqa vaqt ichida natija beradi. Biroq, iqtisodiyot barqarorlashuvining bozor mexanizmi ushlab turilgani uchun, bunday deflyatsiyaning narxi baland bo'ladi, inflyatsion kutilishlar va disproportsiyalar muzlatib qo'yiladi. qisman chegaralanish uchlik, ya'ni «davlatg` tadbirkorlarga kasaba uroshmalari» o'rnatilishini yoki narxlar va daromadlarning o'sishi uchun unga qo'shimcha soliq qo'shish masalasini oldindan ko'rib chiqadi. Narxlar inflyatsiyasini engishda iqtisodiyotda monopoliyaga qarshi ko'rash va bozor institutlarining rivojlanishi asosiy o'rin tutadi.

Nixoyat, taklif iqtisodiyoti chegaralaridagi ishlab chiqarishni barqarorlashtirishga yo'naltirilgan chorani ta'kidlashimiz kerak. Bu berilgan kontseptsianing maqsadi, hukumatning uzoq muddatli yalpi taklif egri chizig'i siljishiga ta'sir qiladigan darajaga, ya'ni tabiiy ishlab chiqish darajasining o'sishiga olib kelishdir. U holda qisqa muddatli AS egri chizig'i tabiiy holda uqoriga siljishsiz o'ngga siljiydi.

Taklif iqtisodiyoti siyosatining asosiy elementlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- soliqlarning kamaytirilishi. soliqlarning biznesga kamaytirilishi tadbirkorlik faollashuvi uchun qo'shimcha rag'bat beradi;
- infratuzilma sektorida raqobatning shakllanishi;

- ijtimoiy siyosatni o'zgartirish yo'li bilan aholi mehnat motivizatsiyasining kuchayishi;
- qat'iy chegara ichida bo'lgan tabiiy ishlab chiqarish darajasi kutilayotgan qo'shimcha o'sishining pul emissiyasi.

Moslashuvchan siyosat.

- indeksatsiya
- narxlar va ish haqlarining o'sish sur'atlari haqida tadbirkorlar va kasaba uoshmalari bilan kelishuvlar.

Indeksatsiya, ya'ni nominal pul haqlarining o'zgarishi, o'rnatilgan daromadlarni oluvchilarga tarqatilganligi uchun, ya'ni inflyatsiyadan eng ko'p yo'qotuvchilar uchun inflyatsiya natijalarini engillashtirishda jiddiy ahamiyatga ega. Bundan tashqari, agarda indeksatsiya inflyatsiya sur'atlari bilan bog'liq bo'lsa, u holda u inflyatsion kutilishlarga pasayuvchi bosim ta'sir etishi mumkin.

Indeksatsiyaning salbiy jihatlariga uning tegishli narxlar korrektirovkasi ushlanishiga ta'sirini aytishimiz mumkin. Agar inflyatsiya taklif tuzilishining o'zgarishi bilan sodir bo'lgan bo'lsa, u holda indeksatsiya inflyatsion spiralning sababchisi bo'lishi mumkin. Moslanuvchan choralarga eslatib o'tilgan «daromadlarga narxlar» siyosatini qo'shish mumkin.

Ish haqi va narxlar o'zgarishining sur'atlari o'rtasida bir xil nisbat mavjud ekan, u holda Filips egri chizig'i o'z mohiyatiga ko'ra inflyatsiya va ishsizlik o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi, aniqrog'i inflyatsiyaning o'sish sur'atida ishsizlikning past darajasi kuzatiladi va aksincha yoki ishlab chiqarish qisqarishi va ishsizlik ko'payishi bilan narxlar oshishi kuzatiladi. Bu hodisa stagflyatsiya deb atalib, ham inflyatsiya, ham ishsizlikning o'sishi bilan ifodalanadi.

Davlatning mehnat bozoriga ta'sir etish choralari Fillips modeli bilan cheklanib qolmasdan, o'z qamroviga yana soliq, pulg'kredit

siyosatining keng ta'sir etish choralarini hamda mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi qonuniy va me'yoriy hujjatlarni ham oladi.

Inflyatsiya – bu, narxlar darajasining oshishidir. Inflyatsiyaning baholar indeksi orqali ko'rishimiz mumkin:

$$P = \frac{P_i}{P_t} 100 \%$$

Inflyatsiyaning o'sish sur'atini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$\text{Inflyatsiyaning o'sish sur'ati} = \frac{P_t - P_{t-1}}{P_{t-1}}$$

Inflyatsiyaning quyidagi turlari mavjud:

- normal inflyatsiya (3g`5%);
- o`rtacha inflyatsiya (20g`25%);
- galopirushaya inflyatsiya (30g`200%).

Giperinflyatsiya, bunda narxlar 6 oy davomida oyiga 50% dan ortib boradi, so`ng pul qog`ozga aylanadi va o`z funksiyasini bajara olmaydi.

Stagnatsiya g` narxlar bilan bir qatorda ishsizlik darajasining oshib ketishidir.

Stagflyatsiya – stagnatsiyadan farqli ravishda ishlab chiqarish hajmining keskin pasayib ketishidir.

16.3. Makrostrategiyalar tanlashning xorijiy tajribasi

Hozirgi zamonda sof iqtisodiy tizimiga asoslangan davlatni topib bo`lmaydi. Har bir tizim xo`jalik yoritishning milliy modeliga ega . SHulardan eng mashhurlarini sanab o`tamiz.

**Amerikada model`** – tadbirkorlik faolligini taqdirlash, faol aholini boyitish asosiga tuzilgan. Kam ta`minlanganlarni qisman ta`minlash va ularga yordam berishni kuzda tutadi. Mehnat unumdorligining yuqori bo`lishiga va shaxsiy muvaffaqiyatga erishishga asoslanadi.

**YAponcha model`** g` aholining yashash darajasi (shu jumladan, ish haqi darajasi)ning mehnat unumdorligidan orqada qolish bilan xarakterlanadi. SHu asosda dunyo bozorida narx pasayishiga erishiladi. Bu model milliy o`zg`o`zini anglashga, millat manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun qo`yishga asoslanadi.

**SHvedcha model`** – kuchli ijtimoiy siyosatga asoslanadi. Unga ko`ra, davlat qulida asosiy foidalarning 4 foizginasi bo`ladi, davlat xarajatlari esa YAIMning 70 foizini tashkil etadi. Xarajatlarning yarimidan ko`prog`i ijtimoiy ehtiyojlarga ishlatiladi. SHvetsiyada soliqlar miqdori juda yuqori, shuni hisobiga aholi turmush darajasi eng yuqori davlat hisoblanadi. Bunday model` «funksional ixtisoslash» degan nom olgan. Aholining yuqori turmush darajasini ta`minlash (bandlilik, ta`lim, ijtimoiy sug`urta) davlat zimmasida.

Rejali iqtisod 1990 yillarda o`z imkoniyatlarini yuqotdi.

O`zbekistonda davlat mustaqilligiga erishilgach, bozor iqtisodiyotiga o`tish tamoyillari ishlab chiqildi, tub islohotlar amalga oshirila boshlandi, aralash iqtisodiyot vujudga keldi.

Prezidentimiz tomondan aralash tizimning milliy modeli ishlab chiqildi. Ijtimoiy himoyalangan, bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qo`rishga kirishildi. Yuqorida ko`rsatilgan modellar asosida makrostrategiyalar tanlash mumkin.

Respublikamiz ijtimoiyg`iqtisodiy rivojlanishda 5 tamoyilga asoslanadi:

1. Iqtisodni siyosatdan ustunligini ta`minlash;
2. qonun ustuvorligini ta`minlash;
3. Davlat – asosiy islohotchi;
4. Bozor iqtisodiyotiga bosqichmag`bosqich o`tish;
5. Kuchli ijtimoiy muhofaza.

16.4.Makrostrategik dasturlar

Makrostrategik dasturlar ishlab chiqishning asosiy yo`nalishlaridir.

Respublikamizda ko`plab makrostrategik dasturlar, mustaqil, demokratik huquqiy davlat qo`rish borasida potentsial kontsepsiya, unga erishish uchun 5 tamoiyl ishlab chiqilgan. Bu tamoyillar asosida biz iqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishimiz kerak.

Makrostrategik dasturlarga quyidagilar kiradi:

- g`davlatning ijtimoiy siyosati bo`yicha dasturlar;
- g`aholining turmush darajasini strategik rivojlantirish;
- g`aholining takror ishlab chiqarish, ishchi kuchi va bandlilik dasturlari;
- g`ijtimoiy soha tarmoqlarini rivojlantirish dasturlari;
- g`ilmiyg`texnika taraqqiyoti dasturlari;
- g`ekologiya bo`yicha dastur va hoqazolar.

17g`MAVZU. STRATEGIK REJALASHTIRISH VA HUDUDiy IqtISODIYOTNING MUOMMOLARI

17.1. Hududiy strategiyani roli

Hududiy – innovatsion strategiya makro va mikroinnovatsion strategiyalar oralig`idagi strategiya hisoblanadi. Uning roli shundan iboratki, har qanday ishlab chiqarish va innovatsion jarayon o`zining hududiy joylashuviga ega. Davlat darajasidagi makrostrategiya markazlashgan resurslarni aniq, hududdagi korxona va tashkilotlarga joylashtirish yo`li bilan amalga oshiriladi. Bu korxona va tashkilotlar mahalliy ashyolar, ishlab chiqarish va mehnat resurslari, ishlab chiqaradi, ilmiy infratuzilmalardan foydalanadi. Agar ko`rsatilgan elementlardan birontasi etarli darajada rivojlangan bo`lmasa, unda mazkur hududda

makroinnavatsion strategiyani amalga oshirish ko'lamini chegaralanib qoladi.

Makrodarajadagi hududiy muommolarni hisobga olishning zaruriy qirralaridan biri bu g' har qanday davlatda alohida hududlarni rivojlantirishga ahamiyat berishidir. Aks holatda, alohida hududlarni ijtimoiyg'iqtisodiy chegaralash hududiy muommolar keskinlashuviga olib keladi (masalan, sobiq SSSR, Rossiya Federatsiyasi, YOgoslaviya, Xindiston, Kanada va boshqalar). Agar mezo va mikrodarajalarni innavatsion rivojlanish ma'nosida ko'rib chiqilsa, unda hududiy rivojlanishning bu holatdagi darajasi hal qiluvchi ahamiyatga kasb etadi. CHunonchi, har bir hudud o'zi shaxsiy manfaatlariga ega bo'ladi. SHunday qilib, hududdiy strategiyani shakllantirish va amalga oshirish zarurligini muvofiqlashtiruvchi quyidagi to'rtta asosiy omilni ajratish mumkin:

g'makroinnavatsion strategiyalarning hududiy jihatlari;

g'hududni rivojlantirishning davlat siyosati;

g'hududlar rivojlanishining shaxsiy ijtimoiy g' iqtisodiy va ilmiy g' texnik maqsadlari;

g'korxonalarning mikroinnavatsion strategiyalari.

Ilmiy g' texnik majmualar hududiy rivojlanish darajasi va o'z funksiyasiga ko'ra:

g'ilmiyg'texnik parklar texnopolislarni qurish va moliyalashtirish, joylashtirish rejalarini ishlab chiqadi;

g'ilmiyg'texnik faoliyatning hududiy boshqaruv organlariga rahbarlik qiladi.

Okrug va viloyat texnik ko'mitalari ilmiyg'texnik va ilmiyg'ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan aniq vazifalarga egadirlar. Hududiy ilmiyg'texnik faoliyat boshqaruv organlari

respublika organlariga ma'muriy jihatdan muntazam tarzda buysunadilar.

Ularning vazifalar doirasiga quyidagilar kiradi:

g'ehtiyojlarni aniqlash, ularni kelajakda ilmiyg` texnik rivojlanishi ta'minlash;

g'ilmiyg`texnik va ishlab chiqarish ob'ektlarining o'zaro aloqalari istiqbolini tekshirish;

g'yangi ilmiyg`texnik va ishlab chiqarish ob'ektlarini joylashtirish va ularning imkoniyatlarini aniqlash;

g'faoliyat turi bo'yicha aniq majmualarni shakllantirish;

g'tashkilot va korxonalarda hududiy bu'rtmalarni joylashtirish;

g'ilmiyg`texnik tadbirkorlikni qo'llabg`quvatlash fondini tashkil etish uchun moliyaviy zahiralar qidirish;

g'hududda ishlab chiqarish texnik inkubatorlarni tashkil etish;

g'faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardagi bo'sh ishlab chiqarish quvvatlarini izlash;

g'zaruriy axborotlarni to'plash va respublika doirasida tarqatish.

YAngilik kiritish majmui vazifalari va tuzilishidagi farqlar ko'proq hududning ilmiyg`texnik rivojlanish darajasiga bog'liq. Hududlarni bu belgilarga ko'ra, shartli ravishda 3 ta guruhga bo'lish mumkin:
yoqori,urta va kuchsiz rivojlagan.

Yoqori darajadagi hududlarning ilmiyg`texnik strategiyasi, avvalo, ilmiy imkoniyatlardan foydalanishga yo'naltirilgan. Boshqa yo'nalish esa, ilmiyg`texnik qarorlarni shakllantirish va ekologik vaziyatni yaxshilashdan iborat. Chunki yaxshi rivojlangan hududlarda ekologik vaziyat talabga javob bermaydi. Urta darajada rivojlangan hududlar avvalo o'z qamrovidagi ilmiyg`texnik sohalarni va sanoatni ko'tarish, rivojlantirishdan manfaatdor. Bu hududlar eng muvofiq strategiyalar birikmasini topishlari kerak, ya'ni yoqori darajada rivojlangan

hududlarda samarasiz hisoblanadigan, lekin bozorda barqaror talabga ega bo'lgan ishlab chiqarishning oraliq sinfini o'zlashtirishlari lozim.

Kuchsiz rivojlangan hududlar strategiyasi mavjud tabiiy resurslardan, iqlimiy xususiyatlardan foydalanishga qaratiladi. Asosiy vazifa g` shuning asosida malakali kadrlar va mehnat resurslar bilan ta'minlash. Agar hududda mehnat resurslari kerakli darajadan ortiq bo'lsa, bunda qo'shimcha ish joylarini tashkil etish va ko'p ishchi talab etiladigan korxonalarni barpo qilish vazifasi vujudga keladi. Oxirgi vazifa yuksak darajada rivojlangan hududlardagi korxona filiallarini rivojlantirish hamda litsenziya va patentlardan foydalanish hisobiga hal qilinishi mumkin.

17.2. Hududiy strategiyaning tarkibi va tuzulishi

Hududlarning mavkei darajasi ularni qo'llabg`quvatlashga bog'liq bo'ladi. Bu qo'llab g` quvvatlash hududlarda ilmiy g` texnik tashkilotlarni tashkil etish uchun qaror qabul qilish, shuningdek, turli hududlararo va hududlar ichida shu hududning ilmiyg`texnik rivojlanishiga oid ko'rsatkichlar tizimini solishtirish orqali yoz beradi.

Bu tizimga quyidagilar kiradi:

- g`hudud ilmiyg`texnik sohasining mehnat potentsiali;
- g`hududning ilmiyg`texnik va ishlab chiqarish – texnik jixozlanishi;
- g`hududni bilim talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilganlik darajasi, ishlab chiqarish g` texnik maqsadlarga mo'ljallangan mahsulotlar sifati, uning eksport imkoniyatlari;
- g`hudud ilmiyg`texnik potentsialining tuzilishi.

Hududning ilmiyg`texnik sohasi potentsiyali ko'rsatkichlari quyidagilarni aniqlaydi:

- g`hududni takror ishlab chiqarish imkoniyatlari;

g`ilmiyg`pedagogik kadrlarni rivojlantirish darajasi (professor, o`qituvchilar tarkibi).

g`hudud aholisining umumiy ma`mulot darajasi;

g`hududda ilmiy mehnat potentsiali kontsentratsiyasi darajasi.

Hududda mehnatni takror ishlab chiqarish imkoniyatlari koeffitsienti quyidagicha aniqlanishi mumkin:

$$K_{tvq}CH_{st}g`CH_3 \quad (1)$$

Bu erda: CH_{st} ishlab chiqarishda band bo`lgan talabalar soni;

CH_3 g` noishlab chiqarish sohasida band bo`lgan talabalar soni.

Koeffitsient kattaligi malakali ilmiy kadrlar zahirasi mavjudligini ko`rsatadi. Agar  $K_{tv}$  ko`rsatkichi yuqori bo`lsa, hududiy markazni oliy o`quv yurtlarining o`zida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Ilmiyg`pedagogik kadrlarning rivojlanishi koeffitsienti professorg`o`qituvchilar sonini hududdagi band bo`lgan aholi soniga bo`lish orqali topiladi:

$$K_{ripsq}CH_{psg}`CH_3 \quad (2)$$

Bu erda: CH_{ps} g` professor o`qituvchilar soni.

CH_3 g` band bo`lgan aholi soni.

Krips kattaligi hudud ilmiyg`texnik darajasi potentsiyalining asosiy indikatorini hisoblanadi.

Ilmiyg`tekshirish mehnat potentsiyali darajasi quyidagicha topiladi:

$$K_{ripsq}CH_{nii}g`CH_3 \quad (3)$$

Bu erda: CH_{nii} g` ITI va Kb da band bo`lganlar soni;

CH_3 g` band bo`lganlarning umumiy soni.

Bu koeffitsient tarmoq va akademik ilmiy izlanish va konstruktorlik tashkilotlari bazasida markazlarni tashkil etish imkoniyatlarini baholashga yordam beradi. Aholining umumiy ma`lumotlilik darajasi quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{ouq}CH_{vog}`CH_3 \quad (4)$$

Bu erda: CH_{vo} g` oliy ma`lumotlilar soni.

CH_3 g` band aholining umumiy soni.

Mazkur koeffitsient hududning umumiy intellektual muhitini tavsiflaydi.

Kadrlarni ilmiyg`texnik kontsentratsiya darajasi quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{knkqCHzn} g` Pr \quad (5)$$

Bu erda: CH_{zn} g` ilmiy sohada band bo`lganlar, shuningdek, ilmiyg`pedagogik kadrlar soni.

Prg hudud maydoni.

K_{knk} koeffitsienti hudud maydonining ilmiyg`texnik mehnat resurslari bilan ta`minlanganligini ko`rsatadi.

17.3. Hududni ijtimoiy g` iqtisodiy rivojlantirishda muqobil strategiyani izlash

Hududni ishlab chiqarishning texnik va ilmiy g` texnik resurslar bilan jihozlanganligi ko`rsatkichlari guruhi quyidagilarni aniqlaydi:

Ishlab chiqarish g` texnik jihozlanganlik darajasi:

$$K_{ptoqFso} g` Fp \quad (6)$$

Bu erda: F_{so} g` korxonaning asosiy fondlari qiymati. Bular ishlab chiqarishg`texnik jihozlanish uchun murakkab mahsulotlar ishlab chiqaradi;

F_p g` hududdagi ishlab chiqarish ob`etlaridagi asosiy fondlarning umumiy qiymati.

Mazkur koeffitsient korxonaning ishlab chiqarish apparati hududga yangiliklar kiritishini shakllantirishda foydalanish imkoniyatini tavsiflaydi:

Ilmiyg`texnik jihozlanganlik darajasi:

$$K_{itog} F_{ntg} F \quad (7)$$

Bu erda: F_{nt} g' ITI va KB lardagi asosiy fondlar qiymati, shuningdek alohida oliy o'quv yurtlaridagilar ham;

F g' hududdagi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish ob'ektlarining asosiy fondlari qiymati.

Kito yordamida hududning ilmiyg'texnik bazasini baholash mumkin.

Tajribag'sinov quvvatlari bilan ta'minlanganlik darajasi:

$$K_{oeo} q F_{oeg} F_n \quad (8)$$

Bu erda: F_{oe} – tajribag'sinov korxonalarining asosiy fondlari qiymati;

F_n g' ITI, KB, oliy o'quv yurtlarining asosiy fondlari qiymati.

Murakkab ishlab chiqarishg'texnik mahsulotlarni (F_{vn}) ishlab chiqarishda hamda ITI va KB da mehnatning fond bilan qurollanganligi. Bular asosiy fondlar qiymatining sanab o'tilgan sohalardagi ishchilar soniga nisbati bilan topiladi. Fond bilan qurollanganlik koeffitsienti asosiy fondlarni hududdagi band aholi soniga nisbati orqali aniqlanadi:

$$\frac{F_{vpq} F_{pg} CH_p}{F_{vnq} F_{ng} CH_n} \quad (9)$$

$$F_{vrq} F_{pq} F_{ng} CH_3$$

Bu koeffitsientlar markazlar ishini mehnat talab qilinadigan faoliyat turlariga yo'naltirish imkoniyatlarini baholashga yordam beradi. Hududning ishlab chiqarish g' texnik va ilmiyg'texnik fond bilan ta'minlanganligi:

$$K_{fotq} F_{pq} F_{ntg} Pr \quad (10)$$

Hududning bilimtalablilik va sifatli mahsulotlari ko'rsatkichlari. Mazkur guruh ko'rsatkichlari quyidagilarni aniqlash imkoniyatini beradi: g'hududni samarali ishlab chiqarish, texnik yo'nalishi:

$$K_{ptoq} R_{sptg} CH_3 \quad (11)$$

Bu erda: R_{spt} g` ishlab chiqarish, texnik maqsadlarga mo`ljallangan murakkab mahsulot ishlab chiqarish hajmi ko`rsatkichi.

Hududning ilmiyg`texnik unumdorligi:

$$K_{itpqRitpg}CH_3 \quad (12)$$

Bu erda: R_{itp} g` ilmiyg`texnik mahsulotlar hajmi ko`rsatkichli.
Hududning ilmiyg`texnik yo`nalishi (bunda ilmiyg`texnik mahsulot hajmi ishlab chiqarish, texnik maqsadlarga mo`ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmiga bo`linadi).

$$K_{itomqRitng}R_{itpqR_{spt}} \quad (13)$$

Bu koeffitsientni hisobga olish sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda hududning ixtisoslashuvi to`g`risida qaror qabul qilish imkonini beradi.
Hududni eksport ishlab chiqarish, texnik yo`nalishi (eksport qilinayotgan ishlab chiqarish g` texnik maqsadlarga mo`ljallangan mahsulotlarning shu mahsulotlar umumiy hajmidagi ulushi)

$$K_{eksoq}R_{eksg}R_{spt} \quad (14)$$

Hududning ilmiyg`texnik patentsiali tuzilishi ko`rsatkichlari:
g`propotsionallik koeffitsienti.

$$K_{strqR_{vuz}}R_{ak}:R_{otr}:R_{zar} \quad (15)$$

Bu erda: R_{vuz} g` oliy o`quv yurtlarida ilmiyg`texnik ishlab chiqarish hajmi;

R_{ak} g` akademiyalarda ilmiyg`texnik ishlab chiqarish hajmi;

R_{otr} g` tarmoqlarda ilmiyg`texnik ishlab chiqarish hajmi;

R_{zar} g` zavodlarda ilmiyg`texnik ishlab chiqarish hajmi.

Bular hududning ilmiy sektoriga tegishli. Bu koeffitsient hududning u yoki bu ilmiyg`texnik soha sektoriga yo`nalishini ishlab chiqish imkonini beradi.

g`ilmiy g` texnik soha tashkilotlarini jamlash.

$$K_{rasqM1g}M1qM0 \quad (16)$$

Bu erda: M_1 , M_0 g`ilmiyg`texnik ob`ektlarga ega va ega bo`lmagan shaharlar soni. Kras ni qo`llash tarmoqdan foydalanish imkonini beradi.

Hudud ilmiyg`texnik rivojlanish darajasi indikatorlarining tahlili.

Uqorida sanab o`tilgan ko`rsatkichlarni tahlil qilish turli usullar bilan amalga oshirilishi mumkin. Ulardan asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

g`mazkur hudud ko`rsatkichlar darajasini yaxshi va o`rta hududlardagi ko`rsatkichlar bilan solishtirish;

g`mazkur hududning bir necha ko`rsatkichlarini birg`biri bilan solishtirish;

g`mazkur hudud rivojlanishining integral indikatorini hisoblash.

Xususiyl indikatorning ahamiyatini hisoblash quyidagi formula asosida amalga oshiriladi:

$$I_{1qK1g}Ke(l) \quad (17)$$

Bu erda: $K1g$ hududning ilmiyg`texnik rivojlanish ko`rsatkichi;
 $Ke(l)$ g` o`rta (yaxshi) hududining ilmiyg`texnik rivojlanish ko`rsatkichi;

Indikatorlar ahamiyatini quyidagi variantlar orqali aniqlash mumkin:
 $I_1 < 1$ g` mazkur hudud rivojlanish darajasining o`rta hududdan past bo`lishi;

I_{1q1} g` mazkur hududning rivojlanish darajasi o`rta hudud darajasiga mos keladi;

$I_1 > 1$ g` mazkur hududning rivojlanish darajasi o`rta hududning rivojlanish darajasidan ortadi.

Aniq indikatorlar ahamiyatliligini tahlil qilish va ularni o`zaro solishtirish orqali hududiy ilmiyg`texnik siyyosat yo`nalishi to`g`risida aniq hulosa chiqarish mumkin.

18g`MAVZU. JAHON IqTISODIYOTIGA INTEGRATSION YO`NALISH

18.1. Tashqi iqtisodiy faoliyat shartg`sharoitlari

O`zbekistonning ijtimoiy jihatdan yo`naltirilgan bozor iqtisodiyoti modelida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish va mustahkamlash, respublikaning jahon xo`jalik aloqalariga birlashish yo`llarini belgilash, shuningdek, ijtimoiy jihatdan yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotining rivojlanishi va respublika integratsiyasi yo`nalishlarining jahon xo`jalik aloqalarida mustahkamlanishi asosiy o`rin egallaydi.

Ochiq turdagi iqtisodiyotning shakllanishi sharoitida rivojlangan tashqi iqtisodiy aloqalar tizimida bo`lgan har bir davlatning xalqaro mehnat taqsimotida o`z o`rniga, dunyo xo`jalik tizimida o`z «javoniga» ega bo`lishi muhimdir.

Hatto katta hududga, ko`p millionli aholiga, xilmag`xil resurslarga ega bo`lgan mamlakatning bugungi kunda boshqa mamlakatlar bilan doimiy va keng iqtisodiy aloqalarsiz tasavvur qilib bo`lmaydi.

O`zbekiston Respublikasi ham bundan mustasno emas. 1991 yil avgustda davlat o`z suverenligiga ega bo`lgan paytdan boshlab, o`zi tanlagan tashqi iqtisodiy siyosatini mustaqil xalqaro huquqiy sub`ekt sifatida olib bormoqda. Bu siyosatning asosiy maqsadi – O`zbekistonning haqiqiy ochiq iqtisodiyotini va jahon iqtisodiyoti tizimi, uning integratsiyasini izchil ruyobga chiqarishdir.

Respublikaning xalqaro hamkorlikda va jahon mehnat taqsimotida ishtirok etishi uning tabiiyg`iqtisodiy, transport, geografik va madaniyg`tarixiy merosga xos bo`lgan imkoniyatlaridan kelib chiqadi.

O`zbekiston ulkan tabiiy resurslar potentsialiga ega bo`lib, birinchi navbatda, mineral xom ashyo resurslariga, iqtisodiy ishlab chiqarish va aholi potentsialiga, geopotolik yondashish jihatidan faqat Evroosiyo qit`asi emas, hozirgi kunda tiklanayotgan Burok Ipak yo`lida ham muhim strategik o`rin egallaydi.

O'zbekistonning xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish rolini ham aynan shu pozitsiyalardan ko'rib chiqish zarur. O'zbekiston oltin ishlab chiqarish umumiy hajmi bo'yicha dunyoda sakkizinchi va uning aholi jon boshiga taqsimlanishi bo'yicha beshinchi o'rinni egallaydi; respublikada 30 ta oltin qazilmalari topilgan bo'lib, hozircha ulardan faqat o'ntasi ishga tushirilgan. O'zbekiston oltinining sifati jahon oliy standartlariga to'liq javob beradi.

Muruntovdagi (Navoiy viloyati) oltini bor qazilmalarni (olinayotgan miqdori va sifati jihatidan) jahonning eng katta oltin konlari Klondayk (AQSH), Vitvaterrand (IOAR), Kolar (Xindiston) bilan bir qatarga qo'yish mumkin. Oqori probali qimmatbaho metall bu erda chorak asrdan beri qazib olinmoqda. Uni qazish olish arzon ochiq yo'l bilan borayapti. SHunday qilib, davlat suverenteti sharoitida respublika o'z oltiniga o'zi xo'jayin, jahon oltin bozorida teng huquqli hamkor bo'lishi mumkin. Lekin oxirgi paytda jahon bozorining oltin bilan o'ta tuyintirilishi tendentsiyalari ruyobga chiqishi munosabati bilan qimmatbaho metallning sifatiga talab anchag'muncha yuqoriroq bo'ldi.

Masalan, 1991 yilda Jahon bankining ko'rsatkichlariga ko'ra, bu farq 220g`320 tonnaga etdi. Bunday sharoitlarda oltinga bo'lgan narxg`navoni barqaror ravishda ushlab turish mushkul bo'lib koldi. CHunki sobiq ittifoq parchalanib, uning o'rnida yangi mustaqil davlatlar tashkil topishi /arb mamlakatlarini va YAponiyani juda bezovta qilib qo'ydi. Binobarin, ular dunyoda eng katta oltin importyori va iste'molchisi edilar. SHuning uchun jahon bozorida O'zbekiston oltinini sotishda g'oyat omilkorlik zarur.

O'zbekistonda 370ta kon ishlab turibdi. Ulardan har yili 200 mln. tonna turli mineral xom ashyolar qazib olinadi, yiliga 80 ming tonna mis ishlab chiqarayotgan O'zbekiston ulkan zahiralarga boy, bu hududda

yana ko'plab qo'rg'oshin, rux, vol'fram, litiy va boshqa muhim va noyob metallarning kattag'katta konlari mavjud.

Respublika rivojlangan qudratli yoqilg'ig'energetika bazasiga ega. Tabiiy gaz topilmalari taxminan 2 trilion kub, ko'mir 2 mlrd. tonnadan ortiq, neft` 350 mln. tonnani tashkil qiladi. Oxirgi ikki yilda ochilgan yangi neft` va gaz konlari nafaqat ichki ehtiyojlarni qondirishga, balki energiya beruvchilarning eksporti haqida ham gap yuritishga yo'l beradi.

O'zbekiston neft` konlaridagi qora oltinni qayta tayyorlash to'g'risida «El'fakiten» frantsuz kompaniyasi bilan bitim tuzilgan.

O'zbekiston Markaziy Osiyo va MDHda paxta etishtiruvchi asosiy respublika, bu borada jahonda turtinchi o'rindadir. Bu erda jahon va MDH davlatlari bilan asosiy hamkorlik yo'nalishlaridan g` Respublikada paxtani chuqurroq qayta ishlab, tashqi bozorga yakunlangan qimmatbaho mahsulot sifatida chiqarish mo'ljallangan.

Respublikada har yili 1,7 mln. tonna paxta tolasi tayyorlanadi. Buni jahonda chiqarilayotgan paxta bilan solishtirish mumkin: MDHda umumiy 2,75 mln. tonna, Xitoyda 4,2 mln. tonna, AqSHda 3,4 mln. tonnapaxta ishlab chiqariladi. Ishlab chiqarish hajmiga ko'ra, O'zbekiston jahon paxta bozorida teng huquqli hamkor bo'lishishi mumkin, lekin bizning paxtamiz sifati chet elniki oldida ancha past. Uning sifatini yaxshilash uchun anchag'muncha ishlar olib borish va fursat darkor. Xuddi shunday vaziyat qorako'l terilari va ipak xom ashyosi etishtirish jarayonida.

Meva va sabzavotlar etishtirishda sobiq ittifoq davrida O'zbekiston Respublikasi asosiy ta'minlovchi bo'lib, Ittifoqqa har yili yalpi mevag'sabzavotning 60 %ini etkazib berardi. Bugungi kunda ham mamlakatimizda yiliga 5 mln. tonnagacha meva va sabzavot etishtiriladi, ko'plari noyob tamga ega. O'zbekiston bu tarmoq bo'yicha

hamkorlikka tayyor. Respublikaning bu tarmoqqa bo'lgan asosiy e'tibori mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash, jo'natish; qadoqlash korxonalarini barpo etishga qaratilgan.

O'zbekiston o'zida va xorijda turizm sanoati rivojlantirilishi uchun ham ko'pgina imkoniyatlarga ega. Uning hududida dunyo miqyosida tanilgan tarixiy va arxitektura markazlari g' Samarqand, Buxoro, Xiva joylashgan, 4000 dan ortik arxitektura g' mahobatli obidalar bor, ularning ko'plari IONESKO himoyasidadir.

O'zbekistonning potentsial imkoniyatlari kafolatli bo'lib, bir tomondan bozor iqtisodini islohotlashtirish, boshqa tomondan esa, sobiq ittifoq o'rnida shakllangan yangi iqtisodiy makon integratsiyasi, teng huquqli va hamkorlik bilan xalqora mehnat taqsimotida va jahon xo'jalik aloqalarida babg'baravar ishtirok etish hisoblanadi.

O'zbekiston davlat suverentetiga va mustaqillikka 1991 yilning avgustida erishib, mustaqil ravishda xalqaro bozorga chiqish yo'li juda ideal bo'lmasa ham (1g'jadval), lekin rivojlanish uchun ko'plab zahiralarga ega edi. Respublika tashqi iqtisodiy aloqalari intensivlashtirishining kelib chiqish shartg'sharoitlari quyidagilardir:

- er boyliklari, mineral xom ashyo va o'simliklar resurslari, shuningdek, ajoyib tuproqg'iqlim sharoitlari, qishloq xo'jaligini rivojlantirish hamda uning mahsulotlarini qayta tayyorlaydigan sanoat ishlab chiqarish majmui bazasini yaratish uchun haddan ziyod imkoniyatlarning mavjudligi;
- milliy xalq xo'jaligi majmui infratuzilmasining yozaga kelishi, respublikani jahon xo'jaligi aloqalariga keng miqyosda jalb eta oladigan yirik ilmiy potentsialning jamuljamligi;
- eksport potentsialining yuqori darajada ekanligi;
- tegishli koooperatsiya va hamkorlikdagi sarmoyalar yordamida raqobatga bardoshli mahsulotlarni yuqori darajada tayyorlay

oladigan ishlab chiqarishni qisqa vaqt ichida yaratish potentsialining mavjudligi;

- nisbatan olganda (jahon miqyosida baholaganda) arzon ishchi kuchiga ega bo'lishi mumkinligi;
- xorijiy kapital sarmoyasi va o'zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik o'rnatish uchun respublikada barqaror siyosiy muhitning yaratilganligi.

18.2. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy siyosatning rivojlanishi

O'zbekistonning dunyo mamlakatlari bilan xalqaro savdog'iqtisodiy munosabatlari tarixi o'rta asrlardan boshlanadi. /arb va SHarq o'rtasidagi savdo, katta bozor uchun kurash va mehnat resurslari hamma vaqt O'zbekistonning hozirgi hududiga daxldor bo'lib kelgan, chunki uning geografik jihatdan savdog'iqtisodiy potentsiali ko'plab mamlakatlarni qiziqtirgan.

Mustaqillikdan olidngi o'n yillikda O'zbekiston asosan agrotexnika xom ashyosi (paxta, ipak, qorako'l), mashinasozlik va asbobsozlik tarmoqlari uchun komplektlash mahsulotlari, oltin, uran ishlab chiqarishga mo'ljallangan. Urish davrida ko'pgina zavodlarning O'zbekistonga evakuatsiyasi tufayli respublikada konchilik, samalyotsozlik, traktorsozlik, elektrotexnika, kimyo, to'qimachilik, og'ir sanoat tarmoqlari paydo bo'ldi. Biroq texnik, texnologik va tarif standartlari O'zbekistondan tashqarida (asosan Rossiyada) ishlab chiqarilardi, respublika sanoat sohasining rivojlanishi muayyan darajada tashqi qaramlikka bog'liq edi.

1991 yil 1 sentyabrdan boshlab O'zbekiston mustaqil davlat bo'ldi. Uning iqtisodiy va davlatchilik taraqqiyotining birinchi bosqichi (1991g`1995y.) iqtisodni boshqaradigan o'z infratuzilmasini yaratish va

intensiv ravishda jahon hamjamiyatida savdo aloqalarini rivojlantirishga bog'liq edi.

Xususan, yagona iqtisodiy siyosatni o'tkazish va shakllantirish; taraqqiyot strategiyasini belgilash; ichki va tashqi bozorlarda umumdavlat manfaatlarini ta'minlash; iqtisodiy, fang'texnikaviy, savdo. Madaniy va sport sohalarida hamkorlik o'rnatish, turizmni rivojlantirish va boshqa aloqalarni samarali yordam berib boshqaradigan Tashqi iqtisodiy aloqalar Vazirligi (MVES) barpo etildi. 1992 yil 26 martda qabul qilingan hukumat qaroriga ko'ra vazirlik davlat organi bo'lib, u O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalarini boshqarish, nazorat qilish, tartibga solish va muvofiqlashtirish ishlarini olib boradi.

Vazirlik O'zbekiston Respublikasini uning tashqarisida namoyish etadi; barcha tashqi iqtisodiy masalalar bo'yicha davlat manfaatlarini hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro bitimlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarini mamlakat nomidan himoya qiladi. Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi o'z faoliyatida xalqaro huquqiy normalarga, O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tuzgan bitimlariga, qonunlariga va normativ aktlariga amal qiladi.

O'z taraqqiyotidagi Ig'bosqichning yakuniy davrida (1995 yilning oxiri) O'zbekiston davlat boshqaruvida, iqtisodiyotda, tashqi savdo aloqalarida hamda ishlab chiqarish doirasida barqarorligi bilan ko'zga tashlandi. 1995 yilda MDH davlatlari orasida savdoda ijobiy sal'do olgan ikki davlatning biri bo'ldi.

Oltin qazib olish, energetika, qurilish, to'qimachilik sanoati va neft` ishlab chiqarish sohalarida dastlabki sanoat investitsiyalarining loyihalari tugallandi; hissadorlik asosida, shu jumladan, xorijiy kapitalning katnashuvi bilan agrar hamda sanoat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish uchun qonuniy va amaliy sharoitlar yaratildi.

EH iqtisodiy komissiyasining ko'rsatmalariga ko'ra, milliy mahsulotning salmog'i 1991 yildagiga nisbatan 1995 yilda O'zbekistonda 82,21 %ni, Rossiyada 49%ni, qozog'istonda 43%ni, Belarusda 41%ni tashkil etdi. O'zbekistonning bu ko'rsatkichini markaziy va Garbiy Evropaga yaqin joylashgan SHarqiy Evropa mamlakatlari ko'rsatkichlari bilan solishtirib o'tamiz.

Iqtisodiy rivojlanishning ikkinchi bosqichi (1995g`1998y) negizlaridan biri g` bozor iqtisodiyotining amalda mamlakatning o`z sanoatiga asoslanib, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishi, makroiqtisodiy investitsiyaviy infratuzilmasini ta`minlaydigan bir qator institutlar barpo etishdir.

Bu bosqichda tashqi bozorni ta`minlash, bir tomondan, ichki bozor uchun (import o`rniga) va tashqi bozor uchun (eksportga) raqobatbardosh mollarni ishlab chiqarish bo'lsa, ikkinchi tomondan, O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlariga ko'plab xorijiy texnologik sarmoyalarning kirishi bilan chambarchas bog'liqdir:

- aviatsiya mashinasozligi va avtomobilsozligi;
- kon qazilmalari va kimyo sanoati;
- qishloq xo`jaligi xom ashyosini qayta ishlash va qadoqlash;
- qurilish materiallarini ishlab chiqarish;
- to`qimachilik sanoati;
- telekommunikatsiya va aloqa;
- transport va uning xizmati.

SHuning uchun asosiy e'tibor O'zbekistonning aviatsiya va temir yo'li portlarini kompleks ravishda qayta ko'rishga; energetika, transport, aloqa va mashinasozlik sohalarida yirik sanoat komplekslarini barpo etishga qaratildi.

1996 yilda davlat byudjetining taxchilligi Tashqi Milliy Mahsulot (VNP)dan kelib chiqib, 3,5% darajada baholandi hamda MVF

eksporti tomonidan nazorat qilinadigan darajada keskin oshmadi. O'zbekiston 3 mlrd. AqSH dollari bilan baholanadigan yuqori potentsialli mineral xom ashyo resurslariga, sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi, mehnat resurslari hamda barcha ishlab chiqarish sohalaridagi malakali kadrlar va xizmat ko'rsatish doiralari miqyosida xalqaro savdog'sotiqni unumli ravishda yanada rivojlantirish imkoniyatlariga ega.

O'zbekiston Respublikasining eksportg'import tuzilishi shuni ko'rsatdiki, 1998 yil yakuniy natijalarga ko'ra, tashqi savdo obroti 6 mlrd. AqSH dollarini tashkil etdi. Tashqi savdoda 216 mln. AqSH dollari miqdorida qo'shimcha sal'do ta'minlandi. MDH davlatlarining tovar obroti 24%ga tushib ketdiki, bu hol parallel ravishda erkin konvertatsiya qilinadigan valyuta vositasidagi savdo hajmining ortishiga olib keldi.

1998 yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining asosiy hamkori SHveytsariya bo'ldi. SHuningdek, tashqi savdo olib borilgan birinchi besh mamlakat qatorida Janubiy Korea, Germaniya, Buyuk Britaniya, Turkiya bo'ldiki, bu borada ancha salohiyatga erishildi.

O'zbekistonning asosiy tovar obroti Evropa iqtisodiy Hamjamiyatining sanoati rivojlangan mamlakatlariga 30,6%, Janubiy Koreaga 16,2%, Turkiyaga 6,2%, Birlashgan Arab amirliklariga 2,2%, Xitoyga 1,8%, AqSHga 1,2%, MDH mamlakatlariga tovar oborotida Rossiyaga 49,1%, qozog'istonga 18%, Tojikistonga 8,9%, Ukrainaga 4,0%, qirg'izistonga 3,9% to'g'ri keldi.

13g`jadval.

O'zbekistonning 1998 yildagi tashqi savdo balansi.
(AqSH mln. dollari hisobida)

	Jami	MDH	MDHdan boshqa
Eksport	3481.63	1690.10	1791.53
Tovarlar eksporti	3194.17	1517.05	1677.12
Paxta tolasi	1799.08	383.55	1415.53
Energiya tashuvchilar	435.42	423.50	433,7
Boshqa tovarlar	959.85	710.00	249.85
Eksport xizmatlari	287.46	173.05	114.41
IOk tashish	227.99	164.60	63.39
Sayohatlar (turizm)	10.89	0.09	10.80
Boshqa xizmatlar	48.59	8.37	40.22
Import	3713.33	1793.80	1919.54
Tovarlar importi	3217.99	1408.70	1809.29
Oziqg`ovqat	687.72	181.50	506.32
Energiya tashuvchilar	60.29	52.59	7.7
Mashinalar, uskunalar va transport vositalari	1278.65	437.7	782.95
Boshqa tovarlar	1191.33	678.91	512.42
Import xizmatlari	495.34	385.10	11.24
Balans:			
Eksport	3484.63	1692.10	1791.53
Import	3713.33	1793.80	1919.53
Tashqi savdo oboroti	7196.96	3485.90	3711.06
	g` 229.70	g` 101.70	g` 128.00

1998 yilda eksport tovarlari va xizmatlari 3,1 mlrd. AqSH dollarini tashkil etdi. SHu bilan birga, yaqin xorijiy mamlakatalarga eksport kamaydi. Uzoq xorijiy mamlakatlarga etkazib beriladigan mahsulotning ko`payishiga eksport tovarlarini sotish bozorining geografik kengayishi hamda tabiiy ko`lamining o`sishi, shuningdek,xom ashyo

mahsulotlariga, birinchi navbatda, paxta tolasi va misga jahon kon`iunktura baholarining yaxshilanishi sabab bo`ldi.

O`zbekistonning 1996g`1998 yillardagi asosiy mahsulotlari to`rining eksport tuzilishiga oid ma`lumotlar 14g`jadvalda berilgan.

Erkin konvertatsiyalanganadigan valyutaning eksport hajmi yaqin xorijiy mamlakatlar bilan 27,2 marta, dunyodagi boshqa mamlakatlar bilan esa 2 baravar o`sdi. 1999 yilda eksport tuzilishi baholangan narxga ko`ra xom ashyo tovarlari, avvalo, paxta tolasi qisman darajada salmoqli o`rin tutadig` 57,8%. Energeoetqazkichlar ulushiga 14%, qora va rangli metallarga 5,4% to`g`ri keladi. 2000 yilda umumiy import hajmi 2,9 mlrd. AqSH dollarini tashkil etdi. MDH va Boltiq bo`yi mamlakatlaridan keltiriladigan import tovarlari okimi 8,8%ga qisqardi va 1,3 mlrd. AqSH dollarini tashkil etdi, natijada mazkur mamlakatlarning umumiy importdagi ulushi kamayib, 44,7%dan iborat bo`ldi. YAqin xorijiy mamlakatlardan keltiriladigan import esa ancha ko`payib, 1994 yildagiga nisbatan taqqoslanganda 2,1 marta o`sdi.

14g`jadval.

**1999g`2000 yilda O`zbekiston Respublikasi eksportining
tuzilishi
(AqSH mln. dollari hisobida, xizmatlarsiz)**

Asosiy mahsulot turlarining eksport tuzilishi	1999	2000
Jami	694.062	1677.2
Paxta tolasi	550.281	1415.3
Mashinalar, asbobg`uskunalar va transport	0.865	3
Rangli metallar va ulardan tayyorlangan bu`omlar	68.168	110.1
Mineral o`g`itlar	14.005	35.5
Paxta gazlamalari	19.984	27.5
qora metallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	5.497	10.4
SHoyi	6.03	8.8
Paxta chiqindilari	2.937	5.2

O'simlik yog'i	g`	5.5
CHarm xom ashyosi	0.557	1
Neft` va neft` mahsulotlari	0.307	0.3
Elektroenergiya	7.556	11.6
Paxta linti	1.642	11.3
To`qimachilik va trikataj kiyimg`kechagi	g`	0.6
Toza paxta	1.633	1.6
Boshqa mahsulotlar	14.635	29.5

Uzoq xorijiy mamlakatlardan import tovarlarini keltirish 1,6 mlrd. AqSH dollarini tashkil etdi. Natijada uzoq xorijiy mamlakatlarning salmog'i baholangan narxga ko'ra, import hajmi 1996 yildagi 45,7%dan 55,3%ga ko'paydi. O'zbekiston uchun importdagi salmoqli o'rinni Janubiy Koreag` (27%), Germaniya – (22,9%), Vengriya – (9,2%), SHveytsariya – (7,5%), Turkiya – (5,7%), YAponiya – (4,4%) egalladi. Bu mamlakatlarning importdagi ulushi 80%ga to'g'ri keladi.

2000 yilda import tuzilishida tubdan o'zgarishlar yuz berdi, buni jadvaldan ko'rish mumkin:

15g`jadval.

**O'zbekiston Respkblikasi importining 1998g`2000 yillardagi tuzilishi
(AqSH dollari hisobida, xizmatlarsiz)**

		1998		2000	
		bahosi	foiz	bahosi	foiz
Jami		1187.34	100	1809.29	100
Bug`doy	mln. tonn	241.41	20.33	129.93	7.10
Go`sht va sutmahsulotlari	mln. tonn	71690.50	6.04	46354.40	2.58
Sut va sut mahsulotlari	mln. tonn	13.91	1.17	12.55	0.69
Sariyog`	mln. tonn	4952.30	0.42	9082.70	0.59

O`simlik yog`i (paxta yog`idan tashqari)	mln. tonn	0.16	0.01	362.30	20.00
SHakar	mln. tonn	64955.30	5.47	93653.50	5.10
Farmatsevtika mahsulotlari, shu jumladan, dorig`dormonlar	mln. tonn	5.85		65.09	3.60
To`qimachilik, trikotaj kiyimg`kechaklari	mln. tonn	27.57	2.32	39.11	2.10
Optik, jarrohlik va tabiiy asboblari va apparatlar	mln. tonn	3.18	0.27	52.21	2.80
Tele va videoapparatlar	mln. tonn	12.36	1.04	78.51	4.30
Mashinalar, asbobg`uskunalar va mexanizmlar	mln. tonn	158.98	13.39	498.22	27.50
Boshqa tovarlar	mln. tonn	252.98	21.31	221.32	23.64

Xoh yaqin va xoh uzoq xorij mamlakatlaridan import qilinadigan tovarlar ichida mashinalar va asbobg`uskunalar salmog`i ortib bormoqda. Ular yalpi import tovarlarining 37,5% ini tashkil etadi.

Vatanimizda yoqilg`ig`energetika majmuining jadal sur`atlar bilan rivojlanganligi tufayli chet mamlakatlardan keltiriladigan neft` va neft` mahsulotlari umumiy import salmog`iga nisbatan ancha qisqardi.

Import tuzilishining tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, O`zbekistonga bozorda tezda sotilib ketadigan iste`mol tovarlarini ko`plab keltirish davom etmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyat vazirligining ekspertlari turli darajadagi import tovarlari va ulardan samarali foydalanish jarayonini tahlil qilmoqda. Import bojxona soliqlarining differentsial stavkasini joriy etish mo`ljallanmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda transport aloqalari muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning yirik xalqaro temir yo'l, dengiz va avtomobil portlaridan yiroq joylashganligi import va eksport tovarlarini etqazishda transport xizmati bahosiga jiddiy ta'sirini o'tqazmoqda.

Yok tashish ishlarining 90%i temir yo'l transporti orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston ichkarisida temir yo'l aloqalari tizimi etarli darajada rivojlanmagan va zich joylashgan (50 km dan 100 kv. km gacha) hamda qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston va qirg'izistonga chiqish mumkin. 180 ta stantsiyadan 11 tasi yirik gabaritli konteynerlarni qayta ishlash uchun zarur vositalar bilan jixozlangan. Har kuni O'zbekistonda 8000 vagon qayta ishlanadi.

Tovarlarning anchagina qismi avtomobil transporti orqali tashiladi. Tezkor yo'llar masofasi 42 ming km ni, mahalliy yo'llar masofasi 90 ming km ni tashkil etadi.

«O'zbekiston xavo yo'llari» hamda yonmag'yon bo'lgan xalqaro aviatsiya kompaniyasi xizmatidagi tranzitmagistrali g'oyatda katta ahamiyatga ega. MDH mamlakatlari va 15 ta uzoq xorij yurtlariga samolyotlar to'g'ridang'to'g'ri parvoz qilmoqda. Toshkent, Samarqand, Termiz va Farg'ona shaharlari xalqaro aeroportlar maqomiga ega.

18.3. Tashqi iqtisodiy faoliyatning investitsiyaviy, qonuniy va huquqiy bazasi

O'zbekiston Respublikasida hozirgi davrda iqtisodiy faoliyatning barcha sohalariga aloqador qonunlar va me'yoriy huquqiy aktlarga har tomonlama asoslangan tizim vujudga keltirildi. Tashqi iqtisodiy aloqalar va savdo munosabatlaridagi huquqiy baza xalqaro huquqlar hamda me'yorlar darajasida asoslab berildi. CHunonchi, Respublika Prezidentining "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulkni himoya qilishni ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish

to'g'risida" gi farmoniga ko'ra, keng iste'mol mollarini ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalar xorijiy valyuta toshirish va uni Markaziy bankka majburiy sotish bo'yicha besh yil muddat davomida soliq to'lashdan ozod qilindi.

O'zbekiston Prezidentining 1996 yil may oyida qabul qilingan «CHet el investitsiyalari asosida tashkil etilgan korxonalar faoliyatini rag'batlantirish xususidagi qo'shimcha chorag'tadbirlar» to'g'risidagi farmonida amaliyot uchun eng zarur bo'lgan ko'pgina qoidalar ko'rsatildi.

Bunga ko'ra, eksport mahsulotining hajmi 30%dan oshgan korxonalar belgilangan normalardan ikki baravar kam miqdordagi stavkalar bo'yicha soliq to'lash huquqiga ega. SHu bilan birga respublikada xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun imtiyozlarning keng tizimi vujudga keltirilgan, xorijiy sarmoyadorlar uchun imtiyozli soliq joriy etilgan. "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish chorag'tadbirlari to'g'risida" gi farmonga binoan xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qo'shma korxonalarni ro'yxatga olingan paytidan boshlab besh yil muddatga xorijiy valyutadagi tushumdan soliq to'lashdan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga valyutani majburiy sotishdan ozod qilish ko'zda tutilgan.

"Eksportga mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chorag'tadbirlar to'g'risida" gi farmonga ko'ra, korxonalar ishlab chiqargan mahsulot tarkibida eksportga ishlab chiqarish bo'lsa, imtiyozlarga ega.

Amaldagi imtiyozlar va rag'batlantirish omillari tizimi quyidagilardir:

- ishlab chiqarish hajmida tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksporti kamida 30%ni tashkil etadigan korxonalarga , mulkchilik shakllaridan katxiy nazar, foyda solig`ini amaldagi stavkalardan ikki baravar kamroq to`lash huquqini berish;
- Respublika davlat investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar bo`yicha soliqlar to`lashdan besh yil muddatga ozod etish;
- O`zi ishlab chiqargan mahsulotni ruxsatnomasiz bimalol chetga olib ketish;
- O`zbekiston hududida qo`shma korxonalarning va faqat xorijiy sarmoya bilan ishlaydigan korxonalarning Ustav fondiga hissa qo`shish uchun molg`mulkni chetdan boj solig`isiz olib kirish;
- Investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun er uchastkalaridan foydalanish va ularni tasarruf etish huquqini tanlov asosida sotib olish.

Xorijiy sarmoyalar to`g`risidagi qonunga muvofiq chet ellik sheriklar uchun ularning molg`mulkini davlat ixtiyoriga olish va musodara qilishdan ozod etish uchun kafolatlar belgilab qo`yilgan. Ularning o`z faoliyati natijasida olgan foydasi va boshqa pullarni chet elga o`tkazishga, olingan foydani respublika hududida sarmoya tarzida qayta ishlatish, respublika banklarida hisob raqamiga va unda cheklanmagan miqdorda har qanday valyuta mablag`iga ega bo`lish kafolatlanadi.

Xorijiy sarmoyadorlarga nisbatan investitsiyalar amalga oshirilgan paytda amalda bo`lgan qonun me`yorlari (normalari) 10 yil mobaynida qo`llanishi ko`zda tutilgan qonun hujjatlari o`zgartirilmasligiga kafolat mavjud.

SHunday qilib, vujudga keltirilgan huquqiy normalar (me`yorlar) xorijiy sheriklarning keng investitsiya faoliyati uchun kulay imkoniyatlar yaratib, ularning huquqlari va sarflagan sarmoyasini himoya qiladi.

O'zbekiston sarmoyalarni o'zaro himoya qilish to'g'risida Germaniya, Turkiya, Misr, Indoneziya, Malayziya, Pokiston, Finlyandiya, Koreya, AqSH, Frantsiya bilan bitimlar imzoladi, boshqa bir qancha mamlakatlar bilan ham shunday bitimlar tuzish davom ettirilmoqda.

Kanada, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Gollandiya, Germaniya, SHveytsariya banklari va firmalari bilan 3,3 mlrd. AqSH dollariga yaqin miqdorda hukumatlararo 32 ta yirik kredit bitimi tuzildi. Hozir bu bitimlar amal qilmoqda. O'zbekiston 30 dan ortik savdo va iqtisodiy bitimlar tuzgan. Ulardan 20 tasi uzoq xorij mamlakatlari bilan tuzilgan. Umuman, mustaqillikka erishilgandan so'ng respublikaga 5 mlrd. AqSH dollari kirib keldi.

18.4. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyati rivojlanishining asosiy yo'nalishlari

Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi respublikamizning Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki va O'zbekistonning boshqa tashqi iqtisodiyot institutlari bilan birgalikda tashqi savdo siyosatini ishlab chiqadi va milliy investitsiya loyihalarini muvofiqlashtirishni amaliy hal etadi. Yuqorida kayd qilinganidek, iqtisodiy taraqqiyotning ikkinchi bosqichida asosiy diqqatg'e'tibor ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilmoqda. SHu sababli ham yuqori sifatli tovarlarniyaratishga yo'naltirilgan va raqobatli bahodagi sarmoyalar me'yoriyg'huquqiy qaydnomalarda (aktlarda) ko'zda tutilgan afzalliklar hamda imtiyozlardan foydalanishga imkon beradi.

O'zbekiston hukumati tomonidan iqtisodiyotning har xil sohalari bo'yicha va mamlakatning turli hududlari uchun afzal bo'lgan investitsiya loyihalari tizimi ishlab chiqilgan. Xususan, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi va Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki (MB) ixtiyorida

mukammal analitik bazaga ega bo'lgan 177 loyiha mavjud. Ulardan ayrimlari hozirdanok joriy qilinmoqda. Masalan, yagona zamonaviy navigatsiya tizimini yaratish ikkinchi fazada amalga oshirilmoqda; traktorlar, samolyotlar, avtomobillar ishlab chiqarish uchun mashinasozlik bazasini yaratishga ham allaqachon kirishilgan.

O'zaro foyda keltiradigan savdo va pragmatik printsiplarga rioya qilgan holda, O'zbekiston sheriklari bilan hamkorlikni muayyan darajada kengaytirib bormoqda va ular taklif qilgan zamonaviy, yuqori sifatli texnologiya o'zlashtirilib, sanoatimizda qo'shma korxonalarning yakuniy mahsuloti ishlab chiqarilmoqda. Bunday yondashish o'zaro foydali hamkorlik va savdoning adekvat printsiplarga asoslanadi. Jahon bozori bilan bunday hamkorlikni jadal rivojlantirish sharoitlari O'zbekiston Respublikasining barqaror va izchillik siyosati bilan kafolatlanadi: islohot yo'llarida ularning amalga oshishi qator ijobiy natijalar bermoqda.

Birinchidan, jami tashqi savdo oboroti 2001 yilda bir muncha oshib, 6001,7 mln. AqSH dollarini tashkil etdi. SHu jumladan, yaqin xorij (MDH) mamlakatlari bilan savdo 2609,0 mln. AqSH dollari va uzoq xorij mamlakatlari bilan savdo 3392,7 mln. AqSH dollarini tashkil qildi. Jami tashqi savdo oborotida xorijiy mamlakatlar bilan savdog'sotiqning salmog'i ancha ko'paydi.

Respublikaning erkin konvertatsiya qilingan valyutada eksport operatsiyalari hajmi ortdi: 1998 yilgi 51,2%dan 2001 yili 91,9%ga oshdi. Barter operatsiyalari 1996 yilgi 48,8%dan 2001 yilda 8,1 %ga kamaydi.

Ikkinchidan, tashqi bozorga ko'pgina xo'jalik sub'ektlarining chiqishi O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining republikada TIAB ni qayta tuzish haqida qaroridan keyin ortdi, Respublika iqtisod elementlarining jahon xo'jalik munosabatlari tizimiga moslashishiga olib keldi, bu bozor iqtisodiyotining shakllanishiga yordam beradi.

Uchinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni respublika mustaqilligi sharoitida olib borish ko'pgina yangi boshqaruv va tashkiliy xo'jalik tuzilmalarini yaratishga imkon beradi: huquqiy va normativ bazalar ishlab chiqilmoqda, ular respublikaning tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqarishda muhim rol o'ynaydi, tashqi iqtisodiy kompleks infratuzilmasining keng tarmog'i shakllanmoqda hamda tashqi savdo, elchixonalar, xalqaro iqtisodchilikda kasbiy mahoratga ega bo'lgan kadrlar tayyorlanmoqda.

Biroq, tashqi aloqalar jarayonida salmoqli yutuqlarga erishishimiz bilan birga, bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan iqtisodiy islohotlarini amalga oshirish davomida uchrayotgan muhim va dolzarb muammolar hali echimini topgani yo'q. Bunga bir necha sabablar bor:

Birinchidan, tashqi tuzilmalardagi eksport ishlab chiqarishida tub o'zgarishlar ro'y bermaguncha, xom ashyo mahsulotlari, avvalo, paxta salmoqli o'rinda turaveradi, shuningdek, boy turistik imkoniyatlardan aslo etarli darajada foydalanilayotgani yo'q.

Ikkinchidan, qoloq (jahon standartlariga nisbatan olganda) texnologiyadan va ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish past darajada davom etmoqda, ayniqsa, respublikaning xom ashyo mahsulotlarini qayta tayyorlaydigan sohalari bo'yicha ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilmayotgan eksport baza taraqqiyotini cheklab qo'yishda asosiy to'siq bo'lmoqda.

Uchinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirishga oid qabul qilingan qarorlar ma'muriy tashkiliy tadbirlar miqyosida o'z ijrosini topmayapti hamda iqtisodiy va amaliy choralarni hal etishda qat'iylilik etishmayapti.

To'rtinchidan, vazirliklar, idoralar, kontsernlar, hissadorlik jamiyatlari, barcha xususiy korxonalar hamda matlubot tashkilotlari

respublika qonunchiligi asosida o'z zimmlariga yuklangan tashqi iqtisodiy faoliyatdagi vazifalarini mukammal bajarmayaptilar, bunga qisman iqtisodiy rag'batlantirish choralaridan samarali foydalana olmaslik ham sabab bo'lmoqda. Jahon bozori qonunlari va talablarini yaxshi bilmaslik, tegishli chorag'tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirmaslik, munosib kadrlar tayyorlash ishida mas'uliyatsizlik holatlari namoyon bo'lmoqda.

19g`MAVZU. IqTISODIY RIVOJLANISHDA PULLIK XIZMATLAR

19.1.Pullik xizmatlar sohasining iqtisodiy rivojlanishdagi roli va uni tartibga solish usullari

Agar an'anaviy iqtisodiyotda xizmatlar sohasi ishlab chiqarish elementlarining harakatiga ko'mak berib kelgan bo'lsa, iqtisodiyotning o'sishi va murakkablashuvi ilmiyg'texnika taraqqiyoti jadallashuvi bilan bu soha juda zarur, hattoki istiqbolda iqtisodiyotning asosiy omiliga aylanadi. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va raqobatlashtirish birinchi navbatda ishlab chiqarishning texnologiyalarga, axborotga va aloqa vositalariga, faqat shundan so'nggina xom ashyo va mehnat resurslariga talabini oshirdi.

O'zbekiston iqtisodiyotini bozor munosabatlariga o'tkazish ma'lum qiyinchiliklar bilan boradi va ba'zida yangi muammolarni tug'diradi. O'tish davrida respublika iqtisodiyotida muammolar quyidagilar bilan belgilanadi:

- ma'muriyg'buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tish;
- iqtisodiyot nisbatan bir tomonlama – xom ashyo ishlab chiqarishga ixtisoslashganligi sharoitida resurslardan optimal foydalanish, shuningdek, ularni maksimal foydali eksport qilish;

- milliy iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, yuqori texnologiyani, tarmoqlarni rivojlantirish;
- asosiy texnikasi jismoniy va ma'naviy eskirgan korxonalarni qayta jihozlash;
- kadrlarni bugungi talablardan kelib chiqib tayyorlash va qayta qurish;
- kapital va yangi texnologiyalar etishmasligi tufayli xorijiy investitsiyalarni jlb qilish;
- iqtisodiyotning ijtimoiy strukturasi o'zgartirish, mulkdorlar va tadbirkorlar sinfini shakllantirish;
- iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilganligi tarmoqlarni himoya qilish. ijtimoiy beqarorlikni kamaytirish uchun aholining yaxshi ta'minlanmagan tabaqalarini muhofaza qilish;
- bozor va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish.

SHuni ta'kidlash zarurki, direktiv iqtisodiyot davriga nisbatan davlatning iqtisodiy jarayonlarga ta'siri kamayishi natijasida davlat iqtisodiyotni boshqarish va boshqa xizmatlar ko'rsatishni yangi shakllangan institutlariga topshiradi. SHu tufayli aynan shu davrda iqtisodiyotning ularga talabi keskin seziladi.

Yuqoridagi sanab o'tilgan muammolarni o'tish davriga xos bo'lgan xizmatlar sohasi zarurligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqamiz.

Iqtisodiyotni ma'muriy boshqaruv tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tkazish, islohotlarning murakkablashuvi va ilmiy strategik (rivojlanish strategiyalarini belgilash, ularni amalga oshirish yo'llarini ishlab chiqish, real harakatlarning aniq rejalarini ishlab chiqish), huquqiy, siyosiy bazalar yaratilishini taqozo etadi. Bu muammo xizmatlar sohasiga ham to'liq taalluqlidir.

Bunda davlat faoliyati birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lsada, joylarda islohotlarni o'tkazishda huquqiy, bankg'konsalting va boshqa xizmatlarning ahamiyati keskin oshadi.

Resurslardan optimal foydalanish muammolari astag'sekin davlatning ta'sir doirasidan chiqadi. Bu tabiiydir. Chunki resurslardan samarali foydalanish muammosi ishlab chiqaruvchilarning, ya'ni ulardan foydalanuvchilarning muammosidir. Axborot, aloqa xizmatlariga eng ko'p ehtiyojni tashqi savdo sohasi sezadi. Shuni aytish joizki, 1991 yilga qadar respublika tashqi iqtisodiy aloqalar yoritmagan, shu sababli iqtisodiy faoliyatning bu sohasini yangidan o'zgartirishga to'g'ri kelmoqda.

Bu holatda xorijiy firmalar tashqi bozorga ixtisoslashganligi, katta tajribaga ega bo'lganligi uchun ham yuqori pozitsiyada turadilar. Bu sohada mamlakat firmalari va mutaxassislarning ustun bo'lishi strategik vazifa hisoblanadi. Milliy iqtisodiyot strukturasi o'zgartirish fan sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirish, investitsiyalash muammosi bilan chambarchas bog'langan. Bu vazifani hal etishda davlat strukturalari va xorijiy firmalar hamda milliy iqtisodiy sub'ektlarning hamkorligi nisbatan samarali hisoblanadi. Ularning samarali hamkorlik qilishi faqatgina rivojlangan xizmatlar sektori sharoitida mumkin bo'ladi. Bu jihatdan O'zbekiston juda oldinga chiqdi. Mulkchilik va erkin tadbirkorlikni shakllantirish bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi qonuniy jarayondir. Lekin bu jarayon erkin, tabiiy jihatdan juda sekin ro'y beradi yoki sun'iy tezlashtirilganda ijtimoiy ziddiyatlar kuchayishiga, jamiyatning juda boy va juda kambag'allarga tabaqalanishiga olib kelishi mumkin. Bu jarayonni optimallashtirish uchun ijtimoiy siyosatni rivojlantirish kerak. Bu sohada mahalliy boshqaruv organlari, viloyat va tuman hokimiyatlarining roli keskin oshadi. Bu hol, ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Davlatning rolini e'tirof etgan holda shuni qayd qilish kerakki, nodavlatlar xizmatlar sektori rivojlantirilmas ekan, jamiyatning byorakratlashuvi darajasi kuchayib boraveradi. Bu strukturalarni shakllantirishda davlatning imtiyoz berish siyosati ijtimoiy islohotlarning ishonchli bazasini vujudga keltiradi. Bu xizmatlar xarakteriga ko'ra, haq to'lanmaydigan xizmatlardir.

Xizmatlar sohasining O'zbekiston iqtisodiyotidagi ahamiyati iqtisodiy islohotlar va milliy iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilganligi bilan ham belgilanadi.

Har qanday iqtisodiyotdagi xizmatlar sohasining ahamiyati bu soha tartibga solinishini zarur qilib qo'yadi.

Boshqa bozorlarga xizmatlar bilan kirib borish tovarlar bilan kirib borishdan ko'ra qiyinroqdir.

Eng yangi turdagi xizmatlar bu sohalari bo'lgan bank ishi, telekommunikatsiyalar, axborot va boshqalar ustidan nazorat o'rnatish milliy suverinitetga xavf tug'dirishi mumkin. CHunki bu xizmatlar orqali zamonaviy ishlab chiqarish boshqariladi.

SHu sababli mamlakatda xizmatlar sohasini tartibga solish tadbirlari ishlab chiqiladi.

19.2. O'zbekiston Respublikasida pullik xizmatlarni rivojlantirish ko'rsatkichlari tahlili

Mustaqillik yillarida xizmatlar sohasi, jumladan, aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish boshqa tarmoqlardagiga nisbatan barqaror rivojlanadi. Kapital sig'imi yuqori bo'lmagan va uncha murakkab bo'lmagan texnologiyalarni talab etuvchi xizmat sohasi tarmoqlarining nisbatan yuqoriroq sur'atlar bilan rivojlanishi natijasida bu soha ichida tarkibiy o'zgarishlar ro'y berdi. Bu sifat o'zgarishlari yo'nalishiga,

shuningdek, davlatning bozor islohotlarini jadallashtirishga qaratilgan ko'p tomonlama iqtisodiy siyosati ham ta'sir ko'rsatadi. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bo'yicha qonunlar va boshqa normativ hujjatlarning qabul qilinishi, bu jarayonlarning qonuniy o'tkazilishi, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb qilish va xizmatlar sohalari savdo va umumiy ovqatlanishda, milliy xizmatda (moliya va kreditda) mamlakat hamda xorijiy firmalarning faoliyatini kuchaytirishning iqtisodiy mexanizmini yaratish bo'yicha katta ishlar qilindi. Xususiylashtirishning birinchi bosqichida maishiy xizmat ko'rsatish, savdo ob'ektlarining xususiylashtirilishi, ko'pgina transport korxonalarning aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilishi xizmat ko'rsatish sohasi barcha tarmoqlarida xususiy kapitalning keng ishtirok etishini, bu sohaga bozor munosabatlarini keng joriy qilish va raqobat muhitini yaratishni ta'minladi.

Raqobat xususiy va davlat korxonalari, mamlakat va xorijiy firmalar o'rtasida rivojlandi.

Ma'lumki, xizmatlar bozorining rivojlanishi talab va taklif mexanizmlari bilan chambarchas bog'langan. Xizmatlarga talabning moddiy asosi bo'lib ishlab chiqarish sohasi hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, qulay investitsiya muhitini talab etadi. Sanoat va qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy o'sish xizmatlarga talab o'sishini keltirib chiqaradi. Iqtisodiy qonunlarga ko'ra, bozorda ma'lum bir vaqtda taklif etilgan xizmat yoki tovar ularga talab tug'ilishiga olib keladi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, respublikada xizmatlar sohasi ular taklifiga bog'liq ravishda rivojlanib bormoqda. Masalan, ichki bozorimizda mobil telefon aloqasi xizmatiga talab bu xizmatni taklif etuvchi xorijiy firmalar paydo bo'lishi bilan yuzaga keldi. Keyingi yillarda taklif qilinayotgan xizmatlar doirasi va imkoniyati kengayishi bilan xizmatlarga talab keskin

o'sdi. Respublikada xizmatlar sohasi rivojini o'rganish uchun ma'lum ko'rsatkichlar tizimidan foydalanildi. Bu ko'rsatkichlarni tahlil qilish xizmatlar sohasi rivojini xarakterlash imkonini beradi.

O'zbekistonda xizmatlar ko'rsatish nisbatan tor sohani o'z ichiga oladi. Rasmiy statistikada savdo, umumiy ovqatlanish va qurilishga alohida tarmoqlar sifatida qaraladi.

Soddalikka erishish uchun qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, baliqchilik va sanoatdan boshqa tarmoqlarni xizmatlarga kiritamiz.

16g'jadvaldan ko'rinib turibdiki xizmat ko'rsatish sohasining YAIM dagi ulushi o'sib borgan. CHunonchi, 1993 yilda 40,6% bo'lgan bo'lsa, 1999 yilda 43,1% ni tashkil etgan.

16g'jadval.

YAlpi ichki mahsulot tarkibining o'zgarishi (YAIMga nisbatan%)

	1993	1994	1995	1996	1997	1998	1999
1.YAIM	100	100	100	100	100	100	100
2. Jami qo'yilgan qiymat	90,6	91,8	86,8	85,6	87,6	85,6	85
A)tovarlar	50	51,5	45,2	40,2	43,9	41,7	41,9
B)xizmatlar	40,6	40,3	41,6	45,4	43,7	43,9	43,1
g'sog'liqni saqlash va ijtimoiy soha	3	2,1	2,3	2,5	2,3	2,25	2,3
Transport saqlash va aloqa	5,1	5,8	7,3	6,7	6,5	6,8	6,46

Ammo bu iqtisodiyot rivojlanishining samardorligini anglatmaydi, chunki moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari hissassi pasayishi natijasida kelajakda xizmatlarga talab pasayishiga olib kelishi mumkin. Tarmoqlar bo'yicha aholi daromadlarining o'sishi xizmati ko'rsatishi bilan band korxonalar rentabelligini belgilaydi.

1990g`1996 yillar davomida nominal ish haqi sanoatda 4,6 marta, qurilishda 3,53 martaga, sog`liqni saqlashda 3,94 martaga oshdi. Ayniqsa mehnat resurslarining 40% i band bo`lgan qishloq xo`jaligida aholi daromadlarining oshishi xizmatlar, xususan pullik xizmatlarga talab ortishi uchun muhim omildir. quyidagi jadval ma`lumotlardan ko`rinib turibdiki, pullik xizmatlar hajmi 1995 yilga qadar pasayib borgan.

17g`jadval.

O`zbekistonda pullik xizmatlar dinamikasi.

	1994	1995	1996	1997	1998	1999	2000
1.Joriy narxlarda (mlrd.)	3,4	15	34	70,3	114,6	189,4	305,4
2.Avvalgi davrga nisbatan taqqoslanma narxlarda foiz o`zgarishi.	g`18,9	g`25,8	9,9	21,3	9,5	12,6	18,6

1996 yildan e`tiboran pullik xizmatlar hajmi o`sib 2000 yilda 18,6%ni, 97 yilda 21,3%ni tashkil etgan. Bu pullik xizmatlar sektorida raqobat jarayonlari kuchayganligi, xizmatlar taklifi oshganligi, xususiy sektor rivojlanganligi, aholi daromadlari ko`payganligi umumiy iqtisodiy vaziyat yaxshilanib borishi natijasidir.

18g`jadval.

Pullik xizmatlar hajmida turli sektorlar ulushi,%.

	Davlat	Nodavlat				
		jami	xususiy fuqarolar va korxonalar	xorijiy fuqarolar va korxonalar	hissadorlik jamiyatlari	boshqa g`lar

1996	67,1	32,9	16,3	0,1	10,7	5,8
1997	57,2	42,8	23,6	1,4	16	1,8
1998	48,4	51,6	29,7	3,2	17,2	1,6
1999	45,3	54,7	34,4	4,1	12,4	3,8
2000	43,7	56,3	36,1	5,4	10,8	4

19g`jadval.

Pullik xizmatlar tarkibi
(umumiy hajmga nisbatan, %)

	1998	1999
1.Yo`lovchi transporti	35	34,6
2.Uyg`joy kom.xizmatlari	4,6	4,1
3.Maishiy xizmatlar	14,8	15,4
4.Boshqaruv (sog`liqni saqlash, dam olish, madaniyat)	45,6	45,9

Aholiga pullik xizmatlar ko`rsatish umumiy hajmda yo`lovchi tashish xizmatlari etakchi o`rinda turadi (34,6). SHuningdek, maishiy xizmatlar hissasi ham yuqori bo`lgan (15,4%). Keyingi yillarda sog`liqni saqlash, dam olish va madaniyat xizmatlari hissasi o`sib borayapti. Agar 2000 yilda respublikamiz bo`yicha jon boshiga o`rtacha 12340,2 so`mlik maishiy xizmat ko`rsatilgan bo`lsa Sirdaryoda bu ko`rsatkich 4477,4 so`mni tashkil etgan, xolos. Faqat bu ko`rsatkich 7 viloyatdagina umum respublika darajasining 50%idan, Buxoro viloyatida esa 90%idan yuqori. Bu boradagi summa Toshkent shahri hisobiga katta.

Bunga turizm xizmati ko`rsatuvchi firmalar, kommunal xizmat korxonalari mehmonxonalar, aeroportlar, yo`lovchi transporti korxonalari yirik shaharlarda joylashganligi, qishloq xo`jalik joylarida xizmat ko`rsatish korxonalari yaxshi rivojlanmagani ham sabab.

20g`jadval

Aholi jon boshiga ko`rsatilgan pullik xizmatlar hajmi

	1999 y.	2000 y.	2000 y.ga nisbatan foiz hisobida	Respublika umum darajahisobida %
O`zbekiston Res.	7787,6	12340, 2	112,5	100
qoraqalpog`iston Res.	3406,5	5152,1	113,1	41,75
Viloyatlar				
Andijon	6398,9	10715, 8	138,3	86,83
Buxoro	7431,1	11417, 4	112,1	92,5
Jizzax	3950,5	5677,1	106,8	46
qashqadaryo	3115,7	5789,5	134,0	46,9
Navoiy	6032,6	8770,7	117,3	71
Namangan	3656,0	6131,6	131,1	49,69
Samarqand	5146,5	7715,7	113,7	62,92
Surxondaryo	3841,9	5907,8	106,3	47,87
Sirdaryo	3058,2	4477,4	107,1	3612
Toshkent	6070,2	8975,2	108,2	72,73
Farg`ona	4777,4	7485,3	113,7	60,65
Xorazm	6509,1	8746,4	104,5	70,85
Toshkent sh.	25720, 0	42043, 1	108,6	340,7

Jadvaldan ko`rinib turibdiki, 1994g`1996 yillarda xizmatlar eksporti hajmi o`sib borgan, 96g`99 yillarda esa pasayib ketgan. Bu xizmatlar eksportiga karter reyslarda yo`lovchi tashish, turistik xizmatlar kiradi.

Jami eksport xizmatlar eksportidan tezroq qisqargani uchun ulushi o'sib, 1995 yilda 9,5%ni tashkil etgan.

21g`jadval

Xizmatlar eksporti va importining jami eksport

	1994	1995	1996	1997	1998	1999
1.Jami xizmatlar eksporti (mln. AqSH dollari)	141	287,7	379,4	361,1	310	30,8
2.Jami eksportdagi ulush, %	5,24	6,27	8,26	8,23	8,79	9,5
3.Jami xizmatlar eksporti	6,7	14,48	19,4	337,2	164,1	269,6
4.Importdagi ulush, %	4,75	5,03	0,2	7,45	5	8,7

Xizmatlar importi mutlaqo yangi turdagi xizmatlar ko`rchsativchi xorijiy firmalar (internet, mobil, telefonlar va x.k) mamlakat bozoriga kirishi tufayli keskin oshdi va 2000 yilda jami importning 8,7% ini tashkil etdi. Jadval ma`lumotlaridan xizmatlar savdosi bo'yicha mamlakatimiz ijobiy natijaga ega ekanligi ko`rinadi. Agar turizm va boshqa xizmat turlari keskin rivojlantirilsa, mamlakat valuta zahiralarini yanada ko`paytirish uchun zamin yaratilgan, qo`shimcha ish joylari ochilgan bular edi.

Tahlilga yakun yasab, pullik xizmatlarni rivojlantirish borasida roqorida qayd etilganidek qator muammolar borligini ta`kidlamogchimiz.

19.3. Pullik xizmatlar sohasini isloh qilish va yanada rivojlantirish yo`nalishlari

Pullik xizmatlar sohasini isloh qilish va yanada rivojlantirish mamlakatimizda o`tkazilayotgan islohotlarning va echilayotgan

strategik vazifalarning ajralmas qismidir. Ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonida pullik xizmatlarni rivojlantirishga ta`sir etuvchi omillarni e`tiborga olish zarur. Bu omillar respublikamizning o`ziga xos xususiyatidan kelib chiqadi. Bu masalalarni pullik xizmatlarning ayrim sohalari bo`yicha ko`rib chiqamiz.

Turizmni rivojlantirishdan respublikamiz quyidagi manfaatlarni ko`radi:

1. Yangi ish joylari va korxonalar ochiladi (1996 yilda turizm sohasida 30 ming kishi ishlagan). Ayrim hisoblarga ko`ra, turizm respublikada iqtisodiy faol aholining 5%ini ish bilan ta`minlashi mumkin.

2. Ko`pgina daromad va tushumlarga ega bo`ladi. 1998 yilda respublika turizm sohasi 271,2 ming xorijiy turistlarga xizmat ko`rsatib, 325,4 mln. so`m tushumga ega bo`ldi.

3. Mahalliy tovarlar uchun yangi bozorlar paydo bo`ladi.

4. Mahalliy infratuzilma, komunal ob`ektlar va xizmatlar modernizatsiya qilinadi.

5. Yangi kasblar va texnologiyalar o`rganiladi.

6. Jamiyat atrof muhit va madaniy meros muammolarini va ularni himoya qilish zaruriyatini chuqurroq his etadi.

7. Erdan foydalanishga yangicha yondashuv shakllanadi.

Ushbu manfaatlar e`tiborga olinib, turizm sohasi isloh qilinadi. Bu islohotlar 4 bosqichdan o`tadi.

1g`bosqich g` 1992 yil. Respublika Prezidenti farmoniga ko`ra, «O`zbekturizm» milliy kompleksi tuziladi.

**2g`bosqich g` 1993g`1995 yillar.** Turizm sohasi infratuzilmasi rivojlantirildi. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 3 ioldagi «O`zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning zamonaviy

infratuzilmasini yaratish chorag`tadbirlari to`g`risida»gi qarori bunda muhim rol` o`ynaydi. Yangi turistik marshrutlar ochildi.

**3g`bosqich.** 1995g`1997 yillarda bu xizmat sohasida faol xususiylashtirish jarayonlari bordi. 1996 yilda «O`zbekturizm»ning 90% turistik ob`ektlari nodavlat sektoriga berildi.

1998 yildan O`zbek turizmi iqtisodiy islohotlarning to`rtinchi bosqichiga kirdi. Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 8 avgustdagi qaroriga ko`ra, «O`zbekturizm» tugatilib O`zbekiston xususiy turistik firmalari asotsiatsiyasi tuzildi. 1999 yilda Respublika Prezidentining «Respublikada turizmni 2005 yilga qadar rivojlantirish Davlat dasturi to`g`risida»gi farmoni qabul qilindi.

Bu dasturga ko`ra, iqtisodiyot tarmog`i sifatida milliy turizm oldida to`rgan asosiy vazifa O`zbekiston turistik kompleksini yanada rivojlantirish va uning xalqaro turizm tizimiga integratsiyalashuvidir. Buning uchun sohadagi islohotlar strategiyasi va taktikasi o`zgaradi, turistlar oqimi 15% ga oshadi. Turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish, yangi turdagi turistik xizmatlarni o`zlashtirish, yangi avialiniyalarning ochilishi bu soha rivojini ta`minlovchi muhim sharoitlardan biridir.

Ikkinchi bir muhim pulli xizmatlar sohasi kommunal xizmatlardir. Uyg`joylar xususiylashtirilgandan so`ng bu sohadagi eng muhim qadam kommunal xizmat ko`rsatish korxonalari uyg`joydan foydalanish korxonalari shirkatlarining tashkil qilinishi bo`ldi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 17 apreldagi «Kommunal xizmat ko`rsatish sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning yangi bosqichi to`g`risida»gi PFg`2832 g` sonli farmoni kommunal xizmatlar rivojida yangi bosqichni ochib berdi. Endi uyg`joy ta`miri masalalari bilan uyg`joy mulkdorlar shirkatlari tegishli pudrat shartnomalari bo`yicha kontrakt asosida shug`ullanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bu farmon asosida «Aholiga kommunal xizmat ko'rsatishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chorag'tadbirlari to'g'risida» qaror qabul qildi. Ushbu qarorga ko'ra, uyg'joy mulkdorlari shirkatlari tuzish jadvaliga rioya etish uchun 1991 yilgacha qurilgan ko'p qavatli binolar mahalliy byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga mukammal tamirdan chiqariladigan bo'ldi. Bu shirkatlar tuzilayotganda va ro'yxatdan o'tayotganda tegishli yig'implarni to'lashdan ozod etildilar. Ular bankda u hisob varaqalariga daromadning qo'shimcha manbalariga ega.

Bu tadbirlar kommunal xizmatlarning sifatini oshirishga, tannarxini pasaytirishga qaratilgan.

Sog'liqni saqlash sohasida pullik xizmatlarni rivojlantirish yangi bosqichiga kirayapti. Pullik tibbiy xizmat doirasining sug'urtasini rivojlantirishni zaruratga aylanmoqda.

Tibbiy sug'urtani rivojlantirish esa pensiya jamg'armasiga ajratma va ushlanmalar stavkalarni ko'rib chiqilishini talab etadi. Ayni paytda bepul, davlat byudjeti tomonidan moliyalashtiriladigan, kafolatlangan tibbiy xizmatlar saqlanib qoladi.

20g`MAVZU. MILLIY IqTISODIYOT BARqARORARORLIGINI TA`MINLASHDA BIZNESNINIG O`RNI

20.1.Iqtisodiy barqarorlikda biznesning o`rni

Kichik va o'rta biznesning qonunchilik va me'yoriyg`huquqiy negizi mustahkamlandi, ro'yxatga olingan kichik, o'rta korxona, mikrofirmalar soni 240 mingtaga etdi va ular xo'jalik yorituvchi sub`ektlarga nisbatan 91,5 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiyotning kichik va xususiy sektorida mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarilishi va xizmat ko'rsatilishi 2001 yilda yuqori

sur'atlar bilan o'sdi. Kichik va o'rta tadbirkorlikning xo'jalik yorituvchi sub'ektlari (dehqon xo'jaliklarisiz) tomonidan yalpi ichki mahsulotning 24,4 foizi ishlab chiqarildi. Kichik va o'rta biznes, xususiylashtirish tadbirkorlikning jadallashtirilgan rejalari davlat dasturini amalda bajarish natijasida mazkur sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2000 yildagiga nisbatan 2,8 foizga ortdi. Aholini ish bilan ta'minlashda kichik va o'rta biznes muhim omil bo'lmoqda. 2001 yilda iqtisodiyotning bu sektorida 4842,5 ming kishi band bo'lgan. Bu iqtisodiyotda barcha band bo'lgan aholining 53 foizini tashkil etdi.

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bo'yicha chorag'tadbirlar izchil o'tkazildi. O'tgan yilda respublikamizda jami 1449 ta korxona xususiylashtirilib, ular negizida 775 ta xususiylashtirish korxona, 240 ta ochiq turdagi hissadorlik jamiyati va turli tashkiliy huquqiy shakidagi 674 ta nodavlat korxona tuzildi. Xususiylashtirish natijasida davlat byudjetiga tushgan pul mablag'lari hajmi 23,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar natijasida 2002 yil 1 yanvar holatiga nodavlat sektorda mamlakat barcha korxona va tashkilotlarining 87,1 foizi faoliyat ko'rsatdi. O'tgan yilda nodavlat sektorda yalpi ichki mahsulot hajmining 74,1 foizi, sanoat mahsulotlarining 70,8 foizi ishlab chiqarildi, qishloq xo'jalik mahsulotining 99 foizi etishtirildi, qurilish ishlarining 83,9 foizi bajarildi. CHakana tovar aylanmasining 97,1 foizi, aholiga pullik xizmat ko'rsatishning 59,4 foizi nodavlat sektorda shakillandi. Jami iqtisodiyot sohasida band bo'lganlarning 76 foizi nodavlat sektorga to'g'ri keldi va makroiqtisodiy barqarorlikka erishildi.

Iqtisodiy xususiylashtirish sektor mustahkamlandi, bir qator (qishloq xo'jalik, savdo, xizmat ko'rsatish sohalar) tarmoqlarda esa, ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlarning ancha

qismi xususiy sektor ulushidir. 2002 yilda 62,5 ming korxona (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) o'z faoliyatini xususiy mulkchilik doirasida amalga oshirdi. Xususiy korxonalarning yarmidan ko'pi xizmat ko'rsatish sohasida, har oltinchisi sanoatda faoliyat ko'rsatmoqda.

Natijada 2001 yilda (2000 yildagiga nisbatan 8,1 foizga ko'p) 1329,1 mlrd. so'm. lik iste'mol mollari(10,9 foizga ko'p) ishlab chiqarildi.

Kichik va o'rta biznes, xususiy sektorda yangi turdagi ishlab chiqarish va tarmoqlar jadal sur'atlar bilan rivojlandi. 2001 yilda respublika sanoat korxonalari tomonidan 467 turdagi yangi mahsulot ishlab chiqarish o'zlashtirildi.

Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish va chuqurlashtirish davrida mahalliy mineral va xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlashga asoslangan holda yangi mahsulotlar ishlab chiqarish keng o'zlashtirilmoqda. 2001 yilda mamlakatimizda etishtirilgan paxta tolasini qayta ishlovchi, eng zamonaviy uskuna va texnologiyalar bilan jihozlangan «qabulg`Farg`ona», «CHinoz to`qimachi» kabi yangi qo'shma korxonalar ishga tushirildi.

Bu o'rinda shuni qayd etish lozimki, agar 1991 yili respublikamizda paxta tolasini qayta ishlash 12 foizni tashkil etgan bo'lsa, endilikda bu ko'rsatkich 24 foizga etdi. Paxta tolasini va ipak xom ashyolaridek mukammal texnologiya asosida tayyorlangan kalavali ip, paxta va shoyi gazlamalarini eksport qilish hajmlari ancha oshdi.

Tabiiyki, xorijiy investitsiyalarni jalb etmay, ishlab chiqarishga kiritilgan kapital mablag'lar hajmini oshirmay turib, bunday o'zgarishlarga erishib bo'lmaydi. Jumladan, 2001 yili ana shu sarmoyalar ulushi 62 foizdan ziyodni tashkil etdi. 2002 yilda esa respublika iqtisodiyotini investitsiyalash hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 24,5 foizni tashkil qildi. Kapital mablag'lar tarkibida xorijiy

investitsiyalar hissasi ko'payib, u jami investitsiyalarning 30 foiziga yoki 1mlrd AqSH dollariga to'g'ri kelmoqda.

20.2. Mahalliy resurslarni qayta ishlashda kichik va o'rta biznes

2001 yilning muhim xususiyati – bu, mahalliy resurslarni qayta ishlash asosida kichik va o'rta tadbirkorlik sur'atlari yanada tezlashganidadir. Kichik va o'rta biznesning, fermer xo'jaliklarining qonunchilik hamda huquqiyg'me'yoriy asoslari ancha mustahkamlanadi va takomillashdi. Kichik va o'rta biznes sub'ektlarini ro'yxatga olishning soddalashtirilgan tartiblari joriy etildi.

Mahalliy mineral va xom ashyo resurslarini chuqur ishlash borasida imtiyozli va mikro kreditlar berish hamda boshlang'ich kapitalni shakillantirish uchun mablag' ajratish yo'li bilan respublikada kichik va o'rta biznes sub'ektlarini moliyaviy qo'llab g'quvvatlash miqyoslari kengaytirildi. Masalan, 2001 yilda kichik va o'rta biznes sub'ektlariga berilgan kreditlar hajmi 2,4 martadan oshdi. Bularning 70 foizga yaqini o'rta va uzoq muddatli kreditlardir. Tadbirkor va fermerlarga berilgan mikro kreditlar hajmi esa 27mlrd so'mdan ziyod bo'ldi.

Kichik va o'rta biznes vakillarining moddiyg'xom ashyo resurslaridan foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tovar g' xom ashyo birjalarida sotish hajmi oshib bormoqda. Natijada kichik va o'rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi hissasi oshmoqda. CHunonchi, 2002 yilning boshida 24,5 foizni tashkil etdi. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, butun mamlakat iqtisodiyotida band bo'lgan aholining 53 foizidan ko'prog'i kichik va o'rta tadbirkorlik sohasida mehnat qilmoqda.

Respublikadagi yana bir bebaho boylik – bu, suvdir. Buni so'nggi ikkig'uch yil davomida mamlakat boshiga tushgan, qishloq xo'jaligiga,

butun iqtisodiyotga juda katta zarar keltirgan qurg'oqchilik davrida yaqqol his etildi.

SHuning uchun ham qishloq xo'jaligida islohotlarni amalga oshirish shirkatlarga aylantirilgan 18 ming,55,1 ming fermer xo'jaligi va ularga birlashtirilgan 1054,7 mig gektar erni (bir xo'jalikka o'rta hisobdan 19 gektar er to'g'ri keladi) sug'orishga yaroqli suvdan tejabg'tergab, samarali foydalanishga, sug'orish va irrigatsiyaning zamonaviy tizimlarini joriy qilishga, suvdan foydalanish intizomini kuchaytirishga erishayotganlarni rag'batlantirishga qaratilgan va ilmiy tadbirlarni hayotga tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

Respublika Prezidenti I.Karimovning «har tomchi suv oltinga teng bo'lib to'rgan bir paytda ko'plab viloyatlarda suvdan foydalanish koeffitsienti tushib ketgan. Jumladan Buxoro Navoiy, Surxondaryo, Namangan kabi bir qator viloyatlarda sodir bo'layotgan bunday salbiy holatlarning sabablarini chuqur, sinchiklab o'rganish va tegishli choralar ko'rish lozim¹».

Alohida e'tiborni talab qiladigan yana masala viloyatlar, Toshkent shahrida va boshqa aholi punktlarida ichimlik suvini tejash masalasidir. YAqin yillar ichidayoq bu masala eng keskin muammolardan biriga aylanishi, ichimlik suvi esa eng noyob va qimmatli tabiiy resurs bo'lib qolishi mumkin. Hozirning o'zidayoq butung'butun mintaqalarda, xususan, qoraqalpog'iston Respublikasida, Xorazm, Buxoro viloyatlarida, qashqadaryo, Navoiy, Xorazm viloyatlarining ayrim tumanlarida suv ta'minoti bilan bog'liq muammolarga duch kelmoqdada.

Bu masala o'rganilganda aholi tomonidan suv sarflanishining amaldagi miqdori belgilangan me'yorlardan 2g'3 barobar ortiq ekani ayon bo'ldi. Masalan, Toshkent shahridagi korxonalarda, avtomobil'rovish shaxobchalarida ichimlik suvidan texnik maqsadlarda foydalanish

kabi odatlarga hanuzgacha chek qo'yilgani yo'q. Bundan tashqari respublikaning ayrim shaharlari va tuman markazlarida sug'orish shaxobchalari yo'qligi, mavjud ariqlarning esa ko'mib tashlangani tufayli yoz mavsumida aholi vodoprovod suvidan sug'orish maqsadlari uchun foydalanmoqda.

Ichimlik suvi sarflanishini hisobga oluvchi moslamalarni, o'lchagichlarni o'rnatish ishlari qoniqarsiz ahvolda. Toshkent shahrining o'zida ahvol ayniqsa yomon. «Toshviloyatsuvoqava» trestiga qarashli iste'molchilarning atigi 3 foizidagina ana shunday o'lchagichlar mavjud.

Energetika resurslaridan, birinchi galda tabiiy gazdan foydalanishning ahvoli yaxshi emas. Masalan, respublika bo'yicha o'tkazilgan tekshirishlar natijasida jami 12 mingdan ortiq issiqxonalar qonunga xilof ravishda gaz bilan ta'minlanayotgani aniqlandi. Bunday issiqxonalar soni Samarqand viloyatida 4250 ta, Toshkentda 1500 ta, Andijon viloyatida esa 1450 ta ekanligi ma'lum bo'ldi. Tahlillar shundan dalolat beradiki, ayrim aholi qatlamlarining tabiiy gazdan foydalanish darajasi me'yoridagiga nisbatan 1,5g`2 barobar ortiq.

Moddiy resurslardan xo'jasizlarcha, mas'uliyatsizlik bilan foydalanish mahsulot ishlab chiqarishga ketadigan material va energiya sarfining oshishiga, bu esa, o'z navbatida, ana shu mahsulot tannarxi qimmatlashuviga olib keladi. Tovarining narxi oshib ketadi va oqibatda u raqobatga bardosh bera olmaydi. SHu tariqa, mahsulotlarimizni jahon bozoriga olib chiqish yo'lidagi sa'yg`harakatlar yo'qqa chiqdi.

Bunday holatlarning oldini olish, bu borada tartib o'rnatish va mahalliy resurslardan oqilona foydalanish O'zbekistonning jahon bozoriga tezroq integratsiyalashuviga imkon beradi, bu imkoniyatlardan biri tabiiy gazlardan oqilona foydalanishdir. Haqiqatan respublikamizda tabiiy gaz zahirolari keng tarqalgan. Mutaxassislarning aytishlaricha,

mana shu gazimiz tarkibidan 148 turdan ziyod polietilin ishlab chiqarish imkoniyati bor. Bu imkoniyat SHurtan gaz kimyo majmuasida ro'yobga chiqarilmoqda. CHunki respublikaning cho'l bag'rida bunyod etilgan ushbu maskanni qurshab to'rgan manzaraning o'zi kishini mahliyo etadi. Bu erda 450 gektarga yaqin er yamg'yashil maskanga – o'rmonga aylantirilgan. qariyb 1 million tup ko'chat o'tkazilgan.

Ko'rib turibmizki, istiqlol tufayli O'zbekiston mahalliy mineral va xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash orqaliyangi marralarni zabt etmoqda, mamlakatlari qit'alar bilan mustahkam aloqa o'rnatmoqda.

20.3. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish istiqboli

Bozor iqtisodiyoti sharoitida talab va taklif kichik va o'rta biznes korxonalarini samarali faoliyat olib borishga undaydigan mexanizm sifatida namoyon bo'ldi. Agarda korxonalar ishlab chiqarayotgan mahsulotlar bozor talablariga to'liq javob bersa, demak, korxonaning ushbu mahsulotlarni sotishdan oladigan daromadlari o'sib boradi va korxona qo'shimcha kengayish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Ikkinchi tomondan, tovarlarning narxi ishlab chiqaruvchilarga bozorda bo'ladigan o'zgarishlar to'g'risidagi xabar bo'lib xizmat qiladi. Tovarlarning bozordagi narxlari oshishi bilan ishlab chiqaruvchilarda rag'bat paydo bo'ladi va ular bozorga ko'plab mahsulotlar chiqara boshlaydilar.

SHularni hisobga olib, kichik va o'rta biznes korxonalari faoliyati ko'rsatkichlarini ekonometrik modellashtirishning uslubiy asoslari tadqiq qilinadi va ular rivojlanishining modellari ishlab chiqiladi. Buning uchun iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish usullari va unda qo'llaniladigan yondashuvlar, modellarni tahlil qilish va ularni kichik va

o`rta biznes korxonalari faoliyatini tizimli o`rganish va rivojlanishidagi ahamiyati ochib beriladi.

Kichik va o`rta biznes korxonalarida ishlab chiqarish, mehnat va moddiy resurslar miqdorlarini hamda foyda va xarajatlar hajmini modellashtirish usullari va ularga mos ishlab chiqarish funktsiyalari tuzilishi lozim.

Kichik va o`rta biznes korxonalari ishlab chiqarishini yo`lga qo`yish vaqtida turli xil resurslar, texnologiyalar, ishchi kuchi va boshqa resurslarni jalb etadilar. Ushbu korxonalar maqsadlariga qarab uzoq va qisqa muddatli oraliqlarda faoliyat ko`rsatadilar. qisqa muddatli oraliqda korxona ishlab chiqarish quvvatini o`zgartira olmaydi, lekin undan foydalanishni intensivlashtirishi mumkin. Uzoq muddatli oraliqda ishlab chiqarish quvvati ham o`zgaradi. Albatta, uzoq va qisqa muddatli oraliqlar, har xil mahsulotlar uchun turlicha bo`lishi mumkin. SHu davrlarda korxonalarning asosiy maqsadi foydaning eng katta hajmiga erishishdan iboratdir. Umumiy holda foyda yalpi daromaddan umumiy xarajatlarni ayirish orqali topiladi:

$$\pi = TR - TC, (1)$$

Bu erda: π g` foyda;  $TR$  g` umumiy daromad; TS g` umumiy xarajat.

SHundan kelib chiqib, kichik va o`rta biznes korxonalarining foyda, xarajatlar va optimal ishlab chiqarish miqdorini modellashtirish usuli taklif etilishi lozim.

Ishlab chiqarish – bu, kerakli mahsulotlarni tayyorlash uchun ishchi kuchidan, uskuna va texnologiyadan, tabiiy resurslardan hamda materiallardan ma`lum miqdordagi kombinatsiyada foydalanish jarayonidir. Ularni yiriklashgan uch guruhga bo`lish qabul qilingan: mehnat, kapital va materiallar.

Bunday omillar birgalikda olib qaraladigan bo`lsa, ular ishlab chiqarish funktsiyasi orqali ifodalanadi va ishlab chiqarish funktsiyasi

bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik va o`rta biznes korxonalarining chegaralangan resurslardan qay darajada foydalanayotganligini tahlil qilishga imkon beradi. Agar omillar majmuasi kapital sarfi, mehnat va materiallardan iborat bo`lsa, ishlab chiqarish funktsiyasi quyidagi ko`rinishda bo`lishi mumkin:

$$Qqf(K,L,M), \quad (2)$$

Bu erda: Q g` berilgan texnologiyada eng ko`p ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori; K g` kapital;  $L$  g` mehnat; M g` materiallar.

Agar ishlab chiqarish funktsiyasi ikkita K (kapital) va L (mehnat) omillariga bog`liq bo`lsa, ishlab chiqarish funktsiyasi quyidagicha yoziladi:

$$Qq f(K,L). \quad (3)$$

Ushbu funktsiyada mahsulot ishlab chiqarish hajmi ikkita ishlab chiqarish omiliga boqliq g` kapital va mehnatga. Masalan, ishlab chiqarish funktsiyasi yordamida non ishlab chiqarish kombinatida mehnat resurslaridan va kapitaldan foydalangan holda qancha non mahsuloti ishlab chiqarilishini yoki qishloq xo`jalik korxonasining berilgan mehnat resurslaridan va texnikadan foydalangan holda ma`lum vaqt oralig`ida qancha mahsulot ishlab chiqarishini ifodalash mumkin. Mahsulot ishlab chiqarish ko`proq qo`l mehnatiga asoslangan bo`lsa, u holda ishlab chiqarish funktsiyasini faqat sarflangan mehnatga bog`liq ravishda yozish mumkin: $Qqf(L)$ Agar mahsulot ishlab chiqarishda ko`proq kapital sig`imiga ega bo`lsa, ishlab chiqarish funktsiyasini  $Qqf(K)$  ko`rinishida yozish mumkin.

Ta`kidlash joizki, (2) va (3) tenglamalar ishlab chiqarishning ma`lum texnologiyasida qo`lanilishi mumkin. Agar texnologiya o`zgarsa, ya`ni yangi texnologiya qo`llansa, mahsulot ishlab chiqarish hajmi resurslar hajmi o`zgarmaganda ham o`sishi mumkin.

Uqoridagilarni hisobga olgan holda kichik korxonalarda ishlab chiqarish mehnat va kapital sarfiga, mehnat sarfi o'zgarmas bo'lib, u faqat kapital sarfiga bog'liq bo'lgan hamda texnologiyalar takomillashuvining ishlab chiqarish hajmlariga ta'sirini modellashtirish usullari asoslangan va ular non mahsulotlari, mebel va boshqa turdagi ishlab chiqarishlarning optimal hajmlarini aniqlash orqali sinab ko'rilishi kerak.

Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida milliy iqtisodning barcha tarmoqlarda ko'plab kichik va o'rta biznes korxonalari vujudga kelmoqda. Ushbu korxonlar aholi daromadlarini oshirish bilan ularning bandligini ta'minlashda, ichki iste'mol bozorini zarur tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirishda, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqdalar. Shularni hisobga olib, kichik va o'rta biznesning ustuvor yo'nalishlari bo'lgan korxonalar sonini oshirish, iqtisodiy raqobatni ta'minlash, bu sohaga investitsiya resurslarini jalb qilish, turli xil mahsulotlar ishlab chiqarish, respublikamiz yalpi ichki mahsuloti tarkibida ularning ulushini oshirish kabi ko'rsatkichlarni bashorat qilishning ekonometrik modellari ishlab chiqilgan.

Ushbu modellar asosida respublikada kichik va o'rta biznesning rivojlanish istiqbollari bashorati natijalari quyidagi 22g'jadvalda keltirilgan.

Bashorat natijalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 2005 yilda kichik va o'rta biznes korxonalari soni 2001 yildagi haqiqiy o'sishga solishtirilganda qariyb 30 foizga ko'payishi, mahsulot ishlab chiqarish hajmi esa 69,4 foizga, ishlovchilar soni bunda 26,4 foizga oshishi kutiladi. Bunday jarayonlarga jalb etiladigan investitsiyalar hajmi 36,9 mlrd. so'mga oshishi lozim bo'ladi.

22g`jadval

O`zbekiston Respublikasida 2002g`2005 yillarda kichik va o`rta biznes rivojlanishining asosiy ko`rsatkichlari bashorati

Yillar	Ig`ajratilgan investitsiyalar mln.so`m	Y ₁ g`korxonalar soni, mingta	Y <sub>2</sub> g`i.ch mahsulot miqdori, mln. so`m	Y <sub>3</sub> g`asosiy fondlar qiymati, mln.so`m	Y <sub>4</sub> g`ishlovchilar soni ming kishi
1992*	4563	20105	19183	67125	110,45
1993*	9124	46577	28397	82344	163,12
1994*	7344	72314	40119	102375	220,17
1995*	12186	101241	52331	94160	422,80
1996*	20617	127654	68805	110541	245,24
1997*	32315	130172	89683	153200	249,09
1998*	58541	142714	101422	188617	364,78
1999*	74338	165645	147728	223155	392,31
2000*	91845	159719	260284	307155	411,65
2001*	107321	201962	344968	350425	475,25
2002	108121	209954	377010	335890	496,59
2003	120177	227234	409052	366432	531,34
2004	132234	244515	441094	396974	566,09
2005	144290	261795	67125	427516	600,84

**Manba: Sobiq O`zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va Statistika vazirligi ma`lumotlari, Toshkent, 2002.*

Kichik va o`rta biznesni rivojlantirish istiqbollarini amalga oshirishdagi chorag`tadbirlar mamlakat miqyosida bajarilishi lozim. Buning uchun birinchi navbatda kichik va o`rta biznes bilan shug`ullanuvchi tadbirkorlarga tijorat banklari, chet el sarmoyalari, maxsus fondlar, tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi tomonidan kredit resurslari berishni yanada soddalashtirish hamda lizing xizmatidan foydalanishni kengaytirish kerak. Ikkinchidan, kichik va o`rta biznes korxonlarining iqtisodiy va ishlab chiqarish faoliyatiga

chetdan bo'ladigan aralashuvlarni, turli xil nazoratlarni va tekshiruvlarni kamaytirish lozim. Kichik va o'rta biznes sub'ektlari uchun yana bir muhim manba g' axborot resurslariga bo'lgan talablarini imkoni boricha to'liqroq qondirish kerak. Ko'pchilik o'rta biznes sub'ektlari ichki va tashqi bozor konbionkturasi to'g'risida to'liq ma'lumotga ega emaslar. Ushbu masalani hal etish uchun hozir faoliyat ko'rsatayotgan monitoring tizimini bozorlar haqidagi ma'lumotlar bazasini tashkil etish hisobiga kengaytirish zarur.

Respublikamizda tashkil etilayotgan ko'plab kichik va o'rta biznes korxonalari etarli darajada xuquq va manfaatlarini himoyalashni tushunib olishlari uchun maaxsus huquqiy yordamni tashkil etish va amalga oshirish lozim. Kichik va o'rta biznes korxonlari ishlab chiqargan mahsulotlarni eksportga chiqarishga har tomonlama ko'maklashish va ularni rag'batlantirish lozim. Bu ishlarni xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat olib borayotgan vositachi tashkilotlar va firmalar orqali amalga oshirish mumkin. Kichik va o'rta biznes korxonalari boshqaruv apparati, ishlovchilarini turli xil kasb va malaka oshirish institutlarida o'qitish zarur. Chunki bozor munosabatlari shartida tadbirkorlar uchun birgina tajribaning o'zi etarli emas. Ba'zi hollarda tezkor qarorlarni qabul qilishda ilmiy asoslangan, noan'anaviy yondashuvlar lozim bo'ladi.

Respublikamizda kichik va o'rta biznes qo'l mehnati talab qilinadigan, ayniqsa, qishloq xo'jaligi, qurilish, xizmat ko'rsatish sohalarida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Hozirgi paytda respublikamizda kichik va o'rta biznes o'zining evolutsion rivojlanish bosqichida turibdi. YA'ni an'anaviy turdagi kichik korxonalar o'rniga zamonaviy texnologiyalarga ega bo'lgan ishlab chiqarishlarni rivojlantirish lozim. Bunday korxonalar tarmoqda fang'texnika taraqqiyotini belgilab beruvchi korxonalar jumlasiga kiradi.

Kichik va o`rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan ushbu chorag`tadbirlar pirovard natijasida o`zining ijobiy samaralarini beradi. Ushbu samaralar quyidagi ko`rsatkichlar orqali namoyon bo`ladi: kichik va o`rta biznesning rivojlanishi bozorda raqobat muhitini keltirib chiqaradi; iki bozorda haridorlar ehtiyojlarini qondiruvchi tovarlar va xizmatlar paydo bo`ladi va mahalliy iste`molchilarning respublikamizda ishlab chiqarayotgan mahsulotlarga bo`lgan talabi shakllana boradi; mahalliy kichik va o`rta biznes korxonalari ishlab chiqargan tovarlar iste`molchilar ehtiyojini qondiribgina qolmay, balki xorijiy mamlakatlardan import qilib olinadigan tovarlarni kamaytirishga olib keladi, bu esa, o`z navbatida, tovarlarni import qilish uchun ketadigan val`kota mablag`larini tejash imkonini beradi; kichik va o`rta biznes korxonalari sonining ortishi keng ko`lamlikning samarasini keltirib chiqaradi, ya`ni korxonalar soni qanchalik ortib borsa, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdori ham shunchalik ortib boradi.

Xulosa qilib yana shuni aytish lozimki, respublikamizda kichik va o`rta biznes korxonalarining rivojlanishini qo`llabg`quvvatlash mamlakat iqtisodiy o`sishini ta`minlaydi. Bu esa, o`z navbatida, aholi turmush darajasining asosiy ko`rsatkichi bo`lgan g` aholi jon boshiga to`g`ri keladigan yalpi ichik mahsulotni ko`paytirishga olib keladi va respublikamizni dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqadi.

21g`MAVZU. MILLIY IqTISODIYOTNI MARKAZIY OSIYO MUSTAQIL DAVLATLARI TRANSFORMATSIYASI

21.1. Markaziy Osiyo mustaqil davlatlari transformatsiyasi va jahon iqtisodiga hamkorligini iqtisodiy tartibga solish yo`nalishlari

qozog'iston, qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston davlatlari rahbarlarining Toshkent uchrashuvida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek Markaziy Osiyo mamlakatlarining istiqbolga erishganidan keyingi birinchi o'n yilligi «o'ta ma'suliyatli va ulkan tarixiy ahamiyatga ega davr»dir. Bu davrda mustaqil davlatchilikni barpo etish bilan birgalikda, transformatsiya (ya'ni iqtisodiy tizimlarni qayta shakllantirish asosida bir ijtimoiy tizimdan ikkinchisiga o'tish) hamda jahon xo'jaligiga integratsiya jarayonlari eng dolzarb vazifalar qatoridan joy oldi.

Ushbu jarayonlarning dastlabki bosqichida yangi mustaqil davlatlarning ko'pchiligida ishlab chiqarish va daromad sohalarida keskin pasayish yuz berdi. Iqtisodiyot bo'yicha 2001 yili Nobel mukofoti sovrindori J.Stiglits ana shu holatni ta'riflab bunday deydi: «Rossiyadagi va sobiq ittifoqqa kirgan boshqa ko'pchilik mamlakatlardagi islohotlarning muvaffakiyatsizligi faqatgina to'g'ri iqtisodiy siyosatni amalga oshira olmaslik bilan bog'liq emas. Ularning negizi chuqurroq bo'lib, bozor iqtisodiyoti asolarini tushunib etmaslikka, shuningdek, instituttsion islohotlar asoslarini etarlicha anglab etmaslikka borib taqaladi... Ushbu davlatlarning ko'pchiligi jiddiy yutuqlarga erisha olmasligi samaraliroq iqtisodiy siyosat olib borish uchun ularda imkoniyatlar borligidan ham dalolat beradi».

Bu mamlakatlarning har birida o'tgan davr ichidagi tajribalarni o'rganish bu borada muayyan xulosalarga kelish va bozor islohotlarini o'tkazishda samaraliroq yo'llarni tanlash uchun zarurdir. Biroq ana shu muammolar atrofidagi fikrg'mulohazalar hamda munozaralar asosan Markaziy va SHarqiy Evropa (MSHE) mamlakatlarida, Rossiyada, kamroq darajada esa boshqa Mustaqil davlatlar hamdustligi a'zolaridagi o'tish davrini tahlil qilishdan iborat bo'lib qoldi. Markaziy Osiyodagi besh davlat g' bu borada eng kam e'tibor berilgan mamlakatlardir. Faqat

keyingi paytlardagina chet ellarda shu mamlakatlar haqida ham ba'zi nashrlar paydo bo'ldi, lekin ularning tajribasini yana ham chuqurroq va har tomonlama o'rganish hamon dolzarb bo'lib turibdi.

Iqtisodiy o'sish, ayniqsa, sobiq ittifoq respublikalari orasida, O'zbekistonda YAIM hajmi 2001 yilda 1991 yil darajasidan oshib 103 foizga ko'payishi negizidagi omillarni o'rganish g' o'tish iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlar uchun nazariy va amaliy jihatdan ba'zi yangi saboqlarni berishi mumkin. S.Fesher va R. Saxey fikrlariga ko'ra, O'zbekiston 26 sobiq sotsialistik mamlakatlar ichida «YAIM o'sishiga o'tish davri tamoyillarining standart tavsiyalarini to'liq qabul qilmagan holda erishgan ikki davlatning biridir». Xalqaro valyuta fondi (XVF) ekspertlari O'zbekistondagi «iqtisodiy o'sish jumbog'i» ni echishga bir necha bor o'rinib ko'rishdi. Lekin bu o'rinishlar asosan neoklassik monetarizm g'oyalari nuqtai nazaridan olib borildi. Bu boradagi bir tomonlama cheklanganlikni bartaraf etish uchun esa, ana shu jumboqqa baho berishda boshqa bir nazariyg'uslubiy yondashish ham talab etiladi.

O'tish davri hamda iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida iqtisodiy rivojlanish omillari nimalardan iborat? Ayni bir xil islohotlar majmui o'tish davridagi turli mamlakatlarda nima uchun turlicha natija bermoqda? O'zbekiston iqtisodiy modeli va tajribasi ham ichki, ham tashqi iqtisodiy siyosat borasida nima uchun «o'tish davri jumbog'i» darajasida o'rganilmoqda?

Ana shu savollarga javob berishdan oldin har bir mamlakatda tizimlar transformatsiyasi va dastlabki shartg'sharoitlar bilan bog'liq bo'lgan muammolarning tadrijiy saboqlarini har tomonlama va chuqurroq o'rganish talab etiladi. Ana shundagina amalga oshiriladigan siyosat boshqa bir vaziyatda boshqacha natijalarga olib kelishi mumkin bularmidi, degan savolga javob berish imkoni bo'ladi. YAIM o'sishiga

katta ta'sir qilgan erkinlashtirish va makroiqtisodiy barqarorlik jarayonlari bilan birga dastlabki shartg'sharoitlarni ham hisobga olish o'tish davri mamlakatlarga nisbatan 90g` yillarning ikkinchi yarmida qo'llanila boshlandi. Faqat yaqindagina, XVF va Jahon banki hisobotlarida va nashrlarida [de Melo, Dengzer, Geld va Tenev (1997 y); Wolf (1997 y); Havrgllgshgn, Gzvorskq va van Ruden (1998.); oeck va Kostgal (1998.); Zetelmeyer (1998); Taube va Zetelmeyer (1998)] amalga oshirilayotgan islohotlarda dastlabki shartg'sharoitlarning iqtisodiyot ruxsalishiga ta'siri birmuncha tahlil qilina boshlandi.

Lekin shunga qaramay, tizimlar transformatsiyasi jarayonida mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini belgilovchi omil sifatida dastlabki shartg'sharoitning mutlaq va nisbiy ahamiyatiga oid masala xususida baxsg'munozaralar davom etmoqda va bu masalani yanada chuqurroq o'rganishga ehtiyoj sezilmoqda Bu borada faqat raqamlar bilan kifoyalanish etarli emas, zero birgina miqdoriy ko'rsatkichlar orqali munozarani hal etib bo'lmaydi.

Biroq ta'kidlab o'tish joizki, Markaziy Osiy mamlakatlarida iqtisodiy tizimlarni qayta shakllantirish hamda bu mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv jarayonlarini qiyosiy tadqiq va tahlil qilishda mintaqaning o'zida va undan tashqarida to'plangan tajriba etarlicha o'rganilmagan.

Markaziy Osiyo davlatlari milliy bozorlarining instituttsional va tarkibiy tayyorligi, shuningdek; bankg'moliya tizimining rivoj topgan institutlari etarli emasligi; eksportga yo'naltirilgan raqobatbardosh qayta ishlash sanoatining mahsuloti kamligi; ushbu mamlakatlarning oldingi tizimdan meros qolgan va ishlab chiqarish kuchlari texnologik jihatdan jahon andozalaridan orqada qolgan iqtisodining tarkibi; tashqi savdo, valyuta siyosati va tashqi qarz muammolari etarli darajada e'tibrga olinmagan.

21.2. O`rta Osiyo mamlakatlarida transformatsiya jarayonining nazariy va uslubiy nagizlari

Iqtisodiy jarayonlarda transformatsiya jarayonlarining tahliliga etarli instituttsional evolutsion nuqtai nazardan yondashilmagan. Buni o'tish davri iqtisodiyotini boshdan kechirayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy siyosatida, ko'plab chet ellik mualliflarning chop etilgan nazariy hamda amaliy tadqiqotlarida kuzatish mumkin. Ularda bu jarayonlarda makroiqtisodiy erkinlashtirish va barqarorlashtirishning tayyor qoliplariga ortiqcha urgu berishi, shuningdek, o'tish davrini boshidan kechirayotgan har bir mamlakatda mavjud bo'lgan o'ziga xos sharoitlar atroflicha hisobga olinmasligi qayd etilgan. Bundan tashqari, iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli strategik va istiqbolli vazifalarini etarlicha baholay olmaslik va ularga ustuvorlik berishga qisqa muddatli vazifalar tarzida qaralishi ko'rsatilgan.

O'tish davrining dastlabki un yilligi tizimlarni qayta tashkil etish, ya'ni markazlashtirilgan tarzda rejalashtirishga asoslangan ma'muriy g'buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tishga qaratilgan islohotlarga o'tish amalida ancha murakkab hamda tassavurimizdagiga nisbatan uzoqroq davom etadigan jarayon ekanligini ko'rsatdi. Iqtisodiy siyosat borasidagi etakchi xorijiy tadqiqotchilarning o'tish davriga oid turli muammolar rozasidan nashr etilgan adabiyotlarda hamon bir qator masalalar o'z echimini topganicha yo'q. Fikrg'mulohazalar turlicha bo'lishi va siyosiy iqtisodga yoki ekonometrik tahlillarga asoslanganliklardan qat'i nazar, ular bu mamlakatlar tavsiya qilingan iqtisodiy siyosatni etarli darajada amalga oshirmaganlari uchun tizimlardagi o'zgarishdar jarayonida jiddiyroq to'siqlarga duch kelganliklarini ko'rsatib berishga mo'ljallangan.

Uslubiy nuqtai nazaridan «instituttsion qopqonlar» iborasi kiritilgan. Bu ibora o'tish davrida evolyutsion taraqqiyot qonunlarini etarli e'tiborga olmaslik natijasida iqtisodiy siyosat bilan mavjud iqtisodiyot o'rtasida yuzaga keladigan qaramag'qarshiliklar oqibatlarini izohlash uchun qullaniladi. «Instituttsion qopqonlar» ning judayam qaltis shakllari shu hollarda namoyon bo'ladiki, unda siyosiy o'zgarishlar ijtimoiy va iqtisodiy institutlarning darajasi va tabiatiga mos kelmaydi, davlat va xalq yangi imkoniyatlardan kerakli darajada foydalanishga tayyor bo'lmaydi. Bunday holatda kutilgan natijalar bilan voqeyilik, xarajatlar bilan daromadlar, imkoniyatlar bilan maqsadlar o'rtasida katta tafovutlar yuzaga keladi.

O'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda amal qilingan strategiya va siyosat tizimlardagi o'zgarishlar mutlaqo turlicha, ba'zi hollarda esa teskari natijalarga olib kelishi mumkin. SHu ma'noda barcha mamlakatlar o'tish davrining ilk bosqichida, garchi, turli darajada va ko'rinishlarda bo'lsa ham, «qopqonlar»ga ilinadi (yoqori yoki giperinflatsiya, davlat byudjetidagi yoqori taxchilik; ishlab chiqarishning keskin pasayishi va sanoatining inqirozi; kambag'allashuvning jadallashishi va daromaddagi tengsizlik). Bularning ko'plariga tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish intizomi barbod bo'lganligi, shuningdek, globallashuvga xos bo'lgan «qopqonlar» (tashqi savdoda hamda moliyaviy tangliklar, joriy operatsiyalar hisobidagi uzluksiz taxchilik, kapitalning chetga chiqib ketishi va tashqi qarzning tabora ko'payishi oldida ojizlik) sabab bo'ldi. O'tish davri hamda globallashuv «qopqonlar», ya'ni tizimlarni qayta shakllantirishdagi «qopqonlar» dastlabki shartg'sharoit bilan amalga oshirilayotgan siyosat o'rtasida nomuvofiqlik ko'proq sodir bo'lgan davlatlarda xatarliroq kechadi.

Mahsulot ishlab chiqarish ko'lamlari va uning yalpi pasayishi sabablari o'tish davrining ilk bosqichlaridayok namoyon bo'ladi, bular turli usullar, shu jumladan, mavjud statistikadagi va uslubiyotdagi xatolar bilan ham izohlanadi. Biroq YAIM miqdorini o'lchashda qo'shimcha yana uch guruh omillarni e'tiborga olish kerak. Bular: boshlang'ich institutsional, iqtisodiy va ijtimoiy shartg'sharoitlar; o'zaro iqtisodiy yordam kengashi (sobiq SEV) va uning parchalanishi; davlat nazoratining bekor qilinishi natijasida yozaga kelgan sarosimalik va tizim parchalanishidagi «qopqonlar» bilan bog'liq boshqa holatlar. Mahsulot ishlab chiqarish sur'atining pasayishi sabablarini aniqlash va tizimli o'zgarish bilan bog'liq boshqa «qopqonlar»ni uyg'unlashtirish uchun tanlangan va olib borilgan siyosatni uning mavjud instituttsional va boshqa omillar bilan muvofiqligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqish muhim va zarurdir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyoti o'tish davrida bo'lgan mamlakatlardagi o'ta qattiq makroiqtisodiy barqarorlashuv ham real YAIM hajmiga salbiy ta'sir o'tkazadi (23g`jadval).

SHuni ta'kidlash kerakki, tubdan erkinlashtirish siyosati iqtisodiyoti o'tish davrida bo'lgan mamlakatlarda ishlab chiqarish va to'lov balansiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Tizim o'zgarishlari jarayonida, «ochiq eshiklar « iqtisodiga ancha ehtiyotlik bilan yondashgan, tashqi va o'z ichki bozorlarida yoz berayotgan o'zgarishlarga pragmatik tarzda munosabatda bo'lgan mamlakatlar iqtisodiy o'sish nuqtai nazaridan qaralganda kamroq shikastlandilar. SHu bilan bir vaqtda amalda tub islohotlar o'rin olgan ichki va tashqi siyosat faoliyatini yalpi erkinlashtirgan davlatlar ko'proq darajada zarar ko'rdi.

23g`jadval

Markaziy Osiyo mamlakatlarida yalpi ichki mahsulot (YAIM) va inflatsiya darajasi haqida ayrim ma'lumotlar (1991g`2001 y.)

Davlatlar nomi	Inflyatsiya maksimu m darajaga etgan yil	Inflyatsiya g`sinig maksimal darajasi	Barqarorlag` s huv dasturlarini ishga tushirish sanasi	Inflyag` tsiya 40% dan pastga tushgan yil	Eng kam YAIM ishlab chiqarilgan yil	Eng kam YAIM 1989 y.ga nisbag` tan his.da
qozog`iston	1992	2984,1	YAnvar 1994	1996	1995	55,0»
qirg`iziston	1993	1363,0	May 1993	1996	1995	50,4
Tojikiston	1993	7343,7	Fevral` 1995	1994g`19 98	1996	39,2
Turkmaniston	1993	9750,0	YAnvar 1997	1997	1997	42,0
O`zbekiston	1994	1281,0	Noyabr 1994	1998	1995	83,4

Manba: 1.Transgtgon report 2001. European Bank for Reconstructgon and Devolopment g` Energy gn Transgtgon gn Central and Eastern Europe, the Baltgc Sea and the CGS (2001 y.) 63, 73g`b.

Tub islohotlar va investitsiyalarning kamayishi. Kapitalning chetga chiqib ketishi ancha sezilarli bo`ldi va ba`zi holatlarda tashqi moliyalashtirishning umumiy hajmidan ham oshib ketdi. Ichki va tashqi xususiy investitsiyalarning bir me`yorda ko`payishini ta`minlay olmagan mamlakatlarda investitsiyalarning kamayishi, ayniqsa, ko`proq salbiy natijalarga olib keldi. 24g`jadvalda o`tish davri mamlakatlarining turli guruhlariga oid bir qator iqtisodiy ko`rsatkichlar keltirilgan.

Xususiylashtirish va kapitalning chetga chiqib ketishi. Falaj qilib davolash» tarafdorlari ilgari so`rgan uchta asosiy unso`rning biri erkinlashtirish va makroiqtisodiy barqarorlik singari jadal xususiylashtirishdan iborat edi. Bu o`z navbatida tizimlarni qayta shakllantirishda jiddiy siljishlarga olib keldi. Xitoy va V`etnam tajribasi ayni paytda shuni ko`rsatadiki, o`tish davrining boshlarida yirik miqyosda xususiylashtirmasdan turib ham bozor islohotlari sohasida jiddiy yutuqlarga erishish mumkin ekan. Tub islohotlar yo`lidan borgan

mamlakatlarda o'tish davrining dastlabki bosqichida moliyaviy institutlarning etishmasligi, xususiylashtirishdagi «vaucher» shakllar, jamiyat boyliklarini yashirish va oshkor tarzda egallab olishlik hamda katta miqdorda kapitalning chetga chiqib ketishi mahsulot ishlab chiqarishning kamayishidagi muhim sabablardan biri bo'ldi.

O'tish davrining dastlabki bosqichida byudjet siyosatining ahamiyati.

Ba'zi tadqiqotlarda iqtisodiyot o'tish davrida bo'lgan mamlakatlarda byudjetning qisqarishi bilan mahsulot ishlab chiqarish o'rtasida o'zaro yaqin aloqadorlik borligi qayd etilmaydi. Vaholanki, MSHE va MDH mamlakatlari, xususan, Markaziy Osiyo davlatlari ma'lumotlari tahlili natijasida ma'lum bo'ldiki, ana shu ikki holat birg'biri bilan chambarchas bog'langan. SHuningdek, byudjet omillaridan foydalanish bosqichida mahsulot ishlab chiqarish keskin kamayishiga yo'l qo'yilmagan (masalan, Pol'sha va O'zbekistonda).

Moliyaviy vositachilik va iqtisodiy o'sish. Schuumpeterybyu (1912y.) ta'kidlashicha, iqtisodiyotni rivojlantirishda banklar g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi, zeroki, ular pul omonatlaridan foydalanuvchi kompaniyalarni yaxshi tanlay oladi. Ushbu fikrga ko'ra, bank sektori omonotalarning taqsimlanishiga ta'sir ko'rsatgan holda foizlar o'zgarishi orqaligina emas, balki boshqa yo'llar bilan ham iqtisodiyotni rivojlantirish sur'atlariga samarali turtki berishi mumkin. SHunday qilib, SHumpeterning moliya va tarqqiyot bo'yicha mulohazalari unumdorlikning o'sishi va texnologiyaning o'zgarishiga bank faoliyati birinchi navbatda ta'sir etadi, degan fikrni keltirib chiqaradi. Keyinchalik ma'lum qilingan nazariy modellarda ham (Dgamond [1984y.]), Boyd va Prescott(1986y.), Kgng va Levgne (1993y.), Levgne (1997y.)) banklar va iqtisodiy faollik o'rtasidagi bog'liqlik ta'kidlab o'tilgan.

Ushbu nazariya amaliyotdagi dalillar bilan ham tasdiqlanadi: o'tish davri iqtisodiyotidagi barcha mamlakatlarda YAIM ning pasayishi jarayoni moliya sektorining qisqarishi bilan birga sodir bo'ldi. Tadqiqot natijalarida shu narsa ayon bo'ldiki, mahsulot ishlab chiqarishning pasayishi qanchalik jadal bo'lsa, moliyaviy vositachilikning qisqarish darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. O'tish davri jarayonida moliyaviy vositachilikning pasayib ketishi mahsulot ishlab chiqarishga bir qancha yo'llar orqali ta'sir qilishi mumkin. Moliyaviy vositachilikning bo'shashib ketishi mahsulot ishlab chiqishda katta talafatlarga sabab bo'lgan uchta asosiy ko'rinishda sodir bo'ladi. Bular g`to'lov tizimidagi uzilish, real sektordagi jamg`arma va amalda investitsiya sifatida ishlatilgan mablag`lari o`rtasidagi farq hamda bankg`kredit sektorining inqirozi.

21.3.Markaziy Osiyo davlatlarida transformatsiya va globalashuv muammolari

Markaziy Osiyo respublikalarida sobiq ittifoq parchalanib ketishidan oldin mavjud bo'lgan dastlabki shartg`sharoitni, shuningdek, ishlab chiqarish omillari bilan birga nisbiy iqtisodiy afzalliklarni hamda taraqqiyot muammolarini o`rganish natijasi shundan dalaolat beradiki, Markaziy Osiyodagi mamlakatlarda ahvol turlicha bo'lgan. Bir tomondan, investitsiyalarning kamligi hamda tugal ijtimoiy mahsulotni taqsimlash va qayta taqsimlash tizimi buzilganligi, buning oqibatida esa respublikaning ijtimoiyg`iqtisodiy tarqqiyotiga muayyan putur etganligi ko`zga tashlanadi. Ikkinchi tomondan esa, xususiy tadbirkorlikka yuqori darajada moyilligi bo'lgan malakali aholining mavjudligi, tabiiy boyliklar, ko`p mehnat talab qilinadigan ishlab chiqarish va qishloq xo`jaligi aholisining nisbatan katta ulushi, shuningdek jahon bozoriga chiqishi mumkin bo'lgan tovarlari borligidir. Biroq sinchiklab o`rganish natijasida shu narsa aniqlandiki, Markaziy

Osiyo davlatlarining har biri uchun bu holat turlicha ahamiyat kasb etadi.

Aholi va mehnat. Mintaqa yuqori malakali va madaniyatga boy bo'lgan ko'p millatli aholiga ega. Lekin shu bilan birga aholining tez o'sishi (asosan balog'atga etmagan bolalar sonining o'sishi) boshqa joylarga kuchib ketish hisobiga sanoatda, ayniqsa uning yuksak texnologik tarmoqlarida ishchi kuchining kamayib ketishini to'la qoplay olmay qoldi. Oqibatda noxush vaziyat ro'y berdi: mehnatga yaroqli aholi to'libg'toshgan hamda qishloq joylarida va kichik shaharchalarda yangi ish o'rinlariga talab katta bo'lgan bir paytda zamonaviy sanoat tarmoqlarida ishchi kuchi etishmay qoldi.

Tabiiy boyliklar va atrof g'muhit. Markaziy Osiyo o'zining tabiiy boyliklari, ayniqsa neft, gaz, rangli va qimmatli ma'danlari, xususan oltin bilan ajralib turadi. Biroq etishtirilgan mahsulotning aksariyat qismi jahon bozoridagi narxlardan ancha past darajada mintaqadan olib chiqib ketilgan. O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston va Janubiy qozog'iston kolxoz va savxozlari asosan paxtachilik bilan shug'ullangan. Suv resurslarining haddan tashqari katta qismi paxtachilikka xizmat qilish jarayonida sovirilgan va natijada Orol dengizi fojiasiga g' XX asrning eng katta ekologik inqirozlaridan biriga yo'l qo'yilgan.

Investitsiyalar, ishlab chiqarish va iste'mol. Sobiq ittifoq davri mobaynida barcha Markaziy Osiyo respublikalarida, amaldagi investitsiyalar hissasi mamlakat bo'yicha hisoblanganda ancha bo'lgan (qozog'iston bundan mustasno). Binobarin bu respublikalarning o'sha davridagi qoloqligiga asosiy sabalardan biri ham shu. Bunga Markaziy Osiyoni tabiiy boyliklar va qishloq xo'jalik xom ashyolari bazasiga aylantirish strategiyasi ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Savdog'sotiq va maishiy xizmatni qo'shib hisoblanganda uchinchi sektor g' ya'ni xizmat ko'rsatish sohasi g'oyat mujmal tarzda tashkil etilganligi ancha

miqyosda yashirin iqtisodiyotning paydo bo'lishiga olib keldi. Biroq tadbirkorlik sohasidagi faoliyat ishlab chiqarishda, ishchi o'rinlari va daromadda mavjud bo'lgan katta tafovutlarni yo'qqa chiqara olmadi. Buning oqibatida ijtimoiy-iqtisodiy qaloqlik yuzaga keldi, aholi jon boshiga hisoblanganda mahsulot ishlab chiqarish, daromadlarni taqsimlash, turmush darajasi va sifati jihatidan ular sobiq ittifoqdagi barcha respublikalar ichida eng past o'ringa tushib qoldi.

Sobiq ittifoqda milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash tizimi xom ashyo narxлари bilan tayyor tovarlar narxi, tovar aylanmasi bilan subsidiyalar o'rtasidagi nomutanosiblik, soliqlarning turli tumanligi, shuningdek, olingan foydaning noto'g'ri taqsimlanishi natijasida ko'p jihatdan vaziyatning yomonlashuviga sabab bo'ldi. Ayni bir paytda ma'muriy buyruqbozlik tizimi tufayli ittifoqdosh respublikalar tashqi dunyo bilan aloqalari cheklanganligi sababli ular birg'biriga qattiq bog'lanib qoldi. Ularning hajmi va resurslar bilan ta'minlanganligidan qat'iy nazar barcha MDH davlatlari, shu jumladan, Rossiya ham katta yo'qotishlarga uchradi. Ular ma'muriy buyruqbozlik tizimidan mutlaqo boshqacha munosabatli yangi jamiyatga astag'sekinlik bilan o'tishga noqobil edilar.

Sobiq ittifoq davridagi Markaziy Osiyo respublikalari rivojlanishda erishgan muvaffaqiyatlarini inkor etmaydi. Bu bobdagi tahlil boshlang'ich sharoitlarni, ularning qiyosiy afzalliklari nuqtai nazaridan mustaqil rivojlanishlari va to'planib qolgan muammolarni yangidan baholashga o'rinishdir.

SSSRning tarqalib ketishi uning tarkibidagi 15 respublikaning barchasida ishlab chiqarish va iste'mol katta tushkunlik bilan chuqur iqtisodiy tanglikning asosiy sabablaridan biri bo'lishi shubhasiz edi. U SSSR emirilishining Markaziy Osiyo respublikalariga zarbasi ular «subsidiyalanuvchi» bo'lganliklari uchungina emas, asosan iqtisodiy

jihatdan birg`birlariga haddan ziyod muteliklari tufayli juda sezilarli bo`ldi. Chunki taqsimlash va qayta taqsimlash tartibi 1970g`yillardan boshlab Turkmaniston, O`zbekiston yoki qozog`istonning foydasini ko`zlamasdi. Biroq shakllangan aloqalarning uzilishi mazkur mamlakatlarda ham og`ir oqibatlariga olib keldi. Masalan, Sobiq ittifoqning parchalanishi tufayli savdo ayirboshlashning keskin buzilishi va moliyaviy operatsiyalarning izdan chiqishi respublikalar siyosiy mustaqillikka erishgandan so`ng iqtisodiy vaziyatni sezilarli darajada yomonlashtirdi.

O`tkazilgan tadqiqotlar davlatlar o`z mustaqilliklariga erishganlaridan so`ng yoz bergan iqtisodiy jarayonlarni, shu jumladan, inqiroz va uning vaqti, chuqurligini yaxshiroq tushunishga va bu inqirozdan keyingi yillarda chiqish yo`llarini belgilashga yordam berardi, qayta tiklanishni talab etardi. Islohot strategiyasi shuningdek, bozor islohotlarning va global iqtisodiyot uyg`unlashuvining bosqichmag`bosqichligi asosida nisbiy mavjud imtiyozlardan yuqori darajada foydalanish maqsadida har bir muayyan mamlakatning o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda qabul qilinishi zarur edi.

21.4. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida qayta tub o`zgarishlar strategiyasi

Umumiy vaziyatlarga qaramay Markaziy va SHarqiy Evropa mamlakatlari hamda Sobiq ittifoq tarkibida bo`lgan davlatlar turlicha imkoniyatga ega edi. Bu o`tish davri muammolarini hal etishni va yagona jahon iqtisodiyotiga uyg`unlashishni qiyinlashtirdi. Biroq ularning barchasiga yangi muammolarni radikal o`zgarishlarning asosan monetar usullari yordamida hal etish maslahat berilgan edi. Bu yo`l neoliberal nazariyaga asoslangan. Bunday yondashishning

mohiyatini qisqacha tarzda A.SHlyayfer (AqSH) quyidagicha ifodalangan edi: «Erkinlashtirish hukumatning narxg`navo ustidan nazoratini bartaraf etadi, barqarorlashtirish hukumatga ancha keskin byudjet cheklovlarini yuklaydi, xususiylashtirish esa hukumatni to`g`ridang`to`g`ri nazoratdan mahrum etadi».

Rivojlangan mamlakatlarning yaqin o`tmishdagi tajribasini o`rganish, B.Pleskovits va D.J. Stiglitslarning fikrlariga ko`ra, «rivojlanishning neoliberal modeli xususidagi ishonchsizlikni» oshirdi. «Ba`zi mamlakatlar neoliberal modelga ergashgan holda hanuz iqtisodiy o`sinh yaxshilanishini kutmoqdalar, vaholanki bu paytda ushbu modelni rad etganlar ilgari hech qachon ko`rilmagan darajadagi iqtisodiy o`sinhning yuqori sur`atlarini his etmoqdalar».

Tizimlarni qayta shakllantirishning dastlabki o`n yillik tajribasi, ayniqsa, MDH dagi ko`pchilik mamlakatlar tajribasi ham o`ta liberal «lagsserg`fagre» tamoyilga asoslangan siyosat o`tish davrida ular uchun eng maqbul yo`l bo`lganligidan dalolat beradi. Uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga zarar etkazmagan holda o`tish davri chiqimlarini minimallashtirish uchun qanday strategiya zarur? Bu borada asosiy vazifalardan biri sifatida, tizim o`zgarishlarining eng maqbul strategiyasini tanlash va amalga oshira oladigan davlat barpo etilish lozimligi ko`rsatiladi. Kuchli va samarli sanoatlashtirish siyosati bozor iqtisodiyotining zaruriy komponentlaridan biri bo`lishi zarur. Bosqichmag`bosqich o`tish strategiyasini amalga oshirishga qodir bo`lgan davlatning tutgan o`rnini aniqlash yo`li bilan instituttsional evollutsion iqtisodiyot nazariyasiga tegishli hissa qo`shishga harakat qilindi.

«Tartibga solishga barham berish» («deg`regulatgon») ga karamag`karshi davlat yordamida institutlashtirish siyosati. MDH mamlaktlarida amalga oshirilgan tizimlarni qayta shakllantirish jarayoni

bir paytlari bir butun bo'lgan davlatda muvofiqlashtirish bilan shug'ullanuvchi mavjud institutlarga tezda barham berish oqibatida yozaga kelgan qiyinchiliklar bilan bevosita bog'liq. qisqa vaqt ichida faqat monetaristik usullarga tayangan holda muvofiqlashtiruvning yangi, bozor sharoitiga moslangan shaklg'shamoyillarini ishlab chiqishning iloji ham yo'q edi. Jamiyatning yaratuvchilik kuchg'qudrati, birinchidan, boshqaruv sifatiga, ya'ni hukumat amalga oshirayotgan islohotlar borasida aniq vazifalarni kanchalik oqilona qo'ya bilishi va ularni qanchalik samarali bajara olishiga bog'liq. Ikkinchidan, jamiyat a'zolari ijtimoiy o'zgarishlarga qanchalik tayyor ekanligi, shuningdek, islohotlarni xalq kanchalik qizg'in qo'llabg'quvvatlashi muhim ahamiyatga ega. Islohotlar strategiyasi umumiy siyosiy, iqtisodiy va instituttsional hozirliklarga (shu jumladan, ijtimoiy kapitalga) qay darajada mos tushishi bu islohotlarni amalga oshirishda muvaffaqiyat garovidir.

Davlat va industrial siyosati tartibga solishdan batamom va yalpi voz kechishning muqobil jamoat mulkchiligiga asoslangan va haddan tashqari markazlashgan ma'muriyg'buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tish borasida o'zgarishlarni izchil ravishda, seking'asta amalga oshirishdan iboratdir. Bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tish boshqa iqtisodiy institutlarni yozaga keltirish hamda o'tish davrida izchil va bosqichli strategiyani to'la amalga oshirishni taqazo etadi. Xususiyl sektorni rivojlantirgan hamda o'tish davri jarayonida ko'p tarmoqli iqtisodiyotni boshqarish uchun meros bo'lib qolgan iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmalardan yuqori darajada foydalangan holda bozor munosabatlarini shakllantirish davlatning muhim vazifalaridan biridir.

O'tish davrida islohotlarning, sanoat sohasidagi siyosatning xalqaro ko'lamda sinalgan tajribasini qo'llash taqazo etiladi. Ma'lumki, ikkinchi jahon urushidan so'ng sanoat sohasidagi siyosat YAPoniyada,

keyinchalik esa SHarqiy Osiyo mamlakatlarining ko'pchiligida yangi samaralar berdi. Bir necha o'n yilliklar davomida iqtisodiy ruxsalishdagi yuqori sur'atlar va barqarorlik borasida erishilgan natijalar kutilmagan darajada ijobiy bo'ldiki, natijada 1990 yillarning boshlarida bu holatni «SHarqiy Osiyo mo'ljizasi» deb baholashdi. 1960 va 1985 yillar orasida aholi jon boshiga hisoblangan daromad Yaponiyada va «to'rt yo'lbars» mamlakatlarida to'rt karra, Janubiy g' SHarqiy Osiyodagi yangi industrial davlatlarda esa ikki hissadan ziyodga ko'paydi. Ayni bir paytda ijtimoiy omonotlar sanoatda ham, qishloq xo'jaligida ham iqtisodiyotning ustuvor sektorlariga investitsiyalash uchun ishlatildi, homiylik esa bu tarmoqlarni qayta tiklash, ularning faoliyatini eksportga qaratib, xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshirish imkonini berdi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari ham o'tish davrining boshlaridayoq sanoat sohasidagi siyosatning ba'zi unsurlaridan foydalanishlari mumkin edi. Masalan, taklifning kamayib ketishiga, kuchayib borgan kredit etishmasligiga va import erkinlashtirishga qarshi «zarur» chorag'tadbirlar ko'rish lozim edi. Chunki bular oqibatda taklif tomonidan «falaj holatlar ruy berishiga», korxonalarning yopilishi, ishlab chiqarish quvvatlaridan etarli foydalanmaslik, inson kapitalining malaka yo'qotishiga olib keldi. SHuning natijasida bunday salbiy oqibatlarni makroiqtisodiy barqarorlik siyosati doirasida faqat bozor rag'batlari yo'li bilan tugatish imkoni bo'lmadi.

Ma'lum bir paytda bunday siyosat byudjetda katta sarfg'xarajatlar qilishni hamda defitsitli moliyalashtirishni talab kilar edi. Umumiy investitsiyalarning ko'payishi esa, ma'lum miqdorda pulg'kreditning kirib kelishiga sabab bo'ldi. Iqtisodiyotdagi «mo'ljiza» ning asosiy sabog'i shundan iboratki, qattiqqo'llik bilan amalga oshiriladigan fiskal va monetar siyosat oqilona bo'lishi lozim, aks holda

mavjud iqtisodiyot izdan chiqishi va iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlariga putur etishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, bu siyosat sun'iy qopqonlarga hamda mahsulot ishlab chiqarishning betartib kamayishiga sababchi bo'lmazligi kerak. SHunga ko'ra, hatto, e'tibor etilgan barqarorlashtirish dasturlari ham kutilayotgan inflyatsiya darajasi va byudjetdagi taxchilik masalasida ehtiyot bo'lishi, mamlakatning muayyan ehtiyojlarini hisobga olishi lozim. Xususiylashtirish borasida qanday chorag'tadbirlarni tanlashning ahamiyati bundan ham yuqoriroq. zilmalarga barham berish siyosati iqtisodiyotning o'ziga xos jihatlarini va davlat bilan jamiyat bunga qanchalik tayyor ekanligini hisobga olmas ekan, natija yaxshi bo'lmaydi.

Postsotsialistik davlatning muhim xususiyati shundan iboratki, bu davlat jamiyat va iqtisodiyotdagi to'la hukmronligidan voz kechib, o'z vazifalarini davlat va bozor o'rtasida adolatli tarzda, demokratik yo'l bilan qayta taqsimlashga o'tganini ifoda qiladi. Buning uchun esa bozor munosabatlarini joriy qilish hamda iqtisodiyotga davlat aralashuvini cheklash; davlat siyosatidagi muvaffaqiyatsizliklarni bozor sharoitidagi yangi usullar hisobiga tugatish; bir tomondan esa, o'tish davri jarayonida yuzaga keladigan bozor taqchiliklari va inqirozlarining ko'payishini davlat orqali jilovlab turish talab etiladi. Sobiq ittifoq hududida bunday davlatni barpo etish hazilakam ish emas edi, chunki hammasini boshdan boshlash talab etilardi.

YAngi mustaqil davlatlarda hamda Markaziy va SHarqiy Evropa mamlakatlarida amalga oshirilgan islohotlar yotig'ini: xususiy sektorning rivojlanishi (katta va kichik korxonalarni xususiylashtirish, korxonalardagi tarkibiy o'zgarishlar); bozorlar va savdo (narxlarni erkinlashtirish, savdo va valyuta tizimlari, raqobatchilik siyosati); moliya muassalari (bank sohasida islohot va foiz stavkasini erkinlashtirish, qimmatli qog'ozlar bozorlari va banklarga qaramaydigan moliyaviy

institutlar) bergan natijalar orqali qiyoslab ko'rish mumkin. Bu taqqoslar, albatta, muhim va zarur, lekin etarli emas. Bu borada yana bir o'lchov g' tegishli institutlarga ega bo'lgan davlatni qanday barpo etish o'lchovi ham talab qilinadi.

Bozor itstitutlarining ahamiyati oshib borgan bir holda davlat tomonidan tartibga solishning joriy etilishi hamda yangi industrial mamlakatlar darajasiga etib olish kelajakda yanada etuk va erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishda muhim omil bo'lishi lozim. Biroq Markaziy Osiyo mamlakatlarida ana shu darajaga etishish hamda o'tish davri muammolarini hal etish va shuningdek, rivojlanishga erishish uchun, eng avvalo, davlat va uning iqtisodiy vositalari kuchaytirilishi, qayta ko'rilishi lozim. Eng asosiy vazifa g' davlatning iqtisodiyotni tartibga solish vositalariga putur etkazmasdan, uning ma'muriyg'buyruqbozlik, markazdan rejalashtirish siyosatidan voz kechib, bozor sharoitiga moslashib, iqtisodiyotni kerakli darajada boshqara oladigan tuzilmaga aylantirishdan iborat. Davlatning faol aralashish siyosati real sektorlarni himoya qilish nuqtai nazaridan ham, iqtisodiy o'sishga ko'maklashish nuqtai nazaridan ham ancha to'g'ri bo'lib chiqdi. (24g`jadval).

24g`jadval

Markaziy Osiyo mamlakatlarida hamda Markaziy va SHarqiy Evropadagi ba`zi davlatlarda ishlab chiqarish kamayishining davomiyligi va darajasi (1990g`2001 yillar)

Davlatlar	YAIMning kamayishi		Sanoatda ishlab chiqarishning kamayishi	
	davomiylilik (yillar)	kamayish (darajasi)	davomiylilik (yillar)	kamayish (darajasi)
Markaziy Osiyo				
qozog`iston	8(1990g`95,9 8,99)	1960 yillar oxiri	6(1990g`1995)	1970 yillar boshi
qirg`iziston	6(1991g`95,9	1970 yillar boshi	6(1990g`1995)	1960 yillar

	9)			boshi
Tojikiston	7(1990g`1996)	1950 yillar oxiri	7(1991g`1997)	1960 yillar boshi
Turkmaniston	7(1991g`1997)	1960 yillar boshi	6(1992g`1997)	1970 yillar boshi
O`zbekiston	5(1991g`1995)	1980 yillar boshi	1(1992)	1988 yil
MSHE (tanlab olingan)				
Bolgariya	6(1990g`93,9 6,97)	1970 yillar oxiri	5(1990g`93,96)	1970 yillar o`rtasi
CHexiya Respublikasi	5(1990g`92,9 8,99)	1970 yillar oxiri	4(1990g`93)	1970 yillar o`rtasi
Vengriya	4(1990g`1993)	1970 yillar oxiri	4(1990g`93)	1970 yillar o`rtasi
Pol'sha	2(1990g`1991)	1980 yillar o`rtasi	3(1990g`1992)	1970 yillar o`rtasi
Slovakiya	4(1990g`1993)	1970 yillar oxiri	5(1990g`1994)	1970 yillar oxiri

Manba: Rasmiy milliy statistika; MDH statistika qo`mitasi; XVF ning mamlakatlar bo'yicha hisobotlari.

Industriallashtirishga qarshi siyosat
(«deg`ndustrgalgsatgon») o`rniga faol industrial siyosat. «De g`
 industriallashtirish» g`oyasi o`tish davrida sanoati rivojlangan
 mamlakatlarda markazdan rejalashtirishga asoslangan iqtisodiyotdagi
 nomutanosiblikka barham beradigan mantiqiy va ob`ektiv jarayon
 sifatida «falaj qilib davolash» tarafdorlari tomonidan ilgari surildi. Biroq
 Markaziy Osiyo mamlakatlarining aksariyatida sanoat etarli darajada
 rivojlanmagan, qishloq xo`jaligi ancha ustunvor bo`lganligi uchun
 sanoatsizlashtirishga unchalik hojat yo`q edi. Markaziy Osiyo
 mamlakatlarida kun tartibidagi asosiy masala sanoatning yangi
 tarmoqlarini barpo etish va mavjudlarini zamonaviylashtirish asosida

sanoatni tezkor sur'atlar bilan rivojlantirishdan iborat edi. SHunga qaramay, O'zbekistondan tashqari, hamma Markaziy Osiyo davlatlarida «deg'industrlashtirish» siyosati faol amalga oshirildi. O'zbekistonda mavjud bo'lgan sanoat tarmoqlari kerakli miqdorda saqlanib qolishi va yangilari barpo etilishi asosida iqtisodiyotni yanada sanoatlashtirishga o'tish strategiyasi juda ham muhim natijalarga olib keldi. O'zbekiston hukumati mustaqillikning birinchi yildidan boshlaboq iqtisodiyotda mavjud sektorlarni rivojlantirishga urg'u berdi.

O'tish davri strategiyasi va industrial siyosat. Sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan, ittifoq parchalangach mustaqillikka erishgan 15 ta yangi mustaqil davlat orasida O'zbekiston mahsulot ishlab chiqarishdagi kamayish uzoq davom etmaganligi va darajasi unchalik yuqori bo'lmaganligi hamda o'tish davridagi 26 davlat, ayniqsa, MDH mamlakatlari orasida sanoat rivojida yuqori su'ratli tiklanishi bilan ajralib turadi (5g'jadval). Ushbu ijobiy ko'rsatkichlar ko'p jihatdan davlatning amalga oshirilayotgan strategiyasi va sanoatdagi faol siyosati natijasidir. Davlat tomonidan to'g'ri tanlangan siyosat dastlabki shartg'sharoit va iqtisod tarkibidagi bir muncha afzalliklardan foydalanish uchun yangi omillar paydo bo'ldi.

25g'jadval

Markaziy Osiyo davlatlari sanoat ishlab chiqarishida 1992g'2000
yillardagi ko'rsatkichlar
(1991 y. q 100 foiz hisobida)

	1992	1993	1994	1995	1996	1997	1998	1999	2000
qozog'iston	86	73	53	48	49	51	49	51	58
qirg'iziston	74	55	40	33	34	47	50	48	51
Tojikiston	76	70	52	45	34	34	36	38	42
Turkmaniston	85	89	67	61	73	57	58	g'	g'

O'zbekiston	93	97	98	98	100,9	105	109	115	122,4
MDH o'rtacha	82	72	56	52	50	52	51	54	60

Manba: MDH mamlakatlarining sanoati MDH davlatlararo statistika qo'mitasi, Moskva, 1999., MDH 1999 yilda qisqacha statistik to'plam. MDH Davlatlararo statistika qo'mitasi, Moskva, 2001 y.

Bu o'tish davrining boshlanishidayoq ba'zi katta korxonalarni, ayniqsa, yirik sanoat korxonalarini barcha cheklanishlarni shoshmag'shosharlik bilan va birdaniga olib tashlamay, kredit va subsidiyalar bilan ma'lum darajada qo'llabg'quvvatlashni taqazo etdi.

«O'zbekiston avval boshdanoq yanada keskin ravishda tarkibiy o'zgarishlarni qayd etganda to'g'ri ish qilgan bular edi», degan fikrga qo'shilish qiyin. Tuzilmalarni shoshilinch isloh qilish yaxshi iqtisodiy o'sish bilan tugaganini ko'rsatuvchi dalillar sobiq ittifoq hududida ham, Markaziy g' SHarqiy Evropa mamlakatlarida ham yo'q. SHarqiy Osiyo mamlakatlarining tajribasi islohotchi davlatning mavjudligi, ikkinchi jahon urushidan keyingi tanazzulni engishda ham, butun iqtisodiy «taksalish» davrida ham (kamida 30g'40 yil mobaynida) zaruriy omil ekanligini isbotladi.

Bu tajribadan chiqariladigan asosiy saboq quyidagi o'zgarishlarning zarurligini taqazo etadi:

- import o'rnini qoplashning etarli darajasini saqlagan holda sanoat ishlab chiqarishining eksportga yo'nalishini kuchaytirish;
- o'z daromadlari, jumladan, erkin almashtiriladigan valyuta daromadlari hisobidan sanoat sektorida investitsiya ehtiyojiga qaratilgan siyosatni o'tkazish;
- sanoatning asosiy tarmoqlarini qayta va qo'shma loyihalar hamda korxonalar asosida yangi quvvatlarni va infratuzilmalarni barpo etish maqsadida bevosita xorijiy investitsiyalar uchun ochiq tadbirkorlik muhitini yaratish;

- ko'p mablag'lar talab qiladigan loyihalarni rag'batlantirish o'rniga ko'p mehnat talab qiladigan kichik va o'rta korxonalarni rivojlantirish maqsadida xususiy milliy investorlar uchun nisbatan ko'proq imkoniyatlar yaratish.

Bu o'zgarishlarni amalga oshirish uchun xususiy sektorni rivojlantirish sari yangi qadamlar qo'yilishi lozim. qudratli xususiy sektor bo'lmasa, turli tadbirkorlik harakatlari qo'llabg'quvvatlanmasa, davlat o'tkazadigan o'zgarishlar va samarli sanoat siyosati ham, barqaror iqtisodiy rivojlanish ham bo'lmaydi, xalq turmush darajasi ham oshmaydi.

22g`MAVZU. O`ZBEKISTON MILLIY IqTISODIYOTI VA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING GLOBAL IqTISODIYOTGA qO`SHILISH SIYOSATI

22.1.Tashqi savdo va global iqtisodiyotga qo'shilish siyosati

Sobiq ittifoq tarqalishidan boshlab Markaziy Osiyodagi besh davlat g` qozog'iston, qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalar uchun mintaq va jahon miqyosidagi integratsiyaga ochiq bo'lishga intildi.

qo'shimcha kiritilgan ma'lumotlardan foydalanish 1991 yildan boshlab butun davr davomida savdoning har ikki tomonini g` MDH mamlakatlari va jahonning boshqa mamlakatlari bilan savdoni taqqoslash imkonini beradi (6g`jadval). Bunda mustaqil taraqqiyot va tizimni qayta qurish boshlanishida savdo faolligi darajasi kamayishi sabablarini o'rganish joiz.

26g`jadval

Markaziy Osiyo davlatlarining eksporti va importi umumiy hajmida MDH mamlakatlarining eksport va import ulushi (1991g`2000 yillar, % hisobida)

Davlatlar	qirg'iziston		qozog'iston		Tojikiston		Turkmaniston		O'zbekiston	
yil	eks.	imp.	eks.	imp.	eks.	imp.	eks.	imp.	eks.	imp.
Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi										

1991	90,7	85,99	97,2	80,0	76,7	81,8	94,7	78,7	84,1	82,3
1992	87,6	4,390	93,7	96,2	80,3	89,5	80,2	84,9	82,5	85,5
1993	83,6	261,1	65,5	91,3	52,6	61,9	70,1	78,3	73,7	81,3
1994	58,0	69,0	87,9	66,1	18,8	42,6	77,0	46,7	62,1	53,8
1995	52,9	69,6	65,8	67,7	33,6	59,0	49,4	54,6	39,3	40,7
1996	55,7	53,9	77,8	58,1	43,0	57,3	67,5	29,6	21,1	32,2
1997	46,0	54,0	52,8	61,4	36,6	64,3	60,1	55,0	33,0	27,0
1998	40,0	47,0	44,9	52,3	34,0	62,7	25,6	47,0	24,6	28,0
1999	26,0	43,0	40,0	43,0	46,0	78,0	41,4	33,6	30,1	26,4
2000	27,0	55,0	42,0	53,0	49,0	83,0	52,5	38,0	53,2	38,5
Rossiya										
1991	53,4	70,4	42,9	39,0	44,7	34,1	46,1	38,7	55,7	54,7
1992	65,4	81,8	37,2	61,2	39,2	40,8	16,2	53,1	44,1	56,5
1993	57,3	64,0	36,8	44,7	16,4	32,5	7,1	13,1	57,0	48,4
1994	44,5	36,3	17,2	21,9	30,0	15,2	13,2	10,5	26,7	28,4
1995	42,3	45,0	25,6	21,9	34,1	31,0	6,8	7,0	,5	26,2
1996	44,3	55,0	26,6	20,8	28,3	29,8	10,6	11,8	11,6	18,8
1997	33,9	46,0	16,4	26,9	8,5	15,3	7,5	13,4	14,9	16,0
1998	28,9	39,4	16,3	24,3	8,1	14,1	4,9	13,1	12,8	15,6
1999	,8	36,7	15,6	18,2	16,8	13,9	4,0	11,0	13,0	13,8
2000	,5	48,7	12,9	24,0	33,0	15,6	41,1	14,3	28,3	14,3
Markaziy Osiyo davlatlari										
1991	12,6	10,5	30,7	29,6	13,1	30,4	29,9	7,9	10,4	,5
1992	11,9	9,9	33,4	23,4	24,8	32,1	27,8	21,6	27,7	22,2
1993	10,7	17,5	g`	g`	g`	g`	16,2	g`	g`	g`
1994	6,4	,0	43,9	42,1	7,4	28,6	21,2	7,0	28,3	17,5
1995	6,5	14,6	35,9	43,0	,2	41,8	8,6	4,8	16,9	10,3
1996	6,3	7,6	46,4	34,8	30,5	42,6	17,9	2,4	7,5	8,9
1997	5,0	3,7	33,2	31,7	28,4	45,0	12,9	15,2	10,2	6,6
1998	6,4	3,9	25,9	24,3	26,0	51,4	11,0	7,7	9,7	6,3
1999	3,3	3,7	22,9	22,4	27,5	59,5	6,2	5,1	11,3	7,0
2000	2,8	3,1	26,3	27,6	14,3	45,2	6,6	3,7	15,8	17,3

«MDH ga doir 1991 yilgi ma'lumotlar sobiq ittifoq bo'yicha ko'rsatkichlar, Boltiq bo'yi davlatlari g` Litva, Latviya, Estoniyaga oid ko'rsatkichlari nisbatga olinmay, 1991g`1993 yillarga doir ma'lumotlar real almashuv kursi bo'yicha hisoblangan.

Ittifoq davrida ham, u tarqalgandan keyin ham tashqi savdo Markaziy Osiyo mamlakatlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ularda eksport va importning yalpi milliy mahsulotga nisbatan ko'rsatkichi o'rtacha MDH dagiga qaraganda ancha yuqoriroq bo'lgan.

Tashqi savdo aylanmasi nuqtai nazardan mustaqil davlatlarda har xil uchta bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi bosqich (1991 yildan 1994 yilgacha) sobiq ittifoqning parchalanish hamda o'zaro savdo hajmi va ulushining keskin kamayib ketishi bartaraf etilishi bilan bog'liq.

Ikkinchi bosqich (1995 yildan 1998il 18 avgustgacha) an'anaviy savdo sheriklari bilan oqilona munosabatni saqlab turish va dunyoning qolgan qismi bilan aloqalarni kuchaytirishni davom ettirishga turlicha urinishlardan iborat.

Uchinchi bosqich (1998il 18 avgustdan 2001 yilgacha) jahon iqtisodiyoti va SHarqiy Osiyo moliyaviy inqirozlarining salbiy ta'siri bilan bog'liq. Ularning ta'siri Rossiya pul birligining devalvatsiya qilinishi tufayli ancha kuchaydi va an'anaviy bozorlarda Markaziy Osiyoda ishlab chiqarilgan tovarlarning raqobatbardoshlik darajasiga ham ta'sir etdi. Har uch davrda ham Markaziy Osiyo davlatlari o'z tashqi savdolarining jug'rofiyasi va tovar tarkibiga oid qiyinchiliklarga duch keldi, bu esa, umumiy tashqi savdoga salbiy ta'sir kildi.

Jahondagi va mintaqaviy so'nggi inqirozlar Markaziy Osiyodagi barcha davlatlarning importiga ham salbiy ta'sir qilib, tashqi savdoning umumiy hajmini 1998ilgi narxlarda o'n yillikdan eng past darajaga keltirib qo'ydi. Markaziy Osiyodagi boshqa davlatlar bilan ro'yxatga olingan savdoning keskin kamayishi bunday tanazzulning bosh omili bo'ldi, bu savdo hajmi sakkiz yil oldingidan deyarli sakkiz barovar kam bo'ldi.

O`sha yillarda bu mamlakatlarning jahondagi, MDH dan tashqari, mamlakatlar bilan tashqi savdosi nisbiy ulushi oshdi. Kuchli tanazzul natijasida 1991g`1995 yillarda Markaziy Osiyo davlatlarining umumiy savdo hajmida an`anaviy savdoning ulushi olis xorijiy mamlakatlar bilan bo`lgan savdo ulushiga tenglashdi. SHundan keyingi yillarda sobiq ittifoq davlatlari bilan savdo ulushi jahonning boshqa qismi bilan savdo ulushidan ham kamayib ketdi va ularning o`rtasidagi tafovut ko`paydi. Tashqi savdoning ushbu ikki sementi o`rtasidagi nisbat o`zgarib, 1991 yildagi 7:1 nisbatdan 1997 yilda 1:1,3 nisbatga tushdi, ya`ni jahonning boshqa qismi bilan savdo hajmi oshdi, an`anaviy savdo ulushi mutlaq va nisbiy ko`rsatkichlarda keskin pasaydi.

Bu asosan Rossiya bilan savdo aylanmasi kamayishiga bog`liq edi. 1997g`1998 yillarda, ayniqsa, Tojikiston, Turkmaniston va O`zbekistonning Rossiya bilan savdo aylanmasi 1991 yildagidan ancha kam bo`ldi. Bu ko`rsatkich qozog`iston va qirg`iziston uchun hamon etarlicha muhim edi, lyokin 1998ilgi inqirozdan keyin bu mamlakatlarda ham jiddiy kamayish tamoyili ko`zga tashlandi.

22.2. Davlatlarining o`zaro savdosi va mintaqaviy hamkorlik

Markaziy Osiyo davlatlarining o`zaro savdosi, ayniqsa, birinchi bosqichda, ular mustaqillikka erishgandan so`ng, iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo`ldi. MDH da savdoning umumiy hajmi mutlaq va nisbiy ko`rsatkichlarda keskin kamayishiga qaramay, 1992g`1995 yillarda ularning ko`pchiligida yillik o`rtacha o`zaro savdo hajmi 1991 yilgi darajadan yuqori edi. Bu hol mintaqada savdo taqsimotiga o`zgarish kiritish imkonini berib, qirg`iziston va Tojikistonning savdo sohasidagi sheriklari sifatida O`zbekiston va qozog`istonning mavqeini oshirib, qandaydir barqarorlashtiruvchi omil bo`ldi. 1998 yilda

qirg'iziston Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'ladi. qozog'iston bilan O'zbekistonga qirg'izistondan qayta eksport (reg'eksport) kilinayotgan iste'mol tovarlaridan sanoat tarmoqlarini himoya qilish uchun majburiy ravishda bojxona g'arif choralaridan foydalanishga to'g'ri keldi. qozog'iston, qirg'iziston va Tojikiston bir vaqtning o'zida Rossiya va Belorusiya Bojxona Ittifoqiga a'zo bo'lishi, 2000 yil oktyabrida Evroosiyo Iqtisodiy Hamjamiyatining shakllanishi O'rta Osiyoda mintakaviy hamkorlikda muayyan qiyinchiliklar keltirdi.

Lekin, Markaziy Osiyo davlatlari yanada mustahkam mintaqaviy o'zaro bog'liqlikning ob'ektiv zarurligini tan olgan holda savdo sohasida ham, resurslarni (suv, energiya va boshqalar) boshqarish va infratuzilmalar sohasida ham mintaqaviy hamkorlikni yanada rivojlantirishga qat'iy ehtiyoj zarurligi O'zbekiston, qozog'iston, qirg'iziston va Tojikiston davlat boshliqlarining 2001 yil 28 dekabrda uchrashuvida yana bir bor to'la masu'liyat bilan ta'kidlab o'tildi.

Ushbu uchrashuvda Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyatini «Markaziy Osiyo Hamkorligi» tashkiloti deb qayta tuzishga kelishib olindi.

1994 yildan boshlab Markaziy Osiyodagi barcha davlatlarining MDH dan tashqari davlatlar bilan savdo umumiy savdo hajmida eksport ko'rsatkichlari bo'yicha ham, import ko'rsatkichlari bo'yicha ham jahonning qolgan qismi ulushi, ayniqsa, O'zbekistonda (1998 yilda 73,4% va 72,2%) tez o'sdi. Savdoning jug'rofiy taqsimoti ancha o'zgarib, sobiq o'zaro iqtisodiy yordam kengashidan Evropa Ittifoqi, SHarqiy Osiyo, SHimoliy Amerika va YAQin SHarq tomon siljidi. 2000 yilda Markaziy Osiyo davlatlarining MDHdan tashqarida joylashgan asosiy sheriklari birinchidan Evropa mamlakatlari (Germaniya, Buyuk Britaniya, SHveytsariya, Niderlandiya), so'ngra SHarqiy Amerika (AQSH) va YAQin

SHarq (Turkiya, Eron) mamlakatlari bo'ldi. Tashqi savdoning umumiy hajmida bu mamlakatlardagi sheriklar ishtirokining ulushi ancha oshdi.

Tashqi savdoning tovar tarkibi muammolari. Barcha markaziy Osiyo davlatlarining eksport tovarlari asosan mineral resurslar va qishloq xo'jalik mahsulotlaridan iborat edi. qozog'istonda asosan neft va neft mahsulotlari, qora va rangli metallardan, qirg'izistonda g' oltin, tamaki va jun; Tojikitondag'aluminiy va paxta tolasi, Turkmanistonda g' tabiiy gaz, paxta, tolasi, neft va neft mahsulotlari, O'zbekistonda g' paxta tolasi, oltin, tabiiy gaz va rangli metallar eksport qilinadi (ko'pchilik MDH mamlakatlariga eksport tovarlarning shunday tarkibi xarakterlidir).

Importga kelganda esa, u asosan oziqg'ovqat mahsulotlari va boshqa iste'mol mollari, shuningdek neft va neft mahsulotlari (O'zbekiston, qirg'iziston va Tojikistonda, keyingi ikki mamlakatda esa yana gaz) dan iborat bo'lgan. Keyinchalik import tarkibida don, oziqg'ovqat mahsulotlari va xom ashyo ulushi kamayib, mashinag'uskunalar ko'paya boshladi. Biroq mamlakat ichkarisida foydalanish uchun import qilinayotgan iste'mol tovarlarining o'rnini qoplovchi qayta ishlash sanoati tovarlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'ymay turib, import qilinadigan mashinalar va uskunalar ulushini ko'paytirish ba'zi davlatlarda joriy operatsiyalar schetlari bo'yicha katta surunkali taxchilikka, boshqalarida esa iste'mol mollari importi haddan tashqari qisqartirilishiga olib keldi.

Tashqi savdo va raqobatbardoshlik.

1998 yilning avgustida Rossiya rublining deval'vatsiya qilinishi Markaziy Osiyo tovarlari raqobatbardoshligiga bilvosita ta'sir qildi. Ayniqsa, Rossiyaning Evropa, Osiyo bozorlariga eksporti (yonilg'i, metallar) ko'paygani qozog'istonning shunday tovarlarni eksport qilishiga ko'proq ta'sir o'tkazdi. Boshqa tovarlar esa sifatsizligi sababli

ularning valyutalari devalvatsiya kilingandan keyin ham MDH dan tashqarida deyarli sotilmay qoldi. Bu eksportning raqobatbardoshligi va xilmag`xilligi ko`p jihatdan valyuta almashuv kursining o`zgarishga va milliy valyutalarning qadrsizlanishi oqibatida narxlarning nisbiyligiga emas, ko`proq tuzilmalar islohotiga bog`liqligini isbotlovchi dalillardir. Rossiyada rublning devalvatsiya qilinishi Markaziy Osiyo davlatlari tovarlarining ichki bozorda ham, Rossiya bozorida ham, boshqa bozorlarda ham raqobatbardoshligiga katta salbiy ta`sir qildi.

**Tashqi savdoni yanada kengaytirish yo`llari va zarurligi.** Yangi Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishgach, avval boshdanoq jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish yo`lida vujudga keladigan bir necha fundamental muammolarga va turli tashqi qiyinchiliklarga duch keldi. Bu muammalarni hal qilish yo`li mintaqaviy va global savdog`sotiqni kengaytirishdir. Bu Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan avval savdo mijozlarini, tovarlarning turlarini va transport tranzit yo`nalishlarini kengaytirish va o`zgartirishni o`z ichiga oladi. Lekin, bu sharoitlarning hammasi zarur bo`lsa ham, bozor islohotlari davom ettirilmasa va tashqi savdo erkinlashtirilmasa, ular etarli bo`lmaydi. Jahon bozoriga integratsiya bo`yicha yangi imkoniyatlardan ko`proq foydalanish uchun Markaziy Osiyo davlatlari, avvalo, quyidagi asosiy masalalarning tegishli echimini topishlari zarur: korxonalar o`rtasida bevosita tashqi savdoni qo`llabg`quvvatlash; tashqi savdo va investitsiya infratuzilmasini, ayniqsa, ichki va xalqaro to`lov tizimini takomillashtirish; valyuta almashuvi siyosatini isloh qilish. Aks holda investitsiyalarni jalb etib, tashqi savdo imkoniyatlaridan to`la foydalanib bo`lmaydi.

23G`MAVZU. MILLIY IQTISODIYOTNING GLOBALLASHUV VA VALYOTA ALMASHUV SIYOSATIDAGI O`RNI

23.1. Globallashuv muammolari va almashuv kursi siyosati

XVF maslahatchilari valyuta almashuv (konvertatsiya)ni joriy etish yozasidan shoshilinch choralarini ko'rish, o'tish davridagi mamlakatlar uchun eng yaxshi ko'rsatmadir, degan yakdil fikrni bildirdilar. Valyuta almashuvi erkinlashtirilishi bozor islohotlarining boshlanishida emas, balki pirovard nuqtasida amalga oshirilishi kerakligi to'g'risida faqat sanoqli ogohlantirishlar bo'lgan edi. Bu yondashuvlardan biri o'tish davrini valyuta almashuvini erkinlashtirish bilan boshlashni, ikkinchisi, tugallashni tavsiya qiladi. Ushbu ikki yondashuvdan farqliroq o'ziga xos yangicha yondashuv taklif etiladi.

Markaziy Osiyo davlatlarini valyuta almashuv siyosatiga qarab ikki guruhga ajratish mumkin. qirg'iziston bilan qozog'iston birinchi yondashuvni tanladi, O'zbekiston bilan Turkmaniston esa islohotlarni astag'sekin amalga oshirishni afzal kurdi. Valyuta almashuv siyosatidagi tafovutga qaramay, global va mintaqaviy moliyaviy inqiroz Markaziy Osiyodagi deyarli barcha davlatlarning nozik makroiqtisodiy barqarorligiga og'ir bo'ldi. Rossiyadagi moliyaviy inqiroz, ayniqsa, kuchli salbiy ta'sir qildi. Bu paytda qirgiziston, qozog'iston vai Tojikistonda pulning qadrsizlanishi kuchaydi. qozog'istonda olting'valyuta zahiralari ancha kamaydi. qirg'izistonda katta miqdordagi tashqi qarzni to'lash muammosi paydo bo'ladi. Rossiya inqiroziga javoban valyuta almashuvini bilvosita kuchliroq nazorat qila boshlagan Turkmaniston bilan O'zbekiston to'lov balansi va milliy daromadiga salbiy ta'sir etishi kuzatildi.

Hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo davlatlarining kumulativ tashqi qarzi (o'tish davridagi hamma mamlakatlarda ham shunday hol yoz bergan) rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligidagi shunday

vaziyatga tobora ko`proq o`xshab ketmoqda. Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlarda Rossiyadagi valyuta inqirozi (1998 18 avgust) to`lov balansi o`rtasidagi bevosita bog`liqlikni eslatdi. Tobora kuchayib borayotgan tashqi qarz muammosi joriy operatsiyalar schetlar va kapital harakati schetlari bo`yicha surunkali taqchillik bilan bog`liq bo`lib, xalqaro zahiralarning tuplanishiga to`squinlik qilmoqda. Binobarin, tashqi qarz muammolariga oid choralar balansni mustahkamlashga qaratilgan siyosatni talab etadi, ya`ni joriy va kapital schetlar bo`yicha tushumlar umumiy xarajatlardan ko`p bo`lishi kerak. Standart tavsiyalarda ko`pincha: 1) eksportni rag`batlantirish yoki tovarlar va xizmatlar importini kamaytirish yo`li bilan joriy operatsiyalar schetidagi taqchillikni kamaytirishga; 2) import o`rnini bosishga qodir bo`lgan ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoatning eksportga mo`ljallangan tarmoqlariga ko`maklashish uchun bevosita xorijiy investitsiyalarni, xususiy va rasmiy kreditlarni jalb etish yo`li bilan kapital harakati scheti bo`yicha salbiy qoldiqni kamaytirish choralari o`z ichiga oladi. Bundan tashqari kutilmagan tashqi salbiy ta`sir natijasida ikkala schetda ham salbiy saldo xollada to`lovsizlikdan qutilish uchun xalqaro rasmiy zahiralarni etarli darajada saqlab turish tavsiya etiladi.

Tashqi qarz dinamikasini baholash hamda kelajak uchun zarur tavsiyalarni olish uchun samarali tahliliy vosita sifatida quyidagi asosiy tenglamalar va modellardan foydalaniladi.

1g`tenqlama g` sof tashqi qarzlar hajmini (xorijiy valyutaning kelishi va ketishi balansiga qarab ijobiy yoki salbiy) aniqlaydigan tenglama. Miqdor jihatdan u kapitalning sof oqimi, kapital oqimi bruttosi, minus o`tgan yilgi amortizatsiya bilan to`plangan xorijiy qarz qoldig`ining foiz to`lovlari o`rtasidagi tafovut sifatida o`lchanadi. Uni quyidagi matematik tenglama bilan ifodalash mumkin:

BT q dDg`rD (1) yoki VT q (dg`r) D (2)

Bunda:

Dg`to`plangan tashqi qarzning umumiy hajmi;

dg`tashqi qarzning ko`payish foizi;

dDg`sof kapital oqimi yoki tashqi qarz umumiy hajmining ko`payishi;

rg`tashqi qarzga to`lanadigan o`rtacha foiz;

rDg`tashqi qarz bo`yicha yillik to`lovlarning umumiy miqdori.

2 g` tenglama ushbu davlat bilani xorijiy davlat o`rtasidagi kapital harakati natijasida har bir yil doirasida xorijiy valyuta miqdorining kamayishi yoki ko`payishini ko`rsatadi. Agar $d > r$ bo`lsa, mamlakatga valyuta keladi, lekin  $d < r$  bo`lsa, xorijiy valyuta mamlakatdan chiqib ketadi. Boshqacha aytganda, tashqi qarz jalb etilgan kapitaldan samarali foydalanish bilan bog`liq bo`lsa, u holda r ko`paygan taqdirda ham VT ijobiy bo`ladi, tashqi qarz qarzidor mamlakatning na qisqa muddatli, na uzoq muddatli taraqqiyot istiqboliga salbiy ta`sir etmaydi.

Bu kontseptsiya zaminidagi asosiy g`oya shundan iboratki, mamlakat uning scheti yilmag`yil emas, balki tashqi qarz olingan ancha uzoq muddat doirasida balanslashishi lozim. Biroq bu mamlakat har bir davr doirasida qarzning to`lov darajasini mensimasligi kerak, degan ma`noni bildirmaydi. Bundan tashqari mamlakatning to`lov qobiliyati va qarzlarini to`lashga qudrati etishi to`g`risidagi xulosa pirovard natijada pulning joriy yoki bir qancha yil davomida to`lash muddatlarini aniq ko`rsatib, mamlakat olgan majburiyatlar hajmi to`g`risidagi axborotga asoslanish lozim. Buni quyidagi ekonometrik tenglama bilan ifodalash mumkin:

$$(D_t g^D_{tq1}) q Y_t g^r D_t g^C_t g^G_t g^G_t (3)$$

Bu erda:

$(D_t g^D_{tq1}) g^t$ davridan $tq1$ davrigacha tashqi qarzdagi sof o'zgarish;

$Y_t g^t$ davridagi YAIM (sof pul o'tkazish kiritilgan);

$rD_t g^t$ davri uchun to'la foiz to'lovi;

$C_t g^t$ davridagi iste'mol;

$G_t g^t$ davridagi ichki investitsiya;

$G_t g^t$ davridagi davlat xarajatlari.

3 g' tenglamadan kelib chiqadiki, qarz miqdori ma'lum vaqt davomida mamlakatda ishlab chiqarishni ko'paytirish va iste'molni kamaytirish, ichki investitsiyalar va davlat xarajatlarini kamaytirish hisobiga kamaytirilishi mumkin. Lekin mamlakat bir davrdan ikkinchi davrgacha bunday qilishga qodir bo'lmasa hamda mahsulot ishlab chiqarish, iste'mol, ichki investitsiya va hukumat xarajatlari tashqi qarzni to'lash uchun zarur miqdordan kam bo'lmaydigan darajaga etsa, u holda mamlakat qarz inqiroziga uchraydi.

$$C_t q T_t q Q_t g^Y_t < d D_t g^r D_t \quad (4)$$

$d D_t g^t$ davridagi mamlakatga kelgan xorijiy valyutaning jami okimi;

$r D_t$ – tashqi qarzni to'lash natijasida t davrida mamlakatdan chiqqan xorijiy valyuta okimi;

$d D_t g^r D_t g^t$ davridagi VT.

Turli tashqi va ichki murakkab omillar d va r ta'sir qilishi, bu esa tashqi qarz muammosining keskinlashuviga olib kelishi mumkin. d va r

uchun xos bo'lgan tamoyillar quyidagicha: Avval mamlakatning umumiy qarzi kam bo'lgan va uning ko'payish darajasi d , yuqori tendentsiyali bo'lishi mumkin. Ammo D ko'payganda, d kamaya boshlaydi, chunki tashqi qarzni to'lash mamlakatga qo'shimcha kapital okimi hajmiga tenglashadi.

Ikkinchidan, tashqi qarz to'planishining dastlabki bosqichida r nisbatan kam bo'ladi (ko'pincha nisbatan ancha kam bo'ladi), chunki bu bosqichda asosiy manba muddatli va to'lash shartlari jihatidan imtiyozli rasmiy xorijiy yordamdan iborat bo'ladi. Lekin keyinchalik r tez o'sishi mumkin. Bu tijorat banklarida bozor shartlari asosida olingan qisqa muddatli tijorat kreditlari bilan bog'liq

Mamlakat tashqi qarzlari bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishga qodir bo'lmagan paytda defoltdan xolis bo'lish uchun bunday vaziyatni oldindan ko'rishga imkon beradigan muayyan vositalarga ega bo'lish muhimdir. Tegishli tenglamalar (1)g'(4) dan foydalanish tashqi qarz ko'payishining asosiy sabablarini miqdoriy o'lchash uchun foydali bo'lishi va tashqi qarz xususida to'g'ri iqtisodiy siyosatni tanlashga ko'maklashishi mumkin.

Ikki cheklashni tahlil qilish modellaridan rasmiy yordamga ehtiyojni va mamlakatning bu yordamdan samarali foydalanish qobiliyatini aniqlash uchun foydalaniladi. Bu modellar umuman, tashqi qarzni o'lchash uchun ham foydalidir. qarzdor mamlakatlarning ko'pchiligida ikkita asosiy cheklash mavjud: investitsiya imkoniyatlariga nisbatan ichki jamg'armalarning etishmasligi va tovar importida valyutaga bo'lgan ehtiyojga nisbatan xorijiy valyutaning etishmasligi. Bu cheklashlarni bartaraf etish uchun mamlakat qo'shimcha ravishda xorijiy valyutani jalb etadi, bu esa keyinchalik tashqi qarzning ko'payishiga olib keladi. qarzning ko'payishini quyidagi tenglama bilan ifodalash mumkin:

$$dD/D_t = g_D q_D M g_E \quad (5)$$

Bu erda:

dD/D_t g` qarz miqdorining o`zgarishi (birinchi hosila);

g g` foizning o`rtacha me`yori;

M g` import;

E g` ekport.

SHu tariqa bir vaqtning o`zida to`lov balansining har uch qismida tashqi qarzning o`sishi holatini va muammosini baholashga imkon beradigan tashqi qarzni boshqarish siyosatini qo`llash va miqdoriy vositalardan foydalanish zarur. SHunday qilib, har tomonlama yondashuvning umumiy samarasi tashqi qarzning surunkali tusini bartaraf etishga yordamlashishi lozim.

Bozor iqtisodiyotiga o`tayotgan mamlakatlar tashqi qarz muammosidan tashqari o`z valyuta bozorining dollarlashuviga duch keldi. YAngi milliy davlatlarning ko`pchiligi singari Markaziy Osiyo davlatlarida ham almashtiriladigan valyuta jamg`armasidan pulning qadrsizlanishidan sug`urtalash uchun, valyuta operatsiyalaridan ko`riladigan zararni qoplash uchun, shuningdek, boshqa risklardan xoli bo`lishi uchun foydalanilmoqda. Biroq xorijiy valyutadagi depozitlarning shu mamlakat bank tizimi barcha depozitlariga nisbatan dollarlashish darajasini to`la o`lchashga qodir emas.

Ma`lumki, sobiq ittifoq mamlakatlarida qonuniy moliyaviy vositachilik darajasi past bo`lib, norasmiy operatsiyalarda dollar mavjudligi juda katta rol` o`ynamoqda. SHu sababli o`tish davri iqtisodiyotini tahlil qilish uchun muomaladagi xorijiy valyuta zahirasi kabi ko`rsatkich ham muhimdir. Ro`yxatga olinmagan bitimlarni miqdoriy baholash qiyinligiga qaramay, norasmiy xorijiy valyuta

bozorining mavjudligi hukumat o'tkazayotgan siyosatning samaradorligini ancha kamaytirishidan dalolat beruvchi misollar ko'p. Xorijiy valyuta yashirin bozorining ulushida katta imkoniyat mavjud bo'ladi. Haqiqatda xorijiy valyutaning yashirin bozori kapital harakatini tezlashtirishga o'xshagan natija beradi. Bu eksportning ma'lum qilingan qiymatini kamaytirish va importning ma'lum qilingan qiymatini oshirish, kapital chiqib ketishi uchun qo'shimcha kanalga aylanadi, ya'ni bu hol valyuta almashtirish darajasi yuqoriligi tufayli kapitalning istalgan vaqtda keng miqyosda chiqib ketishi uchun yana bir yashirin kanal bo'ladi.

Ular birgalikda tizimlarni qayta tashkil etish bosqichida yangi milliy davlatlarning ko'pchiligida kapitalning chiqib ketishida muhim omil bo'ldi. Kapital chiqib ketishining ahamiyati global va mintaqaviy moliyaviy inqiroz chog'ida ayniqsa kuchayib ketdi.

Ham savdoni, ham valyutani erkinlashtirgan, shuningdek, kapital scheti va joriy operatsiyalar scheti to'la konvertatsiyalashtirilgan va hatto moliyaviy inqiroz chog'ida ham shu siyosatga amal qilishga o'ringan mamlakatlarda ancha qiyin vaziyat tug'ildi. Bosqichmag'bosqich isloh qilish va valyuta bozorlarini astag'sekin erkinlashtirish siyosatini o'tkazish yo'lga o'tgan mamlakatlar ham bir qancha tashqi zarbalarga uchraydi, lekin bu zarbalar boshqacha usulda va bilvosita shakllarda bo'ladi. Bu hol rasmiy va norasmiy bozordagi valyuta almashuvi o'rtasidagi tafovutning sezilarliligida namoyon bo'ladi.

23.2. Valyuta almashuv kurslarining ko'pligi

O'zbekiston (Turkmaniston bilan) keng doiradagi savdo cheklashlaridan va xorijiy valyutani nazorat qilish vositalaridan

foydalanib, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilishga urinayotgan, sobiq ittifoq tanazzulga uchragach, mustaqil bo'lgan mamlakatlardan biridir. Bu choralar yaqinda yoz bergan global va mintaqaviy moliyaviy inqirozning salbiy ta'sirini kamaytirish imkonini berdi, lekin shu bilan bir vaqtda ular katta norasmiy tovar va valyuta bozorlarini keltirib chiqardi.

Almashuv kurslarining xilmag'xilligi ma'lum ma'noda ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarga xosdir. O'tish davridagi deyarli barcha mamlakatlar tizimlarni qayta tashkil etish chog'ida shu muammoga duch keldi. Ularda qoida sifatida ko'p yoki kam valyuta almashuv kursi mavjud bo'ldi. Bular: hukumat tomonidan belgilanadigan norasmiy bozordagi almashuv kursi jamoat sektorining barcha operatsiyalari va xususiy sektor operatsiyalarining bir qismi rasmiy bozorda rasmiy almashuv kursida, ayni paytda xususiy sektor kelishuvlarining qolgan qismi yashirin bozorda norasmiy almashuv kursida amalga oshirildi. Naqd va naqdsiz pullar uchun turlicha almashuv kursi monopoliyachilik bank tizimining mavjudligi va chinakam tijarat banklari yo'qligining bevosita natijasidir.

Paralel almashuv kursi xorijiy valyuta bozori bo'lganini ifodalab, bu davlat tomonidan urganilgan savdo va moliya cheklashlarining natijasidir. Joriy operatsiyalar va kapital schetlari bo'yicha operatsiyalarga hukumat tomonidan qo'yilgan keng cheklashlarga javoban keng miqyosli va uzoq muddatli norasmiy bozorlar vujudga keladi.

Bunday chorag'tadbirlarning asosiy sabablari ma'lum industrial, tashqi savdo va valyuta siyosati bilan bog'liq. Hukumat ba'zi tarmoqlar va korxonalar uchun qulay sharoit yaratib berish, jumladan, valyuta almashuvining past stavkalaridan foydalanishga imtiyoz berish yo'li bilan ularni to'g'ridang'to'g'ri yoki bilvosita qo'llabg'quvvatlashlari

mumkin. Tariflar, savdo cheklashlari va to'siqlarning mavjudligi norasmiy valyuta bozori paydo bo'lishi uchun etarli emasligini ta'kidlash kerak. Eksport va import operatsiyalarining ishtirokchilari xorijiy valyutadan erkin foydalanar ekanlar, savdo cheklashlari almashuv kursi segmentlashuvini keltirib chiqarmaydi. Ular xorijiy valyutaga talab va takliflarga ta'sir o'tkazsa ham operatsiyalarning har xil turlariga g'ov bo'la olmaydi. Faqat hukumat siyosati xorijiy valyutani sotib olish va sotish hajmiga miqdoriy cheklashlarni (uni ko'pincha me'yoriy belgilash deyishadi) belgilash yo'li bilan turli operatsiyalar o'rtasida cheklashlar barpo qiladi. Xorijiy valyutaga qondirilmagan ehtiyoj yashirin bozorni vujudga keltiradi, unda valyuta qiymati ayni paytdagi taklif bilan belgilanadi. Ko'pchilik e'tirof etgan fikr shuni ko'rsatadiki, milliy valyutaning haqiqiy qimmatlashuvi va buning oqibatida yashirin bozorda kursining o'zgarishi ichki bozorda hukumatning valyuta almashuvini me'yorlashtirishi (cheklashi) natijasida devalvatsiya qilingan almashuv kursi bilan pulning qadrsizlanishi sur'ati o'rtasidagi farq ko'payadi. SHu tariqa parallel almashuv kurslari hukumatning valyuta bozorini segmentatsiyalash va me'yorlashtirish vositasi bilan valyutani nazorat qilish siyosatining qo'shimcha mahsulidir.

Odatda, turli almashuv cheklashlarini joriy etish orqali valyuta nazoratini joriy operatsiyalar scheti balansini tashqi salbiy ta'sirlardan himoya qilish bilan oqlashmoqchi bo'lishadi. Biroq ko'p sonli va har xil almashuv kursi mavjud bo'lishi bilanoq joriy operatsiyalar hisobi surunkali taqchilligining muhim omiliga aylanadi. Almashuv kursi turlicha bo'lgan sharoitda eksportchilarni cheklash va importchilarni qo'shimcha rag'batlantirish joriy operatsiyalar hisobi surunkali taqchilligiga olib keladi. Ayni paytda yashirin bozordagi kursni tijorat almashuv kursi bilan bir xillashtirish yo'li bilan almashuv kurslarini bozor darajasida birlashtirish eksportni rag'batlantirish va import tazyiqni

kamaytirish hamda joriy operatsiyalar balansini har ikki yo`nalishda yaxshilashning eng samarali yo`lidir.

O`zbekistonda ko`p sonli almashuv kursi rejimini quvvatlashni oqalaydigan dalillardan biri shundan iboratki, u pulning qadrsizlanishini kamaytiradi, ijtimoiy himoya chorasi sifatida xizmat qiladi. Ijtimoiy yo`nalishdagi islohotlarni amalga oshirishga kirishgan davlat uchun bu dalil ko`p sonli almashuv kursi foydasiga xizmat qilishi yoki xizmat kilmasligini tekshirish uchun bir necha statistik usullardan foydalanilgan.

Almashuv kursi bilan pulning qadrsizlanishi o`rtasidagi o`zaro bog`liqlik ancha murakkab. Kichik iqtisodiyotda almashuv kursi o`zgarishidan oldin ichki narx darajasi o`zgaradi. Almashuv kursi narxga ikki yo`l bilan ta`sir qiladi. Bu tovarlar importi va inflyatsiya ehtimolining iqtisodiy agentlar tomonidan hisobga olinishi («inflyatsion qutulish»). Lekin almashuv kursi o`zgarishi (devalvatsiya) natijasida ichki narxning ko`tarilishi to`la bo`lmasligi mumkin. Umuman, o`tkazishning to`liq bo`lmasligiga olib keladigan ikki omil mavjud. Bular: a) xorijda talab katta bo`lgan, shunga qaramay mamlakat ichkarisida ishlab chiqarilayotgan va is`temol qilinayotgan hamda xorijiy tovarlar bilan bevosita raqobat qilmayotgan tovarlar. Bunday tovarlarning narxi almashuv kursi oshgandan keyin biroz kechikib ko`tariladi va ichki valyutaning qadrsizlanishi stavkasiga to`la mos kelmaydi; b) xizmat va ishlab chiqarish omillari narxlari ko`p hollarda tashqi narxlarga bevosita bog`liq bo`lmaydi.

Regression tahlilning natijalari valyuta almashuv kursini belgilash siyosatidagi muayyan muammolarni hal etish yo`llarini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Almashuv kursining koeffitsienti, ya`ni almashuv kursi narxga nisbatan o`zgaruvchanligi yuqorida ko`rib chiqilgan barcha modellarda 0,12 dan 0,33 gacha o`zgarib turadi, bu almashuv kursining narxg`navoga ta`siri to`liq emasligini bildiradi. Demak, pulning

qadrsizlanishi sur'atini aniqlashda valyuta birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lmaydi. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekistonda pulning qadrsizlanishini to'xtatish uchun avvalo, pulg' kredit siyosatining boshqa asosiy vositalariga tayanish zarurligini bildiradi. Vaholanki, almashuv kursiga doir siyosatga esa faqat qo'shimcha vosita sifatida qaramoq kerak.

Bu tahlil almashuv kursini erkinlashtirishni avval boshidanoq makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi tadbirlar qatoriga kiritishga hech qanday ehtiyoj yo'q edi, degan fikrni yana bir karra tasdiqlaydi. Ikkinchi tomondan, bu almashuv kursini erkinlashtirishni islohotlarning oxiriga qoldirib bo'lmashligini ko'rsatadi. Ma'lum bosqichdan boshlab xorijiy valyuta yashirin bozorining mavjudligi iqtisodiy o'sishga borgan sari ko'proq salbiy ta'sir ko'rsata boshlaydi. SHu tariqa Markaziy Osiyo davlatlarining valyuta almashuv siyosatini tahlil qilish /arbiy va SHarqiy Evropa mamlakatlarining, shuningdek, Yaponiya va boshqa SHarqiy Osiyo mamlakatlarining ikkinchi jahon urushdan keyingi tajribasidan kelib chiqadigan saboqlarning to'g'riligini tasdiqlaydi. SHuningdek, u valyuta bozorini bosqichmag'bosqich erkinlashtirishga qaratilgan, astag'sekin amalga oshiriladigan chorag'tadbirlar bir tomonlama tub islohotlar kabi xavfli emasligini ko'rsatadi. Bosqichmag'bosqich yondashish mamlakatlarga bozor institutlarining va eng muhimi, odamlarning o'zgarishlarga tayyorligi asosida astag'sekin paydo bo'ladigan muammolarni hal qilish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

- 1) Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: O'zbekiston, 1995. 194 – 217 b.
- 2) Karimov I.A. Biz tanlagan demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. Xalq so'zi. 2003, 25 aprel. № 88.

- 3) Ishmuxamedov A.E., Khalanova M.Z., Raxminova T.YO. Raximova M.R. Bozor munosabatlari sharoitida milliy iqtisodiyotning rivojlanishi. –T.: O`qituvchi 1996.
- 4) Ishmuxamedov A.E, Askarova M.T. O`zbekiston milliy iqtisodiyoti. Maruzhalar matni. g`T.: TDIU, 2003.
- 5) Ishmuxamedov A.E. Asqkarova M.T. O`zbekiston milliy iqtisodiyoti. O`kuv qo`llanma. g`T.: TDIU, 2003.
- 6) Gradov A.P. Natsionhal`naya ekonomika. Kurs lektsiy. g`SPb.: Spetsial`naya literatura, 1997.**
- 7) Abdug`aniev A., Rajabov I. «Biznesg`rejani tuzish bo`yicha uslubiy qo`llanma» T.: TqXMMI, 2001.
- 8) Abdug`aniev A. «Fermerlikni rivojlantirish shartlari» «O`zbekiston qishloq xo`jaligi» jurnali №3, 2003.
- 9) Sultonov A. «Erkin fermerlar tayyorlash manbai» «Hamkor» №19g`20, 2001.
- 10) /oyibnazarov B. «Huquq va imkoniyat. Fermer xo`jaliklari echimini kutayotgan muammolar» «O`zbekiston qishloq xo`jaligi» jurnali №4, 2001.
- 11) SHermatov D. «Fermer xo`jaligi va marketing» «Mulkdor» №21, 2003.
- 12) IOSupov M.S. «O`zbekistonda fermer xo`jaliklarini davlat tomonidan qo`llabg`quvvatlash» «Bozor, pul va kredit» jurnali №1, 2003.
- 13) Berkinov B., Absamatov A. «Dehqon xo`jaliklarining daromadini ko`paytirish yo`nalishlari» «Ekonomika i klass sobstvennikov» №2, 2003.
- 14) IOSupov M.S. «Agrar sohada fermerlarning tutgan o`rni» «O`zbekiston qishloq xo`jaligi» jurnali №8, 2004.
- 15) Fayzieva SH. «Fermerlik istiqboli» «O`zbekiston qishloq xo`jaligi» №8, 2004.
- 16) Husanov R. «Dehqon xo`jaliklari g` farovonlik omili» «Muloqot» №2, 2004.
- 17) Abduraximov K, Boev X. «Bozor iqtisodiyoti sharoitida fermer xo`jaliklari» T.: O`zbekiston ziyolilar uroshmasi, 1992.
- 18) Maxmadiev U.M. «Dexqon (fermer) xo`jaligining iqtisodi va uni tashkil etish» O`quv qo`llanma. g` T.: 1998.
- 19) Usmonov S.N., Dadaboev IO.T. «Dexkansko (fermersko) xozyaystvo» UzNII r`nochn`x reform. g` T.: 1997.
- 20) Xromov IO.S. «Ferma i agrobiznes» M.: Agropromizdat, 1992.**
- 21) «O`zbekiston qishloq xo`jaligi» jurnali, 2000 g` 2003 yillardagi sonlari.**
- 22) Husanov R.H., qosimov M. «Dehqon xo`jaligini roritishning ilmiy va amaliy asoslari» T.: CHo`lpon, 2000.

- 23) CHoriev q., Berkinov B. «Dehqon va fermer xo'jaliklarini tashkil etish va ioritishning xuquqiy g' me'yoriy asoslari», T.: SHarq, 2002.

1) Informatsiong`texnika vositalari.

Internet saytlari:

- 1) www.uv2000.ru
- 2) www.agronews.ru
- 3) www.selhoz.net.ru
- 4) Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti. www.tsue.uz
- 5) University of Hawaii at Hilo g` Agroecology and Environmental Qulaity Program
www.uhh.hawaii.edu
- 6) Moskovskaya sel`skoxozyaystvennaya akademiya www.ecfak.timacad.ru
- 7) www.admin.ru
- 8) www.tstu.ru
- 9) www.deloitte.com
- 10) www.forum.uz
- 11) www.eastview.com
- 12) www.ski.ilm.uz

1

